

D. LUTFULLAYEVA,  
R. DAVLATOVA,  
M. SAPARNIYAZOVA

# HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

(2-QISM)





*32*  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**D. LUTFULLAYEVA, R. DAVLATOVA,  
M. SAPARNIYAZOVA**

## **HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



UO'K: 811.512.133(076.5)

KBK:81.2O'zb-923

Taqrizchilar: *f.f.d., prof. M. Qurbanova*  
*f.f.n., dots. N. Ahmedova*

**L92 Hozirgi o'zbek adabiy tili.** Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar.  
O'quv qo'llanma / D. Lutfullayeva, R. Davlatova, M. Saparniyazova.  
– T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 280 b.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" (amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar) nomli ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yutrlari o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilib, 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining DTS hamda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani dasturi asosida ishlab chiqildi.

O'quv qo'llanmada "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining "Morfemika va so'z yasalishi", "Morfologiya", "Sintaksis" bo'limlari bo'yicha tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar tizimi tavsiya etildi.

O'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Navoiy davlat pedagogika instituti kengashida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

UO'K: 811.512.133(076.5)

KBK:81.2O'zb-923

ISBN 978-9943-13-748-6

© D. Lutfullayeva, R. Davlatova,  
M. Saparniyazova, 2018  
© "Iqtisod-Moliya", 2018

## SO‘ZBOSHI

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan o‘quv rejasiga muvofiq talabalarining mustaqil ishlashlarini tashkil etish, ularni ijodiy fikrlashga o‘qitish hamda izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish rejalashtiriladi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning ma’ruza mashg‘ulotida egallagan nazariy tilmlarini mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish maqsadida o‘tilgan mavzular bo‘yicha mustaqil tarzda tahlillar, tajribalar olib borish masalasiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishning eng ilg‘or usullaridan foydalanib ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan holda tashkil etish ko‘zda tutiladi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotlar avvalo, talabalarning o‘qituvchi hamkorligi va nazoratida olib boradigan o‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qaratiladigan o‘qitish shaklidir. Amaliy mashg‘ulotda bajariladigan ishlarning o‘qituvchi nazoratida amalga oshirilishi mavzuga doir ilmiy xulosalarning talabalar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotda mavzu bo‘yicha bajarilishi ko‘zda tutilgan amaliy ishlar nazariy masalani mustaqil tahlil qilishga qaratiladi. Shu sababli har bir amaliy mashg‘ulotda talaba izlanish olib borishi, misollarni qiyoslashi, tahlil qilishi, til qonuniyatlarni ishlab chiqishi, xulosalar chiqarishi va o‘z fikrini to‘liq bayon etu olishi lozim bo‘ladi.

O‘quv qo‘llanmada amaliy ishlar mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda belgiland va quyidagi shakllarda tavsiya etildi:

1. Jamoa bo‘lib ishlashga qaratilgan amaliy ishlar.
2. Yonka tartibda ishlashga qaratilgan amaliy ishlar.

Amaliy ishlarni bajarishdan avval mavzuga doir nazariy bilimlar yodga olinishi lozim. Shu maqsadda o‘quv qo‘llanmada har bir amaliy mashg‘ulot dastlab o‘tilgan mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar tahlilini o‘tkazishga qaratilgan topshiriq bilan boshlanadi.

O‘quv qo‘llanmada nazariy mavzu bo‘yicha turli hajmdagi rang-borang amaliy topshiriqlar berildi. Jumladan, mavzu mohiyatidan kelib

chiqqan holda o‘quv qo‘llanmada til birliklarini lingvistik tahlil qilish, faktik materiallarni qiyoslash asosida umumlashma xulosalar chiqarish, turli jadvallar bilan ishlash, matnni lingvistik tahlil qilish, ilmiy manbalar ustida ishlash va ularga munosabat bildirish, ilmiy shartlar yozish kabi turli topshiriqlar ishlab chiqildi. O‘qituvchi ulardan ma’qulini (talabalarning bilim darajasi, belgilangan vaqt kabilar asosida) ixtiyoriy tanlab, mashg‘ulotni tashkil etishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, umumta’lim maktablari uchun yaratilgan “Ona tili” hamda akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridan o‘rin olgan ayrim mashqlar berilib, ular ustida ishlash ham tavsiya etildi.

O‘quv qo‘llanmadan talabalarga uyga vazifa sifatida beriladigan amaliy topshiriqlar ham o‘rin oldi. Bunday topshiriqlar ham talabalarni mustaqil tadqiq o‘tkazish hamda umumlashma xulosalar chiqarishga undaydi.

O‘quv qo‘llanma shu fanning “Morfemika va so‘z yasalishi”, “Morfologiya”, “Sintaksis” bo‘limlarini to‘liq qamrab olgan bo‘lib, fanning mazkur bo‘limi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o‘qituvchilar tomonidan tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani dasturi asosida ishlab chiqildi hamda 5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiqlashtirildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tuzishda o‘zbek tilshunosligida shu kunga qadar erishilgan ilmiy natijalar hamda eng so‘nggi nazariy xulosalar e’tiborga olindi.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining “Morfemika va so‘z yasalishi”, “Morfologiya”, “Sintaksis” bo‘limlari bo‘yicha tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlarini o‘tishda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

## MORFEMIKA

### So‘zning morfem tarkibi



1-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchi tomonidan berilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo‘shimcha ma’lumotlar
Morfemika		
Morfema		
So‘z morfema		
(qiz) morfema		
So‘z yasovchi qo‘shimchalar		
Shakl yasovchi qo‘shimchalar		
Kategorial shakl yasovchi qo‘shimchalar		
Nokategorial shakl yasovchi qo‘shimchalar		

2-umally ish. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyida keltirilgan jadval nisosida morfemalarga ajrating.

*Jazlramada qizigan asfalt yo‘l bo‘ylab yetib kelgan taksi Adir ko‘cha bashida to‘xtadi. Undan tushgan ko‘zi ojiz er va xotin taksi haydovchisi bilan iliq xayrlashdilar. Mashina ortga burilib jo‘nab ketgach, ular ohista otmilab Adir ko‘cha tomon yurdilar. Ko‘zlari ojizligini aytmasangiz, bu insonlar Farhod va Shirindek go‘zal juftlik edilar. Qo‘ltiqlashgan er-u xotin, hamisoli bir vujud kabi harakatlanardilar.*

(Nurillo Abbosxon)

## Namuna:

Morfema	So‘z morfema	Affiks morfema		
		So‘z yasovchi	Kategorial shakl yasovchi	Nokategorial shakl yasovchi
Ishlaganlarga	Ish	-la	-lar, -ga	-gan



3-amaliy ish. “Keys-stady” metodi asosida o‘zbek tilshunosligida morfemaga berilgan turli qarashlarni tahlil qiling va o‘z munosabatingizni bildiring.

**Keys mavzusi: Morfema bo‘yicha tilshunoslikdagi turli qarashlar xususida.**

### SAVOLLAR:


- “So‘zning o‘zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo‘llanmaydi va ma’no anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfema* deyiladi”. (Sayfullayeva R., va b. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – Toshkent, 2009. 140-b.) Bu qarashni ma’qullaysizmi?
- “Morfema tilning eng kichik, bo‘laklarga bo‘linmaydigan ma’noli qismi”. (Мирзакулов Т.У. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент. 1994. 54-б.) Bu fikrga qo‘shilasizmi?
- «Morfema so‘z yasash yoki so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik» (Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. 40-б.) Bu qarashni to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi?
- “Morfemalar biri ikkinchisi bilan bog‘liq bo‘ladi, biri ikkinchisidan ajratilganda morfemalik xususiyatini ana shu o‘rinda yo‘qotgan bo‘ladi”. (Ё.Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992. 10-б.) Bu qarashni qanchalik to‘g‘ri deb o‘ylaysiz?
- «...Morfemalar bir-biri bilan birikkan holda mavjud bo‘lmaydi va bir-biridan ajratilganda yo‘q bo‘lmaydi ham». (Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. 26-б.) Bu fikrga qo‘shilasizmi?
- Morfemaga berilgan eng to‘g‘ri tavsifni belgilash uchun qanday yechim taklif qilasiz?

## **Keysoni bajarish uchun tavsiya:**

Keyda o'rtaqa tashlangan muammoni yechish uchun dastlab talabalar kichik guruhlarga ajratiladi. So'ogra talabalarning berilgan savollarga javoblari kichik guruhlarda muhokama qilinadi va yagona yechim asosida qo'yilgan muammoga aniqlik kiritiladi.

**4-umally Ish.** Nokategorial shakl yasovchi vositalarni ajrating hamda ularga tavsif bering: *-chi, -gina, -kor, -ser, -mi, -dan, -lar, -iy, -choq, -ni, -mira, -soz, -gan, -ish, -niki*.

**5-umally ish.** “Venn” diagrammasi orqali so‘z va affiks morfemalarning umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga so‘z va affiks morfemalarning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.



**6-umally Ish.** Quyida berilgan so‘z yasovchi qo‘srimchalalar bilan yosaluvchi so‘zlar paradigmasini hosil qiling. Yasama so‘zlar miqdoriga qarab qo‘srimchalarni unumli, kamunum va unumsiz qo‘srimchalarga ajrating.

*t, -kor, -dak, -dor, -no, -in, -li, -ma, -q, -chil, -shunos, -la, -kash, -qin, -ul,*

**7-umally Ish.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birliklarning asos va affiks qismlarini belgilang. Nutqda so‘z va affiks morfemalarning takrorlanishi miqdori to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

## Aql va mansab

*Aql bilan mansabga erishish mumkin. Mansab bilan aqlga erishib bo‘lmaydi.*

*Yeb to‘ymagan – yalab to‘ymas. Qadim zamonda ko‘zi ojiz odam bo‘lgan ekan. Albatta, ko‘zi ojizlik ayb emas... Xullas, o‘sha odam tirikchiligi tang ahvolda qolgach o‘ziga o‘xshash so‘qir bir tilanchiga shogird tushibdi. Gadoylik hunarining sirini o‘rgatishni so‘rabdi.*

– Bu hunarning uchta qoidasi bor, – debdi ustoz. – *Qayerda bo‘lsa ham, qancha bo‘lsa ham, kimdan bo‘lsa ham olaverasan!*

*Oradan ko‘p yillar o‘tibdi. Ustoz tilanchi hammomning issiq xonasida mudrab o‘tirsa, yonbosh tomondan ovoz kepti:*

– *Xayr qili-i-ing!*

– *Esing joyidami? – debdi ustoz tilanchi. – Hammomda ham sadaqa so‘raydimi?*

– *Qayerda bo‘lsa ham! – debdi boyagi ovoz.*

*Ustoz tilanchining achchig‘i chiqibdi.*

– *Qanaqa betamizsan, yalang‘och odamda pul nima qilsin?*

– *Qancha bo‘lsa ham!*

*Ustoz tilanchi shogirdining ovozidan tanib qolibdi.*

– *Hoy, badbaxt! Kelib-kelib o‘z ustozingni ham shilasanmi?*

– *Kimdan bo‘lsa ham! – debdi shogird tilanchi...*

*Albatta, poraxo ‘r tilanchi emas. Poraxo ‘r avvaliga o‘zini tiyib yuradi. “Insof” bilan oladi. Ammo bora-bora qayerda bo‘lsa ham, qancha bo‘lsa ham, kimdan bo‘lsa ham olishga o‘rganadi. Va... oxiri hammomga yalang‘och kiradi... tag‘in kim bilsin... Qarib-churuguncha umrguzaronlik qiladiganlari ham oz emas shekilli.*

(O‘.Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)



**8-amaliy ish.** Bilimingizni berilgan muvofiqlashtiruvchi nostandard test orqali sinab ko‘ring. 4-ustundagi izohlar qaysi tushunchalar izohi ekanligini raqamlar orqali belgilang.

1	2 Tushunchalar	3	4 Izohi
1.	Suffixs		So‘zning lug‘aviy ma’no anglatuvchi asosiy qismi
2.	Morfema		So‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot

3.	<i>So'zning morfemik tarkibi</i>	Asosga qo'shilib, uning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq holda turli ma'nolarni hosil qiladi
4.	<i>So'z morfema</i>	So'zni tashkil etuvchi morfemalar yig'indisi
5.	<i>Affiks morfema</i>	So'zning eng kichik ma'noli qismi
6.	<i>Morfemika</i>	Asos oldidan qo'shiluvchi qo'shimchalar
7.	<i>Prefiks</i>	Asosdan keyin qo'shiluvchi qo'shimchalar



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining "Morfemika" bo'limida qanday masalalar o'r ganiladi?
2. Morfemikaning boshqa til bo'limlari bilan aloqasi nimalarda ko'rinadi?
3. So'zning morfem strukturasi haqida ma'lumot bering.
4. Morfemalar ma'no va vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Affiks morfemalar ma'no va vazifasiga ko'ra qanday tasniflanadi?
6. Kategorial va nokategorial shakl yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot bering.
7. "O'zbek tilining morfem lug'ati" kitobining muallifi kim va unda morfemalar qaysi jihatdan tasniflangan?



### UYGA VAZIFA

✓ Ilmiy manbalar asosida XIX asr o'zbek tilshunosligida morfem birliklar tufqiqi yuzasidan erishilgan yutuqlarni umumlashtiring.

✓ "O'zbek tili morfemikasi" qo'llanmasidagi (Ё.Тожиев. Узбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992) *so'z*, *o'zak*, *morfema* terminlari bo'yicha bildirilgan nazariy qarashlar bilan tanishing va ularga munosabat bildiring.

✓ Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan "Ona tili" hamda akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklaridagi morfemikaga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishing va "Morfem birliklar" mavzusida ilmiy axborot yozing.

### Morfemalarning turlari



**1-amaliy ish.** "Tushunchalar tahlili" metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz bergan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo'shimcha ma'lumotlar
Omonim affikslar		
Sinonim affikslar		
Antonim affikslar		
Morfologik qayta bo'linish	•	
Soddalashish		
Diaxron asos		
Affiksal pleonazm		
Affiksal polisemiya		

**2-amaliy ish.** Berilgan matnda qo'llangan affiks morfemalarga tavsif bering. Qo'shimchalarning asosga qo'shilish tartibiga diqqat qiling.

*Adabiyot nihoyatda murakkab bir ijodiy jarayondir. U tinimsiz mehnat, tajriba, izlanish, soatlarcha xayol surish, odamlar ichiga borish, o'ylash, manbalarni izlash, o'qish, hayajon va ba'zan nihoyatda bosiqlik bilan yozish, qayta ko'chirish, tahlil, imloni to'g'rilash va yana yozish, qidirish demakdir. Adabiyotimizning katta avlodi go'yo qora ish deb atalgan mehnatdan hech qachon qochishgan emas. Oqsoqollarga hurmat, yoshlarga mehribonlik haqiqiy yozuvchilarga xos fazilatlardan biridir.*

(Mirmuhsin)



**3-amaliy ish.** KEYS: "Muammoli vaziyat" jadvali. Morfemaning turlari bo'yicha mavjud nazariy qarashlarni solishtiring.

**Keys mavzusi:** Morfemaning ifoda jihatiga ko‘ra turlari: *o‘zak morfema* va *affiks morfema*; *so‘z morfema* va *affiks morfema*, *yetakchi* va *ko‘makchi morfema* yoki *affiks, affiksoid, leksik tabiatli morfemami*?

<p>A.Nurmonov, A. Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (<i>Akademik Itseylar va kasb-hunar kollejlarining I bosqich talabalari uchun darslik</i>). – Toshkent, 2010. 116-120-b.</p> <p><b>Yetakchi morfema (asos)</b> va <b>ko‘makchi morfemalar</b> (qo‘sishchalar).</p> <p>“So‘zning tub ma’noli qismiga <b>asos</b> deyiladi. Asonda qo‘sishchalar so‘zning natijasida turli xil ma’nolar yuzaga chiqariladi.”</p> <p>“Yanovchi qismni tashkil etgan morfemalar so‘z yanovchi morfemalar deyildi”.</p> <p>“Yetakchi morfema-larga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilinadigan, so‘zning turli xil shunkilarini vujudga kelitindigan morfemalar shundan yusovchi morfemalar deyiladi...”</p>	<p>Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006. 108-109-b.</p> <p>“Morfemalarni tabiatiga ko‘ra <b>affiks, affiksoid, leksik tabiatli morfema</b> deb uch turga ajratish mumkin.</p> <p>“Affiks – biror qismga, jumladan leksemaga zinch qo‘sib ishlataladigan morfema...”</p> <p>“Affiksoid deb asli leksik birlik bo‘lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘silib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan birlikka aytildi...”</p> <p>“Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek, affiksoid-dan ham) keskin farq qiladi: o‘zi taalluqli leksemaga zinch qo‘silmaydi, balki ayrimligi saqlanadi... Bunday morfema deb, masalan, ot turkumi doirasida <i>bilan</i>, <i>uchun</i> kabi ko‘makchilarga, sifat va ravish turkumlari doirasida <i>eng</i>, <i>juda</i> kabi kuchaytiruv birliklariga, fe'l turkumi doirasida <i>-ber-</i>, <i>-ol-</i>, <i>-bo'l-</i> kabi ko‘makchi fe'llarga aytildi”.</p>	<p>Хожиев А. Узбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари.</p> <p>– Тошкент: Фан, 2010. 42-б.</p> <p>“O‘zbek tilidagi morfemalar, asosan, so‘zga qo‘sib yoziladi, ya’ni affiks (qo‘sishcha) ko‘rinishda bo‘ladi.</p> <p>Shu bilan birga ifoda jihatiga ko‘ra so‘z ko‘rinishida bo‘lgan, lekin ma’no va vazifasiga ko‘ra morfema hisoblash mumkin bo‘lgan birliklar ham bor. Shunga ko‘ra morfemalarni <b>affiks morfemalar</b> va <b>so‘z morfemalar</b> kabi ikki turga bo‘lish mumkin”.</p>
---	---	---


**4-amaliy ish.** Berilgan qo'shimchalarni namunada ko'rsatilgani kabi jadvalga joylashtiring: *-cha*, *-ma*, *-li*, *-i(m)*, *-i(n)*, *-ser*, *-ba*, *-be*, *-kor*, *-la*, *-lik*, *-chi*, *-lar*, *-iy*, *-choq*, *-ni*, *-imsira*, *-soz*, *-gan*, *-ish*, *-chan*.

### Namuna:

Affiks morfema	Affiks morfema			
So'z yasovchi	Kategorial shakl yasovchi	Nokategorial shakl yasovchi	Shakl va ma'no munosabati	
-cha	+	-	+	Omonim: kichraytirish shakli ( <i>qizcha</i> ) – ravish yasovchi ( <i>erkakcha</i> )



**5-amaliy ish.** “Venn” diagrammasi orqali omonim va polisemantik affikslarning umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga omonim va polisemantik affikslarning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.



**6-amaliy ish.** Matnda qo'llangan affiks morfemalarni belgilang. Ulardagi polisemantik, omonimik, sinonimik va antonimik xususiyatlarni aniqlang.

*Qadimgi Yunonistonning eng buyuk faylasufi Arastu o'limiga yaqin o'g'lini chaqirib shunday debdi:*

– Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo'lish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'zimga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o'g'lim, mol-davlat orqasidan orttirilgan izzat-obro'da baqo yo'q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm, orqasidan qo'lga kiritgan shon-

*sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o'zgarishi unga ta'sir qilmaydi. O'g'lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug'lashdi, bo'lmasa, otang ham ular qaramog'idagi bir odam edi. Shohlar tobelligidagi odamlar shohlarga ta'zim qilishadi va sig'inishadi. Obidalar va ma'budalar orasida yer bilan osmoncha farq bor. Otangning ilmi bo'lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklangan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig'inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g'ulom bo'lar edi, xolos. Izzat-ehtiromga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm orttir!*

(“Ibratli rivoyatlar”dan)

**7-amaliy ish.** Berilgan qo'shimchalar yordamida shakldoshlikni hosil qiling: -ch, -m, -uq, -gi, -ng, -i, -sh, -xon, -chak, -ma, -siz, -lik, -oq, -don, -qin, -dor, -ik, -chan, -ar, -(a)y, -in, -k, -chi, -lab, -a.



#### Namuna:

*tin-ch* (sifat yasovchi) – *quvon-ch* (ot yasovchi) – so'z yasovchi qo'shimchalar omonimiysi;

*ota-m* (egalik shakli) – *ko'rди-m* (shaxs-son shakli) – shakl yasovchi qo'shimchalar omonimiysi.



**8-amaliy ish.** Bir asosli so'zlar yordamida slayd kataklarini to'ldiring.



**9-amaliy ish.** Nuqtalar o'miga mos so'zlar qo'yib, gaplar tuzing. Qo'shimchalarning grammatik ma'nolariga izoh bering.

1. ...-dan ...-lar ...-ib ...-ishdi. 2. ...-ni ...-ish ...-dan. 3. ...-ni ...-moq ...-dan ...-di? 4. ...-im, ...-ning ...-ni ...-ga ...-dim. 5. ...-chi ...-im ...-dan ...-di. 6. ...-ga ...-ni ...-dan ...-ib ...-dim.



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. So 'z morfema deb qanday morfemaga aytildi?
2. Qanday morfemalar *affiks morfemalar* sanaladi?
3. Affikslar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Omonim va polisemantik affikslarning umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering.
5. Affikslardagi antonimiya hodisasini izohlang.
6. Affikslarda sinonimiya qanday vaziyatda yuzaga keladi?
7. Nutqda so'zning morfem strukturasida qanday o'zgarishlar yuz beradi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ *O'zakdosh so'zlar, qarindosh so'zlar* (Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009. 13-b.), *asosdosh so'zlar* (A.Nurmonov, A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent, 2010. 134-b.) terminlariga berilgan tavsiflar bilan tanishing va ular haqida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Ilmiy manbalar assosida *fuziya, fleksiya* terminlariga izoh yozing. Ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlang.
- ✓ Umumiy o'rta ta'lilda o'qitilayotgan "Ona tili" va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalda bo'lgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"

dardiklarida ko'makchi morfemaga berilgan ma'lumotlarni o'rganining va munosabat bildiring.

## So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlar



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tuyanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingga orqali bilib olgan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo'shimcha ma'lumotlar
Soddalashish		
Morfologik qayta bo'linish		
Morfonologiya		
Tarixiy morfema		
So'zning morfem tarkibi		
Fonetik o'zgarish		

**2-namally ish.** Berilgan matndan morfem o'zgarishga uchragan o'zlarini topib, tahlil qiling, qanday o'zgarishlar yuz berganligini izohlang.

*Akbara ov tamayida o'ynoqlab, irg'ishlab o'ziga osilavergan bo'rivachchalardan bezor bo'lganda boshqa joyga sakrab o'tardi. Chiyarlarning kumush ukparlari oralab xuddi urchiydigan payti daryodan yuqorida qarab suzgan baliqlarday hammasi bir tomoniga qarab borayotgan kiyiklardan ko'zlarini uzmay qarab turdi. Kiyiklarni bir-birluridan sira ajratib bo'lmasdi. Akbaraning nigohidan mayli, hozir o'taveringlar, yashagancha yashab qolinglar, lekin vaqtি-soati keladiki, sahroda nimaiki bo'lsa, yana sahroning o'ziga qaytadi, undan aslo qochib qutulolmaydi, degan ma'noni uqish mumkin edi.*

(Ch.Aytmatov)

**3-namally ish.** Affikslarning pleonastik qo'llanishiga misollar keltiring. Ularni namunada ko'rsatilganidek izohlang.

**Namuna:** *kickinagina* – *kichik + gina + gina*; affiksal pleonazm – bir so‘zda bir xil affiksning birdan ortiq qo‘llanishi hodisasi yuz bergen.

**4-amaliy ish.** Quyida keltirilgan xalq maqollarida tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarни aniqlang va ularga izoh bering.

1. *Mehnat etsang erinmay*, *To‘yar qorning tilanmay*. 2. *Qora ko‘nglim* – *yara ko‘nglim*. 3. *Boboning tol ekkani* – *o‘ziga nom ekkani*. 4. *So‘z kishining o‘zagi*, *Odob kishining bezagi*. 5. *Yaxshi bola* – *suyuk*, *Yomon bola* – *kuyuk*. 6. *Gulchi bir gulni o‘stirguncha*, *Yuz tikan zahrini tortadi*. 7. *Sabr qilgan moy oshar*, *Olgish olgan ko‘p yashar*. 8. *To‘g‘ri so‘zning to‘qmog‘i bor*.

**5-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 142-b. 1-k.) berilgan 208-mashqni bajaring.

**208-mashq.** Gaplarni o‘qiling. Qo‘srimchalar tarkibida sodir bo‘layotgan tovush o‘zgarishlarini belgilang.

1. *Inson o‘z umrining hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi*.  
2. *Jo‘jani kuzda sanaydilar*. 3. *Gulla, yashna, mustaqil O‘zbekiston!*  
4. *Respublikamiz iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining eng qiyin bosqichlarini ortda qoldirib, bugungi kunda yangicha takomil bosqichiga chiqib oldi*.  
5. *Mamlakatimizda mana bir necha yildirki, saylovlar muqobililik asosida o‘tkazilmoqda*. 6. *Salimjon qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi*. 7. *Davr qiyonoqlari o‘tkinchi – hali hamma narsa oldinda...* 8. *Kuz kelishi bilan daraxtlarning barglari sarg‘ayib, oltin rangini ola boshladi*. 9. *Radiodan o‘ynoqi musiqa yangradi*.



**Bilimingizni tekshirib ko‘ring!**

Mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko‘ring.

1. Affiksal pleonazm qanday hodisa?
2. So‘zning morfem tarkibida qanday o‘zgarishlar yuz beradi?

3. Morfologik qayta bo‘linish deganda nimani tushunasiz?
4. So‘zlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
5. Affiks morfemalar qanday vazifa bajaradi?
6. Qanday affikslar *kategorial* va *nokategorial affikslar* sanaladi?
8. O‘zbek tilida affikslarning asos qismga birikish tartibi qanday?



## UYGA VAZIFA

- ✓ Ilmiy manbalar asosida (R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 132-b.) so‘zning morfem tarkibida kuzatiluvchi *tublashish*, *yaxlitlanish*, *soddalashish*, *birlashish* hodisalariga tivall bering.
- ✓ Umumta’lim maktablari uchun yaratilgan “Ona tili” hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida tovush o‘zgarishlari bo‘yicha berilgan ma’lumotlarni o‘qib o‘rganing va munosabat bildiring.

# SO‘Z YASALISHI

## So‘z yasalish tarkibi



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchningizdan bilib olgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotiar
<i>Derivatsiya</i>		
<i>Sinxron so‘z yasalishi</i>		
<i>Diaxron so‘z yasalishi</i>		
<i>Qo‘shma so‘z</i>		
<i>Affiksatsiya usuli</i>		
<i>Kompozitsiya usuli</i>		
<i>Fonetik usul</i>		
<i>Semantik usul</i>		

**2-amaliy ish.** Berilgan matndan yasama so‘zlarni topib tahlil qiling, qaysi so‘z turkumidan qanday so‘z yasalayotganligiga e’tibor qarating.

Bizning uydan tor ko‘cha bo‘ylab yuz qadamcha yurilsa, tosh terilgan katta ko‘chaga – “Oq Machit” mahallasiga chiqiladi. Bu yerda uchta do‘kon bor: biri qassoblik, ikkinchisi baqqollik. Musa baqqolning do‘konini ko‘zimga har vaqt quruq ko‘rinadi. U faqat sabzi, piyozi, un, kerosin sotadi. Ammo muloyim, shirinso‘z, sersoqol keksa Sobir baqqolda esa shoda-shoda osilgan, pashshalardan qoraygan teshikkulcha, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib, to toshko‘mir, quruq beda, “makkayisano”gacha – har narsa topiladi.


Biz shu do‘konga boramiz. Sobir baqqol ohangdor mayin ovoz bilan: “Barakalla, azamatcha, buvalari to‘ylarini ko‘rsin”, deb meni erkalab qo‘yadi.

Bobom qalashib yotgan handalaklardan bitta kichkinasini oladi-da, hidlab qo‘limga tutqizadi, keyin bahosini so‘raydi. Baqqol bir nima deydi. Bobom o‘sinq qoshlarini chimirib, bir qaraydi-da, uzun, keng surp

*ko'ylagining cho'ntagidan bir necha chaqa chiqaradi, har birini ko'zga yaqin tutib, obdan tikilib, baqqolning oldiga tashlaydi. Baqqol boshini chayqaydi.*

(Oybek)

**3-amally ish.** “Bulutlar” orasiga yashiringan so‘zlar ichida bittasi ortiqcha. Ortiqcha so‘zni toping va yasalish usuliga izoh bering.



**4-amally ish.** Berilgan modellarga mos so‘zlar yasang. Qaysi usul asosida so‘z yasalganligiga diqqat qiling.

#### 1-varlant.

[ot + ot], [ot + -sira], [taqlid so‘z + -illa], [sifat + ot], [fe'l + -im], [ot + -i'l], [sifat + -lik]

#### 2-varlant.

[son + ot], [fe'l + -iq], [son + ot], [no- + ot], [fe'l + -ma], [fe'l + mon], [fe'l + fe'l]

#### 3-varlant.

[sifat + -chan], [be - + ot], [ravish + ot], [ot + -don], [ot + fe'l], [ot + -or], [ot + fe'l], [ot + -iy]



**5-amaliy ish.** “T – jadval” asosida berilgan so‘zlarning yozalish va morfem strukturasini tahlil qiling.

*Terimchilar, andishali, yaxshilikni, o'rnatiladigan, vatanparvarlik, motinchilik, yo'liqmang, bilimdon, serquyosh, yig'lamaysanmi, tinimsiz, avvoqchilik.*

## Namuna:

so‘z yasalish strukturasi	morfemik struktura
terim+chi	ter + im + chi + lar

**6-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 114-b. 1-k.) berilgan 164-mashqni bajaring.

**164-mashq.** Matnni o‘qing. Qo‘srimchalarga e’tibor bering. So‘z yasovchi qo‘srimchalarni daftaringizga ko‘chirib oling.

*Turkiston Muxtoriyati... Temur xoqonining chin bolalari yoninda, turkistonli tubchak turklari orasinda, mundan o‘g‘urli, mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so‘zni borlig‘iga ishonmayman!*

*Turkiston turkining qonini qaynatuchi, imonini yuksaltguchi bir quvvat bor esa, yolg‘iz shu so‘zda bordir: Turkiston Muxtoriyati!*

*Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, sharafimiz yumurildi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo‘ldi, insonlig‘imiz oyoqlar ostiga olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik.*


*Kuchga tayangan har buyruqqa bo‘yinsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashuntirdik, emgaklarimizg‘a o‘rab saqladuk: Turkiston Muxtoriyati!*

*Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytg‘anda, yorug‘siz turmalarda yotg‘anda, yirtg‘uvchi jandarmning tepgusi bilan yiqilg‘anda, yurtlarimiz yondurulg‘anda, dindoshlarimiz osulg‘anda ongimiz yo‘qoldi, miyamiz buzuldi, ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi, biror narsani ko‘rolmadik. Shul chog‘da ruhimizni ko‘tarmak uchun shul qop-qorong‘u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o‘tmas ko‘zimiz shuni ko‘rar edi. Ul nima edi? TURKISTON MUXTORIYATI !*


(A.Fitrat)

**7-amally ish.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan yasama so'zlar tarkibidagi qo'shimchalarini tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab qo'shimchalar jumuhiga ujratib, slayd kataklarini to'ldiring.

1. *Buvimlarga yordamlashish umidida ko'pchilikka qarshi chiqishga maybur edim* (So'zl.) 2. *Mosh rang duxoba do'ppili to'qqiz-o'n yashar bola bolalarning eng kattasi edi* (So'zl.) 3. *O, uning bu ochko'zligini bir uni kechira olmaydi* (T.Malik). 4. *Aka-ukaning o'rtasiga tushmoq o'rinsiz ekamligini, ularni besaranjom qilishim mumkinligini angladim* (Sh.Bo'tayev). 5. *Urush yillari ro'zg'or tanqisligi uni qiynagan paytlarda ham bularni asradi* (S.Zunnunova). 6. *Yigitning mehribonchiligi qizga yoqsa-da, qalbida allaqanday g'ashlik uyg'otardi* (So'zl.) 7. *Rozilik berxang, shu ishning shundoq bo'lganini hamqishloqlarga bildirib qo'sak-da, pishiqlikka borib to'y bo'lmasa ham to'ychiq qilib tinchitib qo'sak* (S.Ahmad).



**8-amaliy ish.** Rasmi li nostandard test javobini toping. Suratlardagi tilshunos olimlarning kimligi va yozgan asarlarini aniqlang. Surat ostiga mos javoblarni raqamlar orqali belgilang. Tilshunos olimlarning qaysi biri "So'z yasalishi" masalasini o'rganib, uni alohida bo'lim sifatida ujratganini aniqlang.



**9-amaliy ish.** “Tasdiq-inkor testi” orqali mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni sinang. Qayd etilgan xulosalarni ma'qullasangiz, javoblar varaqasiga “**Ha**”, inkor etsangiz “**Yo'q**” javobini yozing.

Fikr	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob	<i>Ha</i>											

1. Bir turkumdan boshqa turkumga oid so'z yasash hodisasi tilda leksikaning boyish manbalaridan biri hisoblanadi.
2. Ma'lum turkumga oid so'zdan affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari yordamida boshqa turkumga oid yangi so'z yasalmaydi.
3. Ma'lum turkumga oid so'zdan affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari yordamida shu turkumning o'ziga oid yangi so'z yasaladi.
4. Fe'l turkumiga oid so'zlardan affiksatsiya usulida shu turkumning o'ziga oid so'zlar yasaladi.
5. Yangi so'z yasalishi faqat ot, sifat, fe'l, ravish turkumlariga xos. O'zbek tilida son, olmosh, taqlid so'zlar yasalmaydi.
6. Fe'l turkumiga oid so'zlardan kompozitsiya usulida shu turkumning o'ziga oid so'zlar yasaladi.
7. So'z yasalishining bir turida yangi so'z affiksatsiya usulida ham, kompozitsiya usulida ham yasalmaydi.

8. Abbrevatsiya usulida ba'zan sifat turkumiga oid so'zlar ham hosil qilinadi.

9. *-chan*, *-chi*, *-ag'on*, *-kin* qo'shimchalari unumli so'z yasovchi qo'shimchalardir.

10. Qo'shma so'zning qismlari orasida grammatik aloqa bo'ladi.

11. O'zbek tilida *-xo'r*, *-kor*, *-soz*, *-navis* ot yasovchi qo'shimchalar anuladi.

12. O'zbek tilida *-sira*, *-ira* yasovchilarining sifat va ravishlarga qo'shilishidan fe'l yasaladi.



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring!

1. O'zbek tilshunosligida qaysi olimlar so'z yasalishi masalasini tadqiq etishgan?

2. *Sinxron* va *dioxron* so'z yasalishi deganda nimani tushunasiz?

3. Konversiya qanday hodisa?

4. So'z yasalish tarkibi nima? U morfemik tarkibdan qanday turqlanadi?

5. O'zbek tilida qanday so'z yasash usullari mavjud?

6. *Okkazional* so'z yasalishi deganda nimani tushunasiz?

7. *Etimologiya* tilshunoslikning qanday sohasi? Uning so'z yasalishi bilan qanday aloqasi bor?



### UYGA VAZIFA

✓ Akademik A.Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi tizimi" qo'llanmasi (- Toshkent: O'qituvchi, 2007. 6-16-b.)da so'z yasalishining kompozitsiya usuli haqida berilgan qarashlarni tahlil qiling va munosabat bildiring.

- ✓ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5-jildi ilovasida berilgan so‘z yasovchi qo‘sishimchalarning izohini o‘rganing.
- ✓ T.Malik asarlarida qo‘llangan yasama so‘zlarni to‘plang va berilgan jadvalga muvofiq tasniflang.

Semantik usul	Affiksatsiya usuli	Kompozitsiya usuli
yupqa	gulzor	tokqaychi

- ✓ Umumta’lim maktablari uchun yaratilgan “Ona tili” hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridagi so‘z yasalishiga oid ma‘lumotlarni o‘qib o‘rganing.

### So‘z turkumlarida so‘z yasalishi Ot yasalishi

**1-amaliy ish.** Berilgan matndan yasama otlarni topib, tahlil qiling. Yasama otlarning qaysi so‘z turkumidan yasalganligiga e’tibor qarating.

*Keng-mo‘lgina hovli. Uch tomon imoratning o‘rtasi baland ishkom. Ishkomdan naryog‘i quyuq daraxtzor bog‘. Saratonning oxirlari. Sahar chog‘i.*

*O‘ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxonasi, ombor, somonxona-yu sayisxonalar tarafdan tosh terilgan yo‘lka bo‘ylab oltmis besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda.*

*Yelkasida uzun oq yaktak, qo‘lida mis obdasta – xilvatda tahorat olib qaytmoqda.*

*U qo‘lidagi obdastani ishkom ostidagi supa chetiga qo‘yib, sement zinapoyadan to‘rdagi uyga kirib ketadi. Ichkaridan namoz o‘qiyotgani eshitiladi.*

*Endi o‘sha kishini supa labida cho‘nqayib o‘tirgan holatda ko‘ramiz. Supa poyida tik turgan xotini Musallam opa obdastani baland ko‘tarib, ohista jildiratib suv quymoqda. Suv tomchilagandek imillab tushadi.*

*Er ana shu suvgaga tikilib allanimalarni pichirlaydi – kecha ko‘rgan tushini so‘zlamoqda. U pichirlayotir, lekin biz eshitamiz:*

– Tavba... Ajab tush! Yigitlik davrim emish. Mana shu supada xuddi mana shu taxlit cho‘nqayib o‘tirgan emishman. Tepamda otam, norozi, tanbeh berayotganmish: “Tutni nimaga kesding, beso‘roq? Sen-u meni

*to'ydirib, kiydirib turgan daraxt shu edi-ku! Bolaligingda o'zing shoxmashtox tirmashib tut terib yurarding... He, noinsof!" Rahmatli nimadan norozi ekan, qiziq...*

(E.A'zam)

**2-amaliy ish.** Yasama otlarni sinxron va diaxron so'z yasalishi nuqtayi nazaridan guruhlarga ajrating va izohlang.

*Zamondosh, qarindosh, qishloq, toshloq, sholcha, bog'cha, qoldiq, po'stloq, ovloq, rasmiyatichilik, ko'pchilik, ichak, abadiyat.*

**3-amaliy ish.** Berilgan so'zlar qatoridan yasama otlarni topib, yasalish usulini jadvalda ko'rsating.

Yosumma ot	Affiksatsiya usuli (yasalish modeli)			Kompozitsiya usuli (yasalish modeli)
	Otdan ot yasalishi	Sifat va ravishdan ot yasalishi	Fe'ldan ot yasalishi	

*Bo'lak, elak, tilshunos, kesak, objuvoz, tomizg'i, tirikchilik, qaytariq, guldon, etikdo'z, tashabbuskor, hamohang, shodiyona, bosqich, izquvar, mashinasozlik, xalqparvar, o'rribosar, mahsuldor, puldor, tugma, jimjima, suhbatdosh, masxaraboz, va'daboz, odamshavanda, hunarmand, kasalmand, oqsoqol, supurgi, kuzgi, toshbaqa, kelinchak, kuyunchak, zargar, jilvagar, ko'rshapalak, olcha, ichak, arzonchilik, to'g'rilik.*

**4-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 1-k.) darsligidagi so'z yasalishiga doir ma'lumotlarni tahlil qiling va darslikdagi 204- mashqni bajaring.

**204-mashq.** So'zlarni qo'shish orqali yasalgan leksik birliklarni aniqlang, ularga tavsif bering.

*Ammamning eri mo'ynado 'z – kosib. Bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshash to's-to' polon emas – yig'inchoqli, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxonasi. Unda dunyodagi hamma narsa bor.*

Ovga kirishadigan sohibchangal qushlardan: qarchig‘ay, miqqiy, qirg‘iy; urishadigan qushlardan: dakan xo‘roz, oddiy xo‘roz, amirxon xo‘roz, kaklik, bedana (bu so‘nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho‘pqafasda, to‘rqafasda saqlanadi); sayraydiganlardan: qumri, sa‘va, bulbul, mayna va boshqalar.

*Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog‘i yo‘q...*

*Gulbahor, gulra‘no, gulsaffar, gulhamishabahor, qalampirgul, nomozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul – ishqilib sanab tugatib bo‘lmaydi. Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonot-larning har bittasini nuridiydaridek parvarish qiladilar.*

(G‘.G‘ulom)

### Sifat yasalishi

**1-amaliy ish.** Sifat yasovchi -li qo‘shimchasining ma’no qirralarini ochib beruvchi misollar topib, jadvalni to‘ldiring.

Qo‘shimcha ifodalagan ma’no	Misol
<i>Yasash asosidan anglashilgan narsaga egalik, o‘sahnarsaning borligi, mavjudligi</i>	
<i>Yasash asosidan anglashilgan narsaning odatdagidan ko‘ra ko‘pligi, mo‘lligi, ortiqligi</i>	
<i>Mavhum otlarga qo‘shilib, narsaning odatdagidan ko‘ra ko‘pligi, mo‘lligi, ortiqligi</i>	
<i>Yasash asosi fe‘lning sisatdosh shaklidan bo‘lib, narsaning undan anglashilgan harakat-belgi, holatususiyatga ega ekanligi</i>	
<i>Yasash asosi fe‘lning harakat nomi shaklidan bo‘lib, narsa-buyumning biror ish uchun yaroqli ekanligi, o‘saharakat uchun moslanganligi</i>	

**2- amaliy ish.** Berilgan matndan yasama sifatlarni topib, tahlil qiling. Tarixiy yasalmalarining hozirgi shaklini tiklang.

*Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig‘ina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhratni nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otig‘a taqilg‘an laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz*

«Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishlig'i bo'lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh – Ziyo shohichining qaynsi, Rahmatning tog'asi.

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug'lab qarshiladi.

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib yani tinchsizladik.

Otabek ularga yuqorida joy ko'rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda:

– Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar, – dedi, – shahrinzinga bиринчи martaba kelishim bo'lg'ani uchun tanishsizliq, yole 'zliq meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so'rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo'lib, oltmis yoshlar chamasida, cho'ziq yu'lik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq nūn soqollik edi. Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida kelysalik alomatlari sezilmash va tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi.

(A.Qodiriy)

**Jumaliy ish.** Berilgan so'zlar qatoridan yasama sifatlarni topib, ularning yasalish usulini jadvalda ko'rsating.

Voznum sifat	Affiksatsiya usuli (yasalish modeli)			Kompozitsiya usuli (yasalish modeli)
Otdan sifat yasalishi	Sifatdan sifat yasalishi	Fe'lidan sifat yasalishi		

Pistroqi, jo'yali, noshud, tirishqoq, chillaki, qoloq, paxmoq, quruq, serqirra, maishiy, savodxon, kitobxon, o'ymakor, g'allakor, kechagi, notavon, dimog'dor, hiylagar, og'zaki, dahanaki, qo'shaloq, beqiyos, xushbichim, olachipor, qimmatbaho, oqqush, havorang, to'q qizil, laqma, otashlin, zarrin, ilmiy, madaniy, egik, byurokratik, chalkash, mehnatkash, aravakash.

**Jumaliy ish** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 1-k.) darsligidagi 60'z ynsalishiga doir qarashlarni tahlil qiling va 205-mashqni bajaring.

**205-mashq.** Maqollarni o‘qing. So‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zlarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Daraxt ildizi bilan kuchli, inson – do‘satlari bilan. 2. Qalbaki do‘s ochiq dushmanidan yomon. 3. Yo‘ldoshini tashlagan yo‘lda qolur. 4. Yiqilganda bo‘lmasa tirak, vafosiz do‘s st nimaga kerak? 5. Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht. 6. Hushyorlik – mustahkam qo‘rg‘on. 7. Ezgulikning cheki yo‘q. 8. Bahorgi harakat – kuzgi barokat. 8. Go‘zallik ilm-u ma‘rifatda. 9. Mard maydonda bilinadi, nomard – ishda. 10. Do‘silik barcha boylikdan afzal. 11. Qo‘rqaqda uyat bo‘lmas. 12. Aqli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘sini. 13. O‘qigan o‘qdan oshar, nodon turtkidan shoshar. 14. Qo‘yni qassob so‘ysin, oshni oshpaz pishirsin. 15. Nomard non ustida ham nolishini qo‘ymas. 16. Itni qopag‘on qilgan egasi. 17. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga – un. 18. Yer – don, dehqon – xazinabon.

### Ravish yasalishi

**1-amaliy ish.** Berilgan so‘z yasash modellari asosida ravishlar hosil qiling. Ravishlarning yasalish modellari haqida ilmiy axborot yozing.

[ot + -cha = ravish], [sifat + -larcha = ravish], [sifat + -cha = ravish], [ot + -chasiga = ravish], [ot + -dek = ravish], [sifat + -ona = ravish], [sifat + -lay = ravish], [son + -dan = ravish].


**2-amaliy ish.** Matnda qo‘llangan ravishlarni toping. Qo‘shma ravishlarning yasalish modeliga izoh bering.

*Abdukarim do‘s tinikidagi ziyofatni bir muncha behalovatlik ichida o‘tkazdi. Garchi uni do‘satlari har yoqdan o‘rab olgan bo‘lsalar-da, ko‘nglidagi yashirin fikrlar uni bu davraga begona qilib turgan edi. Bir mahal Shokirjonning qo‘qqisdan yelkasiga qo‘l tashlab baland ovozda unga so‘z berishi uni mug‘ambirona jilmayishga va yaxshilab gapirishga undadi. Zero, bir zamonalr u davralarning „guli“ edi, hech kimga so‘z bermay, nuqtadonlik qilardi. Biroq hozir u quruqdan-quruq arava olib*

*qo'sha olmasdi. Axir bu qadrdoni, eng yaqin do'stining tug'ilgan kuni. U bu ikkilanib turdi-da, mardona so'z boshladi.*



**3-amaliy ish.** Slayd markazida berilgan yasovchi qo'shimcha yordamida ravishlar hosil qiling va bo'sh kataklarni to'ldiring.



**4-amaliy ish.** Rasm asosida kundan kunga, bir tekis, istagancha, bolalurcha, uzundan uzoq, ertalab, shoirona, ruhan kabi yasama ravishlar ihtirokida matn tuzing. Matnda uchragan barcha yasama so'zlarning yasalish modellarini belgilang.

### Fe'l yasalishi

**1-amaliy ish.** Matnda qo'llangan yasama fe'llarni toping. Fe'llarning yasalish modellarini belgilang.

“Shodiya!” Beshtagina harfdan tuzilgan oddiy bir tovushning bu qadar nafis bo‘lishidan endigina o‘n yetti yoshga to‘layotgan yigit hayratga tushadi. Nainki hayratlanar, bu tovush uning qulog‘iga muloyim eshitilar va u hayajonlanib takrorlardi: «Shodiya, Shodiya». Har safar uning ismini tilga olganda yigitning ko‘z oldida qizning betakror go‘zal siymosi namoyon bo‘lardi. Xayollari cheksiz usq sari quloch yozib, yigit qalbi o‘sha yoqlarda, noma’lum vodiyda qizning qalbini axtarardi. Qiz benihoya maftunkor va shu qadar jozibador ediki, uning haqida o‘ylashning o‘zi Mohirning xayoliga qanot baxsh etar, ko‘z o‘ngida ulkan va porloq lavhalar paydo qilardi.

(V.Ismoilov. “Zulmat ortidan tong”)

**2-amaliy ish.** Fe’l yasovchi -la qo‘srimchasining ma’noviy qirralarini ochib beruvchi misollar topib, jadvalni to‘ldiring.

Qo‘srimcha ifodalagan grammatic ma’no	Misol
Ish-harakatni asos qism orqali ifodalangan narsa yordamida bajarish	
Asos qism orqali ifodalangan narsani hosil qilish, yuzaga keltirish	
Asos qism anglatgan narsa holatiga o‘tish, o‘sha narsaga o‘xshatish	
Ish-harakatning asos qism anglatgan o‘rin va paytga munosabatini bildirish	
Asos qism orqali ifodalangan belgi holatiga o‘tkazish, shu holatga ega qilish	
Asos qism ifodalagan his-hayajon va tovushni yuzaga keltirish	

**3-amaliy ish.** Quyida berilgan so‘z yasovchi qo‘srimchalar bilan yasaluvchi fe’llar paradigmaсини hosil qiling. Qo‘srimchalarni unumli, kamunum va unumsiz qo‘srimchalarga ajrating.

-la, -i, -(a)r, -a, -sira, -k(-ik), -ira, -(a), -q(-iq), -illa, -lan, -lash

**4-amaliy ish.** “Venn” diagrammasi orqali qo‘srimha fe’l va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘silmasining umumiyligi va xususiy jihatlariga tavsif bering.

Dilga ommaga qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining  
simiy jihatlarini, uning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.



**Simally ish.** Berilgan so'z yasash modellari asosida fe'llarni hosil qiling. Fe'llarning grammatik ma'nosiga izoh bering.

[ot + fe'l = fe'l], [sifat + -(a)r = fe'l], [ot + -la = fe'l], [fe'l + fe'l = fe'l], [sifat + -la = fe'l], [undov + -la = fe'l], [son + -lan = fe'l], [ot + -a = fe'l], [sifat + fe'l = fe'l]



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. O'zbek tilshunosligida qaysi olimlar so'z turkumlarida so'z yosalishi masalasi bo'yicha izlanish olib borishgan?
2. Ot turkumiga mansub morfologik birliklar qanday usulda yasaladi?
3. Sifat turkumiga mansub birliklarning hosil bo'lish usullari haqida ma'lumot bering.
4. Qo'shma sifatlar sifatli birikmalardan qanday farqlanadi?
5. Fe'l turkumiga mansub birliklar qanday usullarda hosil qilinadi?
6. Qo'shma fe'llar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan qanday farqlanadi?
6. Ravish turkumiga mansub birliklar qanday usullarda hosil qilinadi?



## UYGA VAZIFA

- ✓ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5-jildi ilovasida berilgan ot, ravish, sifat yasovchi qo‘srimchalarning izohini o‘rganing.
- ✓ Akademik A.Hojiyevning qo‘srimchalar asosida so‘z yasalishi masalasiga oid qarashlari bilan tanishing va ushbu muammo bo‘yicha ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Umumta’lim maktablari uchun yaratilgan “Ona tili” hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridagi ot, sifat, ravish, fe’l yasalishiga oid mavzularni tahlil qiling.
- ✓ T.Malik asarlaridan ot va sifatning kompozitsiya usulida yasalishiga 10 tadan misol toping.

## GRAMMATIKA

### Grammatik ma'no, grammatik shakl

**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchning tomonidan berilgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>Grammatika</i>		
<i>Grammatik ma'no</i>		
<i>Grammatik shakl</i>		
<i>Sintaktik shakl</i>		
<i>Analtik shakl</i>		
<i>haft va takroriy shakl</i>		
<i>Grammatik kategoriya</i>		
<i>Umumiy kategorial ma'no</i>		
<i>Kategorial shakl</i>		
<i>Nokategorial shakl</i>		



**2-amaliy ish.** “Sinkveyn” (beshlik) metodi orqali *mavzuaqillik, sadoqat, yoshlik* so‘zlariga grammatik tavsif bering.

“Sinkveyn” metodi talablari	ONA
1. So‘zning morfologik shakllarini hosil qiling.	<i>onajon, onajonim</i>
2. Shu so‘z bilan bog‘lanuvchi tavsifiy sarakterdag‘i 2 ta sifat toping.	<i>mehribon, munis</i>
3. Shu so‘z bilan grammatik jihatdan bog‘lanuvchi, uning narmatik mohiyatini ochishiga xizmat qiluvchi 3 ta so‘zni toping.	<i>ulg‘aytiradi, tarbiyalaydi, avaylaydi</i>
4. Shu so‘z ifoda etgan narsa-predmetga ta’rif beruvchi 4 ta so‘z ishtirokidagi gap (gapda yuqorida boshilgan so‘zlar ishtirok etmasligi lozim) tuzing.	<i>Jannat – onalar oyog‘i ostidadir.</i>
5. Shu so‘zning ma’nodoshini toping.	<i>volidam</i>

**3-amaliy ish.** Grammatik ma'noni hosil qiluvchi vositalarni ajrating hamda ularga tavsif bering: *-chi*, *-di*, *-gina*, *-kor*, *-ser*, *-mi*, *-dan*, *-lar*, *-iy*, *-choq*, *-ni*, *-imsira*, *-soz*, *-im*, *-ning*.

**4-amaliy ish.** Berilgan morfologik birliklarning lug'aviy va grammatik ma'nosini aniqlang: *supurildi*, *xonamiz*, *bog'imiz*, *darsliklar*, *zimdan*, *beshovimiz*.

**NAMUNA:** *xonamiz* – lug'aviy ma'nesi: turar joyning alohida ajratilgan bo'limi, bo'lma; grammatik ma'nesi: ot so'z turkumi, birlik, tegishlilik grammatik ma'nolariga ega.

**5-amaliy ish.** “Venn” diagrammasi orqali grammatik va lug'aviy ma'noning umumiyligi va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga grammatik va lug'aviy ma'noning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiyligi jihatlarini qayd eting.



**6-amaliy ish.** “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” (H.G. Ne'matov, R.R.Sayfullayeva va b. – Toshkent, 2008. 171-195-b.) qo'llanmasida yondosh va hamroh ma'no, ularning turlariga oid nazariy qarashlar bilan tanishing va munosabat bildiring.

**7-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 1-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**Mashq.** *Biz, ozod, va, obod, O'zbekiston, yasha* so'zlari ishtirokida gap tuzing. Gap ichidagi so'zlarning bir-biri bilan bog'lanish holatlariga diqqat qiling. Gapda ishtirok etayotgan so'zlarning leksik hamda grammatik ma'nolarini aniqlang.

## Grammatik kategoriya

**1-amally Ish.** Berilgan jadvalni to'ldiring.

	<b>Grammatik kategoriyalar</b>	<b>Grammatik kategoriyaning shakliy ko'rsatkichlari</b>
	<i>Kelshik kategoriyasi</i>	
	<i>Mayl kategoriyasi</i>	
	<i>Shaxs-son kategoriyasi</i>	
	<i>Nisbat kategoriyasi</i>	
	<i>Egaltik kategoriyasi</i>	
	<i>Zamon kategoriyasi</i>	
	<i>Daraja kategoriyasi</i>	
	<i>O'zgalovchi kategoriya</i>	



**2-amaliy ish.** O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi birlklar" usuridan olingan quyidagi matnni o'z fikrlaringiz asosida davom etiring. So'zlarning grammatik shakllari (analitik va sintetik shakllar)ga javob bering.

### Eng oliy tuyg'u

*Eng toza tuyg'u nima?*

*Hirinchi maoshingizni keltirib berib, otangizning duosini olgанингизми?*

*Hirinchi marta sovg'a keltirib bergenингизда onangizning ko'zida qabыlyan yoshми?*

*Hirinchi bo'sами?*

*To'y kechasidagi hayajonларми?*

*Nogahon ko'z yumgan onangizning qabrini silab yig'lagанингизми?*

*To'ng'ich farzandingizni ilk bor mакtab tomon yetaklab bergenингизми?*

*Hammasi... hammasi pokiza tuyg'ular... Ammo...*



## Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. Leksik va grammatic ma'no qanday farqlanadi?
2. Grammatic ma'no qanday vositalar orqali hosil bo'ladi?
3. Grammatic ma'noning qanday turlari mavjud?
4. O'zbek tilida qanday grammatic kategoriylar ajratiladi?
5. Kategoriya hosil qiluvchi shakllar va nokategorial shakllarga nimalar kiradi?
6. *So 'zning grammatic shakllari* deganda qanday shakllarni tushunasiz?



## UYGA VAZIFA

- ✓ Ilmiy manbalar asosida *kategoriya* terminiga tavsif bering.
- ✓ Ilmiy manbalar asosida M.Koshg'ariyning grammatic kategoriylar haqidagi ilmiy qarashlarini izohlang.
- ✓ "Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya." (H.G'.Ne'matov, R.R.Sayfullayeva va b. – Toshkent, 2008. 224-244-b.) qo'llanmasidan *shaxsiy munosabat kategoriyasiga* oid nazariy qarashlar bilan tanishing. O'rganganlaringiz asosida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan "Ona tili" hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklaridagi grammatic kategoriyalarga oid qarashlarni tahlil qiling.

## MORFOLOGIYA

### MORFOLOGIK SO‘Z SHAKLLARI

#### So‘z turkumlari



I-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mayzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchningiz nomidan berilgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
Morfologiya		
Morfologik struktura		
So‘z shakllari		
So‘z turkumlari		
Musiqili so‘z turkumlari		
Yordamchi so‘z turkumlari		
Ittohida guruh so‘zlari		

2-namally Ish. Berilgan morfologik so‘z shakllariga tavsif bering: *ayga, bog‘imizda, ko‘chamiz, bizlar, texnologiyalshtirishning, o‘ntasini*.

NAMUNA: *ko‘chamizdan* – ot so‘z turkumiga mansub, I shaxs ko‘plik, egalik qo‘sishchasini qabul qilgan, chiqish kelishigi qo‘sishchasi bilan turlangan.

3-namally Ish. “So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari” mayzusida ilmiy xulosa yozing.

4-namally Ish. S.Ahmadning “Jimjitlik” romanidan olingan quyidagi joriyada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning turkumini aniqlang. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning qaysi xususiyatlariga e’tibor berilganligi haqidagi ma’lumot bering.

*U qayroqqa boradi? Toshkentga ketay desa, u yerda unga kimning ko‘ti uchib turibdi? Biron ishning boshini ushlay desa, bu qishloqda unga qaysi ish yo‘q.*

*Mirvali unga bir-ikki ishni aytib ko‘rdi. Albatta, Tolibjon eplaydigan ish. Faqat Mirvali bir sirdan bexabar. Agar Shavkat Rahimov Mirvali uni ishga olganini eshitsa, ishi chappasiga ketib qoladi.*

(S.Ahmad. “Jimjitlik”)

**5-amaliy ish.** Quyidagi so‘zlarni so‘roq berish asosida guruhlarga ajrating. Har bir guruhni umumiyl nom bilan qanday tavsiflash mumkinligini aniqlang.

**NAMUNA:** *Go‘zal, yashil* – qanday so‘rog‘iga javob boladi, belgi ma’nosini bildiruvchi so‘zlar guruhi.

*Faqir, betinin, butun, o‘sha, sizlamoq, eshik, dardli, g‘amgin, uyqu, shaharlak, o‘ylamoq, allaqanday, ammo, haqiqat, beg‘araz, voqeа, o‘lguday, tanho, har nima, yolg‘iz, dardlashmoq, uchun, hatto, qachon, ishchan, yamamoq, birato ‘la, chiroyli, juda, ba‘zan, kulgi, taraq-turuq, oh, albatta, boqiy, manman, o‘x-ho’, yarim, zimdan.*

**6-amaliy ish.** “*O‘zbek tilshunos olimlari*” mavzusida kichik ma’rifiy matn tuzing. Matnda qo‘llangan so‘zlarni turkumlarga ajrating.



**7-amaliy ish.** Bilimingizni berilgan nostandard test orqali sinab ko‘ring. 4-ustundagi tushunchalar qaysi mavzuga oid ekanligini raqamlar orqali belgilang.

1	2	3	4
T/r	Mavzu	Javob	Mavzuga oid tushunchalar
1.	Morfologiya		<i>Hisob so‘z, numerativ</i>
2.	So‘z turkumlari		<i>O‘timli-o‘timsizlik, sifatdosh</i>
3.	Grammatik kategoriylar		<i>O‘zgarmas so‘z, darajalanish</i>
4.	Ot so‘z turkumi		<i>‘Ichi bo‘sh so‘z”, ishora so‘zlar</i>
5.	Sifat so‘z turkumi		<i>Undov, modal, taqlid</i>
6.	Son so‘z turkumi		<i>Vosita, atalganlik</i>
7.	Fe‘l so‘z turkumi		<i>Ayiruv, ta‘kid</i>
8.	Ravish so‘z turkumi		<i>Antroponim, zoonim</i>
9.	Olmosh so‘z turkumi		<i>Zidlov, biriktiruv</i>
10.	Ko‘makchi		<i>Grammatik shakl, grammatic ma‘no</i>

Bog'lovchi		O'zgalovchi kategoriya, nisbat kategoriyasi
Yuklma		Mustaqil, yordamchi
Alohu'du so'zlar turkumi		Asliy, nisbiy

**Nurmonly Ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidagi (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 2-k.) quyidagi mashqni ishlang.

**225-mashq.** “Zarbulmasal”dan olingan quyidagi maqol va matallarning mazmunini sharhlang. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni foydalar bo‘yicha tasnif qilib bering.

*Anida Qurqush aydi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa choplilur” degan yaxshilar masali bordur. “Boyo‘g‘lining og‘zini bir burchidan ming chordevor chiqar “qizimning qalini” deb. Holo hazrati Sayid Muhammad Umar ahd-u avonlarida olam – ma’mur, raiyat – mayru. Har nechuk abushqalar marvariddin, qurutqalar marjondin isabeklar evururlar, bir bo‘s sh chordevor topilmas, uyolurmiz. “O‘y o‘ylan qo‘l tek turmas”, “Uyot o‘limdin qattiq”. Va yana aytmishlarki: “Tirman yag‘ochining egilgani – singani, er yigitning uyolgani – o‘lgani”. Sunt ahvoling olamga ma’lum. “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas”, “Chumchuq semurub botmon bo‘lmas”, “Olako‘zanak olmoni bo‘lsa ham arylon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham ahvoli ma’lum”.*



**Bilimingizni tekshirib ko‘ring!**

Mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko‘ring.

1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”ning “Morfologiya” bo‘limida qanday morfoligalar o‘rganiladi?

2. Qanday holatlarda “Morfologiya” bo‘limining “Sintaksis” bilan aloqasi kuzatiladi?
3. O‘zbek tilshunosligida qaysi olimlar morfologik birliklar tadqiqi yuzasidan ish olib borishgan?
4. *Morfologik so‘z shakli* deganda nimani tushunasiz?
5. *So‘zning morfologik strukturasi* deganda nimani tushunasiz?
6. Morfologik kategoriyalarga xos umumiy belgilar nimalarda kuzatiladi?
7. So‘zlarni turkumlarga ajratishda qanday tamoyillarga asoslaniladi?
8. So‘zni turkumlarga ajratishda semantik tamoyil qanday o‘rin tutadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Ilmiy manbalar asosida XIX asr o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari tadqiqi yuzasidan erishilgan yutuqlarni umumlashtiring.
- ✓ “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” (H.G’.Ne’matov, R.R.Sayfullayeva va b. – Toshkent, 2008) qo‘llanmasida *substansial morfologiya*ga oid nazariy qarashlar bilan tanishing. O‘rganganlaringiz asosida “Substansial morfologiya va uning tadqiq tamoyillari” mavzusida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Ilmiy manbalar asosida **tasnif** va **tavsif** terminlariga izoh bering.
- ✓ So‘z turkumlarining tasnifi muammosiga munosabat bildiring.
- ✓ Ilmiy manbalar asosida *so‘z*, *so‘z shakli*, *morfema*, *grammema* terminlarini sharhlang.

## FE'L SO'Z TURKUMI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali “Fe'l” mavzusiga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz tomonidan berilgan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo'shimcha ma'lumotlar
<i>Mustaqil fe'llar</i>		
<i>Yordamchi fe'llar</i>		
<i>Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari</i>		
<i>Fe'l nisbatlari</i>		
<i>Fe'l mayllari</i>		
<i>Fe'l zamonlari</i>		
<i>Fe'lning shaxs-son kategoriyasi</i>		
<i>Fe'larning tuslanishi</i>		
<i>Fe'larda o'timli-o'timsizlik</i>		
<i>Fe'lning vazifadosh shakllari</i>		
<i>Fe'lning modal shakllari</i>		
<i>Fe'larning analistik va sintetik shakllari</i>		

**2-amaliy ish.** Berilgan matndan fe'l turkumiga oid so'zlarni ajrating va morfologik tavsif bering.

### Donishmand


*Nar lochin yemish topib kelarkan. Moda lochin o'jani polaponlariga bo'lashib berarkan. Biron falokat bo'lib, moda lochin o'lib qolsa, nar lochin har qancha yemish topib keltirmasın, baribir, polaponlar ochidan nobud bo'lar ekan. Negaki, nar lochin o'jani bolalariga burdalab berishni eplolmas ekan...*

*Tabiat naqadar beshafqat, tabiat naqadar dono!*


(O'.Hoshimov)



**3-amaliy ish.** Rasmiy nostandard test javobini toping. Suratlardagi tilshunos olimlarning kimligi va yozgan asarlarini aniqlang. Surat ostiga mos javoblarni raqamlar orqali belgilang. Tilshunos olimlarning qaysi biri "Fe'l" so'z turkumi yuzasidan maxsus tadqiqot olib borganligini aniqlang.



**4-amaliy ish.** Berilgan so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirisha oladigan fe'llarni toping va slayd kataklarini to'ldiring.



## Fe'llarning ma'no turlari

**T**umaliy ish. Berilgan fe'llarni ma'no jihatdan tasniflang.

*Kelmoq, aytmoq, o'ylamoq, yig'lamoq, buzmoq, yechmoq, gapirmoq, sonstramoq, ishlarimoq, qurmoq, ko'tarmoq, sezmoq, aralashtirmoq, o'qimoq, kulmoq, anglamoq, bezovtalanmoq, hayratlanmoq.*

**NAMUNA:** *bormoq – yo'nalma harakat fe'li.*

**T**umaliy ish. Matnda qo'llangan fe'llarning ma'no turlarini belgilang.

*Yakan degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i oborchilar pulni «yakan» deyishadi. Aslida esa yakan – qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. Shunday bo'libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab:*

*O', birodar, hadeb g'o'ddayaverma, salgina egil. Ollohnning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik, – debdi.*

*Qamish unga qaragisi ham kelmabdi, javob ham bermay burnini jiyrib qo'ya qolibdi. Vaqtisoati kelib avval qamishni, so'ng yakanni o'rbdilar. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yrali bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni o'ybdilar, yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga libdilar. Oradan kunlar o'taveribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, yakan o'so tepada ekan. Oyoqosti bo'laverib xorlangan qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi:*

*Meni o'rib olib quritdilar, tepkilab qovurg'alarimni sindirdilar, so'ng suvga bo'ktirdilar. So'ng qayirib-bukib mana shu bo'yra holiga keltirdilar. Endi esa tinimsiz, har kuni tepkilaydilar. Bu ham yetmaganday o'l qaytrib, ostimga noslarini tupuradilar.*

*Bu zorlanishni eshitib yakan debdikim:*

*Siz bekorga g'o'ddaydingiz. G'o'ddayib o'saverdingiz. Ichingiz o'vak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganiningiz uchun ham tepkilashdan bo'lak narsaga yaramadingiz. Hali ham kech emas, siz o'sgan yerda tili mygti qolgan. Siz o'sajak qamishlarga yetkazing, sizning holingizga ushmasinlar.*

(T.Malik. "Mehmon tuyg'ular")

**3-amaliy ish.** Berilgan fe'lllar ichidan tafakkur fe'llarini ajrating.

*Ko'rmoq, fikrlamoq, so'zlamoq, o'ylamoq, singdirmoq, tasavvur qilmoq, yechmoq, bukmoq, hal qilmoq, xayol surmoq, yotmoq, oshirmoq, anglamoq.*

**4-amaliy ish.** Berilgan fe'lllar ichidan ruhiy holat fe'llarini ajrating.

*Seskanmoq, aytmoq, qo'rmoq, hushyor bo'lmoq, singimoq, irjaymoq, qizarmoq, bujmaymoq, buramoq, haydamoq, tashvishlanmoq, o'kinmoq, o'ksimoq, bo'zlamoq, uyalmoq, ikkilanmoq, bezovtalanmoq, berilmoq, ardoqlamoq.*

**5-amaliy ish.** Matndan fe'llarni ajratib, ma'no turini aniqlang.

*Qabriston jimjit. Faqat yo'lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qo'shilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi... Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch sogoli o'ziga yarashgan go'rkov yuziga fotiha tortib o'rnidan turadi:*

– Bo'ldi endi, bolam! Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz. Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha? – U bir zum indamay qoladi va qo'shib qo'yadi:

– Volidayi mehriboningiz xo'p yarlaqagan odam ekanlar. To'shakda yotmabdilar, birovga zoriqmabdilar... Bunaqa beozor o'lim har kimga ham nasib etavermaydi.

(O'. Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

## Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari

**1-amaliy ish.** Quyidagi matnda ishtirok etgan fe'llarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

*Bir maromda yo'rg'alayotgan ingichkabel, turnabo'yin bedovlar tuyqus sustlashib, suvliq chaynab, qizg'anch ohangda kishnadi. O'sha*

*ahotil behisob ayg'irlarning mastona ham g'ayirona javobi bo'ldikim,  
belixiyor ustoz bilan shogird hushyor tortishdi.*

*Chap tomonda, cho'kkani tuyani eslatuvchi qir biqinida yoqilgan  
gulyan atrosida bazmi jamshid avjiga mingan edi. Sarxush kimsalar  
baland toyushda bir-birlariga gap qotishadi, qiyqirib kulishadi, cho'g'da  
toblangan dumba-jigar kabobdan miriqib tanovul qilishadi. Qir uzra  
kuygan yog' hid'i bilan to'yingan ko'kmtir tutun sokin suzadi, olslarga  
intashyan va ko'pdan beri shudgor ko'rmagan, sho'ra-yantoq bosgan  
paykal ichra masiqqan bedovlar talosh qurganki, ular kishnaganda yer-u  
ko'k go'yo guldirab ketar edi.*

(A.Dilmurod. "Fig'on")

**2-namaliy ish.** Matn tarkibidagi qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z  
qo'shilmalarini ajrating. Ularning umumiy va xususiy jihatlariga izoh  
bering.

*... Choyxonachi yoshi elliklardan oshib qolgan bo'lsa ham, xuddi  
o'smirlarday yengil qadam tashlardi, yugurib-yelardi. So'ridagi eskiroq  
ko'rpaqchani darrov yig'ishtirib olib, supirib, ko'z ochib-yumguncha yangi  
yakandoz to'shab, joy soldi. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs,  
kabobpaz kabob olib keldi.*

(Y.Sulaymon)

**3-namaliy ish.** Berilgan fe'llarni quyidagi jadvalga joylashtiring. Ular  
ishirokida gaplar tuzing.

*Aytdi-qo'ydi, havas qilmoq, chaqchaqlashmoq, yeldi-yugurdi, yordam  
bermoq, topshirdi-ketdi, so'ramoq, payhon qilmoq, rozi bo'lmoq, ishladi-  
qo'ydi, odat qilmoq, salomlashmoq, qizarib-bo'zarib, ishlaromoq, hayron  
bo'lmoq.*

Sodda fe'llar	Juft fe'llar	Qo'shma fe'llar

## Fe'llarda grammatik kategoriya



1-amaliy ish. Fe'lning grammatik kategoriyalari haqidagi bilimlaringizni “Domino” metodi orqali sinab ko‘ring.

E’tibor berilsa, faqat bitta tarqatma raqamlangan, boshqalariga raqam qo‘yilmagan. 1-raqamli tarqatmadagi savolning javobi boshqa tarqatmada qayd etilgan. 1-savolga javob topilgach, ushbu tarqatmadagi navbatdagi savolga javob izlanadi. Bu savolning javobi esa boshqa tarqatmada berilgan. Tarqatmalardagi javoblar shu tariqa ketma-ketlikda topiladi. “Domino”ning uzilmasligi savollarga to‘g‘ri javob topilishiga bog‘liq.

	<p><b>№ 1</b></p> <p><b>S:</b> Harakatning subyekti munosabatini ifodalovchi grammatik kategoriya qanday nomlanadi?</p>

	<p><b>J: Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasи</b></p> <p><b>S:</b> Harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko‘rsatuvchi kategoriya qanday ataladi?</p>

	<p><b>J: Shaxs-son kategoriyasи</b></p>

	<p><b>J: Nisbat kategoriyasи</b></p> <p><b>S:</b> Fe’lni o‘zga turkum vazifalariga xoslovchi kategoriya qanday nomlanadi?</p>

	<p><b>J: O‘zgalovchi kategoriya</b></p> <p><b>S:</b> Qanday grammatik kategoriya harakatning bajarilishi bilan bog‘liq tasdiq yoki inkorni anglatadi?</p>

	<p><b>J: Mayl kategoriyasи</b></p> <p><b>S:</b> Harakatning bajaruvehisi va uning soninni ko‘rsatuvchi kategoriya qanday ataladi?</p>

**Tanmalliy ish.** Berilgan gaplardan avval fe'llarni, so'ngra subyekt va obyekt tushunchalarini anglatuvchi birliklarni ajrating.

1. *Zo'r kuch bilan boshimni ko'tardim (O.Yoqubov). 2. *Demak, unifinalar qo'rqtigan* (Mirmuhsin). 3. *Qalin eshikning temir ilgaklari shaqirlab o'chilishi* (Mirmuhsin). 4. *Avaz hazil qilib qutulishga urindi* (P.Qodirov). 5. *Ertalab atayin sport kiyimini kiydim* (O.Yoqubov).*

**Tanmalliy ish.** Berilgan gaplarda bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga va, akademicha, bo'lishsiz fe'llarni bo'lishli fe'llarga aylantirib o'qing. Ma'nodagi o'zgarishlarga izoh bering.

1. *Uzoq viloyatdan kelgan o'quvchi omadi yurishib, Moliya institutiga o'qishga kirdi.* 2. *Farzandingiz kimlar bilan o'rtoq, kimlar bilan do'st qilindii?* U nimalar qildi? 3. *Marhamat etmaganga marhamat qilinmas.* U Hiz farzandimiz kamoli uchun nimalar qilmaymiz? 5. *Agar tilingni orincha so'zlardan tiya olmasang, unda tilning jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.* 6. "So'rab berguncha urib ber", "Baxilning bog'i ko'karmas" kabi gaplar shu toifadagi odamlar uchun aytilmaganmikin?

(“Tarbiya kitobi”dan)

**Tanmalliy ish.** Matnda qo'llangan bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Matnni o'z tirkrlaringiz asosida davom ettiring. Bo'lishsizlikni hosil qiluvchi boshqa grammatik vositalardan ham foydalanishga harakat qiling.

## Halol va harom

Ba'zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo'lgan va yeb-ichish mumkin bo'lman” narsani anglaydilar ... yuzaki tushuncha! Aytida bu - “qilish mumkin bo'lgan va qilish mumkin bo'lman” amallar, degani hamdir...

Bilasiz: non - eng tabarruk ne'mat. Biroq noplak yo'l bilan topilgan non ham harom! “Noningni halollab ye” degan gap beziz aytilmagan.

(O'.Hoshimov)

## **5-amaliy ish.** Berilgan fe'llarning nisbat shaklini aniqlang.

*Hidlandi, artindi, yuvildi, ayttirdi, rivojlandi, ketishdi, ko'rindi, turdi, boqildi, bekindi, o'zlashtirdi, zavqlandi, aytildi.*

## **6-amaliy ish.** Fe'l nisbatlari o'rtasidagi ma'noviy farqni belgilang.

- |  |   |
|--|---|
| <ol style="list-style-type: none"><li>1. Aniq nisbat – majhullik nisbati<br/><i>tuzdi – tuzildi</i></li><li>2. Aniq nisbat – o'zlik nisbati<br/><i>taradi – tarandi</i></li><li>3. Aniq nisbat – o'zlik nisbati<br/><i>artdi – artindi</i></li></ol> | <ol style="list-style-type: none"><li>1. Aniq nisbat – orttirma nisbat<br/><i>so'radi – so'ratdi</i></li><li>2. Aniq nisbat – majhullik nisbati<br/><i>boshladi – boshlandi</i></li><li>3. Aniq nisbat – birgalik nisbati<br/><i>bordi – borishdi</i></li></ol> |
|--|---|

## **7-amaliy ish.** Nuqtalar o'rniga nisbat shakllaridan mosini qo'ying.

1. *Qiz tezlik bilan ... (kiyildi, kiydi, kiyindi).*
2. *Oqsoqollar idoradan ... (qaytdi, qaytishdi, qayttirdi).*
3. *Do'konga yangi mol ... (kelindi, keltirildi, kelishdi).*
4. *Yigit ust-boshini tezda ... (kiydi, kiyindi, kiyildi).*
5. *Bolalar orqaga ... (qayrilishdi, qayrildi, qayriltirdi).*



**8-amaliy ish.** “FSMU” metodi orqali o'zlik va majhul nisbatlarining umumiyligi va xususiy jihatlari to'g'risida ilmiy xulosa chiqaring.

**F – fikringizni bayon eting;**

**S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;**

**M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;**

**U – fikringizni umumlashtiring.**

 **9-amaliy ish.** Fe'l mayllari yuzasidan egallagan bilimingizni quyidagi nostandard test savollari asosida sinab ko'ring. Testda berilgan iboriy xulosalarga jadvalga "Ha" yoki "Yo'q" javoblarini qayd etish imkonida munosabat bildiring.

1. Fe'lning mayl kategoriyasi so'zlovchining harakat-holatga munosabatini bildiradi.
2. Fe'lning aniqlik (xabar) mayli fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali shakllanadi.
3. Fe'lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarsiz qismi III shaxs tuyruq istak maylini ifodalaydi.
4. Maqsad mayli *-moqchi* affiksi bilan hosil bo'ladi.
5. Fe'lning maqsad mayli shaklidan hozirgi zamon ma'nosi anglatiladi.
6. Shart maylida har uch zamon ma'nosi ifodalanadi.
7. *-sa* shart mayli qo'shimchasi shart ma'nosidan tashqari istak ma'nosini ham anglatadi.

1	2	3	4	5	6	7

**10-amaliy ish.** Quyidagi jadvallarni to'ldiring.

Fe'llarda mayl kategoriyasi	Mayl ko'rsatkichlari

Fe'llarda zamon kategoriyasi	Zamon ko'rsatkichlari

**11-amaliy ish.** Hadislarda qo'llangan fe'llarnng shaxs-son ko'rsatkichlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

*Inson o'z ota-onasiga mehribon va itoatkor bo'lmog'i lozim.  
Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmagaydir.*

*Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin. Kimki rahmdillik qilmas ekan, rahmdillik ko'r magay. Qo'pol, quruq, gerdaygan, beqanoat va dimog'dor odam ahli do'zaxdir.*

*Badgumon bo'l manglar, badgumonlik eng yolg'on so'zdir. Tirnoq ostidan kir qidirmanglar, gap poylamanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizdan arazlamanglar va nafratlanmanglar. Aka-uka tutinib, Ollohnning (solih) bandalari bo'linglar. Mol-dunyosi ko'p odam badavlat emas, balki nafsi to'q odam badavlatdir. Beshikdan qabrgacha ilm izla. Vatanni sevmoq iymondandur.*

**12-amaliy ish.** Quyidagi jadval yordamida fe'llardagi grammatik shakllar joylashuvini aks ettiring.

Nº	Fe'l asosi	Nisbat shakli	Bo'lishli-bo'lish-sizlik shakli	Mayl shakli	Zamon shakli	Shaxsson shakli
1.						
2.						
3.						
4.						

### To'liqsiz fe'llar

**1-amaliy ish.** To'liqsiz fe'llar haqida ma'lumot bering. To'liqsiz fe'llar ishtirokida 6 ta gap tuzing.

**2-amaliy ish.** Matnda qo'llangan to'liqsiz fe'llarni aniqlang. To'liqsiz fe'llarning grammatik vazifasi va ma'nosini izohlang.

*Men akamning baliq tutishini ko'rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To'rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi. Hatto qo'ldayam. Suv ostiga sho'ng'ib, baliqlarni o'z kamaridan tutib chiqardi. Hech narsadan, ilondan ham qo'rmasdi. Ilon ko'rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi. Qirg'oqda kulcha bo'lib, mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o'zlarini suvga urishardi. O'rtoqlarimning havasi kelar, men kerilib, "akang Qarag'ayning akasi shunaqa" deb ko'kragimga urardim.*

(Qamchibek Kenja. "Baliq ovi")

## Fe'lning vazifadosh shakllari

**1-amally Ish.** Berilgan matndan fe'lning ma'lum bir vazifa uchun o'damjan shakllarini aniqlang.

Zebi tutga suyangan, o'zining qayda turganini unutayozgan, shuncha qayda bir og'iz javob bermasdan og'ir o'ylarga tolgan edi. U shu topda fe'lning yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko'rinishi ma'lum bo'lmagan baxti, toleini o'ylardi. Uning butun vaqtini Razzoq so'fining johil yuhibligiga bog'liq emasmi? O'sha sovuq so'fi shu quvnoq jonni va sayroq qishchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir o'i "ha" yoki "yo'q" deyishi qiz bechoraning behad quvnab yayrashiga yoxud xazon yaprog'iday bir nafasda so'lib nobud bo'luviga yaramaydimi? Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i o'yig'liq va yuzi kulmas otadam hech bir xayriyat kutmaydi. Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi... va titraydi! Bu qishloq sayohati aravakash yigitcha bilan rasodisan tanishib qolishi, shu tanishuv orqasida ko'nglida sezgani besaronjomlik bechora qizni haligidek qora o'ylarni o'ylashga majbur qilgan edi.

(Cho'lpon. "Kecha va kunduz")

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplardan fe'lning vazifadosh shakllarini topib, morfologik tahlil qiling.

1. Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan (Maqol). 2. Borish-kelish qilmaysiz, kimdan qoldi ko'nglingiz (Sh.Sa'dulla). 3. Keyin qidirish ishini o'tkazadi, loyiha tuzadi, smeta tuzadi... (S.Anorboyev). 4. Bizni kutar shonli ish, bizni baxt kutar (M.Shayxzoda). 5. U maqsad ham dovon oshuv qadar zo'r bo'lmasdan, nihoyati devorga osilib gavron sindirgan yigitni bir ko'rishdan iborat edi... (Cho'lpon).

**3-amaliy ish.** Matndan fe'lning vazifadosh shakllarini ajrating va jadvalni to'ldiring.

Fan qayiqqa ham, kemaga ham bab-baravar ochiq dengiz kabidir. Birov unda oltin yombi tashisa, boshqasi qarmoq tashlab baliq ovlaydi.

*Fanning ibtidosi – aql, aqlning ibtidosi esa sabr-toqatdir. Ulug’ ishlar uchun tolmas sabot kerak. Kishini qobiliyati uchun emas, balki o’sha qobiliyatdan qanday foydalana olishni bilishiga qarab qadrlashadi. Qobiliyat o‘z-o‘zicha shuursizdir, u ishga solingan taqdirdagina jilolanadi.*

(T.Malik. “Mehmon tuyg‘ular”)

Nº	Misol	Fe'l shaklining sintaktik vazifasi	Fe'lning vazifadosh shakli
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			

**4-amaliy ish.** Berilgan maqollardan fe'lning vazifadosh shakllarini aniqlab, gapdag'i sintaktik vazifasini belgilang.

1. *Bilmagandan bilgan yaxshi, to‘g‘ri ishni qilgan yaxshi.*
2. *So‘raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora.* 3. Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.
4. *Yetti o‘lchab, bir kes.* 5. *Ota bo‘lish oson, odob berish qiyin.* 6. *Qulogdan kirgan sovuq so‘z ko‘ngilga borib muz bo‘lar.* 7. *Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.*

### Fe'lning morfologik tahlili

**1-amaliy ish.** Fe'llarni aniqlang va morfologik tahlil qiling.

1. *Bu yo‘lda yaxshilar ham uchraydi, yomonlar ham* (Oybek).
2. *Kap-katta xotinning yolg‘on so‘zlaganini ko‘rib, yana jahlim chiqib ketdi* (X.To‘xtaboyev).
3. *Agar har bir qishloq bir savatdan anjir keltirsa, Andijonning uzum bozoriga kirgan kishi maza qilib chiqar ekan* (G‘.G‘ulom).
4. *Yuz gektarcha keladigan katta maydon mayda-mayda bo‘laklarga bo‘lib tashlangan ...* (O.Yoqubov).

### Tahlil tartibi:

1. Fe'lning ma’no turi.
2. Fe'lning o‘timli -o‘timsizligi.

1. Fe'l nisbati.
2. Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik belgisi.
3. Fe'lning funksional yoki kategorial shakli.
4. Fe'lning shaxs-son shakli.
5. Fe'l mayli.
6. Fe'lning zamon shakli.
7. Fe'lning gapdag'i sintaktik vazifasi.

**Tahlik namunasi:** *Qiyinchilikdan qo'rqqan odam hayotning rohatini ham bilmay o'tib ketadi* (S.Zunnunova).

*Qo'rqqan* – mustaqil fe'l, ruhiy holat fe'li, o'timsiz, aniq nisbatda, aniqlik (xabar) maylida, bo'lishli, funksional shaklda, sifatdosh, gapda aniqlovchi vazifasida qo'llangan.

**2-namally ish.** Berilgan gaplardan fe'l turkumiga oid so'zlarni ajrating va jadval asosida morfologik tahlil qiling.

1. *Quvonchimdan terimga sig'may Turg'un degan o'rtog'imnikiga vacurdim* (Oybek). 2. *Otangizdan bir parcha yer qolganda o'sha qutnichilikni ko'rmas edingiz* (A.Qahhor). 3. – *Ra'noni egasiga topshirmayuningizgacha, – dedi Nigor oyim, – quyulmaydiganga e'shaydi* (A. Qodiriy). 4. *Tojiboy bir-ikki qadam oldinda bormoqda edi, avoni eshitib ketiga qaradi, eshagini o'z holiga qo'yib yubordi...* (U. Abdulla). 5. *Chor tarafga angraya-angraya attorlikka o'taman* (Oybek).

Fe'l	Mustaqil nomusligi	Ma'no turi	O'timli -o'timsizligi	Nisbat shakli	Bo'lish -li-bo'lishsiz shakli	Funksional yoki kategorial shakli	Shaxs-son shakli	Mayl shakli	Zamon shakli	Sintaktik vazifasi
topshirdim	topshirdim	yo'nalma harakat fe'li	o'timsiz	aniq nisbatida	bo'lish -li	funktional shakl	1-shaxs, birlikda	xabar mayli	o'tgan zamon	kesim

**3-namally ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, de.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-zгиyo, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni ishlang.

**319-mashq.** Fe'l nisbati yasovchi qo'shimchalar o'zaro sinonimik qator hosil qiladiganlarini yozing. Ularga misollar keltiring.



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Fe'l so'z turkumi yuzasidan egallagan bilimingizni “Klaster” (tarmoqlash) usuli orqali tekshirib ko'ring. Tarmoqlarni davom ettiring va to'ldiring.



“Fe'l” mavzusi bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. O'zbek tilshunosligida fe'lning morfologik belgi-xususiyatlari yuzasidan qanday nazariy qarashlar shakllangan?
2. Qanday vaqtida fe'llarning gapni shakllantira olish xususiyati namoyon bo'ladi?

3. Fe'lllar ma'no jihatdan qanday turlarga bo'lib o'rghaniladi?
4. Nutq va tafsakkur fe'lllari qanday farqlanadi?
5. Munosabat va ruhiy holat fe'lllari qanday fe'lllar kiradi?
6. O'zbek tilidagi fe'lllar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'rpanildi?
7. O'zbek tilshunosligida fe'lning qanday grammatik kategoriyalari farqlanadi?
8. Fe'l zamoni va gap zamoni o'rtasida qanday farq mavjud?
9. O'zbek tilshunosligida ko'makchi va to'liqsiz fe'lllar qaysi tilshunos olim tomonidan maxsus tadqiq etildi?
10. Fe'lning tuslanishi, deganda nimani tushunasiz?
11. Fe'l gapda qanday sintaktik vazifalarda qo'llanadi?
12. To'liqsiz fe'lllar qanday xususiyatlarga ega?



## UYGA VAZIFA

- ✓ R.Rasulovning "O'zbek tili fe'lllarining ma'no tuzilishi" (Toshkent, 2001) kitobida berilgan fe'llarning tasnifi masalasiga munosabat bildiring.
- ✓ "O'z uyingni o'zing asra!" mavzusida kichik ma'rifiy matn bizing. Matnda qo'llangan fe'llarning zamoni va maylini aniqlang.
- ✓ "O'zbek xalq maqollari" kitobidan holat fe'llari ishtirok etgan 10 ta maqol toping. Maqollar mazmunini sharhlang. Holat fe'lllarining o'z yoki ko'chma ma'noda ishlatalganligini aniqlang.
- ✓ O'zingiz yoqtirgan badiiy asarlardan nisbat ko'rsatkichlari bordan ortiq qo'llangan fe'lllar ishtirokidagi gaplarni ko'chiring.

## OT SO‘Z TURKUMI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz tomonidan berilgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>Atoqli va turdosh otlar</i>		
<i>Aniq va mavhum otlar</i>		
<i>Shaxs otlari</i>		
<i>Narsa otlari</i>		
<i>O‘rin-joy otlari</i>		
<i>Otlarda kelishik kategoriysi</i>		
<i>Otlarda egalik kategoriysi</i>		
<i>Otlarda son kategoriysi</i>		
<i>Otlarning kichraytirish shakli</i>		
<i>Otlarning erkalash shakli</i>		
<i>Otlarda hurmat shakli</i>		

**2-amaliy ish.** O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan olingan quyidagi gaplarda qo‘llangan otlarga morfologik tavsif bering.

**NAMUNA:** *Nayzani – ot, nimani? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, turdosh ot, aniq ot, tushum kelishigida, birlik shaklda.*

1. *Nayzani sanchdimi, o‘zi urildimi, esimda yo‘q.* 2. *Avval qulog‘imga muttasil guvillagan sado eshitildi.* 3. *Muzlab yotgan so‘qmoqdan yurib ketdik.* 4. *Eshik yonida suyanchiqsiz kursi turibdi.* 5. *Suv ostidagi qo‘limni qimirlatib ko‘rsam, hali jon bor.* 6. *Yo‘q, o‘lim unchalik dahshatli emas.* 7. *Mening Munavvarim bor, odamlar!*

**3-amaliy ish.** Berilgan gaplardan sifat va fe’l turkumlariga oid so‘zlardan hosil qilingan otlarni ajrating.

1. *Sumkaning ichida nima borligini yaxshi bilaman: tishi to‘kilgan alyumin taroq, boshingizga tegishi bilan bir hovuch sochingizni yulib oladigan qo‘l mashina, qayish bilan olishaverib ixcham tortib ketgan*

*ustara (O‘.Hoshimov). 2. Kiyimlar shohona emas, barmoqlarda tilla uzuk, og‘izda tilla tishlar yo‘q... Sharif Asadbekning qarashiga dosh berolmay o‘rnidan turib ketganini o‘zi ham sezmay qoldi. (T.Malik) 3. Elakni supraga o‘rab, hujraga yugurdi (O‘.Hoshimov). 4. Qo‘rqma, biz senga faqat yaxshilik istaymiz (T.Malik). 5. Xunuk xayollar tinchlik bermay xonaga bir-ikki o‘g‘rincha qarab oldi (T.Malik).*



#### 4-amaliy ish. “Qadriyatlar” metodi

**1-bosqich:** Qog‘ozni 6 bo‘lakka bo‘ling, ularga o‘z hayotingizdagи eng qadrli narsalarni ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra yozib chiqing.

**2-bosqich:** Qandaydir hodisa ro‘y berib, varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo‘lganligingizni his qiling va qadriyatlar yozilgan qog‘ozlarni birin-ketin (avval 6, keyin 5, 4, 3, 2, 1) g‘ijimlab tashlang. Hayotingizni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko‘ring.

**3-bosqich:** Qadriyatdan ajralayotgan vaqtida qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg‘uni his qildingiz? O‘rtoqlashing.

**4-bosqich:** Mo‘jiza ro‘y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug‘ildi. G‘ijimlangan qog‘ozlarni birma-bir qaytarib tekislang.

**5-bosqich:** Yo‘qotilgan qadriyatlar qaytgandan so‘ng qanday qadr-qimmatga ega? O‘rtoqlashing.

**6-bosqich:** Yozilgan qadriyat nomlarining nechтasi ot so‘z turkumiga mansubligini aniqlang.



**5-amaliy ish. “K” dan “K” gacha boshqotirmasini yeching.**  
Boshqotirmada topilgan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarga morfologik tavsif bering.

1.	K		K						
2.	K			K					
3.	K				K				
4.	K				K				
5.	K					K			
6.	K					K			
7.	K						K		

8.	<b>K</b>						<b>K</b>				
9.	<b>K</b>						<b>K</b>				
10.	<b>K</b>							<b>K</b>			
11.	<b>K</b>							<b>K</b>			
12.	<b>K</b>								<b>K</b>		
13.	<b>K</b>									<b>K</b>	
14.	<b>K</b>										<b>K</b>

1. Yer ustida gumbaz shaklida ko‘rinib turadigan havo qatlami.
2. Husn, chiroy.
3. Sport musobaqalarida g‘oliblar uchun beriladigan qimmatbaho vaza.
4. Quvush shoxli sute Mizuvchilarga mansub jonivor.
5. Predmetning uchgan, singan joyi.
6. Daraxt, butalarning barg-butoqsiz uzun shoxi.
7. Ko‘rimsiz, kichik uy, xona.
8. Yomg‘irdan keyin havoda yarim doira shaklida ko‘rinadigan yo‘l.
9. Yosh cho‘ri, oqsoch.
10. Salomatlikning buzilishi, dard.
11. Choyni dam yedirish uchun samovar o‘txonasi ustiga o‘rnataladigan moslama.
12. Mastlik.
13. Sudralib yuruvchilar sinfiga mansub jonzot.
14. Amaliy san’at sohalaridan biri.

### Otlarning ma’no turlari

**1-amaliy ish.** Berilgan matndan ot turkumiga mansub so‘zlar guruhini ajrating va ma’no jihatdan tasniflang.

*Chol qiyinalib qo‘zg‘aldi-da, munkaygancha lom-mim demay tashqariga chiqib ketdi. Kun bo‘yi ko‘ngli tamaki tusab, qiyinalib o‘tirgan Quyosh yengil tortib qo‘zg‘aldi, qo‘llarini cho‘ntaklariga suqqancha, kalta qadamlar bilan xona eshigini yopmasdan tor dahliz bo‘ylab yurdi. Zinadan tushayotib chap tomondagi oshxonaga, qozonni kapkir bilan titkilayotgan Aleksandrga yengilgina nazar tashlab, hovliga chiqdi-da, o‘ng tomonga burildi. Qorni g‘irchillatib bosib borar ekan, cho‘ntagidan tamaki qutisini olib to‘xtadi. Lablariga tamaki qistirib ochiqish va tashnalik bilan tortdi, tortaverdi.*

(O‘.Hakimali. “Hasrat”)

**2-amaliy ish.** Berilgan matnda qo‘llangan otlarning ma’no turini aniqlang.

*Mendan ko‘pdan ko‘p salom. Sog‘man, sog‘liqlaringizni tilayman. O‘qishga kirganiningni eshitib, juda xursand bo‘ldim. Kelajakda baxtli bo‘lmoqni istagan har bir qiz o‘qishi kerak. Mendan so‘rasang: imtihonni*

gavshi topshirdim. Men ham (maqtanmay) birdan oldin, birdan keyin davimni olib borayotirman... (G'.G'ulom. "Yodgor").

**3-amally ish.** Maqollarda qo'llangan otlarni aniqlab, ma'no turini ko'rnating.

1. Otilich toshda, odam ishda qayraladi. 2. Nomussiz hayotdan o'limning marta afzal. 3. El aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas. 4. Yomonga kun ham, tun ham qorong'u. 5. Usta borida qo'lingni tiy, ustod borida tilingni. 6. Do'st otgan tosh bosh yormas. 7. Achchiq til – albi ilon, shirin tilga – jon qurbon.

**4-amally ish.** Otning quyidagi ma'no turlariga 8 tadan misol toping.

1. Narsa-qurol otlari:
2. Shaxs otlari:
3. O'rinn-joy otlari:
4. Kasb-hunar otlari:
5. His-tuyg'u otlari:
6. Diniy tushunchani anglatuvchi otlar:
7. O'simlik nomini anglatuvchi otlar:
8. Taom nomini anglatuvchi otlar:

**5-amally ish.** Berilgan matndan atoqli otlarga mansub so'zlarni aniqlang.

*Tabiatga qiyosan joriy etilgan "Qonuni Xumoyuniy"ni «shoirona did bilan qilingan kashfiyat» deb maqtab yurganlar oz emas. Ayniqsa, osmon timsolida birinchi o'ringa qo'yilgan ahli davlat vakili Bayramxon yangicha tartibdan juda mammun. Ammo Said Xalil kabi ruhoniylarning alami cheksiz. Axir osmon ilohiyot makoni emasmi? Ilohiyat ilmi bilan shug'ullanuvchi ulamolar, saidlar osmon ramzi bo'lgan oliy tabaqaga kirishlari kerak edi-ku. Xondamir "oliy kashfiyat!" deb maqtagan "Qonuni Xumoyuniy" Said Xalil boshliq ruhoniylarga shaytoniy bir o'yinday, quruq xayolparastlikday tuyuladi. Sarkori havoyi emish! Osmonda tutqich bermay yuradigan havoga kim sarkorlik qila oladi? Mirrix yulduzi qayoqda-yu, podsho kiyadigan kiyimning rangi qayoqda?! Bu tajang o'ylar ta'sirida shayxulislom Laxo'rdagi Komron mirzoni va sharqdagi Sherxonni iliq bir xayrixohlik bilan esladi.*

(P.Qodirov. "Humoyun va Akbar")

**6-amaliy ish.** Berilgan atoqli otlarning mavzuviy tasnifini yarating.

*Sirdaryo, Amudaryo, Hind okeani, Nurota tog'i, Nargiza, Orol dengizi, Toshbuloq, Amudaryo, Venera, Boychibor, Osiyo, Olapar, Afrika, Malla, Bobur, Jizzax, "Yoshlik", "Sinfidosh", Tojikiston, Sirdaryo, "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi".*

**7-amaliy ish.** Nutqiy qo'llanishda turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o'tishiga misollar keltiring.

**NAMUNA:** *lola* (turdosh ot) → *Lola* (atoqli ot)

**8-amaliy ish.** Berilgan matndan mavhum otlarga mansub so'zlarni aniqlang.

*Rhaq xo'rsindi. Ajin bosa boshlagan keng peshonasini siladi. «Bu qiyin masala – deb o'yladi u. – Muhabbat uyg'onsa, nafrat ham paydo bo'ladi. Keyin rashk bosh ko'taradi. Yaxshilikka qo'shilib yomonlik, mehrga qo'shilib g'azab, sadoqatga qo'shilib xoinlik kirib keladi. Yerdagi ziddiyatlarning hammasi Tangda ham hukmron bo'lib olsa-chi? Barcha shu ziddiyatlar orasida o'ralashib qolsa-chi? Chin muhabbati qaysi, soxtasi qaysiligini bilmay garangsib yurishsa-chi? Taraqqiyot nima bo'ladi? Yo'q, bizga nafratdan xoli muhabbat, xoinlikdan yiroq sadoqat, g'azabsiz mehr, rashk o'rniqa ishonch kerak. Faqat yorug' tuyg'ular zarur! Bora-bora Yerda ham shunday bo'ladi...*

(T.Malik. "Devona")



**9-amaliy ish.** "Zanjir" metodidan foydalanib, ot turkumi bo'yicha lug'aviy boyligingizni tekshirib ko'ring. O'qituvchi matn tuzish uchun mavzu tanlaydi va ot so'z turkumiga taalluqli terminni e'lon qiladi. Mavzu bo'yicha birinchi talabaning tuzgan jumlasini keyingi talaba mantiqan davom ettirishi, nutqida e'lon qilingan termin mohiyatini ochib beruvchi so'zlar ishtirok etishi shart.

**NAMUNA:** Mavzu: "Atirgul". Ot so'z turkumiga oid termin: *mavhum ot*.

- 1- talaba: *Inson borki, go'zallikka intilib yashaydi.*
- 2- talabu: *Negaki go'zallik kayfiyatni ko'taradi, hayotdan zavqlanib yashashiga undaydi.*
- 3- talaba: ...

### Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari

**1-amaliy ish.** Quyidagi o'gitlarda qo'llangan otlarni ajratib, tuzilishiga ko'ra turini belgilang.

1. Yetim va yo'qsilning ahvolini anglagan kimsaning qalbi yumshar.
2. Mol-dunyo zinhor mas'ud eta olmas.
3. Seni o'zining ikkiyuzlamachiligi bilan idora qilguvchi eng yomon dushmandir.
4. Yomon so'z doimo xavf-xatarga sabab bo'ladi. Chunonchi, sen yomon so'zdan uzoqlashganing sari xavf-xatarning oldini olgan bo'lsan.
5. Qahr-g'azabni yenggan missint yengadi.
6. Ziddiyatlar to'qnashsa, haqiqat vujudga keladi.

(Muhammad Kamol)

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplardan otlarni ajratib, tuzilishiga ko'ra turi va gapdag'i vazifasini belgilang.

*Farzandlarimizni maqtanchoqlik, kibr kabi ma'naviy kasallikka chalinishdan ehtiyyot qilishimiz lozim. Zero, kibr-havo, manmanlik, dimog'dorlik – o'z shaxsiyatiga, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish salbiy axloqiy sifat bo'lib, ular kulondimog'lik oqibatida namoyon bo'ladi. Takabbur, manman bola o'qalarning nasihatini yoqtirmaydi. Oxir-oqibatda esa zalolat botqog'iga botadi.*

(A.Tilavov. "Bolalarga gap uqtirish san'ati. Tarbiya kitobi")

### Otlarda egalik, kelishik, ko'plik shakllari

**1-amaliy ish.** Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Egalik va kelishik qo'shimchalarining aloqa-munosabat shakllari deb ham nomlanishiga izoh bering.

2. Otlarga egalik va kelishik affikslari qo'shilishi bilan yuzaga keluvchi tovush o'zgarishlari haqida ma'lumot bering. Mazkur holatning kirill va lotin yozuvidagi umumiyligi va farqli jihatlarini aniqlang.

**2-amaliy ish.** Kelishiklarning belgili va belgisiz qo'llanishi masalasiga doir nazariy qarashlar ustida bahs yuriting. Kelishiklarning belgisiz qo'llanishi bilan bog'liq holatlarni sharhlang.

**3-amaliy ish.** Kelishiklarning o'zaro o'rinni almashinuvni hodisasiiga misollar keltiring. Misollar asosida kelishiklarning o'rinni almashinib qo'llanishida grammatik ma'noda yuz beradigan farqlarni aniqlang.

**4-amaliy ish.** 10-sinf uchun tuzilgan "Ona tili" darsligida (N.Mahmudov va bosh. Ona tili. 10-sinf. –Toshkent, 2017. 47-b.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**52-mashq.** Berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarga qavs ichidagi kelishik shakllarini qo'shib ko'ring, ma'noda yuz bergan o'zgarishlarni izohlang.

1. *Yo'lichiboy aka, qayer (-ga, -dan) qochasiz?* (Oybek)
2. *Baxtim (-dan, -ga) deymi, yo buning aksimi, Munisxon kiyim-kechakni yaxshi ko'radigan ayol ekan* (O'Umarbekov).
3. *Ilmiy ishlariningiz (-da, -ga) muvaffaqiyat!* (Erkin A'zam)
4. *Chollar (-dan,-ning) biri unga emas, jo'mragidan hovur chiqayotgan choynakka qarab gap boshladi* (S.Ahmad).
5. *Ot (-ga, -da) juda epchil ekansan-ku, qizim! Barakalla-ye...* (A.Qahhor).
6. *Juvon qo'lidagi olma (-ni, -dan) ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi* (A.Qahhor).
7. *Shunda u o'zining hozirgina dala (-ga,-dan) kelganini esladi* (P.Qodirov).
8. *Sersoya ayvonda Sattor Oyshaxonning yoni (-ga,-da) o'tirib mastava ichar ekan, xotinining yuziga qaray olmas, biror joyi tegib ketishidan cho'chir, o'zini majbur qilib, odob yuzasidan uzuq-yuluq gaplashar edi* (P.Qodirov).
9. *Indamay konduktorning yoni (-ga, -da, -dan) o'tib oldim* (O'.Hoshimov).
10. *Rais uka, sizni ko'rganim (-dan, -ga) xursandman* (O'Umarbekov).

**5-amaliy ish.** *A'zo, obro', parvo, mavzu* so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan turlang.

## NAMUNA:

Birlik	Ko‘plik
I shaxs: <i>obro ‘yim</i>	<i>obro ‘yimiz</i>
II shaxs: <i>obro ‘ying</i>	<i>obro ‘yingiz</i>
III shaxs: <i>obro ‘yi</i>	<i>obro ‘yi (-lari)</i>

**6-amaliy ish.** Berilgan matndan faqat birlikda qo‘llanadigan otlarni ajrating.

*Donishmandni jazolash iblisning ishi. Shoh nufuzi bilan donishmanddan ustun bo‘lsa, donishmand shohdan bilimi ila ulug‘. Donishmandning shohga ehtiyoji yo‘q, ammo shoh donishmandga hamsha muhtojdir. Allomaga jazo bergan sultonda na aql, na imon bo‘ladi. Oraga sukut cho‘kdi. Ulug‘bekning bu so‘zidan keyin Shamsibek sirni ochishga ehtiyoj sezdi. Zotan Ulug‘bekning bu sirdan voqif bo‘lishi, Shamsibekning nazarida foydadan xoli emasdi.*

*Afv eting, shahriyorim, mening bunday fikrim yo‘q edi. Faqat ustoz fojast xayolimga kelganidan aytdim... Asl oltin olish uchun inson qoni shurkor...*

(T.Malik. “Falak”)

**7-amaliy ish.** Berilgan gaplardan ko‘plikda qo‘llangan ot turkumiga mansub so‘zlarni ajrating va ko‘plikning hosil bo‘lish usulini belgilang.

1. *Men Ollohim yuborgan barcha jabr-u jafolarni ko‘rib bo‘ldim* (T.Malik). 2. *Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi* (O‘.Hoshimov). 3. *Jamiki yaxshi niyatlar senga hayot yo‘lingda hamroh bo‘lsin, bolajon* (“Saodat” jurnali). 4. *Shu vaqt besh-olti odam kelinli uy dahliziga keldi* (T.Murod). 5. *Sen chiqavergin, quncha ko‘p nur sochsang, yer yuzida yomon odamlar shuncha kamayadi* (O‘.Hoshimov).

**8-amaliy ish.** Ko‘plik shaklida kelgan atoqli otlarni ajrating va ularning ma’nolarini izohlang.

- 1. Arava Zebilar masjidi oldiga yetganda, Razzoq so 'fi bir necha kishi bilan birga boshqa bir aravada qarshi tomonga o 'tib ketdi (Cho'lpon).*
- 2. Balki Qodiriylar, Cho'lponlar, Usmon Nosirlar dilida armon bo'lib ketgan gaplarni aytish uchun taqdir bu yaxshi kunlarni bizga ravo ko 'rgandir (S.Ahmad). 3. G'afur G'ulom, Oybeklar nazari tushgan sendek ijodkor do 'stimiz bilan faxrlanamiz (S.Ahmad). 4. – Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolsinmi? (Cho'lpon)*

### **Otlarning kichraytirish, erkalash, hurmat shakllari**

**1-amaliy ish.** Quyidagi otlardan kichraytirish, erkalash va hurmat ma'nosiga ega otlar yasang.

*Bog', tugma, singil, tog'a, Hafiza, kelin, ona, qo'zi, Durdona, qiz, bola, qop, yigit, Asad, o'rtoq, ko'rpa, Sarafroz, yulduz, E'zoza, toy, Imrona, yo'lak, Diyor.* ☺

**2-amaliy ish.** Quyidagi she'riy parchalarda qo'llangan kichraytirish, erkalash va hurmat shakllarini belgilang. Ular qanday ma'no ifodalayotganligiga izoh bering.

*Salim, Salim, Salimjon,  
Buncha bo 'lding sen nimjon?  
Koptok misol semirding,  
Go 'yo taning xamirjon,  
Salimjon-nimjon.*

(P.Mo'min)

*Akacham oy tomon boraman, deydi,  
Bulutlar ko 'ksini yoraman, deydi.  
Ha-yu, chiitigul!  
Ha-yu, chittigul!*

*Yulduzdan yulduzga o'taman, deydi,  
Singiljon, yoningga qaytaman, deydi.  
Ha-yu, chiitigul!  
Ha-yu, chittigul!*

(Muhammad Ali)

*Xunuk Laycha bor edi,  
Kaltatumshuq – puchuqcha.  
Akillardi unga ko ‘p  
Chiroyli og Kuchukcha.*

(Anvar Obidjon)

**Jumally ish.** Yaqinlaringiz, qo’shnilaringiz farzandlarining ismiga qanday qo’shimchalarни qo’shib murojaat qilishadi? Kuzating va mazkur qo’shimchalar qanday grammatik ma’no ifodalashiga diqqat qiling.

**Jumaliy ish.** 10-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (N.Mahmudov va bosh. Ona tili. 10-sinf. –Toshkent, 2017. 51-b.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**58-mashq.** Berilgan gaplardagi so‘zlarda subyektiv baho qo’shimchalari ifodalayotgan ma’nolarni izohlang.

1. Aylanayin oqchamdan, Lablari qaymoqchamdan, Bay-bay ekan ko‘ylakchasi, Ko‘ylakchasi-mo‘ylakchasi, Chiqa qolsin mo‘ylabchasi (“Bo‘lolar folklori”). 2. Hamma “kattakonning kuchugi” deb atay boshlagan bu maxluq, aslida, jimitdekkina laycha yo jo ‘n-jaydari ko‘ppak emas, naqd yo‘lbarsdek keladigan bir balo! (Erkin A’zam) 3. O’zingiz uyga kirib andakkina damingizni olsangiz-chi, aylanay! Yo‘ldan kelgan odum! (Erkin A’zam) 4. O’zlari shiringina taom pishirib yeb, kechqurun boyga g‘ozi yo‘q, suyuq osh tayyorlab qo‘yishar ekanlar (Oybek). 5. Tentakkinam Hamroalini topib kelib, issiqsovug‘idan xabar olib turinglar (Said Ahmad). 6. Samolyot uchishiga to‘rt soat qolganda, Aziztoyning hujjatiga pechat yumshoqqina qilib bosildi (X.Do‘stmuhammad). 7. Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deb ohista egilib, o‘g‘lining yuzidan o‘pdi (O‘.Hoshimov). 8. Birpasda darchadarvozalardan chiqib kelgan yetti-sakkiz bolakay Habibullani o‘rab olishdi. (Sh. Xolmirzayev) 9. Chol turib, ko‘ziga yosh oldi: – Afv et, bo‘talog‘im! (Sh.Xolmirzayev)

## Otlarning morfologik tahlili

**1-amaliy ish.** Berilgan maqollarda qo‘llangan otlarni aniqlang va morfologik tahlil qiling.

1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan.* 2. *Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, mulla bo‘lsang, takror qil.* 3. *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.* 4. *Mingta yolg‘ondan bitta rost yaxshi.* 5. *Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l.* 6. *Yog‘ochni uzun kes, temirni qisqa.* 7. *It axlat yemasa, boshi og‘riydi.*

### Tahlil tartibi:

1. Otning so‘rog‘i va ma’no turi aniqlanadi.
2. Otning tuzilishiga ko‘ra turi belgilanadi.
3. Otning grammatik shakliga (kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalari) tavsif beriladi.
4. Otning sintaktik vazifasi belgilanadi.

**Namuna:** *Yigit* – kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi, shaxs oti, bosh kelishikda, birlik shaklida, ega sintaktik vazifasini bajargan.

**2-amaliy ish.** Ajratib ko‘rsatilgan otlarni morfologik tahlil qiling.

*O’sha ayg‘oqchilardan biri Qo‘qon xoni – Xudoyorning saroyiga ham kirishga tuyassar bo‘lgandi* (O‘.Hoshimov).

**3-amaliy ish.** Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh. Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.


**241-mashq.** Quyida berilgan mashqimiz “Xato toping” deb nomlanadi. Noto‘g‘ri qo‘llangan kelishik qo‘shimchalarini aniqlang.

1. Aitzlarim, tinglasangiz jim,  
bir suhabatning keldi-da gali.
2. Insonga eshitish qobiliyati tufayligina til, nutq paydo bo'ladi.  
Odatoy idan kirgan tovush, so'z, gap va iboralar shaklida og'ziga chiqadi, chuning uchun ham donishmand xalqimiz: "Suv onasiga – buloq, so'z  
mavilga – quloq" deb beziz aytmagan. Shu bois qadimda homilador ayollarga zavqli qo'shiqlar, ramzli, ta'sirchan so'zlardan-da tashkil bo'yim lattifalar, hikmatlar aytilgan, ona tabiatidan, ruhli holatidan qarab  
vayta harakat qilingan, ta'sirchanda so'zlar topilgan.
3. O'tkir Hoshimov tinglamoqlik san'ati haqida: "Meni shu qadar yurt  
iboriga tushmog'imda bir kichik xislat, ya'ni tinglash, tinglay olishligim  
ko'proq yordam bergen bo'lsa ajab emas. Negaki, men shu kun qadar  
inglayan, tinglayotgan saboqlarimni yurtni o'ziga asar sifatida taqdim  
etivapman", degan edi.
4. So'z tinglaganda u yoq-bu yoqqa alanglab yoki hardamxayollik  
bilan emas, alohida e'tiborda tinglaganlar. Ayniqsa, kattalar tomonidan  
berilgan dashnom, tanbehni sukut saqlab eshitganlar.
5. Qarashda noravo narsada kar bo'l, tinglashda noloyiq, gap-so'zda  
kar bo'l.
6. Tinglash ham so'zlashga kam baholanmaydigan mehnat bo'lib, uni  
yomon qoldalariga amal qilsangiz, yaxshi suhabtdosh bo'lishni birinchi va  
eng munim shartiga amalda qilgan bo'lasiz.
7. Ona tilidan mahrum bo'lish – onadan ajrab qolishdan ham  
mu'mishiroq.
8. Ey, qobil farzandi arjumand, iloyo, sizning yomon ko'zdan,  
mog'hony ajal, balo-qazolardan, bevaqt o'lim va tuhmatlardan o'z  
panahida asrasin.



**Bilimingizni tekshirib ko'ring!**

Ot so'z turkumi yuzasidan egallagan bilimingizni “Klaster” usuli  
orqali tekshirib ko'ring. Chizmadagi tarmoqlarni to'ldiring.



**Ot so'z turkumiga oid bilimingizni quyidagi test savollari asosida tekshirib ko'ring.**

1. Jamlovchi ot ishtirok etgan gapni toping.  
 A. Askarlar saf-saf bo 'lib maydondan o 'tmoqdalar.  
 B. Maktabga juda ko 'p badiiy kitoblar olib kelindi.  
 C. Odamiy ersang, demagil odami, Onikim yo 'q xalq g'amidin g 'ami.  
 D. Besh-olti odam yig 'ilib maslahatlashaylik, bir qarorga kelarmiz.
  
2. Qaysi gapda shaxs oti ega sintaktik vazifasini bajarib kelgan?  
 A. Qassoblik – ota-bobomizdan qolgan qadimiy hunar.  
 B. Buvimni ertalabdan nega chaqiradilar?  
 C. Tikuvchi eridan ham qo 'lini yuvib qo 'ltig 'iga urgan edi.  
 D. Ertasi kuni cho 'ponning daragi chiqdi.
  
3. *Tepada bir ummon, pastda bir ummon,  
 Ikki dengiz aro kechar lahzalar.  
 Xayolga tolaman: men o 'zi kimman?  
 Ojiz va notavon zarra... alhazar!*

Ushbu she'riy parchadagi ot turkumiga mansub so'zlar miqdorini aniqlang.

- A. 6 ta.
- B. 5 ta.
- C. 4 ta.
- D. 8 ta.

4. Insonlar o'rtasidagi munosabatni anglatuvchi otlar ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. *Kotiblik, saxyiy, muhabbat.*
- B. *O'qituvchilik, ishonch, hushyorlik.*
- C. *Mehr, hayajon, xalq.*
- D. *Saxylylik, sadoqat, shafqat.*

5. Qaysi qatorda narsa otlarini yasovchi qo'shimchalar berilgan?

- A. -ma, -boz, -kor, -g'ich.
- B. -Indi, -goh, -im, -lik.
- C. -oq, -g'i, -gar, -ak.
- D. -gt, -k, -don, -gich.

6. Faqat birlik shaklda qo'llanuvchi otlarni toping.

- A. *Choy, oyoq, uzum, Lola.*
- B. *Xalq, vodiy, ota.*
- C. *Ishonch, o'smir, til.*
- D. *Obro', tilak, yurak.*



## UYGA VAZIFA

- ✓ Badiiy ijod namunalaridan qaratqich, tushum, jo'naliш, o'rinpays, chiqish kelishigi bosh kelishik bilan o'rin almashgan holatlarga misollar toping. Kelishiklarning o'rin almashinuvida yuzaga kelgan mu'noviy farqlarni sharhlang.

- ✓ Badiiy ijod namunalari asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Nº	Otlarning ma’no turlari	Misollar
1.	<i>Antroponimlar</i>	
2.	<i>Zoonimlar</i>	
3.	<i>Toponimlar</i>	
4.	<i>Astronomilar</i>	
5.	<i>Teonimlar</i>	
6.	<i>Xrematonimlar</i>	
7.	<i>Fitonimlar</i>	
8.	<i>Xrononimlar</i>	

✓ O‘zingiz yashab turgan hududdagi joy nomlarini yozing.  
Ulardan ikkitasining nomlanish tarixini o‘rganing.

✓ Bir joy nomining ikkinchi qismi keyingi joy nomining birinchi qismi bo‘lib keladigan (yoki, aksincha) sakkizta juftlik topib, daftaringizga qayd eting.

### NAMUNA: *Sovuqbuloq – Buloqboshi*

✓ Quyida berilgan otlarning imloviy xatolarini to‘g‘rilang va “Imlo lug‘ati” bilan tekshiring.

*Oliy attestasiya komissiyasi, temuriylar tarixi davlat muzeyi, toshkent viloyat davlat pedagogika instituti, navoiy viloyat hokimligi, fan nashriyoti, o‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi, mustaqillik bayrami.*

## SIFAT SO'Z TURKUMI



**I-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid bayanch tushunchalarga izoh bering. O’qituvchingiz tomonidan berilgan qo’shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.


Tushunchalar	Izohi	Qo’shimcha ma’lumotlar
Astly sifatlar		
Nisbty sifatlar		
Sifat durajalari		
Sodda sifatlar		
Ochimma sifatlar		
Jift sifatlar		
Lokrovity sifatlar		
Sifatlarning otlashuvi		

**I-anally ish.** A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidan olingan quyidagi matnda qo’llangan sifatlarga morfologik tavsif bering.

Uyning to’riga soling’an atlas ko’rpa, par yostiq quchog’ida qurugdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg’oq yotqan bir qizni ko’rami. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig’a tartibsiz urata to’zg’ib, quyuq jinggila kiprak ostidag’i timqora ko’zları bir miqayg’da tikilgan-da, nimadir bir narsani ko’rgan kabi... qop-qora kamon, o’tib ketkan nafis, qiyig’ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho’chigan kabi... to’lg’an oydek g’uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg’da aylangan-da, kimdandir uyalg’an kabi... Shu vaqt ko’rpani qayirib urilaygan oq nozik qo’llari bilan latif burnining o’ng tomonida, tabiatning urboyatda usta qo’li bilan qo’ndirilg’an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o’turdi. Sariq rupoh atlas ko’ynakning ustidan uning o’rnacha ko’kragi bir oz ko’tarilib turmoqda edi. Turib o’lturgach boshini bu silkitdi-da, ijirg’anib qo’ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to’g’ig’an soch tolalari o’rab olib jonso’z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko’ringan malak Qutidorning qizi – Kumushbibi edi.



**3-amaliy ish.** Berilgan so‘zlarga mos keluvchi sifatlarni topping va slayd kataklarini to‘ldiring.



**4-amaliy ish.** Sifat so‘z turkumi yuzasidan lug‘aviy boyligingizni tekshirib ko‘ring.

Misollar	Ma'nodoshi	Semantik ziddi
chiroqli	go'zal	xunuk
shirin		
yaxshi		
baland		
uzoq		
aglli		

### Sifatning ma’no turlari

**1-amaliy ish.** Sifatning har bir ma’no turiga 6 tadan misol topping.

1. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar:
2. Holat bildiruvchi sifatlar:
3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar:
4. Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar:
5. Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar:

5. Hid bildiruvchi sifatlar:

6. Makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar:

**2 umally ish.** Berilgan sifatlarga xos belgilarning umumiy va farqli xususiyatini quyidagi jadval asosida aniqlang.

Misolilar	Tashqi ko'rinish	Xarakter-xususiyat	Ruhiy holat
chirojt	+	-	-
n'omgin			
chaqqon			
no'chon			
o'shqa'l			
o'sim			

**3 umally ish.** “O‘z-o‘zinga baho” mavzusida kichik matn tuzing. Matn tuzishdan avval ushbu jadvalni to‘ldiring. Ro‘yxatdagi sifatlarga mos kelgjan juvoblarni “Ideal” va “Men” ustunlariga “+” va “-” belgilarini qo‘yish orqali qayd eting. Ko‘rsatkichlarni tahlil qiling va xulosalaringiz asosida o‘z-o‘zingizga baho bering. Ro‘yxatga idealningizda yoki o‘zingizning qaysi sifatlaringizni kiritishni xohlagan bo‘lardingiz.

Axody ro‘yxat	Ideal	Men
vijdonli		
qat’ly		
chaqqon		
vatanparvar		
tezkor		
talabchan		
vazmin		
kuzatuvchan		
g‘ayratli		
savly		
kiritshimli		
g‘urmatli		
ozoda		
halol		
tashabbuskor		
faol		
kamtar		
farosatli		
quvnoq		
sushmuomala		
aqli		

## Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

**1-amaliy ish.** Berilgan gaplarda qo‘llangan qo‘shma sifatlarni ajratib, sintaktik vazifasini belgilang.

1. ...Ular egniga jigarrang kostyum kiygan, kiygan qirradoraqalpog‘iga qizil bog‘ich tikilgan xuddi o‘zlaridek qoshsiz, yuzi surpkamarli kishiga sening uyingni ko‘rsatib nimadir deyishar va qo‘llarini silkib-silkib qo‘yishardi (N.Eshonqul). 2. Yoshingiz o‘n sakkizda, alpqomat yigitsiz (P.Qodirov). 3. Shuning uchun boyoq o‘qigan kitoblaridagi jimjimador, balandparvoz uslub bu yozuvlarga mutlaqo yarashmasligini sezardi (P.Qodirov). 4. O‘z farzandlariga toshko‘ngil bo‘lgan odam xalqqa qanday manfaat yetkazishi mumkin?! (So‘zl.)

**2-amaliy ish.** Maqollarda qo‘llangan sifatlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra turini belgilang.

**NAMUNA:** achchiq – ta’m bildiruvchi sifat, sodda yasama sifat.

1. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni – yurgan.
2. Yolg‘onchida or bo‘lmas, to‘g‘ri so‘zli xor bo‘lmas.
3. Ishyoqmas o‘roqchi o‘roq tanlar.
4. Ochiqyuz – oshdan shirin.
5. Mingta yolg‘ondan bitta rost yaxshi.
6. Yog‘ochni uzun kes, temirni qisqa.

**3-amaliy ish.** *Ot + ot, sifat + ot, ot + fe'l* tarkibli qo‘shma sifatlar ishtirokida kichik matn tuzing. Sifatlarni ma’no jihatdan tasniflang.

## Sifatlarda daraja shakli

**1-amaliy ish.** Berilgan matndan sifatlarni ajrating va qanday darajada ekanligini aniqlang.

Dunyodagi eng ayanchli narsa balki erkakning yig‘lashidir. Qamoqlagerlarida esa tez-tez uchrab turgani uchunmi ayanchli tuyulmaydi. Kunduzlari butalar panasida, tunlari esa yostiqqa hasratlarini to‘kkantarzda yig‘lash odatiy hol. Lekin bu chorasisiz odam kabi ho‘ngrab, yelkalari silkinish darajasida yig‘lamoq juda kamyob hodisa. Shu sababli ham «Nima bo‘ldi, nega dodlayapsan?» deb so‘raguvchilar topildi. Chorasiz odam avvaliga qo‘l siltab qo‘yib javob bermadi. Dam o‘tmay

*ko‘shi daryosi qurib, hasrat dengizi esa tosha boshlagach, dardini  
aydi.*

(T.Malik. "Murdalar gapirmaydilar")

**1-amally ish.** Matnda berilgan sifatlarni ajrating va turli daraja shakllari bilan o‘zgartiring. Ma’nodagi o‘zgarishlarga e’tibor qarating.

*Shuhrat – yoqimli, ammo aldamchi narsa. U tog‘ cho‘qqisiga  
o‘shaydi. Qancha baland ko‘tarilsangiz, shuncha ko‘zingiz tinadi.  
Hushyor bo‘ling! Bitta nojo‘ya qadam qo‘ysangiz, jarlikka uchib  
kerishingtz aniq!*

(O‘.Hoshimov. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»)



**3-amaliy ish.** Matnda qo‘llangan sifatlarni aniqlang va jadvalni to‘ldiring.

Sifat	Sifatning ma’no xususiyatiga ko‘ra turi		Sifatning tuzilishiga ko‘ra turi			Sifatning daraja shakli		
	nsliy	nisbiy	sodda	qo‘shma	juf va takroriy	oddiy	ozaytir-ma	orttir-ma
yoshi	+		+			+	-	

*Rivoyat qilurlarkim, Hazrati Umar (r.a.) juda mo‘tabar, pishiq-puxta bir odamni shahar hokimi etib tayinlamoqchi bo‘ldilar. Kotib farmonni yozishga kirishgan onda bir yosh go‘dak kirib amiralmuslimining uvalariga chiqib o‘tirib oldi. Xalifa bolakayni o‘pib, erkaladilar.*

*Hokimlikka tayinlanayotgan kishi buni ko‘rib:*

- Bu go‘dak o‘z o‘g‘lingizmi? – deb so‘radi.
- Yo‘q, bu bir kambag‘al insonning farzandi. Ota-onasi vafot etgan. Bolani o‘z tarbiyamga olganman, – dedilar Hazrati Umar.

*U kishi xalifaning muloyim qalbli, shafqatli va marhamatli okonliklariiga ajablanib, dedi:*

– Mening o'nta farzandim bor. Men o'z bolalarimni ham erkalab, o'pmayman. Bolalarim meni ko'rishganda zirillab turishadi. Ota shunday qattiqqo'l bo'lishi kerak emasmi?

Xalifa bu so'zlarni eshitib, yozilgan farmonni olib yirtib tashladilar-da, dedilar:

– Bu odamni hokim etib tayinlashni istamayman. O'z farzandlariga toshko'ngil bo'lgan odam xalqqa qanday manfaat yetkazishi mumkin?

### Sifatlarning otlashuvi

**1-amaliy ish.** Sifatlarning gapda otlashuvi va ravish vazifasida kelishi haqida ma'lumot bering.

**2-amaliy ish.** Berilgan maqollardagi otlashgan sifatlarni aniqlang va gapdagi sintaktik vazifasini belgilang. Maqollarning mazmuniga izoh bering.

1. Egri bitganni el to'g'rilaydi. 2. Tekinxo'r qopib yeydi, Mehnatkash topib yeydi. 3. Xushchaqchaqqa yo'l ochiq. 4. Yalangoyoqqa daryoning ikki tomoni ham bir. 5. Betamizga besh kun hayit. 6. Yalqov bilan anqov – dushmanaga katta ov. 7. Yaxshida gina bo'lmas, yomondan gina ketmas.

### Sifatlarning morfologik tahlili

**1-amaliy ish.** Matnda ajratib ko'rsatilgan sifatlarni morfologik tahlil qiling.

Asad Mullayev Sultonning *iste'dodli shogirdlaridan*, *ba'zi topilmalarni tekshirishni* Sulton ko'proq shu shogirdiga ishonardi. U telegrammani o'qiboq, *yangi jiddiy ish boshlanajagini* angladi. Asad *mayda-chuyda narsalar uchun ustozini bezovta qilavemasdi*. Sulton hamkasbidan uzr so'rab Toshkentga qaytdi.

(T.Malik. "Falak")

#### Tahlil tartibi:

1. Sifatning so'rog'i va ma'no turi aniqlanadi.
2. Asliy yoki nisbiy sifat ekanligi belgilanadi.
3. Sifatning darajasiga (oddiy, orttirma, ozaytirma) tavsif beriladi.

4. Sifatning tuzilishiga ko‘ra turi belgilanadi.
5. Sifatning gapdagi sintaktik vazifasi belgilanadi.

**Jumally ish.** Matnda qo‘llangan sifatlarni morfologik tahlil qiling.

Xonadoningizda keksa odam bormi? Baxtli ekansiz! Dunyo hujayshlaridan to‘yib ketsangiz shularni ziyorat qiling: hayot abadiy masligini o‘ylab, taskin topasiz.

Xonadoningizda go‘dak bormi? Siz ham baxtli ekansiz ... dunyo hujayshlaridan to‘yib ketsangiz, go‘dakni bag‘ringizga bosing: hayot abadiy ekanini o‘ylab, taskin topasiz ...

(O‘.Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

**Jumally ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni ishlang.

**247-mashq.** Nuqtalar o‘rniga sifat turkumiga oid so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

... Farzandlar! Bilginki, insonga beriladigan ... sifat odobdir. ... avloqqa ega bo‘lishi ham odobdan sanaladi. Xush va odobli kishilarga burcha, hatto dushmanlari ham tan beradi. ... odamni esa, hamma invonlar, hatto ota-onasi ham yomon ko‘radi.

Odob har bir fazilatga yo‘ldir.

Kimki yoshligida .... bo‘lmasa, bir umr bad... qolib ketishi mumkin.

Majlis olobi. Ey ... bolam! Maktabga borsang, o‘z o‘rningga o‘trasan, ammo ... kishilar orasida ... roq joyga o‘tirganing afzal. Ikki kishining o‘rtasiga ularning ... hech qachon o‘tirma. Ohista va muloyimlik bilan o‘tir. Gapisang gaping ... bo‘lsin. Shoshma-shosharlik qilma, palapartish gapirma. Ko‘p kulishdan, hazil-mutoyibadan uzoq bo‘l! Barmog‘ing bilan burningni o‘ynama. Tuplamagan. Esnasang, chap kastningning orqasi bilan og‘zingni bekit. «Astag‘firulloh» degin. Akyirsang, darhol «Alhamdulliloh» degin. Hammaga ... yuzlik, muloyimlik bilan gapir.

Muomala olobi. Ey farzandim! Inson yolg‘iz yashay olmaydi. Qalblar hamisha bir-biriga ... talpinib turadi. Shuning uchun ... do‘srlar paydo bo‘ladi, o‘zaro hamjihatlik yuzaga chiqadi ... odamlar bir-birlariga yordam beradi, ko‘ngillar ulfat tutinadi. Do‘srlaringning mehrini qozonay

*desang, ulardan ... munosabat ko'rishni xohlasang, sen ham ularga ... muomalada bo'lishing lozim. Xulqi ... bolalarni yaxshi bo'lishga chaqir. Yolg'on gapisirishdan, dangasalikdan butunlay hazar et.*

(A. Hikmatov)



### **Bilimingizni tekshirib ko'ring!**

Sifat so'z turkumiga oid bilimingizni quyidagi test savollari asosida tekshirib ko'ring.

1. Nisbiy sifatlar berilgan qatorni aniqlang.
  - A. *Qishki, tonggi, yuzaki.*
  - B. *Qalin, shalabbo, g'amgin.*
  - C. *Ko'chma, paxtali, soyaki.*
  - D. *Kuzgi, sermeva, dag'al.*
  
2. *Ot + ot* tipidagi qo'shma sifat ishtirok etgan gapni toping.
  - A. *Qulog'im ostida uning ichakuzdi latifalari, qiziq-qiziq hikoyalari haligacha jaranglaydi.*
  - B. *Shaharning osmono 'par binolari bir lahza xayolimni oldi.*
  - C. *Toshbag 'ir odamdan yaxshilik kutib bo'ladimi?*
  - D. *Yurtimizda sofdir, jonkuyar, mehnatkash insonlar ko'plab topiladi.*
  
3. Ikkinci qismi mustaqil holda ma'no anglatmaydigan juft sifatlar berilgan javobni toping.
  - A. *Apil-tapil, alang-jalang, aldam-suldam.*
  - B. *Turli-tuman, eski-tuski, kiyim-kechak.*
  - C. *Egri-bugri, choy-poy, qing 'ir-qiyshiq.*
  - D. *Qora-qura, gadir-budur, yengil-yelpi.*
  
4. Sifatdan yasalgan fe'l ishtirok etgan gapni toping.
  - A. *Rang-barang chiroqlar uzoqdan yiltillab o'ziga chorlaydi.*
  - B. *Onam bu ko'ylakda yanada yashargandek edilar.*
  - C. *Farhodni bu ishlari uchun ayblab bo'lmaydi.*
  - D. *Hakimovni qo'llab-quvvatlaydiganlar, olqishlaydiganlar ko'paygandan ko'paydi.*

5. Ostobdan qo'rqqan, sovuq tunda o'rmalab kelib ochilajak kuriaklarni bo'g'ib ketgani kabi o'zlarini erkparvar deguvchilar pinhona beshrafqat kurashni avj oldirar edilar. Ushbu gapda nechta yasama sifat mavjud?


- A. 3 ta.
- B. 4 ta.
- C. 5 ta.
- D. 2 ta.

6. Makon va zamon munosabatiga ishora qiluvchi sifat ishtirok etgan jumni toping.

- A. Uydagilash-lushlarning hammasini chiqarib sotibdi.
- B. Uzun-qisqa bo'lib hammasi kirib kelsa, hayron bo'lib qolibmiz.
- C. Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug'orayotgan edim.
- D. Hoji boboning bog'ida charos, chillaki, soyaki kabi uzum navlari bor.



Sifat so'z turkumi yuzasidan egallagan bilimingizni "Klaster" usuli orqali tekshirib ko'ring. Chizmadagi tarmoqlarni to'ldiring.





Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. O'zbek tilshunosligida sifat turkumi qaysi tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan?
2. Sifatlar so'z turkumlari paradigmasining boshqa a'zolari bilan qanday umumiy belgilarga ega?
3. Sifatning boshqa so'z turkumlaridan xususiy, farqlanishga asos bo'lgan belgilari qanday?
4. O'zbek tilshunosligida sifatlar ma'no jihatdan qanday tasniflandi?
5. Sifatlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'r ganildi?
6. Sifatlarda daraja kategoriysi qanday namoyon bo'ladi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Ilmiy manbalar asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.
  1. Sifat va ravish darajalarini qiyoslang. Ular o'rtasidagi farqni izohlang.
  2. Sifatlarda daraja kategoriysi muammosi tadqiqiga oid ilmiy manbalar bilan tanishing. Ularga munosabat bildiring.
- ✓ O'.Hoshimov asarlaridan olingan misollar asosida sifatlarning otlashuvi haqida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ A.Navoiyning "Sab'ayi sayyor" asaridan o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan rang-tus ifodalovchi sifatlar ishtirot etgan 10 ta gap toping.

## SON SO'Z TURKUMI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mayzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchингиз томонидан berilgan qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozing.

Tushunchalar	Izohi	Qo‘srimcha ma’lumotlar
Miqdor son		
Dona son		
Taqsim son		
Channa son		
Jamboychi son		
Tartib son		
Hixob so‘zlar		
Sonlarning otlashuvi		
Sodda sonlar		
Qo’shma sonlar		
Jift sonlar		
Lokrory sonlar		

**2-amaliy ish.** Berilgan matndan son turkumiga mansub so‘zlarni ajratib ko‘chiring va morfologik tavsif bering.

*Shu voqeadan so‘ng quyosh ikki qayta zaminni yoritib, ikki marta may’rib sari bosh qo‘ydi. Uchinchi bor mashriqni qizartirib ko‘tarilar chog’ida qorayib turgan tuxumsimon kema atrofida harakat sezildi. Ayvalqga uch quloch keladigan chigirtkasimon temir maxluq – uzoqdan turib boshqariluvchi sayyorapoy ko‘rindi. U to qosh qorayguncha yon-atrofda izg‘ib yurdi. Keyin iziga qaytdi. Kemaning yumaloq tuyumukchalarida nur ko‘rindi.*

(T.Malik. “Davron”)

**3-amaliy ish.** Quyidagi sonlar ishtirokida so‘z birikmalari tuzing va ularni jadvalga kiriting: *yuz, yetti, o‘n besh, yetti yuz to‘rt, sakson, yigirma,*

Sonlarning harflar bilan yozilishi	Sonlarning arab raqamlari bilan yozilishi	Sonlarning rim raqamlari bilan yozilishi

**4-amaliy ish.** Maqollarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni tiklang. Har ikki qo‘llanishdagi sonning sintaktik vazifasini aniqlang.

**NAMUNA:** *Tayog ‘i yo ‘q birni yiqa – to‘ldiruvchi.*

*Tayog ‘i yo ‘q kishi bir kishini yiqa – aniqlovchi.*

1. *O‘ttizada er atangan, qirqida sher atanar.*
2. *O‘q birni o‘ldirar, so‘z – mingni.*
3. *To‘qqizida bo‘lmagan aql, to‘qsonida ham bo‘lmas.*
4. *Tayog ‘i yo ‘g‘on birni yiqa, so‘zi yo ‘g‘on mingni yiqa.*
5. *Yuzga kirsang ham hunar o‘rgan.*
6. *To‘qqizida qanday – to‘qsonida shunday.*

**5-amaliy ish.** Hayotingizdagi eng muhim sanalar va ular bilan bog‘liq voqealarni hikoya qiling. Sonlarning qo‘llanishiga e’tibor qarating.

### Sonlarning ma’no turlari

**1-amaliy ish.** Tartib sonlarni aniqlang va gapdagi sintaktik vazifasini belgilang. Ularning imlosi xususida ma’lumot bering.

*Iste ‘doli adib hayotida ikki marta xatarli bosqichdan o‘tadi. Birinchisi – nimaiki yozmasin chiqarishi mushkul palla. Ikkinchisi – nimaiki yozmasin, chiqarishi oson bo‘lgan palla. U birinchi bosqichdan omoneson o‘tadi. Ammo ikkinchi bosqichdan o‘tishi og‘ir, juda og‘ir...*

(O‘.Hoshimov. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»)

**2-amaliy ish.** Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Nº	Sonlarning ma’no turlari	Misollar
1.	Sanoq son	
2.	Dona son	
3.	Chama son	
4.	Jamlovchi son	
5.	Taqsim son	
6.	Tartib son	

**1-amally ish.** Berilgan matndan miqdor sonlarni ajrating.

*Muhammadrizo bularni beshga bo'lib to'rt qismini o'g'il-qizlariga berdi, bir ulushini o'zi oldi. Kutilmagan boylikdan esi og'ib qolayozgan shaxsiy xorijga o'tish haqida so'z ochganida uning javobi qisqa bo'ldi: - "Bu tovoq yovg'on bilan odamning qorni to'yadi. Xorijga borsang ham bir tovoqqa to'ysan. Ikki tovoq yeyolmaysan, bo'kib o'lasan.*

(T.Malik. "So'nggi o'q")



**4-amally ish.** Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Yani	Son shakllarini yasovchi qo'shimcha -ta (yettita)	Sonning ma'no turi dona son

**5-amally ish.** Son turkumiga mansub so'zlarni ajratib, ma'no turini aniqlang.

*Xobgohdan ikki xona narida hashamatli uyda allaqachon tuzab qo'yilgan dasturxon Mirzoga muntazir edi. Uning kecha iftordan so'ng beryan amriga muvofiq bugungi saharlik uchala xotinlari va bolalari bilan birga qillinishi kerak edi. Mirzoning birinchi xotini Fotima Sulton, ikkinchi xotini Qutlug' Nigor xonim, o'n sakkiz yoshlik qizi Xonzoda begin va o'n yashar o'g'li Jahongir Mirzo -hammalari o'sha tanobiy uyga yig'ilgan edilar.*

(P.Qodirov. "Yulduzli tunlar")

**6- amally ish.** Matnni o'qing, sonlarni topib, ma'no turini aniqlang. Raqam bilan ifodalangan sonlarni harflar bilan, harflar bilan yozilgan sonlarni raqam bilan aks ettiring. Sonlarning imlosiga e'tibor bering.

### Tarix "xatosi"

*To'qqizinchchi asr. Muhammad al- Xorazmiy algebra faniga asos soldi.*

*O'ninchchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Metafizika" asariga chiq mukammal sharh yozib, "ikkinchchi ustoz" unvonini oldi.*

*On birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi. Ibn Sino medetsina Qomusi – "Tib qonunlari" ni yaratdi.*

*O'n to'rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevroosiyoning yarmini tasarrufga oldi. Ahli ilm boshini silab, o'lmas obidalar yaratdi.*

*O'n beshinchi asr. Ulug'bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa" sini yozdi.*

*O'n oltinchi asr. "Boburnoma" olamga tarqaldi.*

*O'n yettinchi asr. Shoh- Jahon dunyodagi yetti mo'jizaning biriga tatigulik "Tojmahal" ni bunyod etdi.*

*Yigirmanchi asr. O'zbek-sovet olimlari misli ko'rilmagan "ixtiro" qildilar: tarix "xato"sinu tuzatib, o'tmishda biz yoppasiga "savodsiz" bo'lganimizni isbotlab berdilar...*

(O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

**7-amaliy ish.** O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asari dan olingan ushbu matnda qo'llangan sonlarning ma'no turi va sintaktik vazifasini belgilang.

*Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga yetib boradi.*

*Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga yetib boradi.*

*Notiqning So'zi ming tinglovchiga yetib boradi.*

*Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning so'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir.*

### Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari

**1-amaliy ish.** Berilgan matndagi sonlarning tuzilishiga ko'ra turini belgilang.

*Mustaqillik davrida O'zbekiston iqtisodiyoti 5 karradan ziyod o'sgani, mamlakatimiz aholisi o'n yarim millionga ko'paygani holda uning daromadlari qariyb 9 barobar oshgani, odamlarimizning o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73 yarim yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga uzaygani singari beqiyos yutuq va natijalarimiz bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, albatta.*

tunqsa, keyingi o'n yil davomida jahondagi sanoqli davlatlar  
yulpi ichki mahsulotimiz 8 foizdan kam bo'lmasan sur'atlarda  
o'sovolgani va 2015-yilda ham shunday natija kutilayotgani chindan ham  
sulqaro jamoatchilikning, yaqin va uzoq yon-atrofimizdagi qo'shni  
muntakabtlarning hayrati va havasini uyg'otmoqda.

(I.A.Karimov. "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk  
kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir")

**I-annally Ish.** Berilgan sonlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

O'n sakkiz, ikki, o'n to'rt yarim, bir-bir, to'rt-beshta, yigirma ikki, ikki  
ming o'n yetti, qirq, ming-ming, million, yuz, o'n-o'n beshta, oltmishto'rt,  
to'rtta, o'ttiz ikki, sakson, ikki-ikki yarim, ellikka-ellik.

Judda sonlar	Qo'shma sonlar	Juft sonlar	Takroriy sonlar

### Hisob so'zлari

**I-annally Ish.** Nuqtalar o'rniga maqollar mazmunidan kelib chiqib  
bolalii hisob so'zlarini qo'ying. Hisob so'zlarining ma'nosini izohlang.

1. O'ng'ir ish qirq ... keyin ham bilinar. 2. Bir ilon bir ... odamni  
tim hitmas. 3. O'n ... so'z ming ... bo'lar. 4. Oltmishto'rt ... ahmoqdan olti ...  
don vayshi. 5. O'zi bir..., to'ni qirq .... 6. Bir ... don – bir... non.  
7. Turkistonda qo'y bir ..., kela-kela o'n bir .... 8. Yuz ... puling  
bo'lguncha yuzta do'sting bo'lsin.

**I-annally Ish.** Hisob so'zlar bo'yicha egallagan bilimingizni "Insert  
jadval" da ifodalang.

Billib oldim	Billib oldim	Tushunmadim	Noto'g'ri fikr	Yangi g'oya

## Sonlarning morfologik tahlili

**1-amaliy ish.** Matndagi ajratib ko'rsatilgan sonlarni morfologik tahlil qiling.

*Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir, ikkinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi.*

(A.Qodiriy. "O'tkan kunlar")

### Tahlil tartibi:

1. Sonning so'rog'i va ma'no turi aniqlanadi.
2. Sonning tuzilishiga ko'ra turi belgilanadi.
3. Qanday hisob so'z bilan qo'llanganligi aniqlanadi.
4. Sonning sintaktik vazifasi belgilanadi.

**2-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**276-mashq.** Matnni o'qing. Unda ishlatilgan sonlarni ko'chirib, ularning ma'nosini, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

## Sabr-qanoam haqida

*Sabr-qanoat insonlar uchun buyuk bir fazilat. Inson har bir ishni sabr va qanoat bilan olib borsa, maqsadiga erishadi. Tinch va rohatda yashashni istagan kishi har ishda oshiqmay ohista harakat qiladi, nafsini falokatdan, g'ururdan saqlaydi. Sabr boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lishimizni talab etadi, shuning uchun ham birinchidan, har bir ishda sabr bilan harakat qilish lozim. Islom dinida sabr yuksak axloqiy fazilatlardan biri bo'lib, mo'min-musulmon kishining ruhiy tayanchi va hidoyatga boshlovchi omildir. Sabr haqida "Qur'oni Karim"da yetmish marotaba zikr qilingani ham bejiz emas. Boshqa hech qaysi fazilat bu miqdorda zikr etilmagan. Shuning uchun ham «Qur'oni Karim»ning*

“Qur'on” surasining 46-oyatida “*Sabr-toqat qilingiz! Alloh sabr qiluvchilar bilan buraqadtr*”, deyilgan.

“Qur'on” sabrli kishilarda uch xislat borligini, bu xislatlar ulardan bo'shilarda bo'lmasligini aytadi.

Uchinchisi, ularga Allohnинг mag'firati bo'ladi. Bu ular uchun maqtov bo'lib, bu dunyoda ham, u dunyoda ham sharafdir.

Ikkinchisi, Allohnинг rahmati. Musibat uchun Alloh lutf va ehson uladi.

Uchinchisi, ular hidoyatda yurgan kishilar sanaladi. Haq va to'g'ri ekanliklari uchun musibat chog'ida o'zini qanday tutish kerak bo'tsa, shunday tutganliklari bois ularga xafagarchilik va dard-u hasrat o'shukmini o'tkaza olmasligi ta'kidlanadi.

Sabr-toqatli kishi har bir ishda diyonatli, adolatli bo'ladi. U bosh-qolarning kamchiligidan kulmaydi, aksincha unga yaqindan yordam beradi. Sabr-qanoatli odamda atrofdagilarga huzur bag'ishlaydigan odotkor paydo bo'ladi. Sabr-toqat qanchalik og'ir bo'lmasin, keyinroq choollik keltiradi. Shu bois, sabr bilan zafar bir-biriga qadimdan do'st bo'lib kelmoqda.

(U. Mahkamov)



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Son bo'yicha egallagan bilimlaringizni o'zingiz tuzgan “Klaster”da aks ettiring.



### UYGA VAZIFA

✓ G'.G'ulom asarlaridan son turkumiga mansub so'zlar ishtirok etishni gaplarni topib ko'chiring. Sonlarning ma'no jihatdan turlarini aniqlang.

✓ Badiiy asarlardan tanlab olingan misollar asosida sonlarning ottashuvi haqida ilmiy xulosa yozing.

- ✓ A.Qodiriy asarlaridan chama sonlarni topib ko‘chiring, chama sonlarning hosil bo‘lish usuli haqida nazariy ma’lumot yozing.
- ✓ Bir so‘zi nutqda miqdor ma’nosidan tashqari yana qanday qo‘shimcha ma’nolarga ega? Misollar bilan izohlang.
- ✓ Tarixiy asarlardan iste’mol doirasidan chiqib ketgan yoki nofaol bo‘lgan hisob so‘zлari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Bugungi kunda bunday hisob so‘zлari o‘rnida qanday so‘zlar qo‘llanayotgani haqida o‘z fikringizni bayon eting. Bunda qiyoslash usulidan foydalanishga harakat qiling.
- ✓ Nomida son ishtirok etgan 5 ta badiiy asarni aniqlang.
- ✓ Chama sonlarning *ko‘p*, *oz*, *mo‘l* kabi noaniq miqdor anglatuvchi birliklardan farqini misollar orqali izohlang.

## OLMOSH SO‘Z TURKUMI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

Tushunchalar	Izohi	Qo‘shimcha ma’lumotlar
<i>Olmosh</i>		
<i>Ko‘rsatish olmoshlari</i>		
<i>Kishilik olmoshlari</i>		
<i>Gumon olmoshlari</i>		
<i>Belgilash olmoshlari</i>		
<i>Bo‘lishsizlik olmoshlari</i>		
<i>So‘roq olmoshlari</i>		
<i>Pronominalizatsiya</i>		
<i>Sodda olmoshlar</i>		
<i>Qo‘shma olmoshlar</i>		
<i>Juft olmoshlar</i>		
<i>Takroriy olmoshlar</i>		

**1-amally ish.** Matnda berilgan olmoshlarni toping va qaysi so‘z matnini o‘rnida qo‘llanganligini aniqlang.

*Torsotliklar endi aeroplanlar haqida gaplashishardi. Ular momonning alg‘ov-dalg‘ovlariga g‘arq bo‘lgan, hayotlarida yuz berayotgan yangiliklarni hazm qilib ulgurmasdi. Yillar bilan birga hamma muroja o‘garar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go‘yo uning uchun eng o‘sha holicha qotib qolganday, uni hamon o‘sha ellik yil oldingi - eri va o‘ye lining o‘ligini askarlar tepkilab o‘tishgan ustun oldidan topish mumkin edi.*

(N.Eshonqul. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”)

**2-amally ish.** O‘zaro zidlik munosabatiga kirishuvchi olmoshlarga mabollar keltiring.

**3-amally ish.** Quyidagi gaplarda qo‘llangan olmoshlarning grammatik shakliga tavsif bering.

1. Talabalar moddiy va ma’naviy ahvolining shu tobda g‘oyat chatoqligti – barchamizning dilimizdagi jarohat (Oybek). 2. Qadimgi bo‘adab qizlar qayoqda deysiz (Oybek). 3. Uning o‘ziga sariq atlasi xush kelsa-da, biroq hozir o‘z xohishini bir yoqqa qo‘ya turib Otobekning ko‘nglicha kiyinishka qaror berdi (A.Qodiriy). 4. Ammo uning istiqbolida bir bo‘shliqdan o‘zga hech gap uchrata olmasa-da, yana ulug‘ bir ma’no ko‘rgandek bo‘lar edi (A.Qodiriy). 5. Mendan, shu ketishda ketaversam, muukroq odam chiqmas emish (X.To‘xtaboyev).

**5-amaliy ish.** “Sen ham, siz ham bir og‘izdan chiqar” maqolini izohlang. Izohingizda olmoshlarni gap o‘rnida almashtirib qo‘llashga harunkat qiling.

**6-amaliy ish.** Nuqtalar o‘rniga olmoshlardan mosini qo‘yib ko‘chiring. Yozganlaringizni matnning asl manbasi bilan solishtirib ko‘ring.

*Istiqlol, ... – haligacha ayrimlar istehzo bilan qaraydigan va ... munosabatda bo‘lishga behuda urinadigan quruq shior, qizil yorliq emas!*

*... xalqimizning so‘nggi yuz yil mobaynida erishgan eng ulkan va ..... millat tarixida misli kam topiladigan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ruhiy*

*Darajasidir! Xo'sh, ... ..... darajaga osonlikcha erishdikmi?.. Yo'q, albatta!*

(U.Hamdam. "Muvozanat")



### 7- amaliy ish. Quyidagi boshqotirmani yeching.

	2		4	
		3		5
1				
<i>O</i>	<i>L</i>	<i>M</i>	<i>O</i>	<i>Sh</i>

1. Deyktik vazifa bajaruvchi, "almashinib qo'llanish" xususiyatiga ega so'z turkumi.
2. O'zlik olmoshi turlanganda kelishik qo'shimchasidan oldin qo'llanishi shart bo'lgan qo'shimcha.
3. Ko'rsatish olmoshlaridan birining tarixiy varianti.
4. Shaxs, narsa-narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar o'rnila kelib, uning ma'nosini taxminlab ko'rsatuvchi olmosh.
5. Olmoshning egalik qo'shimchasini olmaydigan ma'no turi.

### Olmoshlarning ma'no turlari

#### 1-amaliy ish. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Nº	Olmoshlarning ma'no turlari	Misollar

**1-amally ish.** Berilgan olmoshlar yordamida gap tuzing. Olmoshlarning ma’no turini aniqlang: *ana shu, hech kim, o’sha, men, qanday, nimadir, allakim*.

**2-amally ish.** *Men, sen, u, o’sha* olmoshlarini kelishik va egalik qizinchiligi bilan turlang. Mashkur olmoshlar yordamida “Mening o‘yolarim” mavzusida kichik matn tuzing. Yuzaga keladigan tovush o‘qarishlarini bo‘yicha ilmiy xulosa yozing.

**3-amally ish.** Maqollar mazmunidan kelib chiqib, nuqtalar o‘rniga borakli olmoshlarni qo‘ying va gaplarni ko‘chiring. Maqollarda qo‘llangan olmoshlarni ma’no jihatdan tasniflang.

1. *Vatan qadrini bilmagan ... qadrini bilmas.* 2. ... – *eliga, o‘rdak – ko‘liga.* 3. *Hashar qildim – uy qurdim, ...da ko‘p hikmat ko‘rdim.* 4. ... *bo‘lva dilozor, ...dan elu yurt bezor.* 5. ...*ning vaqtি bor, ... qizning baxti.* 6. *Bir terida qo‘y .... semirib, .... ozar.*

**5-amally ish.** O‘zlik olmoshining quyidagi ma’nolari ifodalangan gaplari tuzing.

1. Shaxsga taalluqlilik ma’nosи:
2. Shaxsga ishora qilish ma’nosи:
3. Predmet, voqeа-hodisalarni ta’kidlash ma’nosи:
4. O‘rinni ta’kidlash ma’nosи:
5. Paytni ta’kidlash ma’nosи:
6. O‘xshatish ma’nosи:
7. Umumiylik, noaniqlik ma’nosи:

**6-amaliy ish.** Berilgan gaplarda *birov* so‘zi bilan almashina oladigan birliklarni aniqlang. Ma’nodagi farqli jihatlarni tekshiring. “Gumon olmoshlarining nutqda almashinib qo‘llanishi” mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. *Birovga choh qazisang, unga o‘zing yiqilasan.* 2. *Militsiya vodimlari birov sezmasligi uchun juda hushyorlik bilan harakat qilishardi.* 3. *Devor ortidan birov kuzatib turgandek bo‘ldi.* 4. *Birovning obro‘siga ko‘z tikib hali hech kim hurmat topgan emas.*

## Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

**1-amaliy ish.** Quyidagi gaplarda qo‘llangan olmoshlarning tuzilishigu ko‘ra turini farqlang.

1. Axir bu qizlar urush yillarida og‘alari o‘rnini egallab, dalada va qurilishlarda qanday mo‘jizalar ko‘rsatishdi (Oybek). 2. Bu voqeя Yusuf Andijoniyga qancha tashvish solib, o‘rtaga Boysunqur Mirzo tushib, o‘g‘lini zo‘rg‘a jallod qo‘lidan ajratib olib qoldi (Mirmuhsin). 3. Men umrimda ilk bor g‘o‘za ekayapman (T. Malik). 4. Bechora dadam mana shu bir parcha nonni bizga yedirish uchun qanchalik mehnat qildi (G‘.G‘ulom). 5. Ichkaridan allakimning bo‘g‘iq ovozi eshitildi (So‘zl.).

**2-amaliy ish.** Matnni mustaqil tarzda davom ettiring. Matndagi gap bo‘laklarini olmoshlar bilan almashtiring. Bunda sodda, qo‘shma, juft va takroriy olmoshlardan foydalanishga harakat qiling.

*Uch kundan beri ezib yog‘ayotgan yomg‘ir tindi. Kun botarda qonga belangan usq endi havoning ochilib ketishini va‘da qilgan edi. Lekin mag‘ribdan esib turgan shamol ko‘p o‘tmay yana qora bulutlarni haydah keldi. Yulduzlarning yuzi to‘sildi. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi.*

(T.Malik. “Falak”)

## Olmoshlarning morfologik tahlili

**1-amaliy ish.** Matnda qo‘llangan olmoshlarni morfologik tahlil qiling.

*Tapir-tupur ot chopayotganlar – bo‘y yetgan xushro‘y qizlar. Ularning orasida Gulbadan begin ham bor. Qizlarning hech biri Xonzoda beginning ko‘zi oldida mag‘lub bo‘lib, uyalib qolishni istamaydi, hammasi to‘jni boshqalardan tortib olishga intiladi. Shunda otlari bir-biriga urilib, ayqashib ketadi, goho biron ot urilish zarbidan gandiraklab yiqligudek bo‘ladi. Bu qaltis holatlar Xonzoda beginni izardobga sola boshladi. Axir bu qizlar eng nufuzli bek-u a‘yonlarning oilasidan.*

(P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

### Tahlik tortib:

1. Olmoshning ma'nosiga ko'ra turi aniqlanadi.
2. Olmoshning grammatik shakli ko'rsatiladi.
3. Olmoshning tuzilishiga ko'ra turi belgilanadi.
4. Olmoshning qaysi so'z turkumi o'mida qo'llanganligi aniqlanadi.
5. Olmoshning sintaktik vazifasi belgilanadi.

**Jomolly ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Yu.Yuapova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**№2-mashq.** Matnni o'qing. Olmoshlarni topib, ularga tavsif bering.

*Boshimga bir savdo tushdi-yu rahmatli otamning o'z tilovatlarida: «Nohaq tuhmat, bemahal o'limdan o'zing asragin», deya qiladigan ilijolari qulog'im ostida jaranglab ketdi. Hamisha shunday: «Salomatlik qadriga yetmas — bemor bo'limguncha» deganlaridek, xom sut emgan notovon bandalar boshimizga biror kulfat tushmaguncha yoki peshanamiz biror yerga «taq» etib urilmaguncha, so'zning ham, nasihat va duoning ham qadriga yetmaymiz. Deyarli har kuni ro'baro' bo'ladigan oximolarimiz pand berib, boshimiz malomatlarga qolganidan keyingina beig'ubar o'tgan kunlarimiz, beig'vo kechgan onlarimiz ko'zimizga to'tiyo bo'lib ko'rina boshlaydi. Faqat shundan keyingina tilimizdagi “tuhmat”, “bo'hton” degan so'zlarning ma'nolarini ularning paydo bo'lish sabablarini qidirib qolamiz, faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jumgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ochamiz va ilgari e'tiborni tortmagan hikmatlar dardimizga malhamdek yoqa boshlaydi: “Kaltafahmlar faqat odamlarning kimchiligini ko'radilar-u, fazilatlariga e'tibor bermaydilar. Ular badanning nuqul gazak olgan a'zosiga qo'nmoqchi bo'layotgan poxshaga o'xshaydilar. Bo'hton ham yaxshi odamlarga yopishadi”.*

*Ha, ming afsuski, tuhmat balosi ham yaxshilarning, biror sohada omadi chopib, ishi yurishib qolganlarning gardaniga yopishadi. Yana*

*mevali daraxtga tosh otiladi! Bunga misol izlab ovora bo'lmasligimiz uchun Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlar taqdirini bir bor eslab qo'yishning o'zi kifoya. Xalqimizning bu asl farzandlari eng birinchi navbatda, g'arazgo'y, toshbag'ir, qora yurak hamkasblarining qurbanini bo'ldilar. O'zbek adabiyotining yorqin yulduzlari bo'lgan bunday jahonshumul iste'dodlar hasadgo'y va g'alamis hamkasblarining bo'htoni tufayli bu yorug' olamni bag'ri xun bo'lib o'tkazishga, otashin so'zlarini bo'g'izlarida olib ketishga majbur bo'ldilar. Xo'sh, tuhmat shu qadar jirkanch illat ekan, unga qarshi qanday chora qo'llagan ma'qul? Bizningcha, choralarining eng birinchi va eng osoni – tuhmatchining so'zini tinglamaslikdir. Zero, shariat hukmiga binoan g'iybatning sherigidir. U g'iybatchini inkor qilib, gapini bo'lishi, mavzuni boshqa yoqqa burish bilangina bu gunohdan qutulib qoladi.*



### Bilimingizni tekshirib ko'ring!

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Olmoshlar qanday morfologik xususiyatlarga ega?
2. Olmoshlar qaysi turkum so'zlar o'rnila almashinib qo'llana oladi?
3. Qaysi tilshunos olimlarning olmosh so'z turkumi tahliliga oid tadqiqot ishi mavjud?
4. Olmoshlar ma'no jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
5. Olmoshlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
6. Olmoshlar gapda qanday sintaktik vazifalarda qo'llanadi?
7. Boshqa turkum so'zlarining olmoshga ko'chishi deganda nimani tushunasiz?



Olmosh so'z turkumiga oid bilimingizni quyidagi test savollari asosida tekshirib ko'ring.

1. "Kishi yurtida shoh bo 'lguncha, o 'z yurtingda gado bo 'l" maqolida olmoshi qanday sintaktik vazifa bajarib kelgan?

- A. Uga
- B. Kesim
- C. Aniqlovchi
- D. Hol

2. Belgiga ishora qiluvchi ko'rsatish olmoshi ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A. Siz shoxida yoursangiz, biz bargida yuramiz.
- B. Yozgan maqolalarингиздан shunisi menga ma 'qul.
- C. Buvinlsaning qizi o 'ziday aqli, farosatli, chaqqon qiz bo 'libdi.
- D. Allaqanday noxush xayollardan ko 'nglim bezovta bo 'ladi.

3. Kishilik olmoshlariga xos xususiyatlar noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A. Ko'plikdagi kishilik olmoshi shakli birlik shakliga ko'chib qo'llanishi mumkin.
- B. Kishilik olmoshi yasalish xususiyatiga ega emas.
- C. Kishilik olmoshlari egalik qo'shimchalari bilan turlanadi.
- D. Kishilik olmoshlarining III shaxs shakli ham shaxsni, ham narsabuyumni ko'rsata oladi.

4. "Kim birovga choh qazisa, unga o 'zi yiqiladi" gapida tovush o'zgurishiga uchragan olmosh qaysi yozuv qoidasi asosida yozilgan?

- A. Fonematik
- B. Morfologik
- C. Fonetik
- D. Shakliy-an'anaviy

5. Olmosh orqali ko'plik ma'nosi ifodalangan gapni aniqlang.

- A. Siz bizni tanimasangiz ham, biz sizni taniymiz.
- B. Har kim o 'z ekkanini o 'radi.

C. Kim-kim kelar ekan?

D. Yaxshiyamki, sizni chaqiribman, bo 'lmasa shoshib qolardik.



## UYGA VAZIFA

- ✓ M.Yusuf she'riyatidan olmosh ishtirokida tuzilgan ritorik so'roq gaplarni tanlab ko'chiring. Olmoshning sintaktik vazifasini belgilang.
- ✓ G'.G'ulom asarlaridan olingan misollar asosida olmoshlarning almashinib qo'llanish belgisi haqida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Ilmiy manba va darsliklarda olmoshlarga nisbatan *ikkilamchi nomlar* (A.Нурмонов ва б. Узбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент, 2001), *bo'sh – ishora ma'noli so'zlar* (R. Sayfullayeva va b. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2007), *ichi bo'sh so'zlar* (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 2-к.) terminlarining qo'llanishiga munosabat bildiring.
- ✓ “Olmoshlar uslubiy vosita sifatida” mavzusida ilmiy xulosa yozing.

## RAVISH SO‘Z TURKUMI



**1-amallyish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oldi tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz tomonidan berilgan qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘srimcha ma’lumotlar
Ravish		
Ildor ravishi		
Favi ravishi		
O‘sim ravishi		
Miqdor daraja ravishi		
Miqyos va sabab ravishi		
Ravishlarning daraja shakli		

**2-amallyish.** Quyidagi gaplardan ravish turkumiga mansub so‘zlarni ajaring.

1. Sherxonning xufiyasi masjidi jomening oldidagi do‘konda Said Nalil bilan shivirlashib gaplashganini bir kun mol olishga kirganimda taxodifan eshitib qoldim (P.Qodirov).
2. Baribir... o‘ladi! Bugun, bugun bo‘lmasayam... ertaga o‘ladi! – dedi ikkinchisi (T.Murod).
3. Yurak betlab qadam bosganlar ham ko‘p o‘tmay to‘satdan o‘lib qolaverdilar (T.Malik).
4. Humoyun uning niyatlarini yo‘qqa chiqarib, ustidan kulish uchun utaylab shunday qildi, chamasi (P.Qodirov).

**3-amaliy ish.** Matnda qo‘llangan ravishlarni topib, gapdagi sintaktik vuzifasini aniqlang.

Kecha to‘satdan qor yog‘a boshladi. Qor guppillab yog‘ar, hummayoq oppoq ko‘rpaga burkanmoqda edi. Bir pasda atrof nihoyatda go‘zal tusga kirdi. Juda ko‘p odamlarning tabiat in’omidan bolalarcha

*doimo, oldinma-ketin, astoydil, baholiqudrat, bugun, ustma-ust, shuasnoda.*

**2-amaliy ish.** Berilgan matn tarkibidagi ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang. Hikoyani davom ettirishga harakat qiling.

*Inson umri davomida xatolarini to‘g‘rilab, hayotga yanada teran nigoh bilan qarashga o‘rganib borar ekan. Feruza bugun ham tun-kun o‘ylab yurgan ishini qilishga o‘zida jur‘at topa olmadi. Uning miyasida yana xato qilib qo‘ysam-chi, degan xayol betinim aylanadi. Ishni-ku boshlashga bir nafas olgulik vaqt ham ketmaydi, biroq bir zamonlar qilib qo‘ygan xatosi unga emin-erkin harakat qilishiga to‘sinqilik qilayotganday bo‘laverdi. U yana bir marta daftarini olib birma-bir qiladigan ishlarini rejasini tuzib chiqdi, qayta-qayta har biriga alohida to‘xtaldi. Uzoq rejalahtirishdan so‘ng apil-tapil kiyindi-da, xonadan bamaylixotir chiqdi. Uning ko‘zlarida ishonch va umidga o‘xshagan allaqanday uchqun porlar edi.*

### Ravishlarning daraja shakli

**1-amaliy ish.** T.Malikning “So‘nggi o‘q” asaridan olingan ushbu matndan ravishlarni ajrating va qanday darajada ekanligini aniqlang.

*Kuzning sovuq nafasida titrab-qaqshab turgan yaproqlar qitday shabadaga ham tob berolmay chirt uziladigan ahvolga kelgan. Yomg‘irdan oldinroq uzilib xazonga aylangan barglar esa chirishga yuz tutgan. Bugungilari ham, agar shamol uchirib ketmasa, o‘z daraxtining poyida chiriydi. Kun og‘ib shabada esmay qo‘ygan. Daydidaradagi do‘nglikda — tanho savlat to‘kib turuvchi chinorning eng pastki shoxidagi barg uzilgani hamon miltiq otiladi: kimdir — ikkisidan biri qulashi kerak... Bir yoniga sal qiyshayib turgan yigit, garchi yagona bargga tikilib qolgan bo‘lsa ham uni ko‘rmaydi. Ukasi bilan otishishga shartlashib, qo‘liga miltiq olgach, titrab turgan barg o‘lim xabarchisiday tuyulib, ko‘z oldi*



*... uñayhgan. Endi u faqat Xudodan najot kutadi. "Padarkushligim rost hu'lm, Xudo avval ko'zimni ko'r qiladi..."*

**1-amally ish.** O'zaro zidlik munosabatiga kirishuvchi ravishlarga o'sbek xalq maqollaridan misollar keltiring. Ravishlarning darajasi va sintaktik vazifasini belgilang.

**NAMUNA:** Ko 'p o 'yla, oz so 'yla (Maqol).



**3-amaliy ish.** Berilgan fe'llar bilan sintaktik munosabatga hujjoh oladigan ravishlarni toping va slayd kataklarini to'ldiring. Ravishlarning darajasini ko'rsating.



### Ravishlarning morfologik tahlili

**1-amally ish.** Ajratib ko'rsatilgan ravishlarni morfologik tahlil qiling.

*Tomda qo'llarini ketiga qo'ydi. Tom bosh-adog'ilab qadamladidi. Yurmin-yazmin qadamladidi. Olislarga dono-dono boqib qadamladidi. Birdan qo'qdaiy qoqilib qoldi. Misoli haykal bo'lib qoldi. Yerga shahodat barmoq*

*o'ynatdi. Lik-lik o'ynatdi. Qorovulni imladi. Qorovul keldi. Narvon poyida hayrona-hayrona turdi. Qoshi uzra kaft soyabon eta-eta mo'ltaydi.*

– *Chaqirganday bo'lningizmi? – dedi. Qo'shchi hokimona-hokimona siyosat etdi.*

(T.Murod. “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi”)

### Tahlil tartibi:

1. Ravishning so'rog'i va ma'no turi aniqlanadi.
2. Ravishning yasalishiga ko'ra tub yoki yasama ekanligi aniqlanadi.
3. Ravishning tuzilishiga ko'ra turi belgilanadi.
4. Ravishning darajasiga tavsif beriladi.
5. Ravishning sintaktik vazifasi belgilanadi.

**2-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**336-mashq.** Nuqtalar o'mniga ravishlarni qo'yib ko'chiring.

### *Hayo*

*Hayo inson hayotining ... hisoblanadi. Hayo, ibo komil xulqqa ega bo'lgan kishi ruhining tafakkuri, ma'naviy timsolidir. Payg'ambarimiz: "Hayo iymondadir, iymon esa jannatga eltadi", – demish.*

... Ayol – hayo ramzi sifatida qadrlanib kelinadi. Rivoyat qilishlaricha, o'limga mahkum etilganlar ichida bir ayol ham bor ekan. Ularni o'limga olib ketishayotganda ayol yo'lda ip va igna berishlarini so'raydi.

- Nima qilasan shu ignani? – so'rabdi jallodlar.
- Tizzamning choki so'kilindi, shuni chandib olay, – debdi ayol.
- Axir, sen ... o'lasan-ku! – debdi posbonlar.
- Men ayolman, sharm-hayoyimni ... saqlashim kerak. O'lim sari ketayotgan bo'lsam ham, nomusim haqqi, xaloyiq ... ayolday chiqishim kerak, – debdi ayol.


Ayt omonadon ravnaqidir, chunki u oila a'zolarini tushunadi, ... bilan ish olib boradi, hayotning achchiq-chuchuklariga chidab, ... yashaydi. Bunday avollarni xalqimiz hayoli, vafoli deb bilishgan. Shuning uchun ham o'zbek xotin-qizlari uchun hayo asosiy fazilat bo'lib kelmoqda. Hayotdagi har bir narsani ko'rish, bilish uning qadr-qimmatini idrok etib o'ylab ish yuritish bu hayo tuyg'usining ... tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

(U. Mahkamov)

### Bilimingizni tekshirib ko'ring!



Ravish bo'yicha egallagan bilimlaringizni "Klaster" uchli orqali tekshiring.



Ravish so'z turkumi yuzasidan egallagan bilimingizni anvollarga javob berish orqali tekshirib ko'ring.

1. So'zlar qaysi xususiyatiga ko'ra ravish turkumiga ajratiladi?
2. Qaysi tilshunos olimlarning ravish tadqiqiga oid asarlarini bilasiz?
3. Ravishlar qanday morfologik belgi-xususiyatlarga ega?
4. Ravishning boshqa so'z turkumlari bilan umumiy belgisi nimada kuzatiladi?

5. Ravishning o'zgarmaslik belgisi deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbek tilshunosligida ravishlar ma'no jihatdan qanday turlaryu bo'lib o'rghanilgan?
7. Ravishlar tuzilishiga ko'ra qanday farqlanadi?
8. Ravish gapda qanday sintaktik vazifalarda qo'llanadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ “Men va qishlog‘imdagilar” mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Matnda qo‘llangan ravishlarni ma’no jihatdan tasniflang.
- ✓ Ravishning sifat so‘z turkumi bilan umumiy va farqli jihatlari, ravish darajalari bo‘yicha ilmiy axborot yozing.
- ✓ Rus olimi V. Vinogradovning “Mustaqil so‘zlarning hech bir guruhiga sig‘may qolgan so‘zlar ravish turkumiga yig‘ilgan” degan tavsifiga munosabat bildiring.
- ✓ S.Zunnunova asarlaridan fe'lning ravishdosh shakli va ravish ishtirok etgan 10 tadan gap toping. Ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ O.Yoqubovning asarlaridan ravishning ot turkumiga mansub so‘zlar belgisini aniqlash uchun qo‘llanishiga 8 ta gap topib ko‘chiring.

## YORDAMCHI SO'ZLAR TURKUMI

### Ko'makchi



**I-amally ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oldi tayinich tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingizdan bilib olgan qo’shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo’shimcha ma’lumotlar
Yordamchi so’zlar		
Ko’makchi		
Uyda ko’makchi		
Uyfaodosh ko’makchi		

**2-amally ish.** Nuqtalar o’rniga zarur ko’makchilarni qo’yib, gaplarni ko’chiring.

1. *Rixsivoy javob berish ...kulib yubordi* (F.Musajonov). 2. *Uyda bo’ridan ..... hech kim yo’q edi* (M.Mansurov). 3. *Qul bo’lib va thagandan ..... tik turib o’lgan afzal* (Maqol). 4. *El-yurtga bo’lgan uchbi muhabbatni mikrofon ... izhor etib bo’lmaydi!* (T.Murod) 5. *Uzoq avriliqdan ... sizni kutib olish ... yo’lga chiqqan va sizni uzoqdan ko’rib chiqqasini silkitayotgan qiz ... xarobalar orasidan menga qarab qo’llarini silkitardi* (N.Eshonqul).

**3-amally ish.** Berilgan ko’makchilar ishtirokida gaplar tuzing. Ko’makchilardan qaysi biri gapda presuppozitsiya (yashirin axborot)ga ishora qilishini aniqlang. Gapda ifodalangan ochiq va yashirin propozitsiyalarni ko’rsating.

*Ko 'ra, qaraganda, tashqari, o 'rniga, uchun, bilan, orqali, uzra, tomon, boshqa, ichra, boshlab, sayin, yanglig', kabi.*

**Namuna:** *Maydonda Saidning o 'rniga Akmal o 'ynadi.*

*Maydonda Said o 'ynamadi. Maydonda Akmal o 'ynadi.*

**4-amaliy ish.** Quyidagi jadvalni to 'ldiring.

1. Sof ko 'makchilar:

2. Vazifadosh ko 'makchilar:

**5-amaliy ish.** Matnda qo 'llangan ko 'makchilarni topib, ularning grammatik vazifasiga izoh bering.

### **Mahmadonaning jazosi**

*Bir bolakay kattalarda ham tez-tez uchrovchi og 'ir xastalikku mubtalo ekan. Bu xastalikning nomi biron-bir tibbiy kitobda qayd etilmaganligi sababli xalq bolakayimizga ilashgan xastalikka "mahmadona" deb tashxis qo 'yan ekan.*

*Kunlarning birida shu bolakayning tishlari nola qilib deyishibdiki:*

*– Bu til bizning boshimizga bitgan balo bo 'ldi-ku, sira ham tinchlik yo 'g '-a, ozgina tiyila qolsa-chi?*

*Bu noladan g 'ashi kelgan til surbetlik bilan javob qaytaribdi:*

*– Mendan boshqa ishingiz yo 'qmi? Mening nazoratimdan o 'tgan narsalarni chaynangu, boshqa narsa bilan ishingiz bo 'lmasin. Sizlar kimsizlar-u, men kimman!*

*Bu tanbehdan so 'ng tishlar jim qolishibdi-ku, bolakay tushmagur o 'rnimi-o 'rnimasmi, bu odatini kamaytirish o 'rniga duch kelgan yerda mahmadanalik qilaveribdi. Mahmadonaligi shu darajaga yetibdiki, bolakay bir davrada gapira-gapira kulgiga qolibdi-da, sharmandalikdan qutulib qolmoq uchun yolg'on gaplarni ayta boshlabdi. Ana shunda tishlarning sabr kosalari to 'lib yolg'onchi tilni gapirtirmaslik qasdida shart tishlab olishibdi.*


til avval qizaribdi, keyin qonab ketibdi. Bolakay esa, og'riqdanmi yoki qaytdanmi yig'lab yuboribdi.

O'shandan beri til behuda tish hatlamas emish, bolakay ham bir gap yimoqlan avval yetti marta o'ylab ko'rarmish...



?

6-amaliy ish. "Labirint"dan foydalanib, ko'makchilarga qayti kelishikdagi so'z bilan bog'lanishida ko'maklashing. Jo'nalish kelishigidagi so'z bilan bog'lanuvchi ko'makchilar ishtirokida "Dolaligimda ..." deb boshlanuvchi 3 ta gap tuzing.



7-amaliy ish. Berilgan gaplarda qo'llangan ko'makchilarni kelishiklar bilan almashtiring. "Ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar" mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. Yusuf yangasining nafas qisish kasali bilan qattiq og'rib yurishini bilardli (U.Hamdam).
2. Ko'pchilik televizor orqali farzandlarini tug'ilgan kunlari bilan tabriklamoqni odat qildi (T.Malik).
3. Agar shuni men uchun igan bo'lsang, bitta qog'ozga o'rab ber (S.Ahmad).
4. Dunyoda bundan ko'ra lazzatli suv bo'lmasa kerak (O'.Hakimali).
5. Qorong'iroq burchakdagi eshikni tayog'i bilan taq-taq urdi (N.Fozilov).

**9-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**343-mashq.** Berilgan gaplardagi ko‘makchilarni kelishiklar bilan almashtirib ko‘chiring.

1. Zarina so‘zlar, sakkiz o‘g‘il o‘rtasida yolg‘iz qiz bo‘lgani uchun erkakshoda bo‘lib o‘sgandi, hech narsadan tap tortmay so‘zlayverardi ham. Gap orasida menga qarata: «Sen o‘lgur menga bugundan boshlab ikki tomonlama yaqin bo‘lib qolding», deb yubordi. 2. Sizning sog‘ligingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak arziyi. 3. Mening ko‘nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 4. Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi. 5. Siz go‘daklardek pishillab uxlardingiz, timqora va quyuq sochlarining oppoq yostiq ustida yoyilib yotardi. 6. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to‘xtab o‘tarman. 7. Kasbim sharofati bilan baribir qaysi jumlangiz yolg‘on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman. 8. Ona urug‘im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar Siz kabi bo‘lishni xush ko‘radilar.

(A. Ibrohimov)



### Bilimingizni tekshirib ko‘ring!

Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar turkumi mustaqil so‘zlardan qanday farqlanadi?
2. Yordamchi so‘zlar gapda qanday vazifa bajaradi?
3. O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar qaysi tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan?
4. Ko‘makchilar qanday morfologik xususiyatlarga ega?
5. Yordamchi so‘zlar paradigmasida ko‘makchi qanday mavqega ega?
6. Ko‘makchilarning boshqa yordamchi so‘zlardan xususiy, farqlanishga asos bo‘lgan belgilari qanday?

7. Ko'makchi va bog'lovchiga xos qanday umumiy belgilarni bilasiz?
8. Ko'makchilar gapda asosan qaysi kelishikdagi otlarga bog'lanib kelndi?
9. Ko'makchilar gap tarkibida qanday grammatik ma'nolarni hosil qildi?
10. Ko'makchi turkumiga mansub so'zlar vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'r ganiladi?



### **UYGA VAZIFA**

- ✓ E.Vohidov she'riyatidan *ilan*, *uchun* ko'makchilarining *-ila*, *-la* va *-chun* shaklida qo'llanishiga misollar topping.
- ✓ T.Malik asarlaridan *ilan* ko'makchisining quyidagi ma'nolariga misollar topping.

  1. Birgalik ma'nosi:
  2. Vosita ma'nosi:
  3. Payt ma'nosi:
  4. Sabab ma'nosi:
  5. Holat ma'nosi:

- ✓ "Ko'makchilar va ularning ma'nodosh shakllari" mavzusida ilmiy axborot yozing.
- ✓ O'.Hoshimov asarlaridan presuppozitsiyaga ishora qiluvchi ko'makchilar ishtirok etgan 10 ta gap topping.

## Bog‘lovchi



1-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz tomonidan berilgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>Bog‘lovchi</i>		
<i>Teng bog‘lovchilar</i>		
<i>Ergashtiruv bog‘lovchilar</i>		
<i>Sof bog‘lovchilar</i>		
<i>Vazifadosh bog‘lovchilar</i>		

2-amaliy ish. Nuqtalar o‘rniga zarur bog‘lovchilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. *Marjonoy yana bir nima demoqchi edi, ... telefon g‘uv-g‘uv qildi* (O.Yoqubov). 2. *Abdulvahobni, ... u men uchun aziz bo‘lmasa-da, ikki marta yo‘qotdim* (T.Malik). 3. *Samandar o‘tirg‘ichda soatlab kitob o‘qir ekan, ... jiyda, ... dubdan taralayotgan sokin ko‘klam hidi ... yovvoyi gullarning anvoysi hidini sezardi* (N.Eshonqul). 4. *Yoz chillasi ekani ... yodimda qolganki, o‘scha kuni ammam ikki bosh chillaki uzum olib keldi* (O.Hoshimov). 5. *Ikkinchchi toifa – ahli saodat, ... din peshvolari, ulamolar, shoirlar, olimlar* (P.Qodirov).


3-amaliy ish. Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi zidlov bog‘lovchilari ishtirok etgan 6 ta gap tuzing. Gapda ifodalangan ochiq va yashirin propozitsiyalarni ko‘rsating.

**Namuna:** *Do‘stimizni tabriklamoqchi edik, biroq u kelmadni.*

*Do‘stimizni tabriklamoqchi edik. Biz tabriklay olmadik. U kelmadni.*



**4-amaliy ish.** «Klaster» (tarmoqlash) usulidan foydalanib, bog'lovchilar yuzasidan egallagan bilimingizni sinab ko'ring.



**5-amaliy ish.** Matnda qo'llangan bog'lovchilarni topib, ularning grammatik vazifasi (gap bo'laklari va sodda gaplarni o'zaro bog'lab kelishi)ga izoh bering.

*Derlarkim, inson uchun eng ulug' dunyoviy ne'mat – uning ozod va huriqidir. Agar ozodlik ne'mat ekan, ozod insonning baxtsiz bo'lmog'i mumkin emasdir. Agar baxtsiz insonga duch kelsangiz, qayg'u-hasratda yonayotganiga guvoh bo'lsangiz bilingkim, u ozod emasdir. U shubhasiz kim yoki nima tomonidan ezilgandir.*

(T.Malik. "Mehmon tuyg'ular")

**6-amaliy ish.** Matn bilan tanishing va uni bog'lovchilardan foydalanib qayta shakllantiring. Matn tarkibiy qismlarini bog'lashda bog'lovchilarning o'mniga izoh bering.

*Bahor keldi. Atrof yam-yashil tusga kirdi. Ona yer dasturxonini bezash uchun boychechak, chuchmomalar ko'z ochdi. Vatanimiz chiroy ochdi. Odamlar xursand, kayfiyatları chog'. Onamning ko'zlarida bu quvonchni ko'ra olmay halakman. Akamni sog'inganlar. Akam uzoq*

*xorijga ishlashga ketganlar. Onamga atrof go 'zalligini ko 'rishga ana shu hijronning soyasi yo 'l qo 'ymayotgandek.*



**7-amaliy ish.** Bog'lovchilar uslubiyati yuzasidan egallagan bilimlaringizni quyidagi ochiq test orqali sinab ko'ring.

1. Biriktiruv bog'lovchisi sifatida so'zlashuv uslubida ko'proq ..... bog'lovchisi qo'llaniladi.
2. Lekin bog'lovchisining lek, vale, valekin shakllari ..... uslubga xoslangan.
3. Ayiruv bog'lovchilaridan ....., ..... yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub)dagina qo'llaniladi.
4. Va, ham, hamda bog'lovchilari ..... uslubi uchun xoslangan.
5. Qiyosiy-chog'ishtiruv bog'lovchisi ..... uslubiy betaraf bog'lovchidir.
6. Shart bog'lovchisi garchi ..... uslubida qo'llaniladi.

**8-amaliy ish.** Matnda qo'llangan bog'lovchilarni morfologik tahlil qiling.

*Hasadgo 'yning fikrlash tarzi g'alati. "Agar falonchi bo 'lmaganida mening ishim yurishib ketardi", deb ichidan ezilaveradi. Boshqa jabhalarni bilmadim-ku, lekin ijod sohasida bu bema 'ni xomxayol. Ijod amal kursisi yoki davlat kvartirasi emaski, birovning o'rnini birov egallasa. Kitobxon mehrini zo'ravonlik qilib ham, tilanchilik qilib ham olib bo 'lmaydi.*

(O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

### **Tahlil tartibi:**

1. Bog'lovchining ma'no va vazifasiga ko'ra turi aniqlanadi.
2. Bog'lovchining qo'llanishiga ko'ra turi ko'rsatiladi.
3. Bog'lovchining grammatik vazifasi belgilanadi.



**9-amaliy ish.** “O‘z o‘rniga qo‘yish” usulidan foydalanib, yoplarni tiklang. Yaratilgan matnni o‘qing. Matnga sarlavha qo‘ying va bog‘lovchilarning matn qismlarini bog‘lashdagi o‘rniga izoh bering.

*Yemiriladi insoniyatga vaqt abadiy daryolar qoladi yaxshiligi o‘tib biroq tog‘ insonning quriydi qilgan. yaxshilik ulug‘ bu bermasa-da garchi bo‘lamiz dunyoda meva bajargan mas‘uliyatni otlig‘ burch ko‘p va hollarda savob. orqasidan goho aziyat qilgan ko‘rib yaxshiligidimiz kelganimi yomonlik chekamiz. Ollohning bu sinovlaridandir ham yuborgan balki bandalariga.*

**10-amaliy ish.** A.Qahhorning “O‘jar” asaridan olingan ushbu matn purchasida qo‘llangan bog‘lovchilarning gapdagi vazifasiga izoh bering. Takror qo‘llangan lekin bog‘lovchisining uslubiy ahamiyati haqida fikr bildiring.

*— Men ham, — dedi Qutbiddinov, — men ham ko‘p hikmatlar ko‘rsatar olim. Lekin birodar... Qani, ichaylik! Auf... Lekin, birodar, har yomonning bir “ammo”si bo‘lishi kerak, har yaxshining bir «lekin»i. Hozirgi tarbiya yaxshi. Hech shubhasiz yaxshi! Lekin kamchiligi yo‘qmi? Bor, albatta, bor! Masalan, bolalarga shaxmat o‘ynatishni olaylik. Bolaning miyasi shunday miyaki, chunonchi... bizning moliya tili bilan aytganda, alohida paragraf!*

**11-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**355-mashq.** Gaplar ichidan *ilan*, *ham* so‘zlarining qaysi o‘rinlarda bog‘lovchi, qaysi o‘rinlarda boshqa yordamchi so‘z vazifasida qo‘llanganini aniqlang, undagi farqni tushuntirib bering

- 1. Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib, o'n sakkizga qadam bosganida, bo'yi ham onasiga yetayozgan, ammo jussasi onasidan ko'ra to'laroq ko'rinar edi.*
- 2. Muloyim kishida insof ham, diyonat ham, e'tiqodga sodiqlik ham, vijdon ham, sadoqat ham – hammasi bo'ladi.*
- 3. Ahmad Yassaviy ko'ngil va til birligini qadrlagan.*
- 4. Binolar qurildi, biroq tadbirdorlik ishlari qanday olib borilmoqda?*
- 5. She'r bilan kuyning hamohangligiga erishmoq zarur.*
- 6. Ona ba'zan farzandi boshida parvona bo'lardi, ba'zan beshikka bosh qo'yganicha uqlab qolardi.*



**12-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni quyidagi savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

- 1. Bog'lovchilar gapda qanday grammatik vazifa bajaradi?**
- 2. Qaysi tilshunos olimlarning bog'lovchi so'z turkumi tadqiqiga oid izlanishlari mavjud?**
- 3. Bog'lovchilar qanday morfologik xususiyatlarga ega?**
- 4. Yordamchi so'zlar paradigmaida bog'lovchi qanday o'rinn tutadi?**
- 5. Bog'lovchilarning yuklamalardan farqlanishiga asos bo'lgan belgilari nimada kuzatiladi?**
- 6. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?**
- 7. Bog'lovchilarga vazifadosh bo'lgan qanday yordamchi so'zlarni bilasiz?**



### UYGA VAZIFA

- ✓ “Sehrli qalpoqcham bo'lganida...” mavzuida kichik matn tuzing. Matnda qo'llangan bog'lovchilarni aniqlab, vazifasiga ko'ra tasniflang.

✓ S.Ahmad asarlaridan *bilan* ko‘makchisining bog‘lovchi vazifasida qo‘llanishiga misollar topping. Mazkur holat to‘g‘risida o‘zingiz qolda chiqaring.

✓ Badiiy asarlardan bog‘lovchilarning gap boshida qo‘llanishiga misollar topping. Ularning matn qismlarini bog‘lashdagi o‘rni to‘g‘risida himoy xulosa yozing.

✓ S.Zunnunova asarlaridan *ham* yuklamasining gapda bog‘lovchi vazifasida qo‘llanishiga misollar topping.



Bog‘lovchi so‘z turkumiga oid bilimingizni quyidagi test savollari usosida tekshirib ko‘ring.

1. Quyidagi bog‘lovchilarning qaysi biridan oldin doim vergul qo‘yildi?

- A. Agar
- B. Deb
- C. Ya‘ni
- D. Zero

2. Teng bog‘lovchilar qanday turlarga ajratiladi?

- A. Biriktiruv, zidlov, ayiruv bog‘lovchilari
- B. Biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor bog‘lovchilari
- C. Biriktiruvchi va ergashtiruvchi bog‘lovchilar
- D. Yakka va takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar

3. Ma‘lumotni maktub yoki telefon orqali tezda yetkazishingizni surʼaymiz. Ushbu gapda bog‘lovchi qanday grammatik vazifa bajargan?

- A. Sodda gaplarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qilgan.
- B. Turli gap bo‘laklarini bog‘lagan.
- C. Uyushiq bo‘laklarni bog‘lagan.
- D. Bog‘lovchi hech qanday grammatik vazifa bajarmagan.

4. Ergashtiruvchi bog‘lovchi ishtirok etgan gapni toping.

A. U hech kim bilan gaplashmas, ba ’zan to ‘ng ‘illab nimadir degani eshitilib qolardi.

B. Bu gap uni yupatmas, balki battar jahlini qo ‘zg ‘ardi.

C. Dam quyoshning zarrin nurlari tovlanadi, dam bulut soya soladi.

D. Nur borki, soya ham bor.

5. Vazifadosh bog‘lovchi ishtirok etgan gapni toping.

A. O‘qish va mehnat qilish barchamiz uchun zaruriyatdir.

B. Bunday libosda yurish o‘zim uchun qulay ham yaxshi.

C. U ro ‘molchasi bilan stol ustini artishga tushdi.

D. Nozim shunchalik tikilib qaradiki, uyatdan o‘zimni qayerga qo ‘yishni bilmay qoldim.

### Yuklama



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingizdan bilib olgan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘shimcha ma’lumotlar
<i>Yuklama</i>		
<i>Sof yuklama</i>		
<i>Vazifadosh yuklama</i>		
<i>So‘z yuklamalar</i>		
<i>Qo‘shimchasimon yuklamalar</i>		

**2-amaliy ish.** Berilgan misollarda qo‘llangan yuklamalarni aniqlang. Ularning yozilishiga diqqat qiling.

1. U shunday xayollar bilan idora oldiga yetganini ham sezmay qoldi (N.Fozilov). 2. Bir mahal tayoq ko‘tarib asta-sekin chiqib kelayotgan oyimga ko‘zim tushib qolsa bo‘ladimi? (X.To‘xtaboyev) 3. Men faqat

...uv hiltg'ingni nazarda tutib tajribani mantiqan xulosalashga yordaming  
 qayernikni, deb o'ylovdim (T.Malik). 4. Nahotki oliv ma'lumotli vrach  
 o'mi chayqovchi bilan tenglashtirsa! (O'.Hoshimov) 5. Rostmi? Buni hali  
 o'mi ham aniq bilmaydi-ku, qanday aytadi? (P.Qodirov) 6. U bir shovqin  
 ko'rganda, hatto xaridorlar ham qochib ketishardi (S.Ahmad).



### 3-amaliy ish. Jadvalni to'ldiring.

Yuklamalarning ma'no turlari	Yuklamalar
So'roq yuklamalari	
To'kid va kuchaytiruv yuklamalari	
Ayiruv yuklamalari	
Cimmon yuklamalari	
Aniqlov yuklamalari	
Inkor yuklamasi	

4-amaliy ish. Alisher Navoiy hikmatlarida qo'llangan yuklamalarni  
 aniqlab, ma'no jihatdan turini ko'rsating.

1. Kimki umrini mard kishilar xizmatiga sarf etsa, umri ketsa ham,  
 abadly umrga erishadi. 2. Kishining yolg'onchiligi mashhur bo'lib  
 qolgach, u har qancha chin gapirsa ham, kishilar ishonmaydigan bo'lib  
 qoladi. 3. Do'stlar qadrini bil, chunki martabang ko'k qadar yuksak  
 bo'lva-yu, do'stlaring bo'lmasa, bu darajaning nima foydasi bor?  
 4. Kishining husni jamoli bo'lmasa ham, so'zlari shirin bo'lsa, unday  
 odam elni o'z tomoniga qaratib oladi.

5-amaliy ish. Berilgan grammatik vositalardan so'roq yuklamalarini  
 ajting. So'roq yuklamalaridan foydalananib gaplar tuzing.

gina, -dir, -in, -chi, -sat, -ir, -dir, - mi, kaz, -a (-ya),  
 sh (-sh), - ku, -oq

6-amaliy ish. Nuqtalar o'mniga gapning mazmuniga mos yuklamalarni  
 qo'yib ko'chiring.

1. *Atlas kiyib o'zbek qizlari, yuragimga o't qo'yay ...* 2. *Qor tingan ..., ammo quyosh bulutlar orasidan chiqa olmay garang.* 3. *Fizik terminlarni ximik terminlardan farqlay olmaysan...?* 4. ... u o'zining tuqqan onasiga yaxshilik qilmaydi- ... . 5. *Uyalganimdan ... kechirim so'rashni ... unutibman.* 6. *Vaqtliroq kelmaiding- ..., balkim ulgurarmidik.*



**7-amaliy ish.** “Zanjir” metodidan foydalaniб, yuklamalarni qay darajada bilishingizni aniqlang.

O'qituvchi badiiy matn yaratish uchun birorta mavzu e'lon qiladi. Matnni boshlagan birinchi talabaning fikrini ikkinchi talaba mantiqan davom ettirishi lozim. Matnni yaratish jarayonida tuzilgan har bir gap tarkibida yuklama ishtirok etishi shart.

**NAMUNA:** Mavzu: “*Do'stlik*”.

**1-talaba:** *Bilasizmi, kimning do'sti bo'lmaydi?*

**2-talaba:** *Albatta, faqat o'zinigina yaxshi ko'ruvchi insonning chin do'sti bo'lmaydi.*

**3-talaba:** ...

**8-amaliy ish.** Matnda qo'llangan yuklamalarni topib, so'z yuklama va qo'shimcha shaklidagi yuklamalar guruhiga ajrating. Qo'shimcha shaklidagi yuklamalarning yozilishiga izoh bering.

### Insof sari baraka

*Roviyolar derlarkim, ota vafot etib, bir qopgina bug'doy meros bo'lib qolibdi. Aka-uka bug'doyni teng ikkiga bo'lib olishibdi. Tunda ukaning ko'zidan uyqu qochibdi-yu, o'ziga-o'zi debdi: «Ey nodon, nima qilib qo'yding? Sen shu bug'doyga muhtojmisan? So'qqabosh bo'lsang, bittagina qorningni to'ydirolmaysanmi? Akangning bolalari bor, ularga non topish osonmi?» Shu xayol bilan uka o'rnidan turib, omborxonaga chiqibdi-yu, o'ziga tegishli bug'doydan akasining xumiga solib qo'yibdi. Biroq shu damda akasining ko'zidan ham uyqu qochgan ekan, u o'ziga-o'zi debdiki: «Ey nodon, sen nima ish qilib qo'yding? Otang seni uylantirib, ukangning to'yini ko'rmay o'tdi. Axir ukang endi qorin*

*tashqidan tashqari uylanish tashvishini ham qilishi kerak. Unga insof qilib, aka o'ruidan turib omborxonaga chiqibdi-yu, o'ziga tegishli bu joydan ukasining xumiga solib qo'yibdi.*

*Mu harakat har tun takrorlanaveribdi.*

*O'y o'tibdi, yil o'tibdi, akaning yarim xum bug'doyi ham, ukaniki ham hech tugamasmish. Ular bu sirdan ajablanib, donishmandga borishibdi. Donishmandning talabi bilan tundagi ishlarini aytib berishibdi.*

*"Insof sari baraka", degan hikmatni donishmand o'shanda aytgan*

**9-nimally ish.** Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi yuklamalar ishtirok qilishni ta gap tuzing. Gapda yashirin tarzda ifodalanayotgan axborotni ko'rsating.

**Nomuna:** *Men ham harbiy xizmatga boraman.*

*Boshqalar harbiy xizmatga borishgan. Men harbiy xizmatga boraman.*

**10-nimally ish.** -chi yuklamasining quyidagi grammatik ma'nolari yuzaga chiqqan gaplar tuzing.

1. So'roq ma'nosi:
2. Ultimos ma'nosi:
3. Ta'kid ma'nosi:
4. Buyruq ma'nosi:
5. Xohish ma'nosi:

**11-nimally ish.** Matnda qo'llangan yuklamalarni morfologik tahlil qiling.

*Ajab... Belga urib qolgan o't-o'lanlar ham so'zlashayotganga o'shaydi. Balki ular ham bir-birini yaxshi ko'rар, rozini aytar... Yo'g'-e, ayir ular jonli emas-ku? Nimaga, u bechoralarning ham joni bor. Bahorda ko'karadi, yozda yashnaydi, kuzakda esa quriydi. O'ladimi, demak, joni bor. Faqat umri qisqa. Dunyoning yaralishi ajabtovur...*

(T.Malik. "Davron")

## Tahlil tartibi:

1. Yuklamaning grammatik ma’nosi aniqlanadi.
2. Yuklamaning ma’no turi aniqlanadi.
3. Yuklamaning tuzilishiga ko‘ra turi aniqlanadi.
4. Yuklamaning gapdagi grammatik vazifasi belgilanadi.

**12-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni ishlang.

**363-mashq.** *-chi* yuklamasi so‘roq, buyruq, iltimos, xohish, ta’kid (uqtirish) ma’nolarini bildiradi. *-chi* yuklamasi orqali bu ma’nolar voqelangan gaplar tuzing.



**13-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Yuklamalar qanday morfologik belgilarga ega?
2. Yuklamalarning xususiy, farqlanishga asos bo‘lgan belgisi nimadan iborat?
3. Yuklamalar gapda qanday vazifa bajaradi?
4. Qaysi tilshunos olimlarning yuklamalar tadqiqiga oid izlanishlari mavjud?
5. O‘zbek tilidagi yuklamalar ma’no jihatdan qanday turlarga bo‘lib o‘rganildi?
6. Yuklamalar tuzilishiga ko‘ra qanday tasniflanadi?
7. Qaysi yuklamalar bog‘lovchi vazifasida qo‘llana oladi?
8. *Yuklamalarning presuppositsiyaga ishorasi* deganda nimani tushunasiz?



## UYGA VAZIFA

- ✓ “Bu – bizning Vatan!” mavzuida kichik ma’rifiy matn tuzing. Ma’inda qo’llangan yuklamalarga tavsif bering.
- ✓ Kuzatuvlaringiz asosida “Bolalar nutqida yordamchi so’zlarining qo’llanishi” mavzusida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ She’riy asarlardan *nahotki* yuklamasi ishtirokida tuzilgan so’roq va istak gaplarga misollar toping. Mazkur gaplarda yuklama orqali itodalayotgan qo’shimcha ma’noni izohlang.
- ✓ *Yolg’iz, bir so’zlarining o’z vazifasida va yuklama vazifasida qo’llanishiga badiiy asarlardan 10 ta misol toping.* Ularning umumiy va farqli jihatlari to‘g’risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ P.Qodirov asarlaridan presuppozitsiyaga ishora qiluvchi yuklamalar ishtirok etgan gaplar toping.

## ALOHIDA SO'ZLAR TURKUMI

### Modal so'zlar



**1-amaliy ish.** «Tushunchalar tahlili» metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz tomonidan berilgan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Modal so'z		
Kirish so'z		
Sof modal so'zlar		
Vazifadosh modal so'zlar		



**2-amaliy ish.** Quyidagi jadvalni to'ldiring.

	Sintaktik vazifa bajarmaydigan alohida so'zlar turkumi	Sintaktik vazifa bajara oladigan alohida so'zlar turkumi

**3-amaliy ish.** Nuqtalar o'mniga quyida berilgan modal so'zlarning mosini va zarur o'rnlarga tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.


Modal so'zlar: *Ehtimol, shekilli, haqiqatan, hayriyatki, afsus, xullas.*

1. ... *yana ko'rishishga tuyassar bo'ldik* (P.Qodirov).
2. ... *odamlar bulardan hanuz bexabarlar* (T.Malik).
3. *Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan ...* (O'.Hoshimov).
4. ... *chet elga qochib ketmoqchi bo'lib yurganda fosh bo'lib qolgan!* (T.Murod)
5. ... *shaharda bu hid biron odamni ajablantirmayotgan edi* (N.Eshonqul).
6. ... *sizni aldab,*

*məliklərinizi düşmanlaringizga eltib bergen xoin hali ham saroyda yoxsuldu* (P.Qodirov).



**4-amaliy ish.** Modal so‘zlarning ma’no turlarini aniqlang va slayt kataklariga joylashtiring.



**5-amaliy ish.** Quyidagi modal so‘zlarni ma’noviy guruhlarga ajrating.

*Aftidan, jumladan, mazmuni, shekilli, darhaqiqat, albatta, chunonchi, darvoqe, afsus, binobarin, so‘zsiz, umuman, masalan.*



**6-amaliy ish.** Quyidagi matn bilan tanishing va xulosa yozing. Xulosa bayonida *afsus*, *xullas*, *zotan*, *darvoqe*, *ehtimol* modal so‘zlardan foydalaning.

*Bir o‘rmonda bolta paydo bo‘lib daraxtlarni kesa boshlabdi. O‘rmon ahli unga chora topolmay donishmand Eman huzuriga boribdilar.*

- Bolta deganlaring nimadan ishlangan? - deb so‘rabdi Eman voqeadan ogoh bo‘lgach.
- Bolta deganimiz temirdan ishlangan, - deb javob qilishibdi.

- *Dastasi-chi, dastasi ham temirmi? – deb so 'rabdi Eman.*
- *Yo 'q, dastasi temir emas, yog 'ochdan.*
- *Eh, attang, dastasi o 'zimizdan ekan, endi boltani to 'xtatishning hech qanday iloji yo 'q, – degan ekan donishmand Eman.*

(T.Malik. “Mehmon tuyg‘ular”)

**7-amaliy ish.** Kelib chiqishi mustaqil so‘z turkumlariga borib taqaluvchi modal so‘zlarni ajrating. Ularning mustaqil so‘zlardan farqi va umumiyligi jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

1. *Aslida esa, senlar pastkashsanlar* (T.Malik). 2. *Haqiqatan, o 'rtoq shoir, juda qiziq kinokomediya qilish mumkin!* (A.Qahhor) 3. *Aftidan, ko 'z oldida gavdalangan begunoh, munis juvon jasadining, faryod chekayotgan onaning qiyofasi unga qattiq ta 'sir qilgan edi* (T.Malik). 4. ...*Baxtga qarshi kun ham tobora qizib borardi* (N.Eshonqul).

**8-amaliy ish.** She’riy parchalardagi ajratib ko‘rsatilgan birliklarga tavsif bering. Ularning umumiyligi va farqli jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

*Shaki yo 'qtur, qiyomat kun kelur, do 'stlar,  
“La uqsimu bi yavmil-qiyamah” deb aytmadimu?*

(A.Yassaviy)

*Beshak, dini aning mahkam emas,  
Qon yig 'lag 'il, ko 'zing yoshi davo qilsun.*

(A.Yassaviy)

*Shunda men aytardim baralla, shaksiz,  
To 'xta, ey daqqa, go 'zalsan g 'oyat!*

(E.Vohidov)



**9-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring.

No	Modallarning ma'no turlari	Modallar
1.	Ishonch va tasdiqni anglatuvchi modal so‘zlar	
2.	Gumon ma’nosini anglatuvchi modal so‘zlar	
3.	Shodlik, achinish kabilarni anglatuvchi modal so‘zlar	

1	Fikning tartibini bildiruvchi modal so‘zlar	
2	Fike muallifiga ishora qiluvchi modal so‘zlar	
3	Fikning avvalgi fikrga bog‘liqligini anglatuvchi modal so‘zlar	

10-nimally ish. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun berilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidagi (A.Nurmonov, A.Nobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010. 1-k.) quyidagi mashqni bajaring.

**171-mashq.** Berilgan gaplarni ko‘chiring. Modal so‘zlarni topib maʼnosini ayting.

1. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg‘onib ketasiz.

2. Yo‘q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o‘lehovimizga sig‘maydigan o‘z olami borga o‘xshaydi.

3. «Xayriyat!» – o‘qituvchi bosh silkidi.

4. Nachora, kuni bitgan-da, dedi dadam tomog‘ini bo‘g‘gan ko‘z yoshibdan ovozi xirillab.

5. Nihoyat, Anna xola o‘zi tutib turgan ko‘zguni etagiga artib surjumiga tiqdi (O‘. Hoshimov).

6. Darhaqiqat, xalq uchun ulug‘ ish qilyapsiz, o‘g‘lim.

7. Xullas, vodiyya ham, gullar bog‘ida ham avvalgi hayotdan asar qolmagan edi (Sh. Rashidov).

8. Darhaqiqat, o‘shanda ham Beruniy qilmaganini shoir Unsuriy qildi.

9. Mayli, hamma in’om, hamma boyliklar o‘shal madhiyabozlarga buyursin!

10. Xullas kalom, mana, yaqin uch oydirki, maxfiy elchi yo‘lda emas, ikki o‘t orasida!

11. Durust, mana yigirma yildirki, bu takabbur hakim bizga xizmat qiltshdan bosh tortdi.

12. Binobarin, bu naql ko‘p purhikmat naqlidur.. (O. Yoqubov)!

13. Garchi, to‘satdan dimog‘-firog‘ paydo qilgan «allomayi ramon»ning bema’ni qiliqlarini kechirishga majbur bo‘lsa ham, ichida

*undan kular, nazarida, «shayx ur-rais» bir necha daqiqadan keyin o'ziga kelib, mo'minlashib qoladigandek tuyulardi* (O. Yoqubov).



**11-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qanday morfologik birlik modal so'z sanaladi?
2. Qaysi tilshunos olimning modal so'zlar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlari mavjud?
3. *Modallik* va *modal so'zlar* o'rtasida qanday bog'lanish mavjud?
4. O'zbek tilida modal ma'no qanday usullarda hosil qilinadi?
5. *Modal so'z* va *kirish so'z* terminlari qanday tafovutlanadi?
6. Modal so'zlar gapda qanday sintaktik xususiyatlarni namoyon qiladi?
7. O'zbek tilshunoslida modal so'zlar ma'no va vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ “**Hayot quvonchlari va tashvishlari**” mavzusida ma'rifiy matn tuzing. Matnda qo'llangan modal so'zlarni aniqlang va gapdag'i vazifasini belgilang.
- ✓ T.Murod asarlaridan modal so'zlar ishtirokidagi 10 ta gap topib ko'chiring. Badiiy matnda modal so'zlarning uslubiy vazifasi to'g'risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Ch.Aytmatov asarlaridan fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar ishtirokidagi 10 ta gap topib ko'chiring. Modal so'zlar

(odaloyotgan noaniqlikni ma’no jihatdan (taxminiy, gumanli, ham guman, ham chinlik kabi) tasniflang.

✓ Ilmiy manba va ma’ruza matnlari asosida quyidagi savollarga javob toping.

1. O’zlashgan qatlamga mansub qanday modal so‘zlarni bilasiz?
2. Biror mustaqil so‘z turkumidan o‘sib chiqqan modal so‘z shu turkumdagisi so‘z bilan omonimik munosabatini hosil qilishi mumkinmi?

✓ Ot so‘z turkumidan o‘sib chiqqan modal so‘zlar ishtirok etgan ta’qiliga gap tuzing. Mustaqil va modal so‘z o’rtasidagi umumiyyat va farqli jihatlar to‘g’risida ilmiy xulosa yozing.

### Taqlid so‘zlar



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O’qituvchiningizdan bilib olgan qo’shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo’shimcha ma’lumotlar
taqlid so‘zlar		
tovushga taqlidni anglatuvchi so‘zlar		
/holat (obraz)ga taqlidni anglatuvchi so‘zlar		

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplardan taqlid so‘zlarni topib, ma’noviy turini aniqlang.

1. Matluba og‘riq zo‘ridanmi yo qorong‘u xaltako‘chada milt etgan mur topolmay gangib ezilganidanmi, boshini changallab o’tirdi (T.Malik).
2. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda “tarak-tarak” degan ovoz eshitilardi (O’.Hoshimov). 3. Tong qorong‘usida qarorgohning sharqi janubidan boshlangan va to‘rt tarafga yashin tezligida yoyilgan jang to‘poloni, fillar na’rasi, odamlarni qiy-chuvi, tig‘larning shaq-shuqi, to‘fanglarni gumburlashi uni mast uygidan uyg‘otganda, «yana yomon tush ko‘rdim shekilli», deb o‘yladi

(P.Qodirov). 4. *Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi* (O'.Hoshimov).  
5. *Tunuka tomni taraq-turuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim* (O'.Hoshimov).



### 3-amaliy ish. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

No	Taqlid so‘zlarning ma’no va vazifasiga ko‘ra an’anaviy tasnifi

**4-amaliy ish.** Taqlid so‘zlarning otlashuvi aks etgan 6 ta gap tuzing. Taqlid so‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

**5-amaliy ish.** Berilgan gaplardan taqlid so‘zlardan yasalgan yasalmalarni ajrating va yasalish usuliga izoh bering.

1. *Eshik yana taqillagach, “hozir!” deb ovoz berdi-da, inqillab o‘rnidan turdi.* (T.Malik)
2. *Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillarydi, g‘uvillaydi; tomlarda vishillarydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi* (A.Qahhor).
3. *Bilsami, hozirgi ahvolini tutash desak, gurillab yona boshlashning qanday bo‘lishini tasavvur qilavering* (T.Malik).
4. *Indamasa ana u shaqildoq qo’shisi kelib dunyoni buzadigan* (Jurnaldan).
5. *U ham dadasidek qo‘liga pul tushsa, tuflab hamyoniga tugardi* (S.Ahmad).



### 6-amaliy ish. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

1. Fiziologik tovushga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘zlar: <i>miyov-miyov, ...</i>
2. Fizik tovushga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘zlar: <i>taqir-tuqur, ...</i>



**7-amaliy ish.** “Kim chaqqon?” o‘yinidan foydalanib, taqlid surʼatidagi iqtidoringizni sinab ko‘ring. Bunda talabalar biror shaxs, bayvon yoki parranda tovushlariga taqlid qiladi. Kim chaqqonlik bilan ovoz egasini topsa, u o‘yinni davom ettiradi.

**8-amally ish.** Berilgan gaplarda qo‘llangan taqlid so‘zларни morfologik tahlil qiling.

1. *Olmos qirralaridagi behisob nurlar jilvasi osmondagи g‘uj-g‘uj vulduzлarni eslatar, o‘zi ham gumbaz shakliga o‘xshagani uchun Humoyun uni «Samoyinur» deb atar edi* (P.Qodirov). 2. *Sabohiddin “Qayerdan bilasi?” degandek yalt etib unga qaradi* (T.Malik). 3. *Qulog‘iga shu topda faqat ona yuraginiн dukirigina urilardi* (T.Malik). 4. *Meni sendan tortib olishadiganidek bo‘ynimdan quchoqlab yig‘laganingda, bu ovloq to‘qayni pichir-pichirlaringga to‘ldirganingda, labingda tushuniksiz savollar qotganida bu sirli olamga yorib chiqib o‘chdi-da va meni o‘zingga ham ishonmay o‘z ko‘zлari bilan ko‘rish uchun jajjigina yuraging ko‘ksining qafaslarida gurs-gurs urganida, bu dunyodan baxt izlab cho‘zilgan qo‘lingning qon hidi tutgan sochlaringni silaganida sen uni topdingmi, Zubayda?!* (N.Eshonqul)

#### Tahlil tartibi:

1. Taqlid so‘zning ma’no turi.
2. Taqlid so‘zning qo‘llanishiga ko‘ra turi.
3. Taqlid so‘zning otlashgan yoki otlashmaganligi.
4. Taqlid so‘zning gapdagi sintaktik vazifasi.

**9-amaliy ish.** “Tabiatni asraylik!” mavzusida kichik ma’rifiy matn tuzing. Matnda *chug‘ur-chug‘ur, g‘uj-g‘uj, pirr, yalt-yult, jimir-jimir* kabi taqlidiy so‘zlardan foydalaning va ularning gapdagi sintaktik vazifasini miqqlang.

**10-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**368-mashq.** O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidan olingan parchalarda ishlatilgan undov va taqlid so‘zlarga diqqat qiling, ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlang.

*Bobom quruq aravani tortishga ham madori qolmagan eshagini «xix-xix»lab yo‘lga tushdi. Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim. Bobomning «a?» degani qulog ‘imga chalindi.*

– *Pish-e! – oyog ‘imga suykalgan mushukni bir tepgan edim, «big» etib uch qadamcha nariga borib tushdi. Oyim dik etib o‘rnidan turdi.*

– *Voy-voy-voy, sodda mug‘ambirey! – ikki qo‘llab yuzimdan ushlab ko‘zlarimga tikildi.*

*Cholimning aytishicha tabib sigirini ham sizlab gapirarkan. «Chu» demay, «chuing» derkan.*

– *Shoshma, Qorako ‘z, shoshma... Drr! Xop!*

*Ana bo‘ldi. Ketdik.*

– *Chu, birodar.*



**11-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qaysi tilshunos olimlarning taqlid so‘zlar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarini bilasiz?
2. O‘zbek tilida taqlid so‘zlar qanday morfologik xususiyatlarga ega?
3. Taqlid so‘zlar qanday xususiy belgilari asosida farqlanadi?
4. Taqlid so‘zlarning mustaqil so‘zlar bilan o‘xshashlik belgilari nimada kuzatiladi?

5. Taqlid so‘zlar ma’no jihatdan qanday turlarga bo‘lib o‘rganiladi?
6. Taqlid so‘zlar gapda qanday sintaktik vazifalarni bajaradi?



## UYGA VAZIFA

- ✓ A.Qahhor asarlaridan taqlid so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ajratib ko‘chiring. Taqlid so‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.
- ✓ Ilmiy manba va darsliklar bilan tanishib quyidagi savollarga javob yozing.
  1. Nima uchun ayrim ilmiy manbalarda taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar turkumiga kiritilgan?
  2. Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” (-Toshkent: “Universitet”, 2006. 213-215-b) darsligida taqlid so‘zlar nima uchun *tasvir birliklari turkumiga kiritilgan?* Olimning fikriga munosabat bildiring.
- ✓ “Yoz yomg‘iri” mavzusida ma’rifiy matn tuzing. Unda taqlidiy so‘zlardan keng foydalanishga harakat qiling.
- ✓ Ulug‘bek Hamdam asarlaridan tovushga taqlid so‘zlar ishtirok etgan 10 ta gap topib ko‘chiring. Ularning sintaktik vazifasiga izoh bering.

## Undov so‘zlar



1-amaliy ish. “**Tushunchalar tahlili**” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergen qo‘sishmcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Undov so'zlar		
His-hayajon undovlari		
Buyruq-xitob undovlari		

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplardan undov so'zlarni ajrating va ularning ma'no turini aniqlang.

1. – *Voy, eshitdingizmi? – Saboxon chinakamiga uyalib ketdi* (T.Malik). 2. *E-e, rais bova, bu namozxonlarda... e'tiqod nima qiladi?* (T.Murod) 3. *Azbaroyi achinganimdan «oh!» tortib, uyg'onib ketibmen* (P.Qodirov). 4. – *Ey, Mikilanjelo turing, professor sizga mana bu narsani berib yubordi* (N.Eshonqul). 5. – *Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do'stim!* (A.Qahhor)

**3-amaliy ish.** Berilgan undov so'zlarni ma'noviy guruhlarga ajrating.

*Hey, hormang, voy-bo', kisht, eh, balli, allo, oh, hoy, vuy, rahmat, uf, xayr, iye, uh, salom, oho, bay-bay, voyey, o'h-ho', chu, be.*

**4-amaliy ish.** Undov so'zlardan yasalgan fe'llar ishtirokida 8 ta gap tuzing. Yasama fe'llarni ma'noli qismlarga ajrating.

**5-amaliy ish.** Matnda qo'llangan undov so'zlarni topib, ularning grammatik vazifasiga izoh bering.

*...Uh yana qanday shovqin?! Naq ustimda qiyomat qoyim boshladи chog'i. Nimaning tovushi bu?! Muncha vahimali?! E-e, bular mozoristonni buzishyapti-ku! Aqldan ozishibdi u dunyodagilar... Ha, aniq, buzishyapti, yana, o'sha mudhish qiyomat tovushi tobora yaqinlashib kelyapti. O, sen, ona yerim, momo yerim, mana endi ular meni sendan judo qiladilar, suyaklarimni abgor qiladilar. O, yaramaslar, haromilar, padarkushlar!..*

(N.Eshonqul. "Ajр")




## 6-amaliy ish. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

1. Harakatni bajarishga chaqiruvchi undov so‘zlar: *chu*, ...
2. Harakatni to‘xtatishga chaqiruvchi undov so‘zlar: *dirr*, ...

**7-amaliy ish.** Buyruq-xitob undovlari ishtirok etgan 8 ta buyruq gap tuzing. Undov so‘zlarning gapdagi uslubiy vazifasiga tavsif bering.

**8-amaliy ish.** “Labirint”dan foydalaniб, Qovoqvoyga faqat his tuyg‘u ifodalovchi undov so‘zlar joylashgan bulutchani topishga ko‘maklashing va Qovoqvoy tilidan shu undov so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.



**9-amaliy ish.** *Hay-hay* undov so‘zining quyidagi ma’nolariga gaplar tuzing.

1. Rohatlanish, zavqlanish:
2. Fikrdan qaytarish:
3. Achinish, qayg‘urish:

**10-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 2-k.) berilgan quyidagi mashqni ishlang.

**367-mashq.** “Jimjitlik” romanidan olingan parchalarni o‘qing. Undov so‘zlarining ishlatilish o‘rinlarini tushuntirib bering.

- *Obbo sen-ey, – dedi mehmon. – Zo ‘r bolasan-da.*
- *Shogirdingizman-da, Hoji aka, – Rasulbek yaldoqlanib mehmonlarga yo‘l boshladi.*

*Hoji aka har gal taomni og‘ziga solganda Rasulbek sha’niga hamd-u sano o‘qirdi. Pazandaligini astoydil maqtardi.*

- *Vey, bu hunarni qaydan o‘rgangansan, palakat? Juda zo ‘r ekansan-ku.*

*Tolibjon undan, to ‘rvangda nima bor, deb so‘raganda u, ohaktosh bilan tomatdan bo‘shagan banka, keyin picha kirsovun bor deb javob berdi.*

- *Iya, bularni nima qilasan?*
- Bola juda bilag‘onlik bilan zo‘r ish qilmoqchiliginibildiradigan harakat qildi.*

– *Buloq tepasidagi katta qoratoshga otimizni nimada yozamiz? Ohakni bankaga solib, tepasiga sovun yaproqlar solamiz, keyin suv quysak vaqirlab qaynab ketadi. Qatiqqa o‘xshab oppoq atala bo‘ladi, o‘sha bilan toshga hammamizning otimizni yozaman.*

(Said Ahmad)



**11-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qanday morfologik birlik undov so‘z sanaladi?
2. Qaysi o‘zbek tilshunos olimlarining undov so‘zlar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlari mavjud?

3. O‘zbek tilshunosligida undov so‘zlarning qanday turlari farqlanadi?
4. Undov so‘zlar qaysi so‘z turkumlari bilan o‘xshashlik belgisiga ega?
5. Undov so‘zlarning o‘ziga xos farqlovchi belgilari nimalardan iborat?
6. His-hayajon undovlari nimani anglatadi?
7. Qanday undovlar buyruq-xitob undovlari hisoblanadi?
8. Undov so‘zlar gapda qanday sintaktik vazifalarda qo‘llanadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Badiiy ijod namunalaridan olingan misollar asosida undov so‘zlarning ma’no xususiyatlarini yoriting.
- ✓ Kuzatuvlaringiz asosida “**Undovlarning nutqda qo‘llanishida inson omili**” mavzusida ilmiy axborot yozing.
- ✓ A.Oripov she’riy asarlaridan quvonch, istak, minnatdorchilik tuyg‘usi va unga javobni anglatuvchi undovlar ishtirok etgan 10 ta gap toping.
- ✓ A.Qahhorning “**Mayiz yemagan xotin**” asaridan olingan ushbu matn parchasida qo‘llangan undovlarning ma’no va grammatik xususiyatlariga izoh bering. Undovlarning yozilishi to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

*Erkakni ko‘ra turib yuzini berkitmaganiga mulla Norqo‘zining g‘ashi keldi va shunday beibo xotinning ichkariga – farishtalar oldiga kirishini xohlamadi.*

– Hay, hay! Xo‘sish kimda ishingiz bor?

*Xotin o‘rta eshikdan kirib ketdi. Mulla Norqo‘zi darg‘azab bo‘lib o‘rnidan turdi va eshik oldiga borib bor tovushi bilan baqirdi.*

– Hay xotin, deyman, qandoq behayosan! Jinnimi o‘zi bu...

*Shu onda ichkaridan o'z xotinining tovushi eshitildi:*

– *E, qandaqa xotin bu, birovning uyiga bostirib kiradi!..*

*Nimadir gursillab yerga tushdi, nimadir sindi. Uyning eshigi sharaqlab ochildi. Bir lahza jimlikdan so'ng haligi begona xotinining baqirgan tovushi eshitildi:*

– *Xudo ko'tarsin sen megajinni! Ikkita bolam bor! Bo'ydoq yigit qurib ketganmidi?! Yana nimadir sindi.*

– *Hay, nima gap?! – dedi mulla Norqo'zi bo'sag'ada turib, – singlim, siz o'zingizni bir chetga oling! Nima deydi bu manjalaqi!*

*Begona xotin ayvonga chiqib dod ustiga dod soldi. Birpasda tom, devor ustlari, ichki-tashqi hovlining yuzi odamga to'ldi. Mulla Norqo'zi ayvonning pastidan kelib u xotinining etagidan tortgan edi, xotin jon-jahdi bilan bir tepib og'zi-burnini qop-qora qon qildi; bunga ham qanoat qilmay, uning ustiga o'zini tashladi.*

– *Voydod, xaloyiq, bu qanday erkakki, xotinini birovga qo'shib qo'yib, o'zi eshik poylab yotadi! Voydod xotiningga qo'shgani bo'ydoq yigit qurib ketganmidi! Ikkita bolam bor...*

*Odamlar ajratmaganda bu xotin mulla Norqo'zini g'ajib tashlar edi. Mulla Norqo'zi og'zini ushlaganicha chetlandi. Xotini eshik yonida devorga suyanganicha turar, rangi murdanikiday, o'zi qaltirar edi. Begona xotin hushidan ketib yiqildi.*

✓ Bugungi kunda yoshlar nutqida *Yes!* *Ujas!* *Okey!* kabi undov so'z-gaplarning keng qo'llanilishiga shaxsiy munosabatingizni bildiring.

## SINTAKSIS

### Sintaktik aloqa vositalari va turlari



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz tomonidan berilgan qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo‘srimcha ma’lumotlar
Tenglanish		
Tobelanish		
Koordinativ aloqa		
Subordinativ aloqa		
Predikativ munosabat		
Nopredikativ munosabat		
Relyativ munosabat		
Obyekli munosabat		
Atributiv munosabat		
Introduktiv munosabat		
Kopulyativ munosabat		

### 2-amaliy ish.

*Gulnor uch kunni jahannam azobida o‘tkazdi. Onasidan mash’um xabarni eshitgandan boshlab, tinmay yig‘ladi, qaynoq ko‘z yoshlari bilan yuz-ko‘zlarini yuvib, qayg‘u alangasida tutaqib yondi, suyaklariga qadar zirqirab og‘ridi. Mirzakarimboyga xotin bo‘lish uning xayoliga bir lahza kelgan bo‘lsa edi.., Gulnor balki bunchalik o‘rtanmagan, bunchalik vahimaga, sarosimaga tushmagan bo‘lar edi...*

(Oybek. “Qutlug‘ qon”)

#### 1-variant.

1. Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidan olingan ushbu parchada *sifatlovchi + sifatlanmish, to‘ldiruvchi + to‘ldirilmish, hol + hollanmish* munosabatidagi birikmalarni ajrating.

2. Qiyosiy tahlil asosida ushbu birikmalarning xususiy jihatlariga oid xulosalariningizni bayon qiling.

### 2-variant.

1. Matndan *atributiv*, *obyektlı*, *relyativ* munosabatli birikmalarni ajrating.

2. Qiyosiy tahlil asosida ushbu birikmalarning umumiy va xususiy jihatlariga oid xulosalariningizni bayon qiling.

### 3-variant.

1. Matnda qo'llangan sintaktik aloqa vositalarini aniqlang va namunada qayd etilgani kabi tavsif bering.

2. "Shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabat" masalasiga oid bilimlaringizni umumlashtiring.

### NAMUNA:

*Kunni* – -ni so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, tobe aloqaning shakliy ko'rsatkichi, noperativ munosabatni shakllantirgan, kelishikli boshqaruvni hosil qilishda qo'llangan.

### 3-amaliy ish.

No	Sintaktik munosabat turi	Sintaktik aloqa vositasi	Misollar

**1-variant.** Berilgan birliklar orasidan predikativ va subyektlı sintagmatik munosabatni hosil qiluvchi vositalarni aniqlang hamda ular yordamida gaplar hosil qilib, jadvalni to'ldiring: *kelishiklar*, *fe'lning shaxs-son qo'shimchalari*, *ergashtiruvchi bog'lovchilar*, *ayiruv yuklamalari*, *yuklama-bog'lovchilar*, *so'roq olmoshlari*, *ohang*, *tartib*, *egalik shakllari*, *fe'lning mayl shakllari*, *kesimlik shakllari*.

**2-variant.** Berilgan birliklar orasidan atributiv va relyativ munosabatlarni hosil qiluvchi vositalarni aniqlang hamda ular yordamida gaplar hosil qilib, jadvalni to'ldiring: *ko'makchilar, kelishiklar, teng bog'lovchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, yordamchi so'zlar, tenglik ohangi, ko'plik shakli, fe'lning nisbat shakllari, egalik qo'shimchalari, perdikativlik shakllari*.

**3-variant.** Berilgan birliklar orasidan obyektli va relyativ munosabatlarni hosil qiluvchi vositalarni aniqlang hamda ular yordamida gaplar hosil qilib, jadvalni to'ldiring: *bog'lovchilar, kelishiklar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, modal so'zlar, ohang, fe'lning analitik shakllari, fe'lning mayl shakllari, egalik qo'shimchalari, kesimlik shakllari, fe'lning ravishdosh shakllari*.

#### **4-amaliy ish.**

##### **1-variant.**

1. "*O'zbek tili – Davlat tili*" mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Matnda kuzatilgan paradigmatic munosabatni hosil qiluvchi vositalarga tavsif bering.

2. "Sintaktik birliklar o'rtasidagi paradigmatic munosabat" masalasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtiring.

##### **2-variant.**

1. "*O'zbekiston – Vatanim manim!*" mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Matnda kuzatilgan sintagmatik munosabat ko'rinishlariga tavsif bering.

2. "Sintaktik birliklar o'rtasidagi sintagmatik munosabat" masalasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtiring.

##### **3-variant.**

1. "*Men nechun sevaman O'zbekistonni?!*" mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Matn tarkibida nopredikativ munosabatni shakllantirgan vositalarga tavsif bering.

2. "Nopredikativ munosabat ko'rinishlari" masalasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtiring.



### 5-amaliy ish.

”Ramziy ifodalang” metodi orqali bugungi kunda eng ommalashgan aloqa vositasi – qo‘l telefonlarini ramziy ifodalang. Siz uni nimaga o‘xshatasiz? O‘xshatgan narsangizni rasmini chap qo‘lda chizishga harakat qiling. Nima uchun siz uni shu predmetga o‘xshatdingiz? Izoh bering. Fikrlang: Nima uchun topshiriq chap qo‘lda bajarildi? Fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

**6-amaliy ish.** Mustaqil tarzda *sintagmatik* va *paradigmatik munosabat* haqida nazariy ma’lumot yozing. Xulosalariningizni daliliy misollar yordamida ilmiy asoslab bering.



**7-amaliy ish.** Mavzu yuzasidan egallagan bilimlaringizni savol-javob asosida sinab ko‘ring.

1. Sintaktik birliklar orasidagi qanday munosabat *sintagmatik munosabat* deyiladi?
2. Sintaktik birliklar orasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatning qanday ko‘rinishlari farqlanadi?
3. Sintaktik birliklar orasidagi *shakliy sintagmatik munosabat* deganda qanday munosabatlar tizimi tushuniladi?
4. O‘zbek tilida predikativ munosabatni qanday grammatisk vositalar hosil qiladi?
5. *Bir tomonlama (subordinatsiya)* va *ikki tomonlama (koordinatsiya)* munosabat deganda qanday aloqa tushuniladi?
6. Sintaktik birliklar orasidagi qanday munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi?
7. *Kopulyativ munosabat* qanday sintaktik aloqada shakllanadi?
8. An’anaviy tilshunoslikda *sintaktik munosabat* va *sintaktik aloqa* terminlari nimani anglatadi?

9. *Predikativ munosabat haqidagi an'anaviy qarashlarda asosiy e'tibor nimunga qaratilgan?*

10. *Introductory munosabat deganda qanday munosabat nazarda tutiladi?*



## UYGA VAZIFA

1. "Shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabat" mavzusida nazariy ma'lumot yozing.

2. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo'jayevalarning "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" (-Toshkent, 1992) hamda N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" (-Toshkent, 1995) kitoblari asosida *bir tomonlama (subordinatsiya)* va *ikki tomonlama (koordinatsiya)* aloqa terminlariga sharh yozing.

3. Ilmiy manbalar asosida *valentlik* terminining kimyo va tilshunoslikdagi ma'nolarini o'rGANING. Ularni qiyoslab ilmiy xulosa yozing.

4. Ilm va ilmsizlik masalasiga bag'ishlangan 10 ta o'zbek xalq maqolini topib yozing. Ulardan atributiv, obyektli va relyativ munosabatli birikmalarni ajrating.

### Tobe aloqa usullari: moslashuv, boshqaruv va bitishuv



1-amaliy ish. "Tushunchalar tahlili" metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz tomonidan berilgan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Moslashuv		
Boshqaruv		
Bitishuv		

**2-amaliy ish.** Matndan so‘zlar orasida tobe aloqani hosil qilgan morfologik vositalarni aniqlab, ularga tavsif bering.

*Mendan ko‘pdan ko‘p salom. Sog‘man, sog‘liqlaringizni tilayman. O‘qishga kirganiningni eshitib, juda xursand bo‘ldim. Kelajakda baxtli bo‘lmoqni istagan har bir qiz o‘qishi kerak. Mendan so‘rasang: imtihonni yaxshi topshirdim. Men ham (maqtanmay) birdan oldin, birdan keyin darsimni olib borayotirman...*

(G‘.G‘ulom “Yodgor”)

**3-amaliy ish.** Hokim va tobe so‘zning bog‘lanish usullarini aniqlang.

*Umumxalq bayrami, oyoq yalang bola, oqqushni ko‘rmoq, tezda qaytmoq, orombaxsh diyor, xatni yozoladi, toshyo‘l bo‘ylab ketmoq, ortidan kuzatmoq, har narsadan bir chimdim, nihoyatda chiroyli, mehnat zavqi, qorli tog‘lar, gulning hidi, birdan chinqirmoq, kotibani chaqirmoq, bizning bog‘.*

**4-amaliy ish.** Berilgan so‘zlar qatoridan shakliy va ma’noviy omil asosida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishini hosil qiling.

*Doston, olcha, kelgusi, allaqanday, narsa, birdaniga, dangasa, qish, arazlab, bitib, dunyo, qizg‘andi, arzigulik, chilla, bola, chinqirib yubormoq, nordon, artmoq, yilda, bezimoq, yolg‘ondan, bo‘shab, qiz, qadim, tez, ishdan, yig‘lamoq, olma, to‘satdan, ilg‘or, ko‘klam, yig‘lab, Vatan, qizg‘andi, aytarlik, hafta, chinqirib kelmoq, erta, zamonda, oxirida, qaytmoq, jo‘rttaga, gap, qiyofasi.*

**5-amaliy ish.**

1. Tobe bog‘lanish usullaridan foydalanib, berilgan modellarga muvofiq birikuvlар hosil qiling hamda namunada berilganidek qayd eting.

2. Hosil bo‘lgan birikuvlар asosida tobe bog‘lanish usullari haqidagi nazariy bilimlaringizni umumlashtiring.

**1-variant.** [ot + ot], [ot + fe’l], [son + ot], [sifat + ot]

**2-variant.** [olmosh + fe’l], [ravishdosh + fe’l], [ravish + fe’l], [sifatdosh + ot]

**3-variant.** [ot + fe'l], [ravish + ot], [son + ot], [ravish + ravishdosh].

### NAMUNA:

[Ot + ot]: *asfalt yo'l // asfalt* – tobe so'z, *yo'l* – hokim so'z; tobe so'z hokim so'zga bitishuv usulida bog'langan.



**6-amaliy ish.** Jadvalni to'ldiring. Jadvaldag'i qaydlaringiz asosida "Tobe aloqa vositalari sinonimiysi" masalasiga munosabat bildiring.

Nº	Sinonimik munosabatdagi tobe aloqa vositalari	Tobe aloqa usuli	Misollar
1.	<i>...ga = uchun</i>	<i>boshqaruv</i>	<i>ukamga = ukam uchun</i>

### 7-amaliy ish.

Mustaqil tarzda tobe bog'lanish usullari haqida ilmiy xulosa yozing. Xulosangizni daliliy misollar yordamida ilmiy asoslab bering.

**8-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**49-mashq.** Ko'chiring. So'z birikmalarini ajrating. Tobe bo'lakdan hokim bo'lakka chiziqcha tortib, chiziqning tepasiga ularning bog'lanish usullarini yozib qo'ying.

1. Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi. 2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy hilqat ekanligini va bu rad etib bo'lmash haqiqatligini tan olamiz. 3. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lган, о'злигимизни ко'rsatадиган, бизнинг олиш шахарамизни, наслунасибимизни, инсоний қадр-у қимматимизни belgilayдиган muqaddas va mo'tabar

*vogelikdir. 4. Biz g'olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. 5. Har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi. takomillashtiradi. O'z dunyoqarashi va manfaatlari doirasida vujudga keltiradi.*

(«Fidokor» gazetasidan)



**9-amaliy ish.** Mavzu yuzasidan egallagan bilimlaringizni savol-javob asosida sinab ko'ring.

1. O'zbek tilshunosligida tobe aloqa (tobelanish)ning qanday usullari farqlanadi?
2. Kelishikli va ko'makchili boshqaruv asosida shakllangan qurilmalar qanday ma'noviy xususiyatlari asosida farqlanadi?
3. Moslashuvli birikmalarda hokim va tobe qism qanday o'rinalashadi?
4. Aniqlovchi + aniqlanmish, hol + hollanmish o'zaro qanday birikish usuli orqali birikadi?
5. Boshqaruv yo'li bilan hosil bo'lgan birikmalarda hokim so'z sifat bilan ifodalansa, tobe so'z vazifasini qanday so'zlar bajarishi mumkin?
6. Bitishuv usulida tobe qism hokim qismiga qanday vositalar bilan bog'lanadi?
7. Moslashuvli birikmalarda egalik qo'shimchalari qaysi shaxsda belgisiz ishlatiishi mumkin?
8. Boshqaruvli birikmalarda tobe so'z asosan qaysi kelishik shakllarida qo'llanadi?



### UYGA VAZIFA

1. Ilmiy manbalar asosida *moslashuv* va *muvofiglashuv* terminlariga izoh yozing.
2. "Sabr va qanoat" mavzusidagi 10 ta o'zbek xalq maqolidan topib, moslashuv, bitishuv va boshqaruv munosabatlari birlikmalarni ajrating.
3. "Tobe bog'lanish usullari" mavzusida nazariy ma'lumot yozing.

## SO‘Z BIRIKMASI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchningiz tomonidan berilgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>So‘z birikmasi</i>		
<i>Sintagma</i>		
<i>Otli birikma</i>		
<i>Fe’lli birikma</i>		
<i>Ravish-sifatli birikma</i>		
<i>Sodda birikma</i>		
<i>Murakkab birikma</i>		

### 2-amaliy ish.

**1-variant.** Berilgan so‘z birikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

*O‘zicha kulmoq, achchiq yolg‘on, bir tog‘ora somsa, doira sadolari, dildan quvnamoq, mish-mish gaplar, osmono‘par bino, olis yo‘l, atlas ko‘ylak, bosh egib gapirmoq, kitob muqovalamoq.*

**NAMUNA:** *O‘zicha kulmoq: o‘zicha – tobe so‘z, ravish bilan ifodalangan; kulmoq – hokim so‘z, fe‘l bilan ifodalangan.*

**2-variant.** Berilgan so‘z birikmalarining hokim so‘zning qanday so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga ko‘ra turini va bog‘lanish usulini aniqlang.

**NAMUNA:** *O‘zicha kulmoq – fe’lli birikma, bitishuv usulida bog‘langan.*

**3-variant.** Berilgan so‘z birikmalarini tarkibiy qismlarga ajrating va qismlarni bog‘lovchi vositalarga tavsif bering.

**NAMUNA:** *O‘zicha kulmoq – so‘z birikmasi, o‘zicha – tobe so‘z, kulmoq – hokim so‘z, so‘z birikmasi qismlari ohang yordamida bog‘langan.*

**3-amaliy ish.** Tobe so‘zi qo‘shma, juft va takroriy so‘zlardan tashkil topgan 8 ta so‘z birikmasi hosil qiling hamda ularning qurilish modellarini belgilang.

**NAMUNA:** *Katta-kichik bolalar* – so‘z birikmasi, tobe so‘z juft so‘zdan tashkil topgan. So‘z birikmasining yuza qurilish modeli: [I<sub>sif</sub>.+I<sub>ot</sub>]



**4-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagi qaydlaringiz asosida “So‘z birikmalarining tasnifi” masalasiga munosabat bildiring.

	So‘z birikmalarining tuzilishiga ko‘ra turlari	So‘z birikmalarining hokim so‘zning turkumiga ko‘ra turlari

**5-amaliy ish.** She’riy parchalardan otli, fe’lli birikmalarni ajratib ko‘chiring va yuza qurilish modelini belgilang. Tahlillaringiz asosida otli, fe’lli birikmalar semantikasini belgilashga urinib ko‘ring.

*Olamda fojia ko‘p erur biroq,  
Bunisin alami haddan ziyoda.*

*Oh, nechog ‘dahshatdir tirik turgan chog’,  
Umring oyoq osti bo ‘lsa dunyoda.*


(A.Oripov. “Fojia”)

*Yurtim,  
Seni yana oldim qalamga  
To ‘ying, shodiyonang bahona bo ‘lib  
Yana kelib qo ‘nding tonggi misramga  
Falak nisor etgan durdona bo ‘lib.  
Iqbol peshonamga bitgan oshyonim–  
O‘zbekistonim.*

(E.Vohidov. “O‘zbekiston”)

**6-amaliy ish.** Matnda nechta so‘z birikmasi mavjudligini aniqlang. So‘z birikmalari qismlarining bog‘lanish zanjirini namunada ko‘rsatilgani kabi qayd eting.

**NAMUNA:** *Nari-beri til uchida yozgandek* – murakkab so‘z birikmasi. So‘z birikmasi qismlarining bog‘lanish zanjiri quyidagicha:



*Siz – qochoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo‘lib qochgansiz. Ikki yil bo‘yi Marg‘ilon kelib yurishingizni men o‘zimcha yechdim, lekin topib yechdim: Sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lganini angladim. Yo‘qsa, meni ko‘rar edingiz, ko‘rgingiz kelmaganda ham, boshqalar Sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar.*

(A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”)

**7-amaliy ish.** Matndan otli, fe’lli va ravishli so‘z birikmalarini ajrating hamda yuza qurilish modellarini belgilang. Ajratilgan so‘z birikmalarini tuzilishiga ko‘ra tasniflang.

**NAMUNA:**

*Orombaxsh bir joy* – so‘z birikmasi, otli birikma, yuza qurilish modeli:  $[I_{\text{sifat}} + I_{\text{ot}}]$ .

*... So‘nggi bir oy ichida bu ko‘rimsizgina bino men uchun dunyoda eng ko‘rkam, eng ziynatli, eng orombaxsh bir joyga aylangan edi. Men uning oldidan yuragimni hovuchlab, Muqaddasim, sevgilim yashagan ikkinchi qavatdagi balkonli xonadan, xonaning derazalariga tutilgan harir*

*to'r pardasidan ko'zlarimni uzolmasdan, uni ko'rmasam ham har safar qalbim nafis va totli tuyg'ularga to'lib o'tardim ...*

(O.Yoqubov. "Muqaddas")

**8-amaliy ish.** Berilgan so'z birikmalarining sintaktik sinonimlarini hosil qiling. So'z birikmalarining yuza qurilish modellarini belgilang hamda ularga namunada ko'rsatilgani kabi tavsif bering.

**1-variant.** *Mening zurriyodim, hosildan nishona, mendan yodgorlik, chindan kulmoq.*

**2-variant.** *Uzumni yemoq, do'stidan eshitmoq, onasiga olmoq, hassa bilan ochmoq.*

**3-variant.** *Bizning bog', tayoq bilan urmoq, kasallik sababli kelmaslik, telefonda sezib qolmoq.*

#### NAMUNA:

*Mening zurriyodim – Zurriyod meniki.*

*Mening zurriyodim: [I<sub>q.k.</sub>+I<sub>e.q.</sub>]*

*Zurriyod meniki: [EAK<sub>k</sub>].*

**9- amaliy ish.** Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafscha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda , qirlarda bahor... (Zulfiya)*

#### Sintaktik tahlil tartibi:


1. Gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi sxema orqali ko'rsatiladi, (sxematik tahlil) va shu asosda gapdagi so'z birikmalarini aniqlanadi.

2. So‘z birikmasida hokim va tobe so‘zlar ajratiladi, ularning ifodalanishi, morfologik shakli qayd etiladi.
3. So‘z birikmasi qismlari orasida shakllangan sintaktik aloqa turi belgilanadi.
4. So‘z birikinasi qismlarining erkin yoki bog‘liq ekanligiga ko‘ra turi (erkin va bog‘liq aloqa) aniqlanadi.
5. Tobelikning yo‘nalishiga ko‘ra sintaktik aloqa turlari (koordinativ yoki subordinativ aloqa) aniqlanadi.
6. So‘z birikmasi qismlari orasida shakllangan mazmuniy-sintaktik munosabat turi qayd etiladi: a) atributiv munosabat (sifatlovchisi-sifatlanmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli) ko‘rsatiladi; b) obyektli munosabat (to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli, to‘ldiruvchining turi: vositali, vositasiz, kelishikli yoki ko‘makchili, funksional yoki nofunksional ekanligi) belgilanadi; c) relyativ munosabat (hol-hollanmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli, holning turi, funksional yoki nofunksional ekanligi) belgilanadi.
7. Hokim so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra so‘z birikmasi tiplari (otli birikma, felli birikma, ravishli birikma) aniqlanadi.
8. So‘z birikmasi qismlarini bog‘lovchi vositalar (formal-grammatik vositalar, leksik-grammatik vositalar, pozitsion vosita – so‘z tartibi, intonatsiya) aniqlanadi.
9. Tobe bog‘lanish usullari qayd etiladi: a) moslashuv usuli va unga xos belgilar (hokim va tobe so‘zning ifoda materiali, ularning qanday morfologik shakllar orqali moslashuvi) belgilanadi; b) boshqaruv usuli va unga xos belgilar (boshqaruvchi va boshqariluvchi so‘zlar aniqlanadi, hokim so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra boshqaruv turlari (fe’l boshqaruvi, ot boshqaruvi, sifat boshqaruvi, ravish boshqaruvi, son boshqaruvi) aniqlanadi, tobe so‘zning grammatik shakliga ko‘ra boshqaruv turlari (kelishikli va ko‘makchili boshqaruv) ko‘rsatiladi; c) bitishuv usuli va unga xos belgilar (hokim va tobe so‘zning ifoda materiali, ularning qanday grammatical vosita orqali birikishi) qayd etiladi.
10. So‘z birikmasining tuzilishiga ko‘ra turi (sodda yoki murakkab ekanligi) belgilanadi.
11. So‘z birikmasining semantikasi aniqlanadi.
12. So‘z birikmasining qurilish modeli belgilanadi.

## NAMUNA:

*Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.* (Maqol)

### 1. Gapning sxematik tahlili:



So‘z birikmalari: *bir yil, bir yil ekkan, tut ekkan, ekkan kishi, yuz yil, yuz yil termoq, gavhar termoq.*

*Bir yil* – so‘z birikmasi, *bir* – tobe so‘z, son bilan ifodalangan; *yil* – hokim so‘z, ot bilan ifodalangan; tobe aloqa: erkin aloqada; subordinativ (bir tomonlama) aloqa, atributiv munosabat, aniqlovchili birikma; otli birikma, qismlarni bog‘lovchi vosita: tartib va ohang, qismlar bitishuv usulida bog‘langan: son+ot tuzilishida, sodda birikma; miqdor + vaqt uzvlarini aks ettirgan, qurilish modeli : $[I_{\text{son.}} + I_{\text{ot}}]$

**10-amaliy ish.** 8-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2014. 31-b.) berilgan quyidagi topshiriqni bajaring.

**3-topshiriq.** Hokim so‘z bilan tobe so‘zni bog‘lovchi grammatik vositalarning tagiga chizib, juftlab berilgan so‘z birikmalarining ma’nosidagi farqni ayting.

*Bog‘ga burilish – bog‘ tomon burilish, she‘rni o‘qish – she‘r o‘qish, qovunni uzish – qovun uzish, olcha guli – olchaning guli, tarvuz yemoq – tarvuzni yemoq, uzum yeyish – uzumdan yeyish, shiyponga borish – shiypon sari borish, nondan olmoq – non olmoq.*



**11- amaliy ish.** Mavzu yuzasidan egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali sinab ko‘ring.

1. O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasining sintaktik birlik sifatidagi muqomi xususida qanday nazariy qarashlar mavjud?
2. So‘z birikmasining shakllanishida ma’noviy omil qanday o‘rin tutadi?
3. So‘z birikmasida qaysi bo‘lak kengayuvchi, qaysi bo‘lak kengnytiruvchi qism hisoblanadi?
4. Erkin bog‘lanishli so‘z birikmalari turg‘un bog‘lanishli frazeologik birliklardan qanday farqlanadi?
5. So‘z birikmalari qanday belgilari asosida tasniflanadi?
6. O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmalari hokim so‘zning morfologik xususiyatiga ko‘ra qanday tasniflanadi?
7. So‘z birikmalarining qaysi turi kam miqdordagi paradigma n‘zolariga ega?
8. Qanday tuzilishdagi so‘z birikmalarida propozitsiya (axborot ifodasi) ham aks etadi?
9. O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmalarining qanday qurilish modellari belgilangan?
10. So‘z birikmasining hosil bo‘lishida shakliy omil qanday o‘rin tutadi?



## UYGA VAZIFA

1. So‘z birikmalarining hokim so‘zning qaysi turkumdan ekanligiga ko‘ra tasnifi haqida nazariy ma’lumot yozing.
2. “So‘z birikmasining qo‘shma so‘z va turg‘un birikmadan farqi” mavzusida nazariy ma’lumot yozing.
3. Ham so‘z birikmasi, ham turg‘un birikma sifatida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan birikmalar ishtirok etgan 10 ta misol topib ko‘chiring.
4. “So‘z birikmasi zanjiri” haqidagi nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

## GAP QURILISHI HAQIDAGI SINTAKTIK NAZARIYALAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingizdan bilib olgan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
Gap		
Predikativlik		
Gapning grammatik modallik kategoriyasi		
Gapning grammatik shaxs kategoriyasi		
Gapning ifoda maqsadi kategoriyasi		
Gapning grammatik zamon kategoriyasi		

**2-amaliy ish.** *Predikat, predikativlik, predikativ ifoda va ikkilamchi predikat* terminlariga ilmiy sharh yozing. “Predikativlikning ifodalanishi” masalasiga doir ilmiy qarashlaringizni misollar yordamida dalillab bering.

**3-amaliy ish.** Berilgan gaplarning grammatik kategoriyalarini (modallik, shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor) aniqlang. Gapda predikativlikni shakllantirgan vositalarga namunada ko‘rsatilgani kabi tavsif bering.

1. *Rost, hozircha bolalar bardam* (O.Yoqubov).
2. *Uyga qaytar Matmusa, Shirin bo‘lib kechqurun* (E.Vohidov).
3. *Onang rozi – olam rozi* (Maqol).
4. *U yana donishmandning huzuriga boribdi* (N.Aminov).
5. *Har nima bo‘lmasin, kengashni o‘tkazishga qaror qildi* (Oybek).
6. *Bir damdan so‘ng Me’morning toqati toq bo‘la boshladi* (Mirmuhsin).
7. *Odatda, buvilar bolalarga ertak aytishadi* (N.Aminov).
8. *Ahvol qanchalik og‘ir ekanini aytib o‘tirishning hojati yo‘q* (O.Yoqubov).

## NAMUNA:

*Rost, hozircha bolalar bardam* (O.Yoqubov). Ushbu gapda obyektiv modallik hamda *rost* so‘zi orqali so‘zlovchining subyektiv munosabati aks etiradi, gap tasdiq xarakterida, hozirgi zamonni aks ettiradi, gapda kesim (*bardam*) orqali 3-shaxs, ko‘plikka ishora qilinadi.

**4-amaliy ish.** Ikkilamchi ot predikat ishtirok etgan 6 ta gap tuzing. Tuzgan gaplaringizning shakliy va mazmuniy tuzilishini namunada ko‘rsatilgani kabi tavsiflang.

## NAMUNA:

*Akamning o‘jarligini qishloqda hamma biladi.* – Ushbu gap shaklan sodda, mazmunan murakkab tuzilishga ega. Chunki gapda 2 ta axborot ifodalangan: 1. *Akam o‘jar.* 2. *Buni qishloqda hamma biladi.* *O‘jarligini* so‘z shakli gapda ikkilamchi ot predikat mavqeyida kelgan.




**5-amaliy ish.** “*To‘rtinchisi ortiqcha*” usulidan foydalanib, “Gap” mavzusi bo‘yicha bilimingizni tekshiring. Berilgan 4 termindan mavzu doirasiga ko‘ra o‘zaro muvofiq keladigan uchtasini ajratib, uchburchak kataklariga joylashtirasiz, to‘rtinchisi esa ortiqcha.

**1-variant.** 1. Darak gap, so‘roq gap, undov gap, buyruq gap. 2. Modallik, predikativlik, intonatsion tugallik, tobelik. 3. Ajratilgan bo‘lak, undalma, uyushiq bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak.

**2-variant.** 1. Undalma, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, izohlovchi. 2. Kirish so‘z, kiritma gap, kirish bo‘lak, kirish birikma. 3. Uyushiq kesim, uyushgan gap, uyushiq ega, uyushiq aniqlovchi.

**3-variant.** 1. Undalma, kirish so‘z, modal so‘z, uyushiq bo‘lak. 2. Shaxs-son kategoriyasi, modallik kategoriyasi, zamon kategoriyasi,

bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi. 3. Shaxssiz gap, shaxsi umumlashgan gap, so‘z-gap, shaxsi ma’lum gap.



### **6-amaliy ish.**

1. O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan olingan quyidagi gaplarni predikat xarakteriga ko‘ra tasniflang.
2. Ot predikatlarni mazmuniy guruhlarga ajrating va namunada ko‘rsatilgani kabi sharhlang.

1. *Nayzani sanchdimi, o‘zi urildimi, esimda yo‘q.* 2. *Avval qulog‘imga muttasil guvillagan sado eshitildi.* 3. *Muzlab yotgan so‘qmoqdan yurib ketdik.* 4. *Eshik yonida suyanchiqsiz kursi turibdi.* 5. *Suv ostidagi qo‘limni qimirlatib ko‘rsam, hali jon bor.* 6. – *Siz yashashingiz kerak!* 7. *Yo‘q, o‘lim unchalik dahshatli emas.* 8. *Mening Munavvarim bor, odamlar!*

### **NAMUNA:**

*Nayzani sanchdimi, o‘zi urildimi, esimda yo‘q.* Ushbu gap murakkab qo‘shma gap bo‘lib, birinchi va ikkinchi gaplar predikat xarakteriga ko‘ra fe‘l asosli, uchinchi gap ot asosli gap hisoblanadi. Ot asosli gap semantik jihatdan yo‘qlikni anglatadi.



**7- amaliy ish.** Slayd kataklarini to‘ldiring. Gapning predikat xarakteriga ko‘ra turlari haqidagi nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

Ot predikatlarning  
mazmuniy turlari

Fe'l predikatlarning  
mazmuniy turlari

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

**8-amallyish.** 8-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. – Toshkent: Cho'lpox, 2014. 46-b.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**97-mashq.** Matnni o‘qib, uni gaplarga ajrating, so‘ng bosh harflarni tiklab, zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chirib yozing.

*Nima bo‘ldi qizim nega yig‘layapsan Gulchehra boshini ko‘tardi ro‘parasida nuroniy bir mo‘ysafid unga dardli tikilib turardi birov xafa qildimi yo‘q dedi Gulchehra va uyalganidan qizarib ketdi dadil bo‘ling dedi mo‘ysafid yig‘i hech mahal odamga yordam bergen emas qancha sovuqqonlik qilsangiz shuncha yutasiz asab yig‘i ojizlarning udumi tramvay keldi Gulchehra mo‘ysafidga nima deb javob qilishni bilmay o‘zini tramvayga otdi.*



**Bilimingizni tekshirib ko‘ring!**

Gap yuzasidan egallagan bilimingizni “Klaster” (tarmoqlash) usuli orqali tekshirib ko‘ring. Chizmadagi tarmoqlarni davom ettiring va to‘ldiring.

Undov gap		
Egali gap		
Egasiz gap		
Tasdiq gap		
Inkor gap		

### Gaplarning tuzilish jihatdan turlari

**1-amaliy ish.** Maqollarning sintaktik tuzilishini o‘rganing. Sodda gap modelidagi maqollarni ajrating va qaysi belgilari asosida ajratganingizga izoh bering.


**1-variant.** 1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan.* 2. *Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, mulla bo‘lsang, takror qil.* 3. *Yalqovlik bor yerda ko‘z bo‘yash bor.* 4. *Mingta yolg‘ondan bitta rost yaxshi.*

**2-variant.** 1. *Bugungi mehnat – ertaning rohati.* 2. *Mehnatni hurmatlasak, u bizni e’zozlaydi.* 3. *Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l.* 4. *Baxtning kaliti mehnatning cho‘ntagida.*

**3-variant.** 1. *Yogochni uzun kes, temirni qisqa.* 2. *Gul uzishdan oldin gulzor yaratadilar.* 3. *Mehnatkash odam fisq-fasod gaplarni bilmaydi.* 4. *It axlat yemasa, boshi og‘riydi.*



**2-amaliy ish.** “Venn” diagrammasi orqali sodda va qo‘shma gaplarning umumiyligi va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga sodda va qo‘shma gapning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.



### **Namally Ish.**

1. Sodda gaplarning formal-funksional yo‘nalishda belgilangan qurilish modellari haqida fikr yuriting.
2. Matnda qo‘llangan sodda gaplarning qurilish modellarini belgilang.

### **NAMUNA:**

*Mirvali g‘alati fe’lli odam.* Ushbu gapning formal-funksional yo‘nalishdu belgilangan qurilish modeli quyidagicha: [EAK<sub>k</sub>].

*Mirvali g‘alati fe’lli odam. Ishiga aralashadiganlarni uncha xush ko‘rnaydi. Birovning maslahatini olmaydi ham. Ilgarilari kelib holing ne, deb Tolibjonning ko‘nglini ovlab ketardi. Endi uni butunlay unutib yubordi. Bormisan, yo‘qmisan, demaydi. (S.Ahmad. “Jimjitlik”)*

**Namally ish.** Berilgan sodda gaplarning mazmuniy tuzilishini aniqlang hamda gapda yuzaga kelgan shakl va mazmun nomuvofiqligining sabablarini belgilang.

**1-variant.** 1. *Mirvali javob o‘rniga bir ko‘zini qisib qo‘ydi* (S.Ahmad). 2. *Qul bo‘lib yashagandan ko‘ra tik turib o‘lgan afzal* (Muqol). 3. *Boyning tashqi hovlisida Yo‘lchidan boshqa hech kim yo‘q edi* (Oybek). 4. *Shu payt Umida idoradan chiqib, sadaga tomon kela boshladi* (A. Quhhor).

**2-variant.** 1. *Ufq qizg‘ish tusga kirib, tong yorishardi* (Sh.Rashidov). 2. *Opamiz men tugul hatto Shodivoydek bolaning ham choragiga «ikki» chiqarmoqchi bo‘lgan ekan* (O‘.Hoshimov). 3. *Odamga o‘xshab nafas oldi* (T.Murod). 4. *Senlardan tilaydurg‘on boshqa tilagim yo‘q* (O.Yoqubov).

**3-variant.** 1. *Ayolimiz bilan loyimiz bir yerdan olingan!* (T.Murod) 2. ...*Chang bosgan eski do‘ppidan boshqa hech nima yo‘q* (Oybek). 3. *Shu topda davrani yorib yo‘g‘on gavdali, bo‘yni qalinligidan gardani bo‘rtib chiqqan qora kishi kirdi* (S.Ahmad). 4. *Shuning uchun ayollar yuzlarini*

*berkitishidan tashqari, ovozlarini ham begona erkaklarga eshittirmaslikka harakat qilganlar* (P.Qodirov).

### **5-amaliy ish.**

1. Sodda gaplarda yuzaga keluvchi shakl va mazmun ziddiyati sabablarini izohlang.
2. Mustaqil tarzda “Sodda gaplarda shakl va mazmun ziddiyati” mavzusida ilmiy axborot yozing.

### **6-amaliy ish.** Sodda gaplarni ajratib, sintaktik tahlil qiling.

1. *Saodat bilan Vohid tutga yetgan ham edilarki, chelaklab quya boshlagan yomg‘ir birdan to‘xtadi* (O.Yoqubov).
2. *Munisxon birdaniga orqaga tisarildi* (S.Zunnunova).
3. *Samandar bir vaqtlar bolalar bilan to‘p tepgan maydonchaga suqlanib boqdi* (S.Karomatov).
4. *Kumush bu gapga ajablanar, to‘g‘risi, shodlana edi* (A.Qodiriy).
5. *Shuni bilingki, inson hamisha visolga intiladi, mushtoq bo‘lib shirin damlarni boshidan kechiradi* (S.Karomatov).
6. *Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, bunaqangi ustaxona dunyoda hech bir mакtabda bo‘lmasa kerak* (X.To‘xtaboyev).
7. *Onasi yaqin qarindoshlarinikiga mehmonga ketgan edi* (A.Tilavov).

### **Tahlil tartibi:**

1. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi (darak, so‘roq, buyruq, istak gap) belgilanadi.
2. Gapning emotsionallikka ko‘ra turi (his-hayajonli yoki his-hayajonsiz gap) aniqlanadi.
3. Gapning grammatik asosi miqdoriga ko‘ra turi (sodda yoki qo‘shma gap) belgilanadi.
4. Eganing ishtirokiga ko‘ra gap turi (egasiz yoki egali gap) ko‘rsatiladi.
5. Kesimdan boshqa bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra gap turi (yig‘iq yoki yoyiq gap) belgilanadi.

6. Zaruriy bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gap turi (to'liq yoki to'liqidz gap) ko'rsatiladi.
7. Gapning tasdiq yoki inkomi ifodalashiga ko'ra turi (tasdiq yoki inkor gap) ko'rsatiladi.
8. Sintaktik vazifa bajarmaydigan elementlarning mavjud yoki mavjud cinasligiga ko'ra gap turi (murakkablashgan yoki murakkablashmagan gaplar) ko'rsatiladi.

### NAMUNA:

*Elmurod bu yerga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi* (P.Tursun).

Darak gap, his-hayajonsiz gap, sodda gap, egali gap, sodda yoyiq gap, to'liq gap, tasdiq gap, sifatdosh o'ram bilan murakkablashgan sodda gap.

### Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari



**1- amaliy ish.** Quyidagi grammatik belgilarga ega bo'lgan gaplar tuzing. "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari" masalasiga doir bilimlaringizni umumlashtiring.

1. *Darak, yig'iq, to'liqsiz, hozirgi zamon, inkor gap.*
2. *Istak, yoyiq, to'liq, obyektiv + subyektiv modallik, maqsad mayli, hozirgi zamon, tasdiq gap.*
3. *So'roq, yoyiq, to'liq, obyektiv modallik, o'tgan zamon, inkor, istak mayli.*



**2- amaliy ish.** "Bu meniki!" grammatik o'yini asosida "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap" va "Istak gap" guruhlariga bo'lining. Quyidagi gaplardan o'zingizga tegishlisini tanlab oling.

- 1-variant.**
1. – *Shu vaqtda qo'rбoshi qoptimi?* (K.Yashin)
  2. *Otqorovul uni ko'chib ketgan misgarning do'koniga qamab qo'yibdi*

(A.Qahhor). 3. – *Qani endu tezroq kela qolsa* (So‘zl.). 4. *Qani endi qo‘limdan kelsa, albatta, bosdi-bosdi qilib yuborardim* (S.Ahmad). 5. – *Qani, kel endi, oshingni suz! – dedi* (A.Qahhor).

**2-variant.** 1. – *Bir yilgacha yarimjon yuradimi?* (O‘.Hoshimov) 2. *Temiryo‘l yoqasiga arava-arava ketmon, bellar, lomlar, zambil lar taxlab tashlandi* (S. Ahmad). 3. *Yig‘i-sig‘i qilish o‘rniga aybini bo‘yniga olsa ekan.* 4. *Uyalib qolishni istamasang, gapimga kir* (I. Rahim). 5. *Yo alhazar, jindakkina jussasiga shuncha ayyorlik, shuncha makr-hiyla sig‘sa-ya!* (A. Qahhor)

**3-variant.** 1. – *Qamashga sanksiyani prokurorning o‘zi bergen, bolam. – Bersa, nima qipti?* (X.To‘xtaboyev) 2. *Qovunlari ham shunchalik sharbatdor bo‘lar ekan* (G‘. G‘ulom). 3. *Yaqinlarim ardog‘ida yashashni xohlayman.* 4. *Chigitning o‘zi yomon bo‘lsa, toza yog‘ni katta xolamnikidan olamanmi?!* (O‘.Hoshimov) 5. *Pulingiz sandiqqa sig‘mayapgan bo‘lsa, kaminaga bering!..* (O. Yoqubov)



### 3-amaliy ish.

1. Berilgan so‘roq gaplarni bir necha marta shunday o‘qingki, savol qavs ichida berilgan javoblarga muvofiq kelsin.

2. “So‘roq gaplarda ohang” mavzusida ilmiy xulosa yozing.

1. *Men bu haqda sinf rahbariga ma‘lumot berishim kerakmi?* (1. Ha, sen. 2. Ha, kerak. 3. Ha, sinf rahbariga.)

2. *Bugun Tohir Malikning “Mehmon tuyg‘ular” asari adabiyot to‘garagida muhokama qilinadimi?* (1. Ha, muhokama qilinadi. 2. Ha, “Mehmon tuyg‘ular” asari. 3. Ha, adabiyot to‘garagida.)

**4-amaliy ish.** Quyidagi mazmuniy munosabatlarni aks ettirgan gaplarga misollar tuzing. Ushbu gaplarning semantik jihatdan umumiy tasnifini yaratishga urinib ko‘ring.

### 1-variant.

1. Xabar mazmuni.
2. Orzu-umid mazmuni.
3. Tilak mazmuni.
4. Maslahat mazmuni.

### **2-varlant.**

1. Ishonch mazmuni.
2. Mavjudlik mazmuni.
3. Iltimos mazmuni.
4. Tasdiq mazmuni.

### **3-varlant.**

1. Tashviq mazmuni.
2. Buyruq mazmuni.
3. Inkor mazmuni.
4. Quvonch mazmuni.

**5-amaliy ish.** Quyida berilgan gaplarda istak mazmunini yuzaga chiqargan lingvistik vositalarni belgilang. “Istak gaplarning ifodalaniishi” mavzusida ilmiy xulosa yozing.

1. – *Xo‘p, mayli boraman, – dedi Muqaddas to‘satdan boshini keskin silkitib, – lekin ertaroq chiqib ketaylik!* (O.Yoqubov) 2. *Ishqilib, shaharga qaytganida ko‘nglida birgina istak hokim edi: endi boshqacha yashamoq kerak* (M.M.Do‘sst). 3. *Puling kerakmas. O‘zing sog‘ bo‘lsang, o‘qishingni qoldirmasang bo‘lgani* (N.Hoshimov). 4. *Hamisha bug‘doyday serob bo‘lsin. Bola-chaqali bo‘lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug‘doy sepdi* (T.Murod).

### **Gaplarning emotsionallikka ko‘ra turlari**



**1-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadval asosida “Undov gaplarining sintaktik tuzilishi” mavzusida ilmiy xulosa yozishga urinib ko‘ring.

Undov gapni hosil qiluvchi birliklar			
No	Morfologik birliklar	Leksik birliklar	Fonetik birliklar

**2-amaliy ish.** Matnda qo'llangan undov gaplarning emotsionalligini ta'minlovchi vositalarni aniqlang. Undov gaplarining semantik-sintaktik tuzilishi haqidagi bilimlariningizni umumlashtiring.

### O'zbek ishi

*Osmon baravar plan berdilar.*

- *Bajarasan!* – dedilar.
- *Bajarolmayman,* – dedi.
- *Bajarasan!!* – dedilar.
- *Bajarmayman!!* – dedi.
- *Qamalasan!!!* – dedilar.

*Bajardi... Bola-chaqasi ko 'p edi...*

*Orden berdilar... Planni oshirib bajargani uchun...*

*Keyin... qamadilar... Qo 'shib yozgani uchun... Bola-chaqasi ko 'p edi...*

(O'Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

**3-amaliy ish.** Berilgan misollardan undov gaplarni ajratib, semantik jihatdan tasniflang. Undov gaplarni hosil qilgan vositalarni belgilang.

**1-variant.** 1. *Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribs-san-da, insofsiz!* (I.Sulton) 2. *Hayotning mangu, borliqning boqiyligiga butkul ishonaman!* (O.Matchon) 3. *Yo alhazar, jindakkina jussasiga shuncha ayyorlik, shuncha makr-hiyla sig'sa-ya!* (A.Qahhor) 4. – *Iya, – dedi u, bir ho 'kizga, bir odamlarga qarab, – Rosa bopladi-ku! Xo 'sh-xo 'sh, yana nima deysan?* (M.Ismoilii). 5. – *Oh, bevafo dunyo!* (P.Qodirov) 6. *Otaqo 'zi uydan chiqqan Shukurovni ko'rib, xaxolab kului* (O.Yoqubov). 7. *Ovchining ro 'barasida turgan kiyik o 'zidan boshqani o 'ylay oladirmi, begim?* (Cho'lp'on) 8. – *Hormang, rais!.. – Shukurov tez yurib kelib Otaqo 'zi bilan ko 'rishdi* (O.Yoqubov).

**2-variant.** 1. *Ey, yosh bolamisiz! Nega yig 'laysiz? Kap-katta odam...* (A.Qahhor). 2. *Vaholanki, fotihaga borganim uchun sizdan rahmat eshitishim kerakmi?* (O'.Usmonov) 3. *O!.. O!.. Hazratim mo 'yqalam tekizishlari bilan suratga yana fayz kirdi* (P.Qodirov). 4. *G'ishtin yo 'laklarda Marat birdan "Tog'a!" deya oldinga intildi* (A.Muxtor).

5. Tolbuki, Toshkent tarixida misli ko 'rilmagan Azizbek kabi vahshiyni bo'q shu Musulmonqul qo 'lidan oldi! (A.Qodiriy) 6. Voy, o 'zimning Robi bo'ym ku! (O'.Hoshimov) 7. – E, o 'l, zakun-pakuning bilan!.. (O'.Hoshimov) 8. – E, voh, rahmatlik kuni bitganini qanday bilgan ekan! (O'.Umarbekov)

**Variant.** 1. Ra'noda achchiqlanish namoyishi bor edi (A.Qodiriy).  
2. – Buncha qurt-qurt qilib chaynaysiz! – Turp shunaqa bo'ladi-da, jontdan (A.Qahhor). 3. Hamma ayb o'zingizda ekan! (O'.Usmonov)  
4. – Shunga ko 'zim tushmadi-ya! (T. Murod) 5. Singlisi boshqa yoqqa ko'chib ketgan bo 'lsa-ya, bular begona kishilar bo 'lsa-ya! (S.Ahmad)  
6. Qizim kechir, bu adashgan ko'r dadangni kechir! (Oybek) 7. – Men shuni faqat yaxshi paxtakor deb bilar edim, boshqa hunaringiz ham bor ekan! (A.Qahhor) 8. Axir o'zing ham ota bo 'lishing kerak-ku! (A.Qahhor)

### **Gaplarning tasdiq va inkor ifodalashiga ko'ra turlari**

**1-amaliy ish.** Matnda qo'llangan tasdiq gaplarni inkor gaplarga nylantiring. Ushbu tasdiq va inkor gaplarning semantik farqini izohlang.

*Boy ariqdan tetik hatlab, oldinda yurdi. Uning yangi amirkon kavushi yumshoq g'ichirlar, shohi yaktagi quyoshda jivir-jivir tovlanib, uchqunlanib yaltirar edi. U bog'ning tashqariga qaratilgan kichkina eshigiga kirdi. Yo'lchining ko'ziga "jannatday" katta bog' manzarasi ochildi, tomosha qilib, keksa tog'aning orqasidan yuraverdi. Orasidan qo'qon arava bemalol yuradigan keng, uzun ishkomlar ikki tanobdan mo'lroq yerni ishg'ol etgan. Ko'm-ko'k tok barglari ertalabki quyoshda jilvalanadi...*

(Oybek. "Qutlug' qon")

**2-amaliy ish.** Berilgan tasdiq va inkor gaplarda yuzaga kelgan shakl va mazmun ziddiyati sabablarini aniqlang. "Tasdiq va inkor gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi" masalasiga doir ilmiy qarashlarni umumlashtiring.

1. *Bez bo'lgandan ko'ra, ta'sirchanroq bo'lgan ma'qul* (F.Musajonov). 2. *Shu ikkitasidan bo'lak qolgan hamma qo'shnilarini Rixsivoj yaxshi ko'rardi* (F.Musajonov). 3. *Lekin o'zidan bo'lak hech kim o'rnidan qo'zg'almadidi* (M.Mansurov). 4. *Koshki men nima kerakligini*

*bilsam* (F.Musajonov). 5. *Manglayimga chunki she'rdan, O'zga zar bitgan emas* (E.Vohidov). 6. *Jafo qilma hargiz vafo o'rniga* (Chustiy). 7. *Ammo bu sukunat qiz qalbini tinchitish o'rniga battar dukillatdi* (G'.G'ulom). 8. *Saodat qilganda edi, tasmadekkina qilib pishirardi* (G'.G'ulom).

**3-amaliy ish.** S.Ahmadning “Jimjitlik” romanidan olingan quyidagi gaplar ichidan inkor va yo‘qlikni ifodalovchi gaplarni ajrating. Inkor va yo‘qlikni ifodalovchi vositalarga izoh bering.

1. *Pul xotinida emas edi.* 2. *Ammo quvvati yo‘q edi.* 3. *Yaxshiyam, o‘zingiz borib qolmabsiz.* 4. – *Kelolmaydi, judayam zarur ishi bormish.* 5. *Mehmon kutishga holim ham, xohishim ham yo‘q.* 6. *Tiniq, chang‘ubordan xoli...* 7. *Bu jonivorning tili bo‘lsaki, ayta qolsa.* 8. *Uy yo‘q-ku, hamma yoq tosh.* 9. *U ko‘pdan beri do‘stnikiga borgani yo‘q.*



**4-amaliy ish.** “FSMU” metodi orqali tasdiq va mavjudlikni hamda inkor va yo‘qlikni bildiruvchi gaplarning umumiy va xususiy jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa chiqaring.

**F – fikringizni bayon eting.**

**S – fikringiz bayoniga **sabab** ko‘rsating.**

**M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi **misol** keltiring.**

**U – fikringizni **umumlashtiring.****

### Eganing ishtirokiga ko‘ra gap turlari

**1-amaliy ish.** Matndan sodda gaplarni ajrating va bosh bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra turlarini belgilang.

*Yaxshi insonlar qayerga borishmasin, o‘zлari bilan quvonch olib kelishadi. Ular kirgan davra fayzga to‘ladi. Samimiylit usurib turgan yuzlarini ko‘rib, bor tashvishingizni unutasiz. Ularning qalbidagi do‘stlik mehrini bu dunyoda oltin-u gavhar berib ham ololmaysiz.*

*O‘zingizga sodiq do‘stlar tanlang, ular panohida yashaysiz.*

(“G‘am-qayg‘usiz yashay desangiz” kitobidan)



**2-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagi qaydlaringiz  
anomida egali va egasiz gaplar haqidagi bilimlaringizni umumlashtiring.

Nu	Egasiz gaplarning turlari

### **3-amaliy ish.**

1. Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik mavzusiga oid qanday xalq maqollarini bilasiz? Shu mavzularga bag‘ishlangan 10 ta maqol yozing.
2. Maqollarni eganing qo‘llanish-qo‘llanmasligiga ko‘ra tasniflang.



### **4-amaliy ish.**


“*Maqsad sari olg‘a!*” grammatik o‘yinida ishtirok eting. Quyida berilgan “Maqsadli diagramma”ning markaziga yetish uchun doiralarni ketma-ket bosib o‘tishga e’tibor qarating.

**1- bosqich:** Berilgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib so‘zlar yasang.

**2-bosqich:** Yasalgan so‘zlardan berilgan sintaktik modellarga mos so‘z birikmalarini tuzing.

**3-bosqich:** So‘z birikmalaridan berilgan tavsifga mos gaplar tuzing.

**4-bosqich:** Tuzgan gaplaringiz ishtirokida kichik matn yaratting. Matnga “Obi hayot” deb nom bering. Tuzilgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplar orqali matn sarlavhasining ma’nosini ochib berish ko‘zda tutilishi lozim.



**5-amaliy ish.** S.Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asaridan olingan ushbu matndan egasiz gaplarni ajrating va turini aniqlang.

*Hazin va befayz qish oxiri...*

“Qizil O‘zbekiston” gazetasida Abdulla akaning “Asrorbobo” degan hikoyasi bosildi. Bu hikoya urush yillari yaratilgan hikoyalarning eng yaxshisi edi. Bunday hikoyani yozmoq uchun faqat va faqat Abdulla Qahhor bo‘lish kerak edi. “Asrorbobo” ko‘nglimga yana hikoya yozish havasini solib qo‘ydi. Endi nimani yozsam ekan, qandoq yozsam ekan, deb o‘ylab o‘tirdim. Ilimiliq sandalga oyog‘imni tiqib, mis barkashning orqasiga qog‘oz qo‘yib zangor siyoh bilan yoza boshladim. Sarlavha: “Mastonbibi”...

**6-amaliy ish.** 8-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. – Toshkent: Cho‘pon, 2014) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

*Kela qolsa edi, yugurasizmi, chopib ketdi, ko‘rib keling so‘z shakllarini kesim vazifasida qo‘llab gaplar tuzing. Ularning mazmunidagi farqni tushuntiring.*



**7-amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. O‘zbek tilidagi sodda gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi qaysi tilshunos olimlar tomonidan maxsus tadqiq etilgan?
2. Sodda gaplar qo‘shma gaplardan qanday belgilari asosida farqlanadi?
3. O‘zbek tilshunoslida sodda gaplar qaysi yo‘nalishlarda tadqiq etildi?
4. Sodda gaplarda predikativlik qanday ifodalanadi?
5. Sodda va qo‘shma gaplarning umumiy jihatlari nimalarda kuzatiladi?
6. An’anaviy sintaksisda sodda gaplar bosh bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra qanday turlarga bo‘lib o‘rganildi?
7. Sodda gaplarda predikativlikni qanday grammatick vositalar shakllantiradi?
8. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik va tasdiq-inkor grammatick kategoriyalari o‘rtasida qandy bog‘liqlik mavjud?
9. Qaysi tilshunos olimning undov gaplar tadqiqiga oid asarini bilasiz?
10. Gaplar his-hayajon ifodalashga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
11. Gapning tuzilishiga ko‘ra qanday turlari farqlanadi?
12. Gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
13. Tasdiq va inkor gaplar qanday farqlanadi?
14. Gaplar emotsionallikni ifodalashiga ko‘ra qanday turlarga bo‘lib o‘rganiladi?
15. Tilshunoslikda bir bosh bo‘lakli gaplarning qanday turlari ajratilgan?
16. Qanday gaplar egasiz (shaxssiz) gaplar hisoblanadi?
17. Sintaksisda *bir cho‘qqili* va *ikki cho‘qqili nazariya* terminlari nimani anglatadi?
18. Qanday gaplarda eganing qo‘llanishi shart bo‘lmaydi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Sodda gaplarning [WP] va [WP<sub>m</sub>] qurilish modellariga izoh bering va ularning umumiy va farqli jihatlarini qayd eting.

- ✓ Ilmiy manbalar asosida *sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya* terminiga izoh yozing.
- ✓ Badiiy asarlardan ikki tarkibli egali va egasiz 10 ta sodda gap topib ko'chiring.
- ✓ O'zbek tilshunos olimlari: A.Nurmonov, A.Ahmedov, X.Ismatullayevlar o'zbek tilidagi gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'rgandilar?
- ✓ Sh.Rahmatullayev undov gaplarni nima uchun "xitob jumla" termini bilan nomlashni tavsiya etadi? (Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. 390-b.)
- ✓ Badiiy asarlardan *shaxsi ma'lum*, *shaxsi noma'lum*, *shaxssiz gaplarga* misollar topib ko'chiring. Ularning umumiy va farqli jihatlariga izoh bering.
- ✓ "Bekor o'tirguncha bekor ishla" maqolining mazmunini izohlab matn tuzing. Matndan shaxsi umumlashgan gaplarni ajrating.

## BO'LAKLARGA AJRALMAYDIGAN GAPLAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchингиз берган qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘srimcha ma’lumotlar
Atov gap		
So‘z- gap		

**2-amaliy ish.** “Mening sevimli mashg‘ulotim” mavzusida kichik ma’rifiy matn tuzing. Matnda so‘z-gap va atov gaplardan unumli foydalaning.



### 3-amaliy ish.

1. Atov va so‘z-gaplar yuzasidan egallagan bilimingizni “BBB” jadvalida aks ettiring.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman



**4-amaliy ish.** “Shoshilmasdan shoshiling!” o‘yin-topshirig‘idan foydalanim, “Nima savob-u, nima gunoh?” mavzusida savol-javob o‘tkazing. Savol-javob jarayonida egasiz gaplardan foydalaning.


Talabalar 1-savolga fikrini to‘liq ifodalagan holda, 2-savolga qisqa qilib “ha” yoki “yo‘q” tarzida, 3-savolga esa savolga-savol bilan javob

qaytarishlari shart. Javob tartibi buzilmasligi lozim. Vaqt chegaralangan, biroq bu holat berilgan savolning ham, javobning ham mantiqiyligiga putur yetkazmasligi kerak. O‘yin so‘ngida qanday savollarga to‘liq, qanday savollarga egasiz gap tarzida javob berilganligi yuzasidan muhokama o‘tkazing.



**5-amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qanday gaplar so‘z-gaplar sanaladi?
2. Atov gaplar so‘z-gaplar bilan qanday umumiy belgilarga ega?
3. Atov gaplarda predikativlik kategoriyasi qanday grammatik shakllar orqali ifodalanadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Badiiy asarlardan atov gap va so‘z-gaplarga 8 tadan misol toping. Ularning umumiy va farqli jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Ilmiy manbalarda bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplarning semantik turlari bo‘yicha berilgan nazariy qarashlar bilan tanishing. “Bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar” mavzusida ilmiy axborot yozing.

## GAP BO'LAKLARI



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tuyanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchning bergan qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘srimcha ma’lumotlar
<i>Gap bo'laklari</i>		
<i>Bosh bo'laklar</i>		
<i>Ikkinchidarajali bo'laklar</i>		
<i>Gapning aktual bo'laklanishi</i>		
<i>Tema</i>		
<i>Rema</i>		

**2-amaliy ish.** Matnni diqqat bilan o‘qing, odatdagagi tartibi o‘zgargan gap bo‘laklarini aniqlang. Odatdagagi va o‘zgargan tartibda qo‘llangan gap bo‘laklarini qiyoslash natijasida inversiyaning uslubiy ahamiyati to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

### Tabiat gultoji

*Kiyik och qolmaslik uchun ko‘kat yeydi. Ammo bir-birini o‘ldirmaydi.  
Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o‘ldirmaydi.  
Odam ko‘katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko‘ngil xushi uchun sherni  
ham o‘ldiradi... Keyin.. urush qilib, bir-birining boshini yeydi...*

(O‘.Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)



**3-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagagi qaydlaringiz asosida “Gapni bo‘laklarga ajratish tamoyillari” masalasiga munosabat bildiring.

Gap bo‘laklarining an’anaviy tasnifi asosidagi turlari	Gap bo‘laklarining formal-funksional yo‘nalishda belgilangan turlari

**4-amaliy ish.** *Gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gap kengaytiruvchilari va so‘z kengaytiruvchilari terminlarini sharhlang.* Gap bo‘laklari masalasiga doir bilimlaringizni umumlashtiring.

**5-amaliy ish.** Berilgan gaplardan so‘z va gap kengaytiruvchilarini ajrating. So‘z va gap kengaytiruvchilari haqidagi nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

1. *Tobut ko‘tarilganda, amakim ikki-uch qalqidi-yu, chalqanchasiga ketdi* (A.Qahhor). 2. – *Qariganimda cho‘ponlikni qo‘limdan olarsan devdim* (P.Qodirov). 3. *Bu xatoni tezroq tuzatish, Muqaddas kelmasdan oldin tuzatib qo‘yish kerak edi!* (O.Yoqubov) 4. *Nurmat tog‘a kichkina bankda bulbulning qafasidek tor klassada pul olib, pul berib kunini o‘tkazib yurardi* (S.Ahmad). 5. *Ko‘chalarda odam ko‘p, xuddi Yaypanning bozor kuniga, yo‘q, hayitga o‘xshaydi* (A.Qahhor). 6. *Uning rangi o‘chgan, yuragi duk-duk urardi* (S.Ahmad).

**6-amaliy ish.** Berilgan gaplarni gap bo‘laklari bo‘yicha sintaktik tahlil qiling.

1. *Bir mahal tayoq ko‘tarib asta-sekin chiqib kelayotgan oyimga ko‘zim tushib qolsa bo‘ladimi?* (X. To‘xtaboyev) 2. *Navkar aytilgan joyga borib otdan tushdi va jiyron qashqasini sekin yetakladi* (P. Qodirov). 3. *Bu suv yerning sho‘rini oshirib yuborishiga shubha yo‘q* (O. Yoqubov). 4. *Men do‘konga yugura kirib voqeani aytdim* (A. Qahhor). 5. *Oilam bo‘lsaki, oldimga bir kosa iliq qo‘ysa!* (O. Hoshimov) 6. *Birortasining nomini aytsa ekan, sovchilikka borsam* (S.Ahmad). 7. *Ularning nimaga aqli yetibdiki, bu ishga aqli yetadi* (O.Yoqubov).

## **Gap bo'laklarining sintaktik tahlili tartibi:**

1. Gapning bosh bo'laklari aniqlanadi:

- a) kesim, uning ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i, ma'nos, turi;
- b) kesim (sodda, murakkab), ot-kesim (sodda, sostavli, murakkab)
- c) qayd etiladi;

b) ega, uning ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i, tuzilishi (sodda, murakkab) qayd etiladi.

1. Ega va kesimning moslashgan yoki moslashmaganligi aniqlanadi.

2. Ikkinch darajali bo'laklar (avval kesimga tobe bo'laklar, so'ng egaga tobe bo'laklar) aniqlanadi:

a) hol, uning ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i, turlari, (ravish, o'rinn, payt, sabab, maqsad, miqdor-daraja hollari), tuzilishi (sodda, murakkab), qaysi gap bo'lagiga bog'langanligi ko'rsatiladi;

b) to'ldiruvchi va uning ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i, qaysi gap bo'lagiga bog'langanligi, kelishikli yoki ko'makchili; vositali yoki vositasiz to'ldiruvchiligi, vositasiz to'ldiruvchilarning belgili yoki belgisiz kelishik shaklida bo'lishi, tuzilishiga ko'ra turi (sodda yoki murakkab) belgilanadi;

c) aniqlovchi, uning ifodalanishi, grammatik shakli, so'rog'i, belgi yoki qarashlilik bildirishiga ko'ra turi (sifatlovchi yoki qaratqich aniqlovchi ekanligi, qaratqich aniqlovchilarning belgili yoki belgisiz kelishikli shaklda bo'lishi, ularning moslashishi, grammatik holati), aniqlovchining qaysi gap bo'lagiga bog'langanligi, tuzilishiga ko'ra turi (sodda yoki murakkab) ko'rsatiladi.

### **NAMUNA:**

*Oilam bo'lsaki. oldimga bir kosa iliq qo'vsq!* (O'.Hoshimov)

*Bo'lsaki* – kesim, nima bo'lsa? so'rog'iga javob bo'ladi, fe'l bilan ifodalangan, hozirgi zamon, 3-shaxs, birlik shaklida, sodda fe'l kesim;

*oilam* – ega, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, ot bilan ifodalangan, bosh kelishik, 1-shaxs egalik affiksini olgan, birlikda, kesimga tobelangar, sodda ega;

*qo'ysa* – kesim, nima qilsa? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, fe'l bilan ifodalangan, hozirgi zamon, 3-shaxs, birlik shaklida, sodda fe'l kesim;

*iliq* – to‘ldiruvchi, nimani? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, otlashgan sifat bilan ifodalangan, tushum kelishigi belgisiz qo‘llangan, kesimga tobelangan;

*bir kosa* – aniqlovchi, qancha? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, son + hisob so‘z bilan ifodalangan, to‘ldiruvchiga tobelangan, birikmali sifatlovchi aniqlovchi;

*oldimga* – hol, qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot bilan ifodalangan, 1-shaxs egalik affiksini qabul qilgan, birlik shaklida, o‘rin holi, kesimga tobelangan, sodda hol.



### 7-amaliy ish.

1. “Bu meniki!” grammatik o‘yini asosida “Kesim”, “Ega”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi” va “Hol” guruhlariga bo‘lining. Matnda qo‘llangan gaplardan o‘zingizga tegishli bo‘lakni ajratib oling.

2. “Gapning markaziy bo‘lagi” haqidagi xulosalaringizni bayon eting.

*Hayot tomchilar go‘yo qaqrq yerga hayot beruvchi yomg‘irning tomchilaridir. Bunda jamlangan hikmatlar chanqoq qalblarga, onglarga quvvat bergay. Bu hikmatlarni bir sira o‘qib, kitobni tokchaga olib qo‘ymang. Bil’aks, qayta-qayta o‘qing, mag‘zini chaqing. So‘ng faqat o‘qib qolmay, uqing va ularga amal qilishga intiling. Shundagina bu tomchilar hayot baxsh etadi, qalblaringizni nurlantiradi. Shundagina Haq yo‘lida adashmaysiz. Shundagina komillik yo‘liga yana bir qadam tashlagan bo‘lasiz.*

(T.Malik)

### 8-amaliy ish.

1. Quyidagi savollarga batafsil javob berish orqali qishlog‘ingiz (yoki shahrингиз) to‘g‘risida kichik ma’rifiy matn tuzing. Matnga mos sarlavha qo‘ying.

2. Matnda gap bolaklarini oddiy va o‘zgargan tartibda qo‘llang.

1. Qishlog‘ingiz (shahrингиз) qayerda joylashgan?

2. Qadrdon hamqishloqlaringiz (hamshaharlaringiz), asosan, qanday mashg‘ulot bilan shug‘ullanishadi?
3. Qishlog‘ingiz (shahrингиз) yoshlari bo‘s sh vaqtларida qanday ish bilan shug‘ullanadilar?
4. Qishlog‘ingizga (shahrингизга) tez-tez tashrif buyurasizmi? Nima maqsadda?
5. Qishlog‘ingizga (shahrингизга) qanday yetib olasiz?
6. Sinfdoshlaringiz mакtabni tugallagach, qanday mashg‘ulot bilan shug‘ullanishmoqda?
7. Sinfdoshlaringiz bilan qishlog‘ingizda (shahrингизда) tez-tez uchrashib turasizmi?
8. Qishlog‘ingiz (shahrингиз) qaysi jihatdan sizga qadrli?
9. Nima sababdan qishlog‘ingiz (shahrингиз)ni eng obod qishloq (shahar) hisoblaysiz?
10. Siz tug‘ilib o’sgan qishloq (shahar) va Vatan tushunchalari o’rtasida qanday farq bor?

**9-amaliy ish.** Berilgan so‘z birikmalari ishtirokida “Ona yer saxovati” mavzusida publisistik matn tuzing. Matndagi gaplarni aktual bo‘laklarga ajrating.

*Oppoq paxta, hasharchilarning ko‘magi, dalani bezatmoq, mehnatning rohati, rejani bajarish, tajribali dehqonlar, yuqori hosil yetishtirish, ahil jamoa, ilg‘or terimchilarni rag ‘batlantirish.*

## BOSH BO‘LAKLAR

### Kesim



**1-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagи qaydlaringiz asosida mustaqil va nomustaqlil kesim masalasiiga munosabat bildiring.

	Mustaqil kesimni hosil qiluvchi grammatik shakllar	Nomustaqlil kesimni hosil qiluvchi grammatik shakllar

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplarning kesimini predikat xarakteriga ko'ra tasniflang va ularga namunada ko'rsatilgani kabi tavsif bering.

### NAMUNA:

*Ochilar edi* – kesim, fe'l predikat bilan ifodalangan, harakat bildiruvchi predikat.

**1-variant.** 1. *Darchaning kichkina ilgagi bo'lib, u har ikki tomondan bemalol ochilar edi* (Sh.Sa'dulla). 2. *Aqling mog'or bosmaganimi bu?* (A.Qodiriy) 3. *Dilshod ko'z-ko'zlayotgan narsa tosh bosmada bosilgan bayoz edi* (M.Ismoiliy). 4. *Shu kuni Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi* (O'.Umarbekov).


**2-variant.** 1. *Hayotning g'alati o'yinini qarangki, bugun oqshom uni sovxozi direktori chaqirib qoldi* (O. Yoqubov). 2. *Jon shirin, ammolushmandan qochmoq yigitga o'limdan og'ir emasmi?* (Oybek) 3. *Kapkatta xotinning yolg'on so'zlaganini ko'rib, yana jahlim chiqib ketdi* (X.To'xtaboyev). 4. *Bu yo'lda yaxshilar ham uchraydi, yomonlar ham* (Oybek).

**3-variant.** 1. *Oyoq olishlari yengil, gapi ham muloyim, qo'y ko'zi hamisha kishiga kulib turgandek* (S.Ahmad). 2. *Yuz gektarcha keladigan katta maydon mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlangan...* (O.Yoqubov). 3. *Bir oymi-ikki oy avval kelganimda rosa gilos yeganman* (O'.Hoshimov). 4. *Bu qo'shiq yangragan chamanda hayot jonlandi-ketdi* (Sh. Rashidov).

**3-amaliy ish.** Mustaqil tarzda gapning markazi haqida nazariy xulosa yozing. Xulosangizni daliliy misollar yordamida ilmiy asoslab bering.



**4-amaliy ish.** Gapda kesim vazifasida keladigan so'z turkumlarini slayd kataklariga qayd eting.



**5-amaliy ish.** Kesimlik shakllarini slayd kataklariga qayd eting.



**6-amaliy ish.** M.Yusufning “Orzu” she’rida inversiyaga uchragan kesimlarni aniqlang. She’rning nasriy bayonini gap bo‘laklarini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda tuzing.

### Orzu

*Tug‘ilmasdan oldin men  
 Chiqib arshi a’loga,  
 Oyni o’pib, qoldim men  
 Yulduzlardan baloga.*


*Tug‘ilgandan to shu dam,  
 Qo‘msab kecha-kunduzlar,  
 Oy qani, deb yig‘lasam,  
 G‘iybat qilar yulduzlar...*

*Hiqillama, hey yurak,  
Dunyo bilan ishim yo 'q.  
Bo 'lsa menga Oy kerak,  
Yulduzlarga hushim yo 'q!*

## Ega



**1-amaliy ish.** Gapda ega vazifasida keladigan so'z turkumlarini slayd kataklariga qayd eting.



**2-amaliy ish.** Eganing quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga gaplar tuzing. Ega vazifasidagi bo'lakka semantik jihatdan tavsif bering.

1. Son bilan ifodalanishi:
2. Sifatdosh bilan ifodalanishi:
3. Sifat bilan ifodalanishi:
4. Ravish bilan ifodalanishi:

**3-amaliy ish.** Quyidagi maqollarda eganing qanday ifodalanganligiga e'tibor bering. Birikmali qo'llangan egalar tarkibidagi sintaktik aloqani ko'rsating.

1. *Axmoqning aqli tushdan keyin kirar.*
2. *Yomonni yaxshi qilish – dononing ishi, Yaxshini yomon – nodonning ishi.*
3. *Nodonga ulfat bo'lgan qon yutar.*
4. *Tiriklikning kuchi – birlikda.*
5. *Ko'p gap dushmanga ma'qul.*

**4-amaliy ish.** S.Ahmadning “Jimjitlik” asaridan olingan quyidagi gaplar tarkibidagi egalarni aniqlab, ularning kesim bilan shaxs va sonda moslashuviga izoh bering.

1. *Haqiqatan ham bu tabarruk onaxon hayvonlar fe'l-atvorini juda yaxshi bilganlar.*
2. *Sag'ana pastida Azizbek sochgan tangalar yotardi.*
3. *Uning dilida niyatlari ko'p edi.*
4. *Bu so'qmoqlarda qancha qurbanlar qolgan.*
5. *U qo'l siltab, o'tiraveringlar, degan ishora qilsa ham chollar hassaga ko'krak qadab turaverishdi.*



**5-amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish asosida mustahkamlang.

1. Tilshunoslikda gapni bo'laklarga ajratish masalasi yuzasidan qanday nazariy qarashlar shakllangan?
2. Gapda predikativlik qanday kesimlik shakllari orqali ifodalanadi?
3. *Gap bo'laklari va gapning aktual bo'laklarga bo'linishi* o'rtasida qanday bog'liqlik kuzatiladi?
4. Qaysi birliklar gapni aktuallashtiruvchi vositalar sanaladi?
5. Gapda bosh bo'laklar qanday tartibda o'rinalashadi?
6. O'zbek tilshunosligida gap bo'laklari qanday tamoyil asosida turlarga ajratiladi?
7. Gapda kesimning maqomi qaysi xususiyatiga ko'ra belgilanadi?
8. Tema-rema va ega-kesim munosabatida qanday farq kuzatiladi?
9. O'zbek tilida gap bo'laklari qanday tartibda o'rinalashadi?
10. Qanday qo'llanishda gap bo'laklarining inversiyasi sintaktik birlikning mohiyatini tubdan o'zgartirib yuboradi?
11. Nima sababdan faqat kesim gapning boshqa bo'laklariga nisbatlanmagan holda aniqlanadi?
12. Qanday tuzilishdagi gaplarda kesimlik ma'nolari maxsus shakllar yordamisiz faqat o(nol) shakl orqali ifodalanadi?

13. Qanday tuzilishdagi gaplarda eganing qo'llanishi muhim bo'lmaydi?
14. *Kesim* va *kesimlik* tushunchalari nimani anglatadi?
15. O'zbek tilidagi gaplarning shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lagi (bo'laklari) qaysi?
16. Kesim tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
17. Ega gap qurilishida qanday mavqega ega?
18. Gap kesimi qo'shimchalaridan anglashilib turadigan, shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak qanday nomlanadi?
19. Mustaqil va nomustaqil kesim qanday farqlanadi?
20. Qanday vaziyatda kesim bilan ega son shakli bo'yicha moslashmaydi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ *Gap bo'laklari, gapning aktual bo'laklarga bo'linishi, tema, rema terminlarini izohlang.* Ularning inversiyaga aloqasi to'g'risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Kuzatishlaringiz asosida "*Kuz yomg'iri*" mavzusida kichik matn tuzing. Matnda qo'llangan sodda gaplarni gap bo'laklari bo'yicha sintaktik tahlil qiling.
- ✓ "*Gapni bo'laklarga ajratish tamoyillari*" mavzusida ilmiy sharh yozing.
- ✓ "*Gap qurilishida kesimning o'mni*" mavzusi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini o'rGANIB, mavzuning o'rganilishi darajasi yuzasidan o'z fikr-mulohazangizni bayon eting.


## IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

Aniqlovchi



**1-amaliy ish.** “Venn” diagrammasi orqali gapning ikkinchi darajali bo'laklarini qiyosiy o'rganing. Gap bo'laklarini ifodalovchi vositalarni diagramma qismlariga joylashtiring. Ularning umumiy ifodalovchi vositalarini (masalan, ot bilan ifodalanishi) diagrammaning tutashgan qismiga yozing.

Aniqlovchi



**2-amaliy ish.**

1. Qaratqich-qaralmish munosabatidagi quyidagi so'z birikmalarini gaplarga aylantirng. Ularning semantik-sintaktik tuzilishiga qiyosiy tavsif bering.
2. “Gap qurilishida aniqlovchining o‘mi” masalasiga o‘z munosabatingizni bayon eting.

**1-variant.** Bobomning o‘gitlari, suvning oqishi, do‘stimning iltifoti, talabalar yutug‘i.

**2-variant.** Bizning hovli, akamning hiylasi, mening farzandim, uning yutug‘i, o‘rikning gullashi.

**3-variant.** Vatanimiz chegarasi, darslik muallifi, sening qiyofang, uzukning ko‘zi, mening kuylashim.

**3-amaliy ish.** Berilgan gaplarda aniqlovchi vazifasida kelgan bo'laklarni aniqlang. Aniqlovchilarining nima sababdan so‘z kengaytiruvchisi ekanligini asoslashga urinib ko‘ring.

1. *Hamma-hamma bilan, Parcha xola shinniga issiq non botirib uryapti* (O'.Hoshimov). 2. *Ravshanbek bu quvonchli voqeа munosabati bilan uyida ziyofat berdi* (S.Ahmad). 3. *Darvozadan qora chakmonini yelkasiga tashlagan, qoshlarigacha oqarib ketgan bir mo'ysafid kirdi* (P.Qodirov). 4. *O'ng qo'lga burilib, tor yoqoch zinalardan uchinchi qavatga chiga boshladim* (O.Yoqubov). 5. *Sovuq havoga chidamaganidan keyin sekin-sekin eshikni ochib mehmonlar o'tirgan uyga kirdi* (Oybek). 6. *O'z to'g'rimda gapirishni yomon ko'radigan odamman* (Sh. Rashidov). 7. *Ertalabdan beri kutilgan poyezd, nihoyat, yaqinlashdi* (H. G'ulom). 8. *Lekin dushmanlar podshohga yorug' yulduzlarni qora, pok niyatlarni chirkin qilib ko'rsatmoqdalar* (Oybek).



“Keys-stady” metodi asosida o‘zbek tilshunosligida aniqlovchiga nisbatan bildirilgan qarashlarni tahlil qiling.

**MAVZU: «Aniqlovchi» mavzusi bo'yicha tilshunoslikdagi turli qarashlar xususida.**

#### SAVOLLAR:

1. Aniqlovchi qanday bo'lak?
2. Aniqlovchi so'z kengaytiruvchisimi?
3. Aniqlovchi bo'lakning bo'lagimi?
4. Bu muammo uchun qanday yechim taklif qilasiz?

O'rta tashlangan muammoning yechimi uchun talabalar kichik guruhlarga ajratiladi, ularning javoblari, variantlari kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Yagona yechim asosida savollarga aniqlik kiritiladi.

**4-amaliy ish.** Berilgan gaplarda aniqlovchi vazifasida kelgan so'zlarning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang. “Aniqlovchining ifodalanishi” mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. Oppoq xalat kiygan yoshgina, do'mboqqina juvon kirib keldi. (O'.Hoshimov). 2. Ko 'paysin bunday taklifni kutmagan edi (T.Malik). 3. Men odamlarni sevdim, baxtsizlarning qayg'usini qildim (Shukrullo). 4. Berilgan umrdan shunday foydalanki, keyin pushaymon bo'lma (S.Karomatov).

**5-amaliy ish.** "Mantiq qani?" grammatik o'yini.



### "Mantiq qani?" grammatik o'yini

Semantik jihatdan qo'llanishi  
zarur bo'lgan aniqlovchini  
tiklang.

Semantik jihatdan "ortiqcha"  
bo'lgan aniqlovchini olib  
tashlang.

*Qurut ishni  
sindiradi.*

*Yosh bolalar  
o'yingaroq bo'lishadi.*

*Ayollar xavfli  
bo'lishadi.*

*Qari chollar  
choyxonaga  
chiqishdi.*

*Uy qo'rqinchli  
bo'jadi.*

*Qorong'i zulmatda biror  
bir sharpa sezilmas edi.*

**6-amaliy ish.** Aniqlovchiga xos belgilar tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.

1. Predmet belgisini anglatadigan yoki narsaning kimgadir qarashliligini ifodalaydigan ikkinchi darajali bo'lak \_\_\_\_\_ deyiladi.
2. Sifatlovchili birikmada \_\_\_\_\_ sifatlanmishning biror xususiyatini aniqlab keladi.
3. Qaratuvchili birikmada bir predmetning ikkinchi predmetga \_\_\_\_\_ anglashiladi.
4. \_\_\_\_\_ predmetni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

## To‘ldiruvchi



### 1-amaliy ish. KEYS: “Muammoli vaziyat” jadvali

To‘ldiruvchi gap bo‘lagimi, birikmaning ichki bo‘lagi yoki so‘z kengaytiruvchisi? To‘ldiruvchi haqidagi mavjud nazariy qarashlarni solishtiring.

Sayfullayeva R., va boshq. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – Toshkent, 2009.	Sh.Rahmatullayev. “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”. – Toshkent, 2006.	Akramov Sh. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol ([WP <sub>m</sub> ] aspekti misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1997. 17-b.
To‘ldiruvchi nutqiy gap qurilishida so‘z kengaytiruvchisi sifatida ishtirok etadi va fe'l bilan ifodalangan har qanday bo‘lak yoki bo‘lak qismining ma’noviy valentligini to‘ldiradi.	Asli to‘ldiruvchi – birikma turlaridan biri-ning tobe bo‘lagi, birik-maning ichki bo‘lagi; bunda to‘ldiruvchi jumla tarkibida kesimdan boshqa vazifada kelgan sintaktik birlikka bog‘-langan holda qatnashadi.	Gap kengayish tizimida to‘ldiruvchining kengaytiruvchilik mavqeyi chegaralangan. U faqat so‘z kengaytiruvchisi bo‘la oladi.

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplardan to‘ldiruvchi sintaktik vazifasida kelgan bo‘laklarni aniqlang. To‘ldiruvchini hokim bo‘lakka bog‘lovchi vositalarga izoh bering.

1. *Istiqlol epkinlari iste'dod chashmalarining ko‘zini ochayotir* (U.Normatov).
2. *Har bir odam do'stlaridan shu burch va mas'uliyatlarini ado etishini talab qiladi* (M.Mahmudov).
3. *Cho yan bandli pechkani yoqishingiz bilan qozonda suv isiydi* (O‘.Hoshimov).
4. *Tong otganda bobom bilan maslahat qilishdi* (O‘.Hoshimov).
5. *So‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilish uchun farosat, malaka va ziyraklik zarur* (So‘zl.).

**3-amaliy ish.** O‘.Hoshimov asarlaridan olingan ushbu gaplarda ishtirok etgan to‘ldiruvchilarni aniqlang. To‘ldiruvchining nima sababdan no‘z kengaytiruvchisi ekanligiga izoh berishga harakat qiling.

1. *Muzaffar yerda yotgan portfelini shaxt bilan yulqib oldi.* 2. *Oqshom chog‘lari Toshkent ko‘chalari chumoli iniga o‘xshab ketadi.* 3. *Alimardon choyni olarkan, zimdan unga qarab qo‘ydi.* 4. ...*Ammo qaytish yo‘lini topolmas, yana may bilan taskin berardi o‘ziga.* 5. *Ular o‘tmishlari haqida, bolalik xotiralari to‘g‘risida uzoq-uzoq gaplashib o‘tirishardi.* 6. *Alimardon qo‘li bilan deraza tomonga imo qilib yana kuldii.*

**4-amaliy ish.** “Mobil telefonning foyda va zararlari” mavzusida ma’rifiy matn tuzing. Gaplar tarkibidagi vositali va vositasiz to‘ldiruvchilarni ajrating.

**5-amaliy ish.** Aniqlovchi va to‘ldiruvchining turlarini ularga mos misollar bilan juftlang.

1.	Sifatlovchi aniqlovchi	A	Vatanimizni jon-dildan sevamiz.
2.	Vositali to‘ldiruvchi	B	Mening hech kimim yo‘q.
3.	Qaratqich aniqlovchi	C	Yo‘lda ukam menga to‘g‘ri kelib qoldi.
4.	Vositasiz to‘ldiruvchi	D	Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor.
Javob:	1-   2-	3 -	4-

**6-amaliy ish.** To‘ldiruvchining birikmali qo‘llanishiga badiiy asarlardan 4 ta gap topping. To‘ldiruvchining ifodalanishi to‘g‘risida ilmiy axborot yozing.

**7-amaliy ish.** To‘ldiruvchilarni vositali va vositasiz to‘ldiruvchi turlariga ajrating va mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

1. *Bir kun ko‘zlarimdan qochdi uyqular...* 2. *Bilingki, o‘z vaqtida tuzatilmagan xato fojiaga olib keladi.* 3. *Rahmi kelib bulutning Yig‘lab to‘kar yoshini.* 4. *Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.* 5. *Yaxshidan yaxshi ot qolar.* 6. *Unisi o‘ziga bergen azobdan qiynaladi, bunisi esa o‘z qilig ‘idan dard chekadi.*

To‘ldiruvchining turlari	Javob raqamlar
Vositali to‘ldiruvchi	
Vositasiz to‘ldiruvchi	

**8-amaliy ish.** Aniqlovchi va to‘ldiruvchi yuzasidan egallagan bilimingizni quyidagi nostandard test savollari asosida sinab ko‘ring. Testda berilgan ilmiy xulosalarga jadvalga “Ha” yoki “Yo‘q” javoblarini qayd etish asosida munosabat bildiring.

1. Aniqlovchi harakat-holat belgisini bildiradi.
2. To‘ldiruvchi belgili va belgisiz ko‘rinishlarda shakllanadi.
3. Sifatlovchi aniqlovchi predmet belgisini bildirib, *qanday?*, *qanaqa*, *nechta*, *nechanchi?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.
4. To‘ldiruvchi har doim obyekt tushunchasini ifodalaydi.
5. Qaratqichli aniqlovchi qaratqich va bosh kelishiklari bilan ifodalanadi.
6. Aniqlovchi doimo bo‘lakning bo‘lagi mavqeyida keladi.
7. To‘ldiruvchi gap kengaytiruvchisi sanaladi.

1	2	3	4	5	6	7


### 9-amaliy ish. 1. Nostandard test javobini toping.



**Aniqlovchi va to‘ldiruvchining turlarini  
ularga mos misollar bilan justlang.**

1.	<b>Sifatlovchi aniqlovchi</b>	<b>A</b>	<b>Varamizni juda sevamiz.</b>
2.	<b>Vositali to‘ldiruvchi</b>	<b>B</b>	<b>Mening hech kimim yo‘q.</b>
3.	<b>Qaratqich aniqlovchi</b>	<b>C</b>	<b>Yo‘lda ukam menga to‘g‘ri kelib qoldi.</b>
4.	<b>Vositasiz to‘ldiruvchi</b>	<b>D</b>	<b>Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mezor.</b>

1. Rasmli nostandard test javobini toping. Suratlardagi tilshunos olimlarning kimligi va yozgan asarlarini aniqlang. Surat ostiga mos javoblarni raqamlar orqali belgilang. Tilshunos olimlarning qaysi biri o‘z kitobida to‘ldiruvchili yoyiq garlar yuzasidan nazariy xulosalar bayon qilgannini aniqlang.



## Hol

### 1-amaliy ish.

1. Berilgan gaplardan o‘rin va payt holli gap kengaytiruvchilarini aniqlab, namunada qayd etilgani kabi tavsiflang.
2. Ajratilgan hollarning nima sababdan gap kengaytiruvchisi ekanligini asoslab bering.

**1-variant.** 1. *Oldinda nemis ofitseri, ikki tomonimizda ikkita soqchi, orqada yana bittasi* (O‘.Hoshimov). 2. *Bir tabarruk zot qazo qilgandi besh kun burun* (S.Ahmad). 3. *Ota-bola ortiq qidirib yurishmay, Najmiddin Buxoriy hovlisini topishdi* (Mirmuhsin). 4. *Biz borishimiz bilan boshiga shlyapa kiygan yum-yumaloq bir xotin qo‘lida o‘ynab turgan hashamatli xitoy zontigi bilan oldimni to‘sdi* (O.Yoqubov).

### NAMUNA:

*O‘rmonda – o‘rin-holli gap kengaytiruvchisi, ot bilan ifodalangan.*

**2-variant.** 1. *Onam hayot bo'lganda onam, otam hayot bo'lganda otamgina menga achinib, dod-faryod qilishlarigina mumkin bo'lardi.* (Shukrullo). 2. *Kechqurun Sattorqul akamning xotini pishirib qo'ygan mastava juda shirin bo'lgan ekan* (G'.G'ulom). 3. *Noiloj bultur chala qolgan savodimni chiqaryapman* (G'.G'ulom). 4. *Hamma urushda bo'lsayu, biz lola terib yursak* (Sh. Rashidov).

**3-variant.** 1. *Darvoqe, belida bir tugunchada gavhar topishadi* (Oybek). 2. *Ochiq eshikdan Nigora xalatining etagi oxirgi marta lip etdiyu, muyulishda ko'zdan g'oyib bo'ldi* (S.Anorboyev). 3. – *Eh, oyijon, tezroq dadamning oldiga, frontga borsam edi!* (Sh.Rashidov) 4. *U har zamon - har zamonda bosh ko'tarib menga qarab qo'yadi-da, yana suvga intiladi* (S.Ahmad).

**2-amaliy ish.** Vaziyat holining quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga gaplar tuzing. “**Vaziyat holining ifodalanishi**” mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. Ravish bilan ifodalanishi:
2. Ravishdosh bilan ifodalanishi:
3. Ot bilan ifodalanishi:
4. Sifat bilan ifodalanishi:
5. Olmosh bilan ifodalanishi:
6. Taqlid so'z bilan ifodalanishi:


**3-amaliy ish.** Quyidagi matndan hol sintaktik vazifasida kelgan bo'laklarni ajrating. Holning ma'no turlarini aniqlang.

*Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... Avvaliga chiqillab turgan soat ham tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'u osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shag'illab ketadi. Zildek yuk*

*usilngizga yopirilib, vujudingizni yerga mixlab tashlaydi; tanho, ojiz bir mursaga aylanib qolasiz.*



**4-amaliy ish.** Gapda maqsad holi vazifasida keladigan so‘z turkumlari va ularning grammatik shakllarini slayd kataklariga qayd eting.



**5-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikdagi (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010. 3-k.) quyidagi mashqni bajaring.

**100-mashq.** Gaplarni to‘g‘ri holatga keltirib ko‘chiring. Qaratqich aniqlovchi va tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi o‘rtasidagi uslubiy xatoilarni aniqlang.

1. Daxlsizlikning ta’minlaydigan bu belgi, mamlakat hukmdorini o‘ng qo‘li.
2. Barchasini oldini olmog‘imiz lozimdir.
3. Urushni urushdan farqi bor.
4. Samarqandda kecha ming kishilar jamoa fuqaroligini orzu etib, bizni hujra eshigin qoqadurlar.
5. Ammo siyosiy ishlarni to‘qqiz ulushini kengashga qo‘yib, bir ulushining qilichga qoldirishga o‘rgangan Temurbek boshqacha o‘ylardi.
6. Amir bizni kor-holimizdan shunchalar boxabar ekanlarki, ko‘rib hayrat barmog‘ini tishladim.
7. Bog‘bonni gaplari barchasin o‘ylatib qo‘ydi.

(Muhammad Ali)



## 6-amaliy ish. Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Tilshunoslikda gapni bo'laklarga ajratish masalasi yuzasidan qanday nazariy qarashlar shakllangan?
2. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari va so'z kengaytiruvchilari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Qaysi gap bo'laklari gap qurilishida qo'llanishi majburiy bo'lgan uzvga aylanadi?
4. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari qanday xususiyatlariga ko'ra bir guruhga kiritiladi?
5. O'zbek tilida gapning qaysi sintaktik bo'laklari gap kengaytiruvchisi maqomiga ega?
6. Ikkinci darajali bo'laklarning gapda o'rinalashuv tartibi qanday?
7. Qanday qo'llanishda gap bo'laklarining inversiyasi sintaktik birlikning mohiyatini tubdan o'zgartirib yuboradi?
8. Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik belgisini bildirgan aniqlovchi qanday aniqlochi hisoblanadi?
9. Qanday bo'lak *aniqlanmish* sanaladi?
10. To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
11. Gapning qaysi bo'lagi kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiradi?
12. Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lak gapning qanday bo'lagi vazifasida keladi?
13. Aniqlovchili so'z birikmalarining izohlovchi-izohlanmish turida izohlovchi va izohlanmishning o'mini almashtirish ma'no va so'z birikmasidagi so'zlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatadimi?
14. Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'z qanday shakllarda bo'lishi mumkin?
15. Hollar o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning belgisini bildirishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
16. Hollar qanday vaziyatda bo'lakning bo'lagi mavqeyida keladi?
17. Hollar qanday xususiyati asosida mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi?
18. Qanday vaqtida to'ldiruvchi gapning emas, bo'lakning bo'lagi bo'ladi?



## UYGA VAZIFA

✓ *Gap bo'laklari, gapning aktual bo'laklarga bo'linishi, tema, rema terminlarini izohlang.* Ularning inversiyaga aloqasi to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

✓ Matnni o'qing va unga sarlavha qo'ying. Ajratib ko'rsatilgan gap bo'laklariga tavsif bering va ularni jadvalda qayd eting.

*Bir yigit go'zal va oqila qizga oshiq bo'lib qoldi. Qizning ham unda ko'ngli bor edi, unashtirib qo'yildilar. Ammo to'ydan keyin qiz xastalikka chalindi, yuzlariga chechakka o'xshagan nimadir toshib ketdi, tabiblar uning chorasini qila olmadilar. Oqibatda qiz avvalgi go'zalligini yo'qotdi va yigitga turmushga chiqish ahdidan qaytdi, o'zini dunyodan yolg'iz o'tishga hukm qildi. Ittifoqo yigit ham kasallikkha chalinib, bir necha kun qimirlamay yotdi. Keyin oyoqqa turdi-yu, biroq ko'zлari ojiz bo'lib qoldi. Yigit qizga uylanish ahdidan qaytmadi. Qiz ham noiloj ko'ndi. Ikkovlari shu tarzda ancha yil baxtiyor umr ko'rdilar. Vaqt soati kelib ayol vafot etdi. Uning janozasidan keyin ernen ko'zлari ko'r emasligi ma'lum bo'ldi.*

(T.Malik)

Misol	Gap bo'lagining turi	Gap bo'lagi vazifasidagi morfologik so'z shakli	Gap bo'lagining tuzilishiga ko'ra turi
go'zal	aniqlovchi	sifat	sodda

✓ Ravish holi va sifatlovchi aniqlovchining umumiyligi va farqli jihatlari to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

✓ Badiiy asarlardan bir xil grammatik shakldagi hol va to'ldiruvchi ishtirok etgan 8 ta gap topib ko'chiring. Ularning umumiyligi va farqli jihatlari to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

✓ Kuzatuvlaringiz asosida atrofingizdagি kishilarning laqabini ifodalaydigan izohlovchilar ishtirokida "Uning laqabi..." mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Laqab qo'yishning salbiy holat ekanligi

to‘g‘risidagi hikmatllar bilan tanishing. Izohlovchining sifatlovchidan farqini izohlang.

## MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR

### 1-amaliy ish.

1. Berilgan gaplardan gapni murakkablashtiruvchi vositalarni ajrating.
2. Gaplarning nima sababdan murakkablashgan sodda gaplar deb nomlanishini asoslab bering.

**1-variant.** 1. *Tursunali makon topgan «daraxtzorda» «bolta» paydo bo‘lishi bilan unga dasta bo‘lishga oshiquvchilar ko‘paydi* (T.Malik). 2. *Darhaqiqat, eru xotin oralarida o‘tgan ikki kalima so‘z shu oila gulshanida o‘sgan Ra’nuning istiqbolini ochiq belgilar edi* (A.Qodiriy). 3. *Shu payt tuzukkina kiyangan bir yigit shirakayf holda javrab kirib kelib, o‘tirganlarning ensasini qotirdi* (S.Anorboyev). 4 . *Shoirlik ishqি dilimga tushmaganida, albatta, rassom bo‘lardim, – deb aytardi* (S. Ahmad).

**2-variant.** 1. *Tabiiy, Xushro ‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onan uning ra’yini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo‘rqadilar* (A. Qodiriy). 2. *Tabiiy, Xushro ‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onan uning ra’yini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo‘rqadilar* (A.Qodiriy). 3. *Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qo‘silib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi...* (O’.Hoshimov). 4. *O‘zingizni tanitsangiz, ehtimol, biror qarindoshingiz chiqib qolar edi* (A.Qahhor).

**3-variant.** 1. *Amerikaning million-million dollari Turkistonga ham, darhaqiqat, selday oqib keldi* (K. Yashin). 2. *Men sening samimiyligingga, niyati pok, yuragi pok, yaxshi yigit ekaningga shubha qilmayman, bolam* (O. Yoqubov). 3. *Avval o‘limlikka atalgan kiyim-kechaklarni, kafanni olishdi* (N.Eshonqul). 4. *Inisi Bobur qonli janglarda barpo etib ketgan ulkan davlat hanuzgacha hind yeriga teran ildiz otolgan emas* (P.Qodirov).

**2-amaliy ish.** N.Norqobilovning “Sariq gul” asaridan olingan ushbu parchada matnni semantik jihatdan murakkablashtiruvchi bo‘laklarni aniqlang va izohlang.

*Qiz bu xil bema 'nilikka chek qo 'yish, yanada aniqrog 'i, zora tushunsa degan o 'yda deydi:*

- *Yurakka buyurib bo 'lmasa, nima qilay!*
  - *Siz buyuring, -- deydi Bozor jiddiy.*
  - *Buyurolmayman.*
  - *Mana biz buyurayapmiz-ku, siz ham buyuring.*
  - *Yuragim yo 'q desa, nima qilay.*
  - *Ayting, xo 'p desin!*
  - *Siz meni kalaka qilayapsiz, shekilli?*
  - *Bozor kurakdek kaftini ko 'ksiga bosib, tavallo qiladi.*
  - *Kalaka qilayotgan bo 'lsam, til tortmay o 'lay.*
  - *Qo 'ying, bunaqa demang.*
  - *Bo 'masa, siz ham odamni bunday kofir qilmang-da!*
- Bu xil suhbatdan na unisi, na bunisi biror ma 'ni topadi. Bozor xomush iziga qaytadi. Qiz dilgir bir kayfiyatda ichkariga kirib ketadi.*

**3-amaliy ish.** Do'stlariningiz bilan "Men uchun barkamol inson" mavzusida suhbat uyushtiring. Nutqingizda marhamat, umuman, aslida, vaholanki, ajab, xullas, ehtimol, binobarin kabi gapni murakkablashtituvchi morfologik birliklarni qo'llang.

#### **4-amaliy ish.**

1. Bir turdag'i morfologik birliklar ham gap bo'lagi vazifasida, ham gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmagan bo'lak mavqeyida kelgan holatlarga 8 ta gap tuzib, namunada ko'rsatilganidek qayd eting.

2. Tuzgan gaplaringiz asosida gapni murakkablashtiruvchi bo'laklar yuzasidan egallagan bilimlaringizni umumlashtiring.

#### **NAMUNA:**

1. *Derazadan atrof yaqqol ko 'rinadi. // Ko 'rinadiki, ular buni oldindan bilishgan.*
2. *Baxtimga hech kim to 'siq bo 'lishini xohlamayman. // Baxtimga, bugun kun iliq bo 'ldi.*

**5-amaliy ish.** Oybek asarlaridan olingan ushbu gaplarda qo'llangan gapni murakkablashtiruvchi morfologik birliklarni aniqlang va ularga tavsif bering.

1. Aytgandek, hoy do 'stim, mana shu oy (qorovul kuld-i-da, boqdi osmonga) bildingmi, yaqinda to'y bo'larmish. 2. Ehtimol, boyvachchalar kinoga borar edilar (Afg'oniston davlatida bita-yu bitta kino bor edi). 3. Ichkilik bo'lmasa ham, (Pokistonda shariat hokim!) hammanig ko'zi shodlikdan mastday edi. 4. ...Qo'llarini bir-birining yelkalariga qo'yib, she'r kuyladilar (she'rni ko'pincha kuya solib aytish, kuylash bu yerda odat ekan).



### 6-amaliy ish.


**“Kim chaqqon?”** grammatik o'yinidan foydalangan holda murakkablashgan sodda gaplar tuzing. O'qituvchi tomonidan berilgan sodda gap tarkibiga gapni murakkablashtituvchi birliklarni kiritning.

#### NAMUNA:

O'qituvchi: **Imom aka bilan hazillashib bo'larkanmi?**

O'quvchi: **Imom aka bilan, shunday jiddiy odam bilan, hazillashib bo'larkanmi?**

**7-amaliy ish.** Klaster asosida “Murakkablashgan sodda gaplar” yuzasidan egallagan bilimingizni mustahkamlang. Bo'sh tarmoqlarni misollar asosida to'ldiring.





**8-amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qaysi tilshunos olimlarning murakkablashgan sodda gaplar tadqiqiga oid izlanishlarini bilasiz?
2. Murakkablashgan sodda gaplarning qanday turida introduktiv munosabat ifodalanadi?
3. Kiritmalar bilan murakkablashgan gaplarda qanday subyektiv munosabat aks etadi?
4. Ravishdosh va sifatdosh o'ramlar bilan murakkablashgan gaplar sintaktik jihatdan qanday tuziladi?
5. Murakkablashgan sodda gaplarning qanday turida vokativ va modal munosabat ifodalanadi?
6. Harakat nomili o'ramlar bilan murakkablashgan gaplar sintaktik jihatdan qanday tuziladi?

**9-amaliy ish. Rasmlli nostandard test javobini toping.** Suratlardagi tilshunos olimlarning kimligi va yozgan asarlarini aniqlang. Surat ostiga mos javoblarni raqamlar orqali belgilang. Tilshunos olimlarning qaysi biri "Murakkablashgan gaplar" yuzasidan maxsus tadqiqot olib borganligini aniqlang.

**1. G'anijon Abdurahmonov**  
**2. Ra'no Sayfullsyeva**  
**3. Hamid Ne'matov**  
**4. Maziuma Asqarova**

A. "Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini"  
B. "O'zbek tili grammatikasi"  
C. "O'zbek tili tarixiy fonetikasi"  
D. "O'zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar".



## UYGA VAZIFA

- “Gapning ravishdosh, sifatdosh va harakat nomili o‘ramlar bilan murakkablashuvi” mavzusida ilmiy ma’lumot yozing.
- Badiiy asarlardan gapni murakkablashtiruvchi bo‘lakli 10 ta gap topib ko‘chiring. Bunday gaplarning semantik tuzilishi to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.
- O‘zbek tilshunosligida “Murakkablashgan sodda gaplar” mavzusi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni o‘rganing. Mavzuning o‘rganilishi darajasi yuzasidan fikr-mulohazangizni yozma bayon eting.

### Uyushiq bo‘laklar



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz tomonidan berilgan qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘srimcha ma’lumotlar
<i>Uyushiq bo‘lak</i>		
<i>Umumlashtiruvchi so‘z</i>		
<i>Uyushiq sifatlovchi-aniqlovchi</i>		
<i>Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi</i>		

### 2-amaliy ish.

- Berilgan gaplardagi uyushiq bo‘laklarni toping. Qaysi bo‘lak uyushganligini aniqlang.
- Uyushiq bo‘laklar haqidagi nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

**1-variant.** 1. *Umrini, mehri, mehnatini bolalariga ularshib yurgan bu kampir, nuragan, jimjit uyi bilan bir kungina sirlashib, o‘chgan*

otiralariga chiroq yoqib kelishni kanda qilgan emas (S.Zunnunova). 1. Haqiqatan, sal orqaroqda non solingan yelim xalta tutgan nozikkina, ko'hlikkina qiz, yerga boqqan ko'yi, oshiqmay kelardi (N.Norqobil). 2. Berkinboy juvondan oshxonani, qozon-tovoqlarni ko'rsatib qo'yishni so'radi (Sh.Bo'tayev). 4. Ikki kundan so'ng uning xonasiga hali yigirmaga to'lmagan qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyangan, qotmadan kelgan ayol kirib keldi (T.Malik).

**2-variant.** 1. Kampirsholarning mashvaratlari misli ko'rilmagan darajada saysiz, zerikarli o'tmoqda edi (Sh.Bo'tayev). 2. Bevaning, aymiqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g'amli ohlariga tun qanday chidar ekan, zamin-u samo qanday chidar ekan? (T.Malik) 3. Xondamir bu uzoq va mashaqqatli safarga Boburni orqa qilib chiqqan edi (P.Qodirov). 4. Komila yarim kechagacha yig'ishtirish, yuvish, ichkilik hidi biqsigan uymi shamollatish bilan ovora bo'lardi (S.Zunnunova).

**3-variant.** 1. U to'qayzorda sassiq alaflarning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmaydi (T.Malik). 2. Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Forob avlodidan, Asli nasli balki O'zluq, Balki Tarxon, o'zbegim (E.Vohidov). 3. – Qimmatli vaqtningizni bergenningiz va ko'rsatgan do'stona yordamingiz uchun rahmat (A.Qahhor). 4. Kuni bo'yi va kechalari bilan bo'lgan suhbatlarda gap mavzudan mavzuga sakrardi (A.Qahhor).

### **3-amaliy ish.**

1. Uyushgan va uyushmagan aniqlovchi ishtirok etgan 6 ta gap tuzing, gapning ikkinchi darajali bo'laklarini sintaktik tahlil qiling.
2. Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilarning umumiy va farqli jihatlari to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

**4-amaliy ish.** Berilgan umumlashtiruvchi so'zlarga muvofiq keluvchi uyushgan so'zlar paradigmaсини hosil qiling. Ushbu umumlashtiruvchi va uyushiq so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

### **1-variant.**

1. Jurnallar. 2. O'quv qurollari. 3. Bosh kiyimlar. 4. O'simliklar. 5. Uy jihozlari. 6. Kitoblar.

**NAMUNA:** *Daraxtlar: olma, nok, behi, shaftoli daraxti. Bog‘imizda xilma-xil daraxtlar: olma, nok, behi, shaftoli daraxti ekilgan.*

**2-variant.**

1. Hasharchilar.
2. Oziq-ovqat mahsulotlari.
3. Yovvoyi o‘simpliklar.
4. Hamshaharlarimiz.
5. Idish-tovoqlar.
6. Do’stlarimiz.

**3-variant.**

1. Mevalar.
2. Taniqli adiblar.
3. Yomon xislatlar.
4. Yoshlar.
5. Ko‘ngillilar.
6. Mehmonlarimiz.

**5-amaliy ish.** Berilgan gaplardagi uyushiq bo‘laklarga grammatik shakllarning ikki xil tarzda qo‘silishi (har bir uyushiq bo‘lakka alohida-alohida va bittasiga qo‘silib barchasiga tegishli bo‘lish) hamda mazkur holatning uslubiy ahamiyati to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

**1-variant.** 1. *Onalar, buvilar o‘qillariga, nevaralariga ana shu suhbatlarni oqizimay-tomizmay*, aytib beraverishibdi (Sh.Bo‘tayev).  
2. *Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo‘q* (Sh.Xolmirzayev). 3. *Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam, Do‘s-t-u yoring, qardoshing bilan* (A.Oripov). 4. *Pushaymonlik, tavba ko‘chalariga kirmoqlikni esa o‘ylamasdi* (T.Malik).

**2-variant.** 1. *Bunda oq birla qaro, Zulmat, ziyo, shoh-u gado, Jang qilurlar doimo...* (E.Vohidov). 2. *Tashna yashadik biz mehrga mutloq, Ishqqa, muhabbatga tashna o‘tdik biz* (A.Oripov). 3. *Har holda, vujudning allaqaysi puchmoqlarida, miyaning qalin po‘sloqlari qavatida qandaydir ruhlar-u hislar, tug‘yonlar-u talvasalar mudrab yotadi* (Sh.Bo‘tayev). 4. *Mening halol mehnatim uchun so‘mlab, tiyinlab bergen edingiz* (Sh.Xolmirzayev).

**3-variant.** 1. *Siniq oynak, ustara olib chiqdi* (Sh.Bo‘tayev).  
2. *Xolmurodning oldida past bo‘yli, qorachadan kelgan, dumaloqqina kampir turardi* (S.Zunnunova). 3. *U qaynanasini quchoqlagisi, o‘pgisi, ko‘kragiga bosh qo‘yib, erkalangisi kelardi* (S.Zunnunova). 4. *Sensiz men ham, bahor ham g‘arib, Sen bahorni sog‘inmadingmi?* (A.Oripov)

## **6-amaliy ish.**

1. Oybekning “Navoiy” romanidan olingan quyidagi parchada qo‘llangan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, sintaktik vazifasini belgilang.

2. Ushbu matn tahlili asosida gap bo‘laklarining uyushib kelishi masalasiga doir bilimlaringizni umumlashtiring.

*– Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, – shavq bilan davom etdi Navoiy, –butun el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘lsin. Jamiki ulum va funundaki, azminan qadimdan (eski zamonlardan) to shu damgacha odamzodning fikr gavhari ijod etmishdir va kitob suratiga chekilmishdir, – barchasi bizning kutubxona xazinasini ziynatlasin. Faqirning xolis niyati shulki, bu yerda Xurosonning va o‘zga mamlakati islomning barcha ulamo, fuzalo, shuarosi kitoblardan istifoda qilg‘ay. Bu yerda falsafaning Suqrrot, Aflatun va Arastulari, hikmat va riyozaatning Fipog ‘urslari (qadim yunon olimi), ilm hay‘atining (astronomiya) Ulug‘beklari, she‘rning Firdavsi va Nizomiy Ganjaviylari – har qaysilari o‘z sohalarida osoyishta mashg‘ulotda bo‘lg‘aylar. Ilmning ravnaqiga harakat qilg‘aylar, fikrning yangi-yangi xazinalarini ixtiro etkaylar. Ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to‘ldirsa, maqsadimizga yetgan bo‘lurmiz. Darveshali, ko‘nglingiz har chog‘ el muhabbati bilan labolab to‘lsin, har ishga bel bog‘lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o‘zingiz uchun mezon deb biling...*

## **8-amaliy ish.**

1. Uyushiq bo‘laklarga mos umumlashtiruvchi so‘zlar toping hamda uyushiq bo‘laklari biriktiruv, ayiruv, zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan gaplar tuzing.

2. Uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi grammatik vositalarning tasnifini yarating.

### **1-variant.**

1. *Qaymoq, qatiq, tvorog.* 2. *Oltin, kumush, olmos.* 3. *O‘zbek, qozoq, turkman.* 4. *Qovun, handalak, tarvuz.*

### **2-variant.**

1. *O‘rik, anjir, shaftoli.* 2. *Yomg‘ir, qor, bo‘ron.* 3. *Palov, manti, chuchvara.* 4. *Kimyo, ona tili, matematika.*

### **3-variant.**

1. *Qizlar, yigitlar, yosh bolalar.*
2. *Oq, pushti, sariq.*
3. *Yuzi, bo'yni, ko'kraklari.*
4. *Siz, biz, ular.*

### **9-amaliy ish.**

1. Otli uyushiq birikmalar va fe'lli uyushiq birikmalar qo'llangan 6 ta gap tuzing va ularga namunada qayd etilganidek izoh bering.

2. Nima sababdan bunday birikmalarning uyushiq birikmalar deb atalishini asoslab bering.

**NAMUNA:** *Chol bugun ham ko'ngil sinqligi, ruh tushkunligi bilan birmuncha vaqt hovli aylandi.* – Ushbu gapda tarz holi vaziyatidagi ko'ngil sinqligi, ruh tushkunligi bilan birikmalari uyushgan, bu birikmalar otli birikma.

**10-amaliy ish.** Umumlashtiruvchi bo'laklarni toping, tushirilgan tinish belgilarni qo'yib ko'chiring.

1. *Ishlangan yerlar, yo'llarning ikki tomonidagi ariqlarda jildirab oqayotgan suv, ariqlar labida qad ko'targan yosh teraklar hammasi Olimjonning diliga sevinch-quvonch bag'ishlardi* (Sh.Rashidov).
2. *Hamma narsa jonli, jonsiz uyduda* (S.Ahmad).
3. *Hovuz bo'yida o'tirgan brigadir ikki hovuchini to'lg'azib suv olar zavq bilan yuzini, bo'ynini, ko'kraklarini barcha qoraygan joylarini yuvar edi* (Sh.Rashidov).
4. *Cho'lpon umri davomida juda ko'p narsalarni qiziq, shirin nash'ali voqealarning guvohi bo'lgan* (Sh.Rashidov).
5. *Inson ko'p sabablar bois yig'laydi azobdan, musibatdan, sevinchdan, baxtiyorlikdan* (B.Kolmurodova).
6. *U ishq tufayli diyoridan, xonumonidan balki borlig'idan kechdi* (Jurnaldan).



Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qaysi tilshunos olimlarning uyushiq bo'laklar tadqiqiga oid izlanishlari mavjud?
2. Uyushiq bo'lakli gaplar qanday sintaktik xususiyatlarga ega?
3. Uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llangan umumlashtiruvchi so'z qanday vazifani bajaradi?
4. Gapning qanday bo'laklari uyushib keladi?
5. Qaysi morfologik birliklar umumlashtiruvchi so'z vazifasida qo'llana oladi?
6. Uyushiq bo'lakli gaplar uyushgan gaplardan qanday farqlanadi?
7. Gapning uyushiq bo'laklari o'zaro qaysi grammatik vositalar orqali bog'lanadi?
8. Uyushiq kesimli gaplar qanday shakllanadi?
9. Uyushiq bo'lakli gaplarda qanday tinish belgilari qo'llanadi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Badiiy asarlardan uyushiq kesim ishtirok etgan 10 ta gap topib ko'chiring. Uyushiq bo'laklarga kesimlik ko'rsatkichlarining qo'shilishi to'g'risida ilmiy xulosa yozing.
- ✓ Umumlashtiruvchi so'z ishtirok etgan uyushiq bo'lakli 10 ta gap tuzing. Bunday gaplarda tinish belgilarinining qo'llanilishini izohlang.
- ✓ "Kuch – birlikda" mavzusida ma'rifiy matn tuzing. Unda uyushiq bo'laklardan keng foydalaning.



### Ajratilgan bo'laklar

**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz orqali bilib olgan qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Ajratilgan bo'lak		

Ajratilgan ega		
Ajratilgan kesim		
Ajratilgan aniqlovchi		
Ajratilgan to 'ldiruvchi		
Ajratilgan hol		

## 2-amaliy ish.

1. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan quyidagi gaplarda aniqlovchi va aniqlanmishning joylashish o'rnini o'zgartirib, ajratilgan bo'lakli gaplar hosil qiling.
2. Tuzgan gaplaringiz asosida ajratilgan bo'laklar haqidagi bilimlarin-gizni umumlashtiring.

**NAMUNA:** *Ko 'kdagi yakka-yu yolg 'iz oy tanhodir. – Ko 'kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg 'iz* (A.Oripov).

**1-variant.** 1. *Do 'stona ko 'magingiz uchun tashakkur bildirishdan boshqa so 'zim yo 'q* (A. Qahhor). 2. *Ellik besh yoshlardagi salobatli kampir sidirg 'a oq atlas ko 'ylagini shitirlatib darsxonaga kirib kelayotganda Bobur darhol o'rnidan turib, buvisiga salom berdi* (P. Qodirov). 3. *Toza, bosilmagan yangi o 't tomon boshlaydi bo 'rdoqi, semiz qo 'ylarin* (Zulfiya). 4. *Bu kichkina, vafodor, samimiychoparlarning xabariga ishonmaslik mumkin emasdi* (Oybek).

**2-variant.** 1. *Uni otasidan judo qilgan, pushti-panohidan ayirib, xavf-xatarlar komiga tortgan mash 'um bir kuch go 'yo mana shu quyunning kuchi edi* (P. Qodirov). 2. ... *Nimjon, qoq suyak yelkalari hamon ohista titrar; astidan, hamon o 'pkasini bosolmay yig 'lar edi* (O.Yoqubov). 3. *Chiroyli rang-barang gullar gulzorning husniga husn qo 'shib turibdi* (Sh.Rashidov). 4. *Faqat xipcha qomati va hali uncha to 'lishmagan yelkalari endi o 'n besh yoshga kirganini eslatib turardi* (P. Qodirov).

**3-variant.** 1. *So 'zamol, badavlat qori tog 'aning birdan ko 'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo 'lchi tushunmadi* (Oybek). 2. *Chiroyli, popukday bir qiz o 'ynadiki, ah-ah, iqlimda misli yo 'q, beqiyos* (Oybek). 3. *Uning ko 'zlarida tashvish emas, o 'z kuch-qudratiga ishonch,*

*hatto istehzoli kulgu bor edi* (O'. Hoshimov). 4. *Tollar tagidagi ariqchalarda tip-tiniq suvlar shildirab oqib yotadi* (G'. G'ulom).

### **3-amaliy ish.**

1. Zarur o'rirlarga tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring.
2. Gap tarkibiga ajratilgan bo'laklarning kiritilish sababini tushuntiring.

**1-variant.** 1. *Kechqurun poda qaytar mahali qishloqda ajih sukunat hukmron bo'ladi* (Sh.Bo'tayev). 2. *Lekin fe'li ishiga o'ta yopishqoqligi xuddi Sharifning o'zi* (S.Zunnunova). 3. *Bu orada ular juda qalinlashib ketishgan ya'niki Bozor hanuz ortidan soyadek ergashib yurar Davron esa ikkisining boshini qovushtirolmay garang edi* (N.Norqobilov). 4. *Enasi aytib bergani kampirlarning suhbati podachiga juda ma'qul kelibdi* (Sh.Bo'tayev).

**2-variant.** 1. *Yo'lim boshladi to kezdim dala-tog'*, *Kezdim ne yurtlarni chiroylı tengsiz* (A.Oripov). 2. *Orada, sizning gapingizga kirgan men ahmoq, degan ma'noda ortiga qop-qorong'u daraxtzor qo'yniga zarda ila qarab-qarab qo'yardi* (N.Norqobilov). 3. *Qozoq sahrosi bu beedad sahro Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq* (A.Oripov). 4. *Haligina siz kelmasdan sal avval biroz o'zimga kelgach, joy-joylariga ketishdi* (A. Ibrohimov).

**3-variant.** 1. *U dong'i ketgan xo'jalikning mashhur rahbari shu taxlitda tizzalari ko'ziga qo'llarini tirab o'tirishini ko'p ko'rghan, tahassub qilishdan aslo o'zini tiyolmasdi* (Sh.Bo'tayev). 2. *Pastda so'ri ostida Yo'ldoshev bilan so'zlashayotgan O'ktam yalt etib orqasiga qarsillagan eshikka qaradi* (Oybek). 3. *Tursunali akaga shunday katta olimga kuyov bo'lish hazil gap emas* (O'. Usmonov). 4. *Muborak torgina zinadan ikkinchi qavatga Elmiralarning uyiga chiqdi* (S.Zunnunova).

### **4-amaliy ish.**

1. Bir gap bo'lagini izohlash orqali hosil bo'luvchi 4 ta ajratilgan bo'lakli gap tuzing.
2. Tuzgan gaplaringizga namunadagi kabi tavsif bering.

## NAMUNA:

*U yana avvalgi joyiga – stulga o ‘tirdi.* Ushbu gap – ajratilgan bo‘lakli sodda gap. Gapning mazmuniy tuzilishi murakkab, chunki unda ikkita axborot ifodasi mavjud: 1. *U yana avvalgi joyiga o ‘tirdi.* 2. *Uning avvalgi joyi stul edi.* 1-asosiy axborot gapning predikativ markazi orqali, 2-ko‘shimcha axborot ajratilgan bo‘lak va u izohlab kelayotgan bo‘lak orqali yuzaga chiqqan.

**5-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent, 2010, 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**134-mashq.** Ko‘chiring. Tartibi o‘zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchili ajratilgan bo‘laklarni toping.

1. *Ko ‘kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg ‘iz.*
2. *Shoyon mehnatingning nishonasi bu –  
Qora qoshlaringga qo ‘ngan chang, g ‘ubor.  
Suvori ekansan – zahmating ezgu,  
Zamona Barchini – mehnatkash, dildor.*
3. *Yo ‘lim boshladi to kezdim dala-tog’,  
Kezdim ne yurtlarni – chiroyi tengsiz.*
4. *Qozoq sahrosi – bu beedad sahro,  
Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.*
5. *Bir zum dengizga ham boqqil betuyg ‘u,  
Dema, o ‘ylarimday u teran tengsiz.*
6. *Angladimki, olamda  
Yurt tanho, Vatan tanho,  
Nokaslar emas, yo ‘q, yo ‘q,  
Yolg ‘iz sen baland, tanho.*

7. Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'larda gar  
Qudratni ko'rgazsa tabiat hassos.

8. Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat  
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.  
U-menmi, u-senmi, kim bo'lma, faqat  
Senga insof bersin, uchinchi odam!

(A. Oripov)



**6-amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Ajratilgan bo'laklar gapda qanday vazifa bajaradi?
2. Ajratilgan bo'laklar qaysi xususiyati bilan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi?
3. Ajratilgan bo'lakli gaplarda qanday tinish belgilari qo'llanadi?
4. Qaysi tilshunos olimlarning ajratilgan bo'laklar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlari mavjud?
5. Qaysi grammatik vositalar ajratilgan bo'laklarni ajratilmish bo'lakka bog'laydi?
6. Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar nima sababdan mazmunan murakkablashadi?
7. Gapning qanday bo'lagi bir tushunchaning ikkita nomini anglatib keladi?
8. Ajratilgan hol vazifasida ko'pincha holning qaysi ma'no turlari keladi?
9. Gapda ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakka nisbatan qanday o'rinn egallaydi?



### UYGA VAZIFA

✓ Badiiy asarlardan ajratilgan bo'lak ishtirok etgan 10 ta gap topib ko'chiring. Ajratilgan bo'laklarning gap semantik mundarijasiga ta'siri to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

✓ “Birlashib biz katta kuchmiz” mavzusida ma’rifiy matn tuzing. Unda ajratilgan bo‘laklardan keng foydalaning. Bunday gaplarda tinish belgilarining qo’llanilishini izohlang.

✓ Ilmiy manbalar asosida *ajratilgan bo‘lak, perifraza, tasviriyl ifoda terminlariga* izoh bering. Mazkur til hodisalarining umumiy va xususiy jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

## Undalma



**1- amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchningiz bergen qo‘srimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘srimcha ma’lumotlar
<i>Undalma</i>		
<i>Murojaat birliklari</i>		
<i>Vokativ gap</i>		
<i>Yig‘iq undalma</i>		
<i>Yoyiq undalma</i>		

### 2-amaliy ish.

1. O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan ushbu matn tarkibidagi undalmalarni aniqlang.

2. Matnda qo‘llangan undalmalarning joylashuv o‘rnini o‘zgartirib ko‘ring. Ularning erkin o‘rin almashinuvi sababiga aniqlik kriting.

*Bola mo ‘jiza ko ‘rgandek taqqa to ‘xtab qoldi.*

– *Anavi nima, oyi? – dedi o ‘sha tomondan ko ‘z uzmay.*

– *Laylak, o ‘g ‘lim, laylak! – ona o ‘g ‘lining boshini silab qo ‘ydi. – Yura qol, jonio.*

*Bola hech qachon bunaqa qushni ko ‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to ‘xtab qoldi.*

– *Nima u, oyi? – dedi tag ‘in chinor uchiga ko ‘z tikib.*

– *Laylak, o ‘g ‘lim, laylak.*

– *Nimaga bir oyoqda turibdi?*

*Ona kului:*

– Bir oyog ‘i charchagandir-da. Yura qol, jonio.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko ‘rmagan edi. Qush negadir bo ‘ynini cho ‘zib tumshug ‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda “tarak-tarak” degan ovoz eshitilardi. Bola tag ‘in to ‘xtab qoldi.

– Nima o ‘zi u, oyi?

Uning ko ‘zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deb ohista egilib, o ‘g ‘lining yuzidan o ‘pdi. – Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

**3-amaliy ish.** Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini undalma vazifasida qo‘llab gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringiz asosida “Undalmalarning gapdagi vazifasi” masalasi bo‘yicha ilmiy xulosa yozing.

**1-variant.** *Sirdoshim, mehribon otam, go ‘zal qiz, og ‘ayni, azizim.*

**2-variant.** *Inson bolasi, xalqim, ey ko ‘ngil, bag ‘ri keng dunyo, hamshahrim.*

**3-variant.** *Hissiz odam, elim, hasharchi do ‘stlar, ey qalbi pok go ‘dak, zolim dunyo.*

**4-amaliy ish.** She’riy parchalarda qo‘llangan undalmalarga namunadagi kabi izoh bering.

### NAMUNA:

*Jilg ‘alar bo ‘yiga cho ‘kkan guloyim,  
Bulbulning patidan barging muloyim.*

*Jilg ‘alar bo ‘yiga cho ‘kkan guloyim* – yoyiq undalma, murakkab so‘z birikmasi bilan ifodalangan.

*Burchga sadoqatli ey fidoyilar,  
Pokligingiz Sizga ko ‘zmunchoq bo ‘lsin!*  
(M.Yusuf)

*Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon,  
Yolg'on yig'lab, kuyganlaring tugar qachon.*

(M.Yusuf)

*Uch, mening yuragim, jismim olib uch,  
Pillapoyalarga bosmayin qadam.*

(Zulfiya)

*Gullar sochding men ilk bosgan qadamga  
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.  
Jahon ichra mening tengsiz jahonim –  
O'zbekistonim.*

(E.Vohidov)

**5-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.



**145-mashq.** O'qing. Undalmali gaplarni ajratib ko'rsating. Undalma bilan boshqa bo'laklar o'rtaida qanday tinish belgisi qo'yganingizni va buning sababini tushuntiring.

*Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, qudratli va jafokash Vatanim.*

*Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan xalos bo'lding. Ozodlik kuning asr desa asr, ming yillik desa ming yillik ichida eng buyuk kundir. U sening yangi tarixing, mening yangi umrim boshlangan kun. Milodiy va hijriy yil hisobi yonida qalbimning o'z yil hisobi bor. Yangi yilning – milodiy ikki ming birinchi, hijriy bir ming to'rt yuz-u yigirma birinchi, ozodiy – o'ninchi yil bo'ladi.*

*Ey, mening suyukli O'zbekistonim. Zamonlar kelarki, botiniy zanjirlaring ham yechilar. Kelajak haqiqiy hur dunyo ichida, sen ham chinakam ozod mamlakat bo'larsan. Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolarini, qon to'kishlarni unutar, olamda mehr-u saxovat, poklik va ezgulik g'olib bo'lar.*

Bizning bu g'urbat to'la asrda matonat bilan yashagan avlodning uyg'og ruhi ul zamon aytar: «O'limgan qul shunday kunga ham yetib keldi-yab»

Shu umidbaxsh tuyg'u bilan bugun: "Assalom, kelajak", deya hayqirgim keldi.

(E. Vohidov)



**6-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Gapning qanday bo'lagi undalma hisoblanadi?
2. Undalmali gaplar qanday sintaktik xususiyatlarga ega?
3. Undalmali gaplar va vokativ gaplar qanday umumiy jihatlarga ega?
4. Qaysi so'z turkumlari gapda undalma vazifasida kela oladi?
5. Undalma va ega qaysi jihatdan umumiy belgilarga ega?
6. Undalmali gaplar va vokativ gaplar qanday umumiy jihatlarga ega?
7. Qaysi tilshunos olimlar undalmalar tadqiqi bo'yicha izlanishlar olib borishgan?
8. Undalma qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
9. Undalmalar gapning qaysi qismida keladi?
10. Undalmali gaplarda qanday tinish belgilari qo'llanadi?



### UYGA VAZIFA

✓ "Do'stim bilan suhbat" mavzusida ma'rifiy matn tuzing. Matnda qo'llangan undalmalarni aniqlab, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini belgilang.

✓ Badiiy asarlardan undalmalarning undov so'zlar bilan qo'llanilishiga misollar topping. Undovsiz undalmaning undov bilan qo'llangan undalmadan farqi to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

## Kirish qurilmalar



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O’qituvchingiz bergen qo’shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo’shimcha ma’lumotlar
<i>Kirish so’z</i>		
<i>Kirish birikma</i>		
<i>Kiritma qurilma</i>		

**2-amaliy ish.** Kirish qurilmali gaplarni sintaktik tahlil qiling.

**1-variant.** 1. *Aytmoqchi, xat kelgan edi qizlaridan* (S.Zunnunova).  
2. *Bobur mirzo ta’kidlaganlaridek, eshikni astoydil qoqqan odamlargina kiradilar* (T.Malik).

**2-variant.** 1. *Men sizga aytsam, yuqoridan ozgina ishora bo’lsa, yetadi* (O’.Hakimali). 2. *Islom dini ko’rsatmasi bo’yicha, odam eng avvalo o’z oilasini ta’minlashi kerak* (T.Malik).

**3-variant.** 1. *Shu qabriston yonidan tunda o’tgan odamlarning aytilishlaricha, qushlarning uyalaridan tong otguncha yig’i, ohu faryodolar eshitilarmish* (S.Ahmad). 2. *Aytgandek, sizdan bir nima so’ramoqchi edim...* (A.Muxtor).



**3-amaliy ish.** Jadvalni to’ldiring. Jadvaldagи qaydlaringiz asosida kirish qurilmalar haqidagi bilimlaringizni umumlashtiring.

No	Kirish so’z vazifasida qo’llana oladigan so’zlar	Kirish birikma vazifasida qo’llana oladigan shtamp qurilmalar	Kirish gap vazifasida qo’llana oladigan shtamp qurilmalar

#### **4-amally ish.**

1. Nuqtalar o‘rniga berilgan kirish qurilmalardan mosini va zarur o‘rninlarga tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

2. Ushbu topshiriq asosida “Kirish qurilmalarda tinish belgilarining qo‘llanishi” masalasiga munosabat bildiring.

1. ... Muhtaramoy bir kuni kir yuvayotgan ekan. 2. ... xotinning sonini to‘rtga yetkazibsiz. 3. ... hech qanday ma’lumotga ega emasman. 4. ... bunday dabdabali marosimlarni rag‘batlantirishga urinadilar. 5. ... qudularimiz ham, kelinimiz ham buni to‘g‘ri tushundilar. 6. ... Nasibjon hozir katta joyda ishlaydi. 7. ... jannat bog‘lari o‘tmishda qolib ketdimikin?

Kirish qurilmalar: *uning ma’lumoticha, eshitishimcha, ajab, achinarlisi, aytishlaricha, shukrki, afsus.*



**5-amaliy ish.** “*Bu meniki!*” grammatik o‘yini asosida “*Uslubiy betaraf kirish qurilmalar*” va “*Uslubiy xoslangan kirish qurilmalar*” guruhi bo‘lining. Quyida berilgan kirish qurilmalar ichidan o‘zingizga tegishlisini ajratib oling.

*Xabar qilishlaricha, shaksiz, fikri ojizimcha, shubhasiz, albatta, shukrki, ularning ta‘kidlashicha, ehtimol, avvalambor, darhaqiqat, bayon qilinishicha, ma’lumki, uning fikricha, shekilli, e’tirof etishlaricha, modomiki, darvoqe, aksincha, tavba, ajabki, qisqasi.*

**6-amaliy ish.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga nisbatan izoh munosabatini hosil qiluvchi kiritmalarni qo‘llab, gaplarni namunada ko‘rsatilganidek ko‘chiring. Kiritmalarning kirish qurilmalardan farqi xususida ilmiy axborot yozing.

**NAMUNA:** *Kelgan bola past bo‘yli ekan (o‘tirganida novcha ko‘ringan edi).*

**1-variant.** 1. *Aliyev shu xayoli bilan odamlar haqida noto 'g'ri o 'ylayotganini bilsa ham, o 'zini alam va jahldan tiyolmasdi* (O'.Umarbekov). 2. *Kifoyatxon u bilan olti yil umr qilibdi* (A.Qahhor). 3. *Zina maydonchasing paneli loyihadaligidan roppa-rosa bir qarich kalta bo 'lsa, qandoq montaj qilamiz* (O'.Hoshimov). 4. *Bu qishloqning suvi toza, zamini unumli, havosi yoqimli, dehqonlarining qo 'li barakali ekan* (G'.G'ulom).

**2-variant.** 1. *Bu yerning xalqi sodda, dolvor kishilar* (S.Ahmad). 2. *Oqposhsho yerdan bir siqim tuproq oladi* (T.Murod). 3. *Qizi bir qadam berida to 'xtadi* (T.Malik). 4. *Bir juft qaldirg'och inidan mo 'ralab yuvoshgina "viyt-viyt" qiladi* (O'.Hoshimov).

**3-variant.** 1. 2. *Singlisi boshqa yoqqa ko 'chib ketgan bo 'lsa-ya, bular begona kishilar bo 'lsa-ya!* (S.Ahmad) 3. *Navbatda turib ikki kilo limon oldim* (O'. Hoshimov). 4. *Usmon ota sizga qarata bir-ikki og 'iz va 'z aytishni lozim ko 'rdilar* (S.Ahmad).

### 7-amaliy ish.

1. Kirish qurilmalarning quyidagi semantik turlariga mos misollar tuzing.
2. Tuzgan misollaringiz asosida kirish qurilmalarning semantik turlari haqida ilmiy xulosa yozing.

1. Fikrning tartibi:
2. Achinish munosabati:
3. Tasdiq munosabati:
4. Guman munosabati:
5. Fikrning kimga qarashli ekanligi:

**8-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi

o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010, 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**146-mashq.** O'qing. Kirish so'zlarni ajrating. Kerakli o'ringa vergul qo'yib ko'chiring.

1. *To'g'ri-da, harna ko'ngli yozilgani! Qolaversa kasal onasiga madad bo'ladi.* 2. *Rais ham Ra'noxonning ahvolini sezdi shekilli haytovur yo'q demadi.* 3. *To'g'ri qora kunga asrab qo'yan bug'doyimiz ham, jo'xori ham ko'p edi.* 4. *Kun botmasidan oxirgi egatdagi kartoshkani ham terib oldik xayriyat.* 5. *Oyim chamamda bu gapni dadamga aytmadı.* 6. *Qiziq zakunchi kelib ketishi bilan oraga g'ashlik tushdi (O'.Hoshimov).* 7. *Binobarin yoshlarimizni hayot so'qmoqlaridan eson-omon olib o'tish har bir insonning muqaddas burchidir.* 8. *Afsuski bugungi kunda maskura, targ'ibot va tashviqot kerak emas, degan noto'g'ri xulosa bilan yushayotgan odamlar ham uchrab turibdi.* 9. *Ma'lumki oqko'ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o'z baxti, o'z yutug'i kabi qarab quvonadi.* 10. *Albatta, baxillik qon yo jon bilan o'tadigan fiziologik hodisa emas.* 11. *Darhaqiqat, mundog' o'ylab qaralganda, bola hadeb o'ksinaversa kuygunchakka, kuygunchaklik hasadga, hasad esa baxillikk, nihoyat baxillik ziqlilikka aylanganini ko'rish mumkin (M. Ismoiliev).*



**9-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Kirish so'zlarning qanday semantik turlari farqlanadi?
2. Qanday so'zlar fikrning kimga qarashliligin anglatib, gapda kirish so'zlar vazifasida keladi?
3. Kirish gaplar qanday vazifa bajaradi?
4. Qaysi tilshunos olimlarning kirish qurilmalar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlari mavjud?

5. Fikrning taxminiyligini anglatuvchi kirish so‘zlar vazifasida qanday so‘zlar keladi?
6. Kirish qurilmalar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
7. Fikrning tartibi va xulosasini bildiruvchi kirish so‘zlar qanday so‘zlar bilan ifodalanadi?
8. Kirish gaplarda qanday tinish belgilari qo‘llanadi?



### **UYGA VAZIFA**

- ✓ O‘zingiz o‘qigan badiiy yoki ilmiy asarga taqriz yozing. Taqrizda kirish va kiritma qurilmalardan keng foydalaning.
- ✓ Qayd etilgan ilmiy manbalar bilan tanishib, quyidagi savolga javob yozing:

**Kirish kengaytiruvchilar** (R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent, 2007), **kiritmalar va kirish gaplar** (O‘zbek tili grammatikasi. T. 2. –Toshkent: Fan, 1976), **kirish konstruksiyalar** (A.G‘ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987), **kirish tizimlar** (A. Nurmonov va b. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992), **izoh gap va izoh so‘z birikmalari** (O‘zbek tili grammatikasi. T. 2. – Toshkent: Fan, 1976). Bu terminlar qanday birliklarni nomlaydi? Terminlardagi har xillikka sabab nimada deb o‘ylaysiz?

## TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergan qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>To‘liq gap</i>		
<i>To‘liqsiz gap</i>		

### 2-amaliy ish.

1. G‘.G‘ulomning “Shum bola” asaridan olingan quyidagi misollardan to‘liqsiz gaplarni ajrating.

2. Nutqda nima sababdan to‘liqsiz gaplarni qo‘llashga ehtiyoj tug‘ilishini o‘ylab ko‘ring.

**1-variant.** 1. *Qani yuringlar, men oyo‘gidan ko‘taraman, sizlar boshidan. – Yo‘q, taqsir, siz boshidan, bizlar oyog‘idan.* 2. – *Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.* 3. – *Qaysi madrasada o‘qir eding, mudarrising kim? Qo‘lga tushdim.* Toshkentda nima ko‘p – madrasa, nima ko‘p – mudarris. – *Taqsir, o‘sha katta madrasa-da, domlamiz ham o‘sha katta domla bo‘ladilar.* 4. – *Ha, bola soch oldirmoqchimisan? Puling bormi?* – *Ha, bor.* 5. *Keyin yo‘lingni topib olarsan... – degan dudmal maslahat berdi.*

**2-variant.** 1. *Boy shiyponda kalla go‘shti bilan nonushta qilib o‘tirgan ekan. Salom berib sekingina poygakka tushib o‘tirdim. – Xo‘sh??* 2. – *O‘zing qayerlik bo‘lsan, o‘g‘lim? – Taqsir, toshkentlikman.* 3. – *Xo‘sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi? – Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.* 4. – *Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarmi, o‘zing ayt-chi, nimaga*

*shildilaring? – Shoshib qoldik-da, o'lib qolgandan keyin, bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.* 5. – *Harom o'lgan ot go 'shti qayoqda ekan? – Ha, o'zimizning to 'riq qashqanining go 'shtini yeb o'lди-da, begona ot emas.*

### **3-amaliy ish.**

1. Quyidagi to'liqsiz gaplarda qaysi bo'lak tushirib qoldirilganini aniqlang va ularni tiklang.
2. Mazkur gaplarning uslubiy xususiyatini belgilang.

**1-variant.** 1. *Bu yoqqa!* (S.Zunnunova) 2. *Shayx, tezrog!* (O'.Hoshimov) 3. *So 'z oqsoqolga!* (N.Jaloliddin) 4. – *Do 'stingizni qarang! Ha buni nima ahamiyati bor?!*... *Juda bor-da, – dedi u o'jarlik qilib* (Z.A'lam).

**2-variant.** 1. *Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan* (Maqol). 2. *Shayx, to 'rt choynak choy!* (O'.Hoshimov) 3. *Buvi, buvijon, o'sha qalpoqning rangi qanaqa? – deb so 'radim hovliqib. – Oq jundan to 'qilgan* (X.To'xtaboyev). 4. *Bu g'o 'zalar kimniki o'zi? – Bizniki* (X.To'xtaboyev).

**3-variant.** 1. *Bu tovuqlar kimniki? – deb so 'radim. Bizniki, – dedi qiz hozirgina archilgan katta tuxumni og 'ziga solib* (X.To'xtaboyev). 2. – *Qani, aravangiz butmi?... Eski bo 'lsa ham pishiq...* (Z.A'lam). 3. *Sog 'ligimiz uchun!* (S.Qahhor) 4. *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog 'piyoz* (Maqol).

### **4-amaliy ish.**

1. “*Uning aybi yo 'qmi?*” mavzusida kichik dialog tuzing. Dialogda qo'llangan to'liqsiz gaplarni sintaktik tahlil qiling.
2. Tahlil asosida to'liq va to'liqsiz gaplar haqidagi nazariy xulosalarni umumlashtiring.

### **5-amaliy ish.**

P.Qodirovning “Avlodlar dovoni” asaridan olingan ushbu matndan to'liqsiz gaplarni aniqlab, tushirib qoldirilgan bo'laklarni tiklang.

- Janob Pakavira, Hindistonga qachon kelgansiz?..
  - Uch yil oldin.
  - Uch yil? Uch yildan buyon qayerda istiqomat qilmoqdasiz?
  - Ko 'proq Goa orolida.
  - Bahodirshoh Goa orolida yashagan farangilar bilan ittifoq tuzgan emasmidi?
    - Ammo Bahodirshoh keyin bu ittifoqni buzdi, bizga ham xiyonat qildi. Shundan so 'ng bizning odamlarimiz uni o 'ldirdilar. Biz endi siz bilan hamkorlik qilish orzusidamiz, hazrati oliylari!
- Humoyun kinoyali jilmaydi:*
- Xudo ko 'rsatmasin, agar biz ham Bahodirshohga o 'xshab jangda yengilsak, sizlar keyin uning kunini bizning boshimizga ham solgaymisiz?
  - Alhazar! – deb qo 'ydi Sayid Xalil.



### 6-amaliy ish.

“Shoshilmasdan shoshiling!” o 'yin-topshirig 'idan foydalangan holda “Go 'zallik va moda” mavzusida savol-javob o 'tkazing. Bunda o 'quvchilar 1-savolga “ochiq” (fikrini to 'liq ifodalagan holda, biroq to 'liqsiz gaplar orqali), 2-savolga “qisqa” (“ha” yoki “yo 'q” tarzida), 3-savolga “qarshi” (savolga-savol bilan, shuningdek, to 'liq gaplar orqali) usullarida javob qaytarishlari lozim.

**7-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Hozirgi o 'zbek adabiy tili” darsligida (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o 'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**176-mashq.** O 'qing. To 'liqsiz gaplarni aniqlab, turini ayting. Ularning grammatik xususiyatlarini va bo 'laklarga ajratilmaydigan gaplardan farqini tushuntiring.

1. – *Ota, bular bog‘ingizdagи qizil olmadanmi?*

– *Hovva, qizim.*

*Kuzda taram-taram qizargan piyoladay olmalar esiga tushib, Feruza quvonib so‘radi:*

– *Bularning hosilini qayoqqa sig‘diramiz, ota?*

– *Shaharga yuboramiz, qoqi solamiz.*

2. *Norqo‘zi Feruzaga qarab kuldi:*

– *Paxta terishga qalaysiz?*

– *Terganman.*

– *Bellashaylik bo‘lmasa. Xo‘sh, shartingiz bormi?*

— *Bor?*

3. *Feruza Xanifaning qo‘lidan zil patnisni oldi.*

– *Otam qayoqdalar?*

– *Bog‘da.*

4. *Shiyponga bormaylikmi, Normat aka?*

– *Boramiz, – Normat aka pastazordan asfalt yo‘lga ko‘tarilar ekan, Turg‘unalidan so‘radi: – G‘o‘zang hamma yerda shunaqa yetildimi?*

– *Shunaqa.*

(H. G‘ulom)



**8-amaliy ish.** Savollarga javob berish orqali o‘z bilimingizni sinab ko‘ring.

1. Gaplar qaysi xususiyatiga ko‘ra to‘liq va to‘liqsiz gaplarga ajratiladi?

2. Qaysi tilshunos olimning to‘liq va to‘liqsiz gaplar tahliliga oid tadqiqot ishi mavjud?

3. To‘liqsiz gaplar sintaktik jihatdan qanday shakllanadi?

4. To‘liqsiz gaplar so‘z-gaplardan qanday farqlanadi?

5. To‘liqsiz gaplar bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplardan qanday farqlanadi?

6. To‘liqsiz gaplar yig‘iq gaplardan qanday farqlanadi?

7. To‘liqsiz gaplarda ko‘pincha gapning qaysi bo‘lagi tushiriladi?

8. To‘liqsiz gaplar qanday uslubiy xususiyatlarga ega?
9. Nutq jarayonida gapdan tushirib qoldirilgan bo‘lakning mazmuni qanday anglashiladi?
10. To‘liqsiz gaplar yig‘iq gaplardan qanday farqlanadi?
11. To‘liqsiz gaplarning qanday turlari farqlanadi?
12. To‘liqsiz gaplar qanday nutq ko‘rinishlarda keng qo‘llaniladi?



## UYGA VAZIFA

**Ilmiy manbalar asosida quyidagi savollarga javob yozing:**

1. Mustaqil qo‘llanuvchi to‘liqsiz gaplar bilan mustaqil **qo‘llana** olmaydigan to‘liqsiz gaplarning umumiy va farqli jihatlari nimadan iborat?
2. *Ellipsis* qanday hodisa? O‘zbek tilshunosligida *ellipsis* **hodisasi** qaysi tilshunos olim tomonidan maxsus o‘rganilgan?
3. Sh.Rahmatullayev nima uchun *to‘liqsiz gap* termini o‘rniga **noto‘liq jumla** terminini qo‘llashni tavsiya qilgan? (Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 383.)
4. Nutqda amal qiluvchi tejash va ortiqchalik tamoyillari **haqida** nazariy ma’lumot yozing.

## QO'SHMA GAP HAQIDAGI SINTAKTIK NAZARIYALAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O’qituvchingiz bergen qo’shimcha ma’lumotlarni 3-uştunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo’shimcha ma’lumotlar
<i>Qo’shma gap</i>		
<i>Ikki komponentli qo’shma gap</i>		
<i>Ko’p komponenili (murakkab) qo’shma gap</i>		
<i>Bog’langan qo’shma gap</i>		
<i>Ergashgan qo’shma gap</i>		

**2-amaliy ish.**

1. Quyidagi qo’shma gaplarning tarkibiy tuzilishini belgilang, ularning qanday sodda gapdan tashkil topganligini aniqlang.

2. “Qo’shma gaplarning sodda gaplardan farqi” mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. *O’g’lim keldi va to’yni boshlab yubordik* (O.Yoqubov). 2. *U har uch qadamda bir to’xtab, nafasini rostlab - rostlab tepaga zo’rg’a yetdi, qopni ag’dardi- yu, muvozanatini saqlay olmay o’tirib qoldi* (O.Yoqubov). 3. *Oyqiz dadasi bilan bekatga bormoqchi bo’ldi va front uchun yig’ilgan sovg’a-salomlar ortilgan eshelonni o’z ko’zi bilan ko’rmoqchi edi* (Sh.Rashidov). 4. *To’satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ergashev paydo bo’ldi* (O.Yoqubov). 5. *Ehtimol, bu boshqalarga to’g’ri kelar, ammo men bunday qilolmayman* (O’.Umarbekov).

**3-amaliy ish.**

1. Matndan qo’shma gaplarni ajrating va an’anaviy tasnif asosidagi turlarini belgilang.

2. Ushbu qo'shma gaplarning qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlung.

### Hikoyat

*Luqmoni hakim yo'lda borayotsalar, bir uydan nola eshitilibdi. Kirsalar, xasta odam og'riqqa chidayolmay dod der emish. Tabiblar kelib, uni bugun-erta o'ladi, deyishibdi ekan.*

*Luqmoni hakim xastaning bilak tomirini ushlab ko'rib debdilarki: "Dardingizga davo bor. Ilon zahri sizga shifo bergay".*

*Xasta debdiki: "Ilon zahrini men qanday topay? Bir bedavo bo 'lsam... Yo meni shu ahvolda tashlab ketaverasizmi? Olloh mening zorimni eshitib, Luqmoni hakimga ro 'baro qilganida edi, u zot meni tashlamas edilar".*

*Luqmoni hakim bu nolani tinglab, aytibdilarki:*

*– Zinhor tashlamasman.*

*Xullas, hazrat Luqmoni hakim ilonzorga horib, bir yoshroq ilonni bo'g'zidan bo'g'ib turibdilar. Shunda ilon ittifoqo tilga kiribdi va debdiki: "Ey inson farzandi, sen nechun meni bo'g'ayotirsan? Ollohning menga bergen jabrlari kammi edi?"*

*– Olloh senga qanday jabrlar qildi? – deb so'rabdilar Luqmoni hakim.*

*– Meni ko'rimsiz qilib yaratdi, odamlar ko'rsalar mendan qochadilar. Meni yer tuban qilib qo'ydi, sudralib yurishga mahkum etdi. Endi sen meni bo'g'ib, jonimni olarsanmi?*

*Luqmoni hakim debdilar: "Shunday qilmasam bir odam hayotdan ko'z yumar".*

*Ilon debdi: "Ajab! U odamni saqlab qolmoq uchun meni o'ldirasani? Axir u ham Ollohning bir mahluqi, men ham. Bir jonni saqlamoq uchun ikkinchisini mahv etmoq shartmi? Ey inson bolasi, sen ayt: men birovni chaqsam, mening zahrimni daf eta olasanmi?"*

*Luqmoni hakim aytibdilar: "Ha, daf eta olaman".*

*Ilon debdi: "Unda mening zahrim kuchli emas ekan. Dunyoda shunday zahar borki, sen uni zinhor daf eta olmassan!".*

*– Qanday zahar? Qora qurtniknmi? – debdilar Luqmoni hakim.*

*– E, yo'q, – debdi ilon. – Dunyoda eng kuchli zahar – odamning zahri. Bung'a davo yo'qtur. Odam odamni chaqsa, albatta, o'lim haqdir! Olloh biz – ilonlarni tuban qilib yaratdi. Ammo biz bir-birimizni chaqmaymiz. Siz – odam bolalarini yuqori qilib yaratdi, siz bir-biringizni chaqib o'ldirasiz. Sen saqlab qolmoqchi bo'layotgan xastaga mening zahrim davo emas, yanglishma. Uni o'z do'sti chaqqan. Uning zahriga*

*davo topa olmassan. Bunga hatto Luqmoni hakim ham davo topmagay. Qo'y, u o'laversin, azoblardin qutula qolsin...*



**4-amaliy ish.** Jadvalni to'ldiring. Jadvaldag'i qaydlaringiz asosida "Qo'shma gaplar tasnifi" masalasiga oid nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

Qo'shma gaplarning tasnifi			
M.Asqarova tasnifi	G'.Abdurahmonov tasnifi	R.Sayfullayeva tasnifi	N.Mahmudov tasnifi

### **5-amaliy ish.**

- Quyidagi qo'shma gap tuzilishidagi o'zbek maqollarini davom ettiring. Qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra turini belgilang.
- Ushbu maqollarda tinish belgilarining qo'llanish sababini izohlang.

**1-variant.** 1. *Siylagani puling bo'lmasa...* 2. *Yomg'ir bilan yer ko'karar...* 3 *Bilim – kuchda ...* 4. *Ilm – yorugiik ...* 5. *Onangni kaftingda tutsang ...* 6. *Bog'ingni zog'dan saqlamoqchi bo'lsang.* 7. *Sen o'zingni maqtama...* 8. *Daraxt ildizi bilan kuchli...* 9. *Novvoyga non aziz...*

**2-variant.** 1. *Ter to'kib mehnat qilsang...* 2. *Oxir zamon bo'lsa ...* 3. *Telbaga tilmoch kerak emas ...* 4. *Oyoq kiyiming tor bo'lsa ...* 5. *Bekorchining beti yo'q ...* 6. *Chin do'st boringni oshirar...* 7. *Mehnatni hurmatlasak...* 8. *Yiqilganda bo'lmasa tirak...* 9. *Yer – don...*

**3-variant.** 1. *Bor maqtansa topilur ...* 2. *To'g'ri yurdim yetdim murodga ...* 3. *Gado arazlasa ...* 4. *Kam gapirsang ...* 5. *Odam mehnatini yoysa ...* 6. *Odam bahosizdir, ammo...* 7. *Mehnat orom berib uxlatadi, kamchilik esa...* 8. *Mard maydonda bilinadi...* 9. *Tilingni asragin...*

## **6-amaliy ish.**

Qo'shma gaplarning formai-funksional yo'nalishda belgilangan [AK<sub>k</sub>, AK<sub>k</sub>], [AK<sub>k</sub>→AK<sub>k</sub>], [AK<sub>k</sub>↔AK<sub>k</sub>] sintaktik modellariga muvofiq gaplar tuzing va ularning semantik tuzilishini izohlang.

## **7-amaliy ish.**

1. Matnni undagi sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib ko'chiring.

2. Sodda va qo'shma gaplarning umumiy va farqli xususiyatlari haqida ilmiy xulosa yozing.

*Mahkam aka bilan Mehrinisa tramvaydan tushishganda vokzal maydoni odamlar bilan to'la edi. Oppoq soqolli qariyalar, ishxonadan yoxud uy-ro'zg'or yumushini tashlab, to'g'ri kelavergan ayollar turishibdi. Yosh-yalanglar kam uchraydi. Bolalarning ko'prog'i qizlar, ba'zilari qo'llariga qizil tang'ib, yelib-yugurib yurishibdi, ular oq xalat kiygan meditsina xodimlari yoniga borishar, allanimalarni yozib olishar, mashina, aravalarni ko'zdan kechirishardi. To'planganlarning ko'plari poyezd kelishini ana shu qizlardan so'rashar, ular yelkalarini qisib aniq javob berishmasdi. Har qayer, har qayerga o'rnatilgan radio karnaylari poyezdning kechikishini ketma-ket e'lon qildi, shunga qaramay, hech kim joyidan jilmasdi. Kelsa kelyaptiki, qaytib ketayotganlar ko'rinxaydi. Odamlar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ortiqcha g'ovur-g'uvur, shovqin-suron sezilmash, ular bamisol pichirlashib gaplashardi. Ba'ziba'zida maydonning chap tomonida to'plangan soldatlar chalgan garmon sadosi maydon uzra yangrab qolardi yoki saf tortib kirib kelgan harbiylarning "Muqaddas urush" degan qo'shig'i hamma yoqni titratib yuborar, badanlar jimirlab ketardi (R. Fayziy).*



## **8-amaliy ish.**

**"Bu meniki!"** grammatik o'yini asosida "*Sodda gaplar*" va "*Qo'shma gaplar*" guruqlariga bo'lining. A.Muxtorning "Chinor" pomanidan olingan quyidagi parchadan o'zingizga tegishli gaplarni ajratib oling.

*Akbarali endi hech narsaga hayron bo 'lmaydigan bo 'lib qolgan. Hayron bo 'lish, o 'ylash qobiliyatini yo 'qotgan, bir mo 'jiza yuz berib, otasi bilan onasi tirilib kelib, hozir ro 'parasida paydo bo 'lsa ham, hayratda qolmas edi chog'i. U bir qo 'li bilan xarsangga suyangancha qotib qoldi, ko 'zi tindi. Anchadan keyin zarhal harflar ko 'z o 'ngida yana paydo bo 'ldi: "A-k-b-a... Akbarali G 'oziyev... halok bo 'ldi".*

*U yana ko 'zini yumdi. Miyasining qaysi bir burchidadir kichkinagina umid, bir o 'y sarg 'aygan bargday zo 'rg 'a ilinib, qiltillab turar edi: "Ko 'zimga ko 'rinyapti, hozir ko 'z ochaman-u mening otim o 'rnida Bektemir akaning oti paydo bo 'ladi!"*

*Yo 'q, yana o 'zining oti paydo bo 'ldi. U harflarni paypaslab ko 'rdi, ularni qaltiroq barmoqlari bilan qo 'porib tashlashga ham urindi. Tilla rang harflar tovlanib turardi. Keyin Akbarali tars yorilib ketayotgan chakkasini ushladi. Shu payt barmoqlariga boqsa - qon, tirnog 'i qayrilib ketibdi.*

*Qon yuqini ko 'rib, hushi yorishgandek bo 'ldi, bu qon allanimalarni esiga soldi. Qon, zax... qorong 'i shtreklar. Dahshatli shovqin, achchiq yovvoyi tovush, ingrash... ●*

*Akbarali qonli barmog 'iga yana qarab, talpindi, qochmoqchi bo 'ldi, keyin bo 'shashib to 'xtadi: "Axir bu Bektemir aka-ku! Bektemir aka halok bo 'ldi! Odamlarni deb... majaqlanib ketdi!"*

### **9-amaliy ish.**

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Hozirgi o 'zbek adabiy tili" darsligida (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o 'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010. 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**178-mashq.** O'qing. Har bir qo 'shma gap necha sodda gap (qism)dan iboratligini va ularni o 'zaro bog 'lovchi vositalarni ayting.

### **Go 'zallik talqinlari**

*Insonning aziz-u mukarram qilib yaratilgani ayon haqiqat va uning murakkab, tushunarsiz mavjudot ekanligi ham sir emas. Shu sababli bani bashar o 'z hayotida ko 'p qoqinadi, aksar yaxshilig-u yomonliklar ichida surinadi. Mirzakalon Ismoiliy bu nozik masalalar tegrasida nazokat va tabiiylik bilan qalam tebratadi. Binobarin, inson Olloh tomonidan yaratilgan jamiki suvrat-u siyratlarning mukammali ekan, u shunga*

*monand ravishda fe'l-atvorga, go'zallikka ega bo'lmog'i lozim, lekin yo'zallik deganda nimani tushunamiz? Shahlo ko'zlar, tiniq chehra-yu ta'llablar mutanosibligimi? Yoki chiroyli kiyim-bosh, qimmatbaho tajinchoq-u bezaklarnimi? Menimcha, go'zallikning o'z qonunlari, qoliplari bor. Yuqorida sanalgan narsalar bilan «chiroyli odam» bo'lish mumkin, lekin «go'zal inson» bo'lish uchun esa uni odamiylik fazilatlari to'ldirishi kerak. «Go'zallik ham bamisoli daraxt. Yaprog'i – axloq, ildizi ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat. Xulosa qilib aytganda, odam bolasidagi go'zallik tabiat ato qilgan husn-jamoldan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odumiylikdan iboratdir. Mana shunda go'zallik insonga husn beradi. Bu xil go'zallik yaproqlarsiz, ildizlarsiz qurishi muqarrar bo'lgan daraxtga strasira o'xshamaydi, qurimaydigan, o'lmaydigan, boqiy go'zallikdir, – deydi M. Ismoiliy.*

(“Sanam” jurnali)



**9-amaliy ish.** Egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qaysi tilshunos olimlarning qo'shma gap tadqiqiga oid ilmiy ishlarini bilasiz?
2. Qo'shma gaplar sodda gaplardan qanday belgilari asosida farqlanadi?
3. O'zbek tilida qaysi grammatik vositalar qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi?
4. Qo'shma gaplarning qaysi turlarida bir-birini taqozo etuvchi havola bo'laklar qo'llanadi?
5. O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar qaysi yo'nalishda tadqiq etildi?
6. Formal-funksional yo'nalishda qo'shma gaplarning qanday qurilish modellari belgilandi?
7. Qo'shma gaplarning qaysi turlarida vazifadosh bog'lovchilar qismlarni bog'lab keladi?
8. Bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar qanday umumiy belgilarga ega?
9. Qo'shma gaplarning an'anaviy tasnifida asosiy e'tibor qanday belgilarga qaratiladi?

10. Qo'shma gaplarning formal-funksional yo'nalishdagi tadqiqida asosiy e'tibor nimalarga qaratildi?
11. Bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar qanday farqli belgilarga ega?
12. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan va ergashgan qo'shma gaplardan qanday farqlanadi?



### UYGA VAZIFA

1. Quyidagi savollarga javob yozing, javobingizni daliliy misollar orqali asoslab bering:
  - a) qo'shma gaplar sodda gaplardan qanday belgilari asosida farqlanadi?
  - b) qanday gaplar sodda va qo'shma gaplar oralig'idan o'rinn oladi?
  - c) formal-funksional yo'nalishda belgilangan qo'shma gaplarning qurilish modellari qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi? Undagi ramziy ifodalarga izoh bering;
  - d) o'zbek tilshunos olimlari: M.Asqarova, G'Abdurahmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayevalar o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni qaysi jihatdan o'rgandilar?
2. Qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqida ilmiy axborot yozing.
3. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlarga o'z munosabatingizni yozma tarzda bayon qiling.

### BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O'qituvchingiz bergen qo'shimcha ma'lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1 Tushunchalar	2 Izohi	3 Qo'shimcha ma'lumotlar
Bog'langan qo'shma gap		
Bog'lovchi vositalar		

Birkutuv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap		
Yillov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap		
Aytruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap		
Tukor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap		

### 1-amaliy ish.

- “Ota rozi – xudo rozi” mavzusida kichik ma'rifiy matn tuzing. Matnda bog'langan qo'shma gaplardan foydalaning.
- Matnda qo'llangan bog'langan qo'shma gaplarga sintaktik tuzilishi jihatidan tavsif bering.



**2-amaliy ish.** Jadvalni to'ldiring. Jadvaldag'i qaydlaringiz asosida “Bog'langan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi” musalasiga oid xulosalariningizni umumlashtiring.

Nr	Bog'langan qo'shma gaplarda mazmuniy munosabat turlari

**3-amaliy ish.** Bog'langan qo'shma gaplarni aniqlab, sintaktik tahlil qiling. Sintaktik tahlil natijalari asosida bog'langan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqida ma'lumot bering.

**1-variant.** 1. *Uning na Ko'lobda uy-joyi bor, na bu yerda oyoq bosadigan joyi* (S.Ahmad). 2. *Biroq, har gal ham bu savol javobsiz qolardi-yu, Po'lat yosh boladay qizarib ketardi...* (Sh.Rashidov). 3. *Ishlarim yurishib ketganda, kim biladi, rasmim gazetalarda bosilib chiqarmidi?* (X.To'xtaboyev) 4. *Lekin ekspeditsiya unumli bo'lsa, qimmatbaho buyumlar chiqsa, unda yordam berasizlar* (O'.Umarbekov).

**2-variant.** 1. *Eshikka yopirilayotganlar taqa-taq to'xtadi, hamma ularga tajjublanib tikildi* (P. Qodirov). 2. *Mening dam bezgagim xuruj qiladi, dam isitma suyagimgacha yondiradi* (Oybek). 3. *Sizga yalinamanki, o'z bolangizday, balki undan ham ortiq sevib parvarish qilinglar* (Oybek).

4. *Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi* (Oybek).


**3-variant.** 1. *Berilgan umrdan shunday foydalanki, keyin pushaymon bo'lma* (S. Karomatov). 2. *Qattiq shamoldan dam chimlar bamisoli qirg'ovulday uchib tushadi, dam bir oz namiqqa yerning tuprog'i palaxsa-palaxsa bo'lib ko'tariladi* (A.Qahhor). 3. *Men 287, xotinim 123 mehnat kuni ishlabmiz* (G'. G'ulom). 4. *Shu payt ko'cha eshigi ochildi-yu, Zunnunxo ja halloslaganicha kirib keldi* (A.Qahhor).

### Sintaktik tahlil tartibi:

1. Bog'langan qo'shma gap qismlarining grammatik asosi aniqlanadi.
2. Bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalar aniqlanadi.
3. Bog'langan qo'shma gapdagi tenglanish turi aniqlanadi (ochiq yoki yopiq tenglanish).
4. Bog'langan qo'shma gap qismlari pozitsiyasi aniqlanadi (erkin yoki turg'un pozitsiyali).
5. Tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishga ko'ra bog'langan qo'shma gap turi aniqlanadi (biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar).
6. Bog'langan qo'shma gap qismlarining semantik munosabati aniqlanadi.
7. Bog'langan qo'shma gap qismlarining bog'lanish chizmasi ko'rsatiladi.



**4-amaliy ish.** Slayd kataklarini to'ldiring. Slayd qaydlari asosida bog'langan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqidagi ilmiy axborot yozing.



**5- amaliy ish.** Matndagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra tasniflang. Sodda gaplarni bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantirib ko‘chiring. Matndagi gaplar misolida bog‘langan qo‘shma gaplarning sintaktik tuzilishi haqida ilmiy xulosa yozing.

*Zebi tutga suyangan, o‘zining qayda turganini unutayozgan, shuncha gapga bir og‘iz javob bermasdan og‘ir o‘ylarga tolgan edi. U shu topda o‘zining yaqin kedlajakdag‘i qora kunlarini, qay rangda ko‘rinishi ma’lum bo‘limgan baxti, toleyini o‘ylardi. Uning butun vaqtini Razzoq so‘fining johil vujudiga bog‘liq emasmi? O‘scha sovuq so‘fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og‘iz “ha” yoki “yo‘q” deyishi qiz bechoraning behad quvnab yavrashiga yoxud xazon yaprog‘iday bir nafasda so‘lib nobud bo‘luviga yaramaydimi? Qiz sho‘rlik, u bir umr qovog‘i o‘yig‘liq va yuzi kulmas otadan hech bir xayriyat kutmaydi. Otasi to‘g‘risida o‘ylagan vaqtida o‘zini o‘limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko‘radi. . . va titraydi! Bu qishloq sayohati aravakash yigitcha bilan tasodifan tanishib qolishi, shu tanishuv orqasida ko‘nglida sezgani besaronjomlik bechora qizni haligidek qora o‘ylarni o‘ylashga majbur qilgan edi (Cho‘pon).*

**6-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**183-mashq.** O‘qing, qismlari biriktiruvchi bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplarni topib, ularni bir paytda yoki ketma-ket yuz bergen voqeа, hodisa, harakatni ifodalovchi qo‘shma gaplarga ajrating. Matnni ko‘chirib, ulardagi bog‘lovchi vositalarning tagiga chizing.

1. *U har uch qadamda bir to‘xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo ‘rg‘a yetdi, qopni ag ‘dardi-yu, muvozanatini saqlay olmay o‘tirib qoldi.*
2. *Mashrab vafosizlik to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qisa, yo erkaklar og ‘zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadiyu, butun vujudi isyon ko‘taradi, bunday gaplarning birontasiga ishonmaydi.* 3. *Gulchehra «piq» etib kului-da, cho‘zilib tugunni oldi.*
4. *Shu bilan maslahat tugadiyu, byuro boshlanish bilan birinchi bo‘lib Ertoyev so‘zga chiqdi.* 5. *Mashhur qora qashqa ayg‘irining chilvirini xirmondagи bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.* 6. *To‘satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo‘ldi.* 7. *Inobat qizishib ketib, pisandaga o‘tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi.*

(O.Yoqubov)



**6- amaliy ish.** Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali sinab ko‘ring.

1. An’anaviy sintaksisda bog‘langan qo‘shma gaplar qanday turlarga bo‘lib o‘rganildi?
2. Biriktiruv munosabatlari bog‘langan qo‘shma gaplar qanday tuziladi?
3. Zidlov munosabatlari bog‘langan qo‘shma gaplar qanday tuziladi?
4. Ayiruv munosabatlari bog‘langan qo‘shma gaplar qanday sintaktik tuzilishga ega bo‘ladi?
5. Formal-funksional yo‘nalishda teng tarkibli qo‘shma gaplarga qanday gaplar kiritildi?
6. Bog‘langan qo‘shma gaplarda qanday mazmun munosabati shakllanadi?

7. Bog‘langan qo‘shma gaplarning qismlari qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi?
8. Bog‘langan qo‘shma gaplarda qanday hollarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik yuzaga keladi?
9. Qaysi o‘zbek tilshunosi bog‘langan qo‘shma gaplarning semantik tuzilishini o‘rgandi?
10. Bog‘langan qo‘shma gaplarning qaysi turida vazifadosh bog‘lovchilar qismlarni bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi?
11. Inkor bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplarda qanday mazmuniy munosabat ifodalanadi?
12. Ayiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplarda qanday mazmuniy munosabat ifodalanadi?



## UYGA VAZIFA

1. Badiiy asarlardan bog‘langan qo‘shma gaplarga 10 ta misol topib ko‘chiring va ularni tasniflang.
2. “Bog‘langan qo‘shma gaplarning turlari” masalasiga munosabatin-gizni yozma tarzda bayon qiling.
3. Badiiy asarlardan ayiruv munosabatini ifodalovchi 8 ta bog‘langan qo‘shma gap topib ko‘chiring va sintaktik tahlil qiling.
4. “Bog‘langan qo‘shma gaplarning mazmuniy tuzilishi” mavzusida ilmiy axborot yozing.

# ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

## Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar



**1-amaliy ish.** Jadvalni to'ldiring. Jadvaldagi qaydlaringiz asosida "Ergashgan qo'shma gaplar tasnifi" masalasiga oid nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

No	Ergashgan qo'shma gaplarning an'anaviy tasnifi	Ergashgan qo'shma gaplarning havola bo'laklar ishtirokiga ko'ra tasnifi	Tobe tarkibli qo'shma gaplarning formal-funksional yo'nalishdagi tasnifi

## 2-amaliy ish.

1. Berilgan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplarning qaysi turiga kirishini aniqlang.
2. Bosh va ergash gapni belgilab, gapning yuza qurilish chizmasini chizing hamda qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni namunadagi kabi ko'rsating.

**NAMUNA:** *Aliyev shu xayoli bilan odamlar haqida noto'g'ri o'ylayotganini bilsa ham, o'zini alam va jahldan tiyolmasdi.* (O'.Umarbekov) – to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.

**-sa + ham vositasida bog'langan**



**1-variant.** 1. *Havo ancha yumshagan bo'lsa ham, tog'da hali qor qolim edi* (P. Qodirov). 2. *Kimki odob o'rgatsa, uni o'rganmagan kishi hayvon; uzr so'rasha, qabul qilmagan kishi shaytondir* ("Hadis"dan). 3. *Onasi qancha qistasa-da, u ovqatga o'tirmadi* (O'.Hoshimov). 4. *Kimki taqdırğa tan bersa, u hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi* (O.Yoqubov). 5. *Qızıg'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi* (F.Musajonov).

**2-variant.** 1. *Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o'zga xalqlar ibrat ola bilsinlar* (Oybek). 2. *Saidiyning e'tibori qancha ortsa, daromadi ham shuncha orta bordi.* (A.Qahhor). 3. *Chiqsam, soch qo'ygan, ingichka mo'ylovli bir yigit turibdi* (S.Ahmad). 4. *Sening yuraging guli qayda ochilur bo'lsa, bulbuli shunda sayrar* (H.Hakimzoda). 5. *Qachon bolalari kelsa, o'shanda kampirning uyi to'ladi* (S.Ahmad).

**3-variant.** 1. *Olimlarning kuzatishicha, er-xotin qancha kam gaplashsa, oila shuncha mustahkam bo'lar ekan* (O'.Hoshimov). 2. *Qaysi yurida non arzon bo'lsa, o'sha yerga ko'chib yuradigan odamda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi* (O'.Hoshimov). 3. *Qayerda aytadigan gapingiz bo'lsa, shu yerda gapiravering* (S.Ahmad). 4. *Qanday yetib borgan bo'lsangiz, shunday qayting* (A.Muxtor). 5. *Men yig'lasam, u xo'mrayadi* (O'.Hoshimov).



### 3-amaliy ish.

1. Bilimingizni nostandard test orqali sinab ko'ring. 4-ustundagi havola bo'lakli qo'shma gaplarning turini aniqlang va javobingizni raqamlar orqali belgilang.

	Qo'shma gap turi	Javob	Misol
1.	Kesim ergash gapli qo'shma gap		<i>Kimning quroli ilm bo'lsa, uning yo'li bexavotir.</i>
2.	Ega ergash gapli qo'shma gap		<i>Shuni aytish kerakki, odamning taftini odam oladi.</i>
3.	Hol ergash gapli qo'shma gap		<i>Mening xulosam siuki, u o'z xatosini anglab yetmabdi.</i>
4.	To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap		<i>Katta karvon qayerdan yursa, kichik karvon ham shu yerdan yuradi.</i>
5.	Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap		<i>Kimki do'stilarini qadrlasa, u albatta qadrlanadi.</i>

## HAVOLA BO'LAKLI QO'SHMA GAPLAR

### **1-amaliy ish.**

1. O'zbek tilshunosligida "Qo'shma gaplarda shakl va mazmun munosabati" masalasi yuzasidan bildirilgan qarashlarga munosabat bildiring.

2. Egallagan bilimlaringiz asosida mustaqil tarzda "Havola bo'lakli qo'shma gaplarda semantik-sintaktik nomuvofiqlik" mavzusida ilmiy axborot yozing.

### **2-amaliy ish.**

1. Quyida berilgan shakllarga mos gaplar tuzing. Bosh va ergash gapda bir-birini taqozo etuvchi havola bo'laklarni belgilang.

2. Tuzgan gaplaringiz asosida havola bo'lakli qo'shma gaplarning sintaktik tuzilishi haqida xulosa yozing.

#### **1-variant.**

1. *Kimki ... ...-sa, unga ... ...-di.*
2. *Qayerda ... ...-sa, o'sha yerda ... ...-di.*
3. *Qanday ... ...-sa, o'shanday ... ...-di.*
4. *Qancha ... ...-sa, shuncha ... ...-di.*

#### **2-variant.**

1. *Kim ... ...-sa, u ... ... -di.*
2. *Qanchalik ... ...-sa, shunchalik ... ...-di.*
3. *Kim ... ...-sa, uni ... ...-di.*
4. *Kimga ... ...-sa, o'shangan ... ...-di.*

#### **3-variant.**

1. *Kim ... ...-sa, uning ... ...-di.*
2. *Qaysi ... ...-sa, o'sha ... ...-di.*
3. *Kimdakim ... ...-sa, uning ... ...-di.*
4. *Qaysi ... ...-sa, o'sha ... ...-di.*

### **3-amaliy ish.**

1. Quyidagi sodda gaplarni havola bo'lakli qo'shma gaplarga aylantiring.

2. Tuzgan gaplaringiz asosida havola bo‘lakli va havola bo‘laksiz qo‘shma gaplarning umumiy va farqli jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

1. *Himmati baland kishining qadr-qimmati baland bo‘ladi.*

2. *Qashshoqlikning sababi dangasalik ekanligini unutmang.*


3. *Hayotga xo‘mrayib qaragan kishiga hayot ham zarda bilan qaraydi.*

4. *Kun kelib yurtimiz dunyodagi eng rivojlangan mamlakatga aylanadi.*



#### 4-amaliy ish.

1. Slayd kataklarini to‘ldiring.
2. Slayddagi qaydlaringiz asosida “Havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning turlari” masalasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtiring.



#### 5-amaliy ish.

1. S.Ahmad va O‘.Hoshimov asarlaridan olingan ushbu qo‘shma gaplarni havola bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra tasniflang.

2. Tahlillaringiz asosida “Qo‘shma gaplarning havola bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra turlari” mavzusida ilmiy axborot yozing.

**1-variant.** 1. *Xonangiz qanday tashlab ketgan bo‘lsangiz, shunday turibdi* (S.Ahmad). 2. *Boshqa soha odami suhbatga aralashib qoldimi,*

*albatta, qancha pul olishini so 'raydi (S.Ahmad). 3. U qancha ko 'p yursa, shuncha tez charchab qolardi (S.Ahmad). 4. Mashina kelsa, chamadonni tashlab qo 'yadi (S.Ahmad).*

**2-variant.** 1. *Bir sayyoh qaysi yurtga borsa, avval bozorini, keyin mozorini aylanar ekan* (O'.Hoshimov). 2. *Qattiqroq yomg 'ir yog 'sa, balchiqqa aylanib ketadi-yov* (O'.Hoshimov). 3. *Esini tanibdiki, odam bo 'lsam, nimadir yaxshi ish qilsam, deydi* (O'.Hoshimov). 4. *Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko 'p da 'vo qilsa, shuncha nodon bo 'ladi* (O'.Hoshimov).

**6-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010. 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**215-mashq.** Hikmatlarni o'qing. Sodda gaplarni havola bo'lakli yo'shma gapga aylantiring. Havola bo'lakli gaplarni esa o'z holicha ko'chiring.

### Beruniy hikmatlari

□ *Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, o'zidagi bor nuqsonlarni yo 'q qilib, ularni yaxshi sifatlarga aylantira oladi.*

□ *Qayerda tenglik hukm sursa, u joyda sotqinlik, aldamchilik, g'am-g'ussa bo 'lmaydi.*

□ *Bilimsiz kishilarining ko 'ngli xurofotga moyil bo 'ladi.*

□ *Ne 'matning qadri u yo 'qolgandan keyingga bilinadi.*

□ *Har bir insonning qadr-qimmati uning o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir.*

□ *Har bir yangi narsada lazzat bor.*

□ *Ulug ' hodisalar hamma vaqt ham yuz beravermaydi.*

□ *O'zi yaxshi bilmagan ishga uringan odam sharmanda bo 'ladi.*

□ *Men o'zimdan oldin o'tganlarning xizmatlarini mammuniyat bilan uqib oldim va ularning nuqsonlarini (mabodo shunday topilsa) tortinmay tuzatishga tirishdim. Davrimizga kech qolganlar va keyinroq bunyodga keladiganlar uchun muhim va namuna bo 'ladigan ishlarni abadiylashtirishga tirishdim. Har bir shaxs o'z sohasida shunday qilmog'i lozim.*

 Odil podshohning asosiy vazifasi – oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iborat.

 7-amaliy ish. Egallagan bilimingizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. O'zbek tilshunosligida havola bo'lakli qo'shma gaplar qanday timoyillar asosida tasniflanadi?
2. Bir havola bo'lakli va ikki havola bo'lakli qo'shma gaplar o'zaro qanday farqlanadi?
3. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turlarida havola bo'laklar qo'llanadi?
4. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turlarida ikki havola bo'lak ishtirok etadi?
5. Qaysi o'zbek tilshunosi qo'shma gaplarni havola bo'laklar ishtirokiga ko'ra tasniflab o'rgangan?



## UYGA VAZIFA

1. O'zbek xalq maqollaridan havola bo'lakli qo'shma gaplarga 10 ta misol topib ko'chiring va ularni havola bo'laklar ishtirokiga ko'ra tasniflang.
2. "Ergashgan qo'shma gaplarning tasnifi" masalasiga munosabatingizni yozma tarzda bayon qiling.
3. Badiiy asarlardan 8 ta ikki havola bo'lakli qo'shma gap topib ko'chiring. Ularni sintaktik tahlil qiling.
4. "Ergashgan qo'shma gaplarda havola bo'laklarning qo'llanishi" mavzusida ilmiy axborot yozing.

## **ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING TURLARI**

### **Ega ergash gapli qo'shma gap**

**1-amaliy ish.** Quyidagi gaplarni to'ldiring. Qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gap qismilarni ajrating.

1. *Kim o'z mehnatini qadrlasa, .....*
2. *Shu narsa ma'lumki, .....*
3. ...., u albatta manziliga yetadi.
4. *Menga shunisi yoqdiki, .....*
5. ...., shu uning diqqatini tortdi.
6. ...., o'shanisi mohir jangchiga o'xshadi.

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplar ichidan ega ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. *Menga uning asarlaridagi shu ma'qulki, uning qahramonlari samimiylar va sodda odamlar.*
2. *Kimki erta tongda yaxshi niyat ila uyg'onса, niyatiga yetadi.*
3. *Aytish mumkinki, qiz dastlab kitobni vaqt o'tkazish uchun o'qiyotgan bo'lsa, borib-borib haya jonga tushdi.*
4. *Kim ishda fidoiylik ko'rsatsa, rahbariyat tomonidan taqdirlanadi.*
5. *U negadir javob berishga qiynalayotgandek edi, bu holat tergovchining undan ham shubhalanishiga turtki bo'ldi.*
6. *Yodingizda yo'qmi, o'sha kun hamma xavotir bilan o'tirgan edi-ku.*
7. *Kim topshiriqlarni bajarmas ekan, u jazolanishi aniq.*

**3-amaliy ish.** Quyida berilgan gaplar ichidan ega ergash gapli qo'shma gaplarning formal-funksional qoliqlarini shakllantiring. Nutqimizda nofaol bo'lgan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga izoh bering.

1. *Shu esidaki, padari buzruk vori Bobur Mirzo bildirgan yuksak ishonchdan mutaassir bo'lib kipriklari namlangan.*
2. *Og'aginam, manim ahvolimki, ko'pdin supramizda urvoq ham yo'q.*
3. *Shunisi afsuslanarligi, tavalludimdan olti yilcha burun dorulbaqo safariga jo'naganlar.*
4. *Kimki kutilmagan mujdadan shodlanibdi, ul mening yaqinimdir.*
5. *Kim birovga choh qazisa, unga o'zi yiqilgusi.*
6. *Kimki ilm ne'matidan totmabdi, ul saodatdan bebahra qolibdi.*

## Kesim ergash gapli qo'shma gap

**1-amaliy ish.** Quyidagi gaplarni to'ldiring. Qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gap qismlarni ajrating.

1. Azaldan u+rf-odatimiz shundayki, .....
2. Ko 'pdan buyon rejalashtirilgan ishimiz shuki, .....

**2-amaliy ish.** Berilgan gaplar ichidan kesim ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. *Taqsimiga birinchi arz shuki, – dedi Zokir – gov, – yonimda turg'an shu baqa aftni mendan nari qilsangiz* (A.Qodiriy). 2. *Ogohlantirib qo'ymoqchimizki, yana shunday ishlar takror bo'lsa, bizning zambaraklar sizlarga qarshi otilmog'i ham mumkin* (P.Qodirov). 3. *Endi tilagimiz shuki, bizlarga javob bersalar, joyimizga tinchgina ketsak* (A.Qodiriy). 4. *Yana bir nek ishi shundayki, Moskvada, biz Kreml deb ataydigan ulug' qizil qal'a yonida Qozon fathiga bag'ishlangan muhtasham bir obida – sobor qurdirdi* (P.Qodirov). 5. *Qirolingizga shuni ma'lum qilingki, Hindiston-mustaqlil davlat, uning o'z podshosi bor* (P.Qodirov).

**3- amaliy ish.** O'zingiz mutoala qilayotgan badiiy asardan kesim ergash gaplar ishtirok etgan qo'shma gaplarni ajratib, sintaktik tahlil qiling. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqida ilmiy axborot yozing.

### Sintaktik tahlil tartibi:

1. Kesim ergash gapli qo'shma gap qismlarining grammatik asosi aniqlanadi.
2. Kesim ergash gapli qo'shma gapdagi tobelikning yo'nalishiga ko'ra sintaktik aloqa turi (koordinativ yoki subordinativ aloqa) aniqlanadi.
3. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gap ajratiladi.

4. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gapni biriktiruvchi vositalar aniqlanadi.

5. Havola bo'lak ishtirokiga ko'ra kesim ergash gapli qo'shma gapning turi (havola bo'lakli yoki havola bo'laksiz; bir havola bo'lakli yoki ikki havola bo'lakli qo'shma gap) aniqlanadi.

6. Kesim ergash gapli qo'shma gap qismlarining semantik munosabati aniqlanadi.


7. Kesim ergash gapli qo'shma gap qismlarining bog'lanish chizmasi ko'rsatiladi.


### To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

**1- amaliy ish.** Berilgan gaplar ichidan to'ldiruvchi ergash gaplarni ajraring. Ularning formal-funksional yo'nalishda belgilangan qoliplarini shakllantiring.

1. *Bilmaksi, o'sha lashkar hech qachon bunga imkon bermas* (A.Dilmurod). 2. *Qarasaki, anchagina epaqaga kelib qolgan hovuz girdida, tuproq uyumida xayoliy bir farishta yanglig'* Zulfizar jilmayib turibdi (A.Dilmurod). 3. *Men ham aytdim-ku, xon o'zi laqma emish, deb* (A.Qodiriy). 4. *Shunda ularning o'zaro gaplaridan tushundimki, Adanda hazrat ammangizni sizga qarshi qo'zg'atmoqchi bo'lgan kuchlar orasida portugallar ham bor ekan* (P.Qodirov). 5. *Biz uch yil Akbar saroyida yurib shunga amin bo'ldikki, hozir butun Sharqni larzaga solayotgan to'rtta eng zo'r davlat turkiy sulolalar qo'lidadir* (P.Qodirov). 6. *Biladiki, bu ayblar Akbar hukmronligining ildiziga uriladigan boltaning ishini qiladi* (P.Qodirov). 7. *Istaydiki, men ham faqat uni deyin* (P.Qodirov).

**2-amaliy ish.** Berilgan chizmalarga muvofiq keluvchi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar tuzing.





**3-amaliy ish.** *Bilim va bilimsizlik* so‘zlariga «Sinkveyn» (beshlik) metodi orqali tavsif bering.


Bilim
1. So‘zning morfologik shakllari
2. Shu so‘z bilan bog‘lanuvchi tavsifiy xarakterdagi 2 ta sifat
3. Shu so‘z bilan grammatick bog‘lanuvchi, uni semantik jihatdan tavsiflovchi 3 ta fe’l
4. Shu so‘z ifoda etgan predmetga ta’rif beruvchi 4 ta so‘z ishtirokidagi gap (gapda yuqorida keltirilgan so‘zlar ishtirok etmasligi lozim)
5. Shu so‘zning ma’nodoshi

### Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap

**1-amaliy ish.** Berilgan aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar tarbikidagi bosh va ergash gaplarni ajrating. Ularni bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

1. *Og 'aginam, manim ahvolimki, ko 'pdin supramizda urvoq ham yo 'q* (A.Dilmurod). 2. *Lekin hozir shunday xulosaga keldikkim, qilich bilan odamlarning dilini yaralab erishilgan g'alaqa bebaqo ekan* (P.Qodirov). 3. *Ruslar shunday el ekanki, bobomizning bu xayrli ishini unutmasdan, nomini o 'z odamlariga qo 'yibdirlar, qishloqlarini Baburino deb atabdirlar* (P.Qodirov). 4. *Shunday berilib ishladiki, go 'yo Bo 'tako 'zda uning o 'zidan boshqa kimsa, uning cho 'ntagidan boshqa hayot yo 'qday* (I.Rahim).

**2-amaliy ish.** Berilgan chizmalarga muvofiq keluvchi aniqlovchi ergash gapli qo 'shma gaplar tuzing.



**3-amaliy ish.** Quyidagi gaplarni to 'ldiring. Qo 'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gap qismlarni ajrating.

1. *Kimning ko 'ngli to 'g 'ri bo 'lsa, .....*
2. *Shunday kishilar borki, .....*
3. *....., uning har bir qismi to 'g 'ri va aniq ishlaydi.*
4. *....., ularning mehnatini qadrlamay bo 'lmaydi.*
5. *Dunyoda shunaqa insonlar bo 'ladiki, .....*
6. *Atrofda shunday noxushliklar borki, .....*

**4-amaliy ish.** Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o 'zbek tili» darsligida (-Toshkent: Universitet, 2006) aniqlovchi ergash gapli qo 'shma gapga berilgan «Sifatlovchi ergash qismli qo 'shma gapshakl» terminiga hamda olimning «Sifatlovchi ergash qismli qo 'shma gapshakllarda ergash qism bosh gapshakl tarkibidagi sifatlovchini aniqlashtiradi. Bunday sifatlovchi turli sintaktik vazifada kelgan ot, sifat leksemalarga bog 'langan bo 'ladi» fikriga munosabat bildiring.

## Hol ergash gapli qo'shma gaplar

I-amaliy ish. X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan olingan parchalardan hol ergash gaplar ishtirok etgan qo'shma gaplarni ajratib, sintaktik tahlil qiling. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqida ilmiy axborot yozing.

### Sintaktik tahlil tartibi:

1. Hol ergash gapli qo'shma gap qismlarining grammatik asosi aniqlanadi.
2. Hol ergash gapli qo'shma gapdagi tobeklikning yo'nalishiga ko'ra sintaktik aloqa turi (koordinativ yoki subordinativ aloqa) aniqlanadi.
3. Hol ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gap ajratiladi.
4. Hol ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gapni birliktiruvchi vositalar aniqlanadi.
5. Hol ergash gapli qo'shma gapning turi aniqlanadi (payt, o'rin, subbab, maqsad va h.k. ergash gapli qo'shma gaplar).
6. Havola bo'lak ishtirokiga ko'ra hol ergash gapli qo'shma gapning turi (havola bo'lakli yoki havola bo'laksiz; bir havola bo'lakli yoki ikki havola bo'lakli qo'shma gap) aniqlanadi.
7. Hol ergash gapli qo'shma gap qismlarining semantik munosabati aniqlanadi.
8. Hol ergash gapli qo'shma gap qismlarining bog'lanish chizmasi ko'rsatiladi.

*Xatni yuborgan kunim ertasiga ikkinchi brigada yerlarini aylanib, nima qilishni, kimga qanaqa buyruq berishni bilmay, xunobim oshib yurgan edim. Rahbar bo'lsang-u, hech kimga hech qanday buyruq bera olmasang, bundan ham xunugi bo'lmas ekan. Demak, deyman o'zimga o'zim, qishlog'imizdagi savodsiz agronom Anorboy tog'a shuning uchun ham bo'lar-bo'lmasga baqiraverar ekan-da. Ko'p baqirsang, yomon ishlayotganing ham bilinmas ekan. Baqiroqlarning hammasi ham menga o'xshab bilimsiz, sehrgarlik bilan rahbar bo'lgan ekan-da, deb o'ylayman-u. ishlab turgan kishilarning yoniga borib bo'lar-bo'lmasga baqiraman,*

*shovqin solaman. Lekin bugun kimga, nima deb baqirishni bilmay garang edim.*

*Imillashning payti emas edi. Biron donoroq maslahat bermasam, bu yerda ham to 'rtinchi brigadadagiga o 'xshab obro 'yim bir pul bo 'lib qolishi mumkin. Lekin nima desam ekan?*

- *Bargiga tushibdimi? – deb so 'radim gap orasida.*
- *Bargiga tushmay, poyasiga tusharmidi? – kesatib qo 'ydi brigadir.*
- *Menga qarang, g 'o 'zalarning tubidan ushlab qattiqroq silkitsak, shirasi to 'kilib ketmasmikin-a?*
- *Hazilingizni qo 'ysangiz-chi, o 'rtoq agronom.*
- *G 'o 'zaning ustidan chelaklab suv quysak, shirasini yuvib ketadi-ku. Ha, albatta, shunday qilamiz. Shunday! –dedim hovliqib.*

*Murodxon aka dalani boshiga ko 'tarib xoxolab kulib yubordi. Demak, u meni hazil qilyapti, deb o 'ylamoqda. Hazil bo 'lsa, bo 'laqolsin, dedimda, o 'zim ham qiqirlab kulaverdim.*



### 2-amaliy ish.

1. “Hol ergash gapli qo‘shma gaplarda havola bo‘laklarning real va noreal qo‘llanishi” masalasiga doir nazariy qarashlarga munosabat bildiring.
2. Quyidagi jadvalga hol ergash gapli qo‘shma gaplarning havola bo‘lak ishtirokiga ko‘ra turlarini qayd eting.

Nº	Hol ergash gapli qo‘shma gaplarning havola bo‘lak ishtirokiga ko‘ra turlari	Bir havola bo‘lakli hol ergash gapli qo‘shma gaplar	Ikki havola bo‘lakli hol ergash gapli qo‘shma gaplar

### 3-amaliy ish.

1. Berilgan misollardan hol ergash gapli qo‘shma gaplarni ajrating va turini belgilang.

2. "Hol ergash gapli qo'shma gap turlari" mavzusida ilmiy axborot yozing.

**1-variant.** 1. *Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda borardi* (O'.Hoshimov). 2. *Yuzingni bir ko'ray desam, qo'lingni pardalar qilding* (Zulfiya). 3. *Yig'ilish kechiktirilsa kerak, boshqarmada Rahmatqulov ham ko'rinnadi* (A.Muxtor). 4. *Oppoq nozik yuzi quyoshda shu qadar tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaratilganday* (Oybek). 5. *Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi, ishqingiz qora kiymas edi* (Oybek). 6. *Har kun ortar ko'zlarimda nur, shuning uchun yo'q aslo y'anim* (H.Olimjon). 7. *Siz diniy ta'limotga qanday ishonsangiz, men ilmiy ta'limotga shunday ishonaman* (G'.G'ulom).

**2-variant.** 1. *Qayerdaki bu mutanosiblik buzilsa, u yerda fojia kelib chiqadi* (S.Siyoyev). 2. *Chaqmoqday otlarda sersavlat beklar ucharkan, uning ko'zlarida havas, hasad yonib ketardi* (Oybek). 3. *Qachon bolalari kelsa, o'shanda kampirning uyi to'ladi* (S.Ahmad). 4. *Xonangiz, qanday tashlab ketgan bo'lsangiz, shunday turibdi* (S.Ahmad). 5. *U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha lovullab yonardi* (Oybek). 6. *Qunchalik omading yurishsa, shunchalik seni jini suymaydiganlar ko'payadi* (N.Qobul). 7. *Nazokat ishingizga ko'maklashmoqchi ekan, yursand bo'lishingiz kerak* (S.Ahmad).

**3-variant.** 1. *Asar yozishga o'tirdimi, tamom, boshqa narsani unutadi* (S.Ahmad). 2. *Konvert ustidagi adreslar ham, ism, familiyalar ham shunday chiroyli qilib yozilganki, har qanday kishining havasi keladi* (R.Fayziy). 3. *Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko'p ediki, so'rab oxiriga yetolmasday ko'rindi* (A.Muxtor). 4. *Oppoq nozik yuzi quyoshda shu qadar tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaratilganday* (Oybek). 5. *Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichlab borishga to'g'ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim* (Oybek). 6. *Hamkorlikda shunday hosil yetkazaylikki, balli – desin tinchliksevar butun odamzod* (G'.G'ulom). 7. *Gaplar eshitilmasa-da, martenchilar bir-birlarini anglar edilar* (A.Muxtor).



**4-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagi qaydlaringiz asosida “Hol ergash gapli qo‘shma gaplarda polisemiya” masalasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtiring.

Nº	Hol ergash gapli qo‘shma gaplarda mazmuniy munosabat ko‘rinishlari	Misollar

**5-amaliy ish.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan darslikda (A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2010, 3-k.) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**203-mashq.** Matnni o‘qing. Ergash gapli qo‘shma gaplarni toping. Har birini yozib bo‘lganingizdan so‘ng uning chizmasini chizing. Ergash va bosh gaplarni aniqlang.

**Namuna:** *Siz shuni unutmangki, yomon illatlar hamisha kulfat keltiradi.*

**Bosh gap                  -ki,                  ergash gap**

### **Qimorbozlik illati**

*Bu o‘yinga mubtalo bo‘lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasan, oz fursatda bor-yo ‘g‘ingni, hurmat va obro ‘yingni qo‘ldan boy berasan. Har ishning chegara va andozasi bor bo‘lsa ham, qimor chegara va andozadan tashqaridir. Har ayb dengizining qirg‘og‘i, sohili bo‘lsa ham, ammo qirg‘oqsiz, sohilsiz ayb dengizidir. Har kimning turmush kemasi bu ayb dengizining to‘foni po‘rtanasiga duchor bo‘lsa, shubhasiz, g‘arq bo‘lib, yo‘qlik dunyosiga ketadi. Kimki qimmatli umrni buzuq ishlarga sarf qilsa, behuda ishlar bilan hayosizlik kamarini bog‘lasa, bu aqlga muvofiq emas. Odam o‘jar nafs otini qamchilamasin deb, donishmandlar juda ko‘p nasihatlar bitibdur.*



## 6-amaliy ish.

1. “Hol ergash gapli qo’shma gaplarda havola bo‘laklarning real va noreal qo’llanishi” masalasiga doir nazariy qarashlarga munosabat bildiring.

2. Quyidagi jadvalga hol ergash gapli qo’shma gaplarning havola bo‘lak ishtirokiga ko‘ra turlarini qayd eting.

Nº	Hol ergash gapli qo’shma gaplarning havola bo‘lak ishtirokiga ko‘ra turlari	Bir havola bo‘lakli hol ergash gapli qo’shma gaplar	Illi havola bo‘lakli hol ergash gapli qo’shma gaplar



7-amaliy ish. Mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni nivollarga javob berish orqali sinab ko‘ring.

1. Hol ergash gapli qo’shma gaplar qanday tasniflanadi?
2. O‘rin va payt ergash gapli qo’shma gaplar sintaktik jihatdan qanday shakllanadi?
3. O‘lchov-daraja va chog‘ishtirish-o‘xshatish ergash gapli qo’shma gaplar qanday sintaktik tuzilishga ega?
4. Maqsad ergash gaplar nima sababdan shartlanganlik munosabatini ifodalovchi qo’shma gaplar tarkibiga kiritiladi?
5. Ravish ergash gapli qo’shma gaplar sintaktik jihatdan qanday shakllanadi?

6. Natija ergash va to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar qanday sintaktik tuzilishga ega?
7. Havola bo'laklarning ishtirokiga ko'ra hol ergash gapli qo'shma gaplar qanday tasniflanadi?
8. Sabab ergash gaplar nima sababdan shartlanganlik munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar tarkibiga kiritiladi?
9. Shart ergash gapli qo'shma gaplar qanday sintaktik tuzilishga ega?
10. Natija ergash gaplar nima sababdan shartlanganlik munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar tarkibiga kiritiladi?
11. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning qanday turlari havola bo'laksiz qo'shma gaplar sanaladi?
12. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning qanday turlarida bosh gaplar sinsemantik xususiyat kasb etadi?



### UYGA VAZIFA

1. Badiiy asarlardan hol ergash gapli qo'shma gaplarga 10 ta misol topib ko'chiring va ularning semantik turlarini belgilang.
2. Ilmiy manbalar tahlili asosida "Hol ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi" masalasiga munosabat bildiring.
3. Badiiy asarlardan havola bo'laklar qatnashgan 8 ta hol ergash gapli qo'shma gap topib ko'chiring va sintaktik tahlil qiling.
4. "Hol ergash gapli qo'shma gaplarning turlari" mavzusida ilmiy axborot yozing.

## BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

**1-amaliy ish.** Qismlari ohang yordamida bog'langan quyidagi qo'shma gaplarda qanday mazmuniy munosabat ifodalanganini aniqlang.

1. *Yuragida qanday dard bor – mana bu menga sir* (Oybek).
2. *Ona o'ngga qaradi, ona chapga qaradi* (T.Murod).
3. *Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi, daryo shovullaydi* (O'.Hoshimov).
4. *Mast keldi – past keldi* (Maqol).
5. *Sidiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi* (A.Qahhor).

### 2-amaliy ish.

1. Quyidagi maqollarni davom ettirib, qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplarni hosil qiling. Ularning bog'langan va ergashgan qo'shma gaplardan farqini tushuntiring.

2. Ushbu maqollarda qo'llangan tinish belgilarining ishlatilish sababini izohlang.

**1-variant.** 1. *Kelmoq ixtiyor bilan...* 2. *Bilmagandan bilgan yaxshi ...*  
3. *So'raganning bir yuzi qora...* 4. *O't bilan o'ynashmoq tentakning ishi...*  
5. *Qanoat aylagan shohi jahondir...* 6. *So'z aytganda bilib ayt...* 7. *Erni er qilgan ham xotin...* 8. *Birlashgan daryo bo'lur...*

**2-variant.** 1. *Aytar so'zni ayt...* 2. *Yurgan – daryo...* 3. *Topgan gul keltirar...* 4. *Befoyda so'zni aytma...* 5. *Har narsaning yangisi yaxshi...*  
6. *Har gapga kulma...* 7. *Yo'g'on cho'ziladi...* 8. *Holvani hokim yer...*

**3-variant.** 1. *Xashakdan xasham bichma...* 2. *Til – aql xazinasining qilichi...* 3. *Soyning suvini bahor toshiradi...* 4. *Har yerni qilma orzu...*  
5. *Yaxshi so'zga uchar qushlar el bo'lar...* 6. *Ajralganni ayiq yer...* 7. *Har bir so'zni bilib ayt...* 8. *Bor maqtansa topilur...*



**3-amaliy ish.** Jadvalni to‘ldiring. Jadvaldagи qaydlaringiz asosida “Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda mazmuniy munosabat” masalasiga munosabat bildiring.

No	Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda mazmuniy munosabat

**4-amaliy ish.** “Ota-onam o‘gitlari” mavzusida ma’rifiy matn yozing. Eslab ko‘ring, ota-onangiz sizga qanday o‘gitlar bergen? Matnni yozishda bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan foydalaning. Matnda qo‘llagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning sintaktik tuzilishini belgilang.



**5-amaliy ish.** Slayd kataklarini to‘ldiring. Slayd yordamida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda aks etgan mazmuniy munosabatlar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtiring.



**6-amaliy ish.** Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning quyidagi turlariga misollar keltiring. “Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning mazmuniy tuzilishi” mavzusida ilmiy axborot yozing.

1. Shart mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar:
2. To‘siksizlik mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar:

3. Sabab yoki natija mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar:

4. Oldingi qismning izohini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar:



### 7-amaliy ish.

“N” dan “N” gacha” boshqotirmasini yeching. Boshqotirmada yashiringan so‘zlar ishtirokida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tuzing.

1.	N		N					
2.	N			N				
3.	N			N				
4.	N			N				
5.	N			N				
6.	N			N				
7.	N				N			
8.	N				N			
9.	N				N			
10.	N				N			
11.	N					N		
12.	N					N		
13.	N					N		
14.	N						N	
15.	N						N	
16.	N						N	
17.	N						N	
18.	N						N	

1. Xamirdan tayyorlanib tandirda pishiriladigan yegulik.
2. Aylanma barabanli to‘pponcha.
3. Nima uchun?
4. Belgi, iz.
5. Pinhon, yashirin.
6. Tanbur, sato va doira chalish uchun ishlataladigan maxsus metall moslama.
7. Erta bahorda, aprelda yog‘adigan yomg‘ir.
8. Naqsh bilan bezatilgan.
9. Quyoshdan keyin 8-o‘rindagi katta sayyora.
10. Kuch-quvvati kam, zaif.
11. To‘satdan, birdan.
12. Intizor bo‘lib kutuvchi.
13. Qaddi-qomati kelishgan va go‘zal.
14. Boshqalariga qiyosan.
15. Giyohvandlik bilan kasallangan shaxs.
16. Gullari mayda to‘pgul, manzarali o‘simlik.
17. O‘tkir hidli, qattiq oq kristall modda (kuyadori).
18. Nur sochuvchi, porloq.

**8-amaliy ish.** 10-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (N.Mahmudov, A.Sobirov, Y.Odilov, G.Ziyodullayeva. Ona tili. 10-sinf. – Toshkent, 2017) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**103-mashq.** Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni bog‘lovchili qo‘shma gaplarga aylantiring, mazmuniy munosabatning aniq ifodalanishiga e’tibor bering.

1. *Kunduz kunlari bog‘larga sho‘ng‘ib ketamiz: sababi urush, bog‘lar qarovsiz qolgan...* 2. *O‘tmish tajribamdan bilaman: bunaqa xat olgan birorta qiz-juvon rad etgan emas!* 3. *Matluba ... musobaqaga yig‘ilgan olomonni ko‘rib hayratda goldi: odamning ko‘pligidan keng maydonga tanga tashlasa yerga tushmas edi.* 4. *Matluba darrov sezdi: rashk qilishyapti!* 5. *Qizlarning rashk qilishi bejiz emas: xushqad, kelishgan Samig‘jon o‘yinda ham ustasi farang edi.* 6. *Birdan bir tilagim: olib keting men sho‘rlikni!* 7. *To‘satdan yana nog‘oralar gumburlaydi, otlar kishnaydi.* 8. *Yasovul chiqadi, chodirga qop orqalagan ikki sipoh kirib, qoplarni yerga tashlashadi* (O.Yoqubov).



**9-amaliy ish.** Mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. An’anaviy sintaksisda qanday qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar sifatida talqin etildi?
2. Qaysi tilshunos olimlar tomonidan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar maxsus tadqiq etildi?
3. Ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar qanday sintaktik tuzilishga ega?
4. Qanday tuzilishdagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda shart-payt va sabab-natija munosabati ifodalanishi kuzatiladi?
5. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplardan qanday belgilari asosida farqlanadi?
6. G‘Abdurahmonov bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning qanday mazmuniy turlarini ajratadi?
7. Qiyoq munosabatini ifodalaydigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda qanday voqelik aks etadi?

8. Izohlash munosabatini ifodalaydigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda qanday voqelik aks etadi?

9. M.Asqarova bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tarkibiy qismlarning o‘zaro munosabatiga kora qanday turlarga ajratadi?

10. Qanday turdagи bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda o‘xshatish va to‘siqsizlik munosabati ifodalanadi?

11. Payt munosabatini ifodalaydigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda qanday voqelik aks etadi?

12. Qanday turdagи bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda zidlik, chog‘ishtirish, qiyoslash mazmuniy munosabatlari aks etadi?



### UYGA VAZIFA

✓ Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tuzilishidagi o‘zbek xalq maqollariga 8 ta misol toping. Bunday gaplarda tinish belgilarining qo‘llanilishi to‘g‘risida ilmiy xulosa yozing.

✓ Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning turli ilmiy qarashlar asosidagi semantik tasnifini umumlashtirib, o‘z munosabatingizni yozma tarzda bayon qiling.

✓ G‘.G‘ulom asarlaridan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga 8 ta misol topib ko‘chiring va ularning mazmuniy tuzilishiga izoh bering.

### MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR



1-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo‘shimcha ma’lumotlar
Murakkab qo‘shma gaplar		
To‘g‘ridan-to‘g‘ri ergashish		
Ketma-ket ergashish		



**2-amaliy ish.** Slayd kataklarini to‘ldiring. Slayd qaydlari asosida murakkab qo‘shma gaplar tasnifi haqidagi nazariy qarashlarga o‘z munosabatingizni bildiring.



**3-amaliy ish.** O‘zbek tilshunosligida murakkab qo‘shma gaplarning tasnifi masalasiga oid mavjud ilmiy qarashlarga o‘z munosabatingizni bayon qiling. “Murakkab qo‘shma gaplarning tasnifi” mavzusida ilmiy xulosa yozing.


**4-amaliy ish.** Berilgan murakkab qo‘shma gaplarning turlarini aniqlang va qurilish chizmasini belgilang. Murakkab qo‘shma gaplarning turlari bo‘yicha umumlashma xulosalar chiqaring.

**1-variant.** 1. *Biz borganda, jami tomlarga pichan uyulgan, yomg‘ir yog‘ib o‘tgan payt edi, pichanlar sap-sariq* (Sh.Xolmirzayev). 2. *Yo‘lchi "do‘ppi bozor" dan aravani arang olib o‘tdi: bu yerda ur-tiqilinch, ko‘pchiligi xotinlar* (Oybek). 3. *Ob-havo o‘zgaruvchan bo‘lib qoldi: goh yomg‘ir yog‘adi, goh quyosh chiqadi, goh birpasda osmonni bulut qoplab oladi* (“Yoshlik”). 4. *Nazokat uning ovozini eshitmadi, chunki xayoli Po‘latjonda, ko‘zi uzoqlarda yongan chiroqlarda edi* (S.Ahmad).

**2-variant.** 1. *Ko‘p o‘tmay yana qo‘ng‘iroq jarangladi, yana hamma eshiklar ochildi, yana atrof xushchaqchaq g‘ala-g‘ovurga to‘ldi* (P.Qodirov). 2. *Shuni aytmoqchi bo‘lamanki, u vaqtida kambag‘al non deb*

*bosh ko 'tarsa, boy, mushtumzo 'r qon deb bosh ko 'tarar edi* (A.Qahhor). 3. *Shunday hayot tug 'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan* (A.Muxtor). 4. *El yasharmas, yer ko 'karmas, bo 'lmasa ko 'k tomchisi; qaydan olsin she 'rni shoir, bo 'lmasa ilhomchisi* (A.To'qay).

**5-amaliy ish.** Berilgan chizmalarga muvofiq keluvchi murakkab qo'shma gaplar tuzing. Tuzgan murakkab qo'shma gaplaringizni sintaktik tahlil qiling.



**6-amaliy ish.** Berilgan matndan murakkab qo'shma gaplarni aniqlang va qurilish chizmasini belgilang. Murakkab qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qiling.

*Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko 'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko 'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa, xotini, onasi, bolalari dod solib o'tirishibdi, Xadicha og 'ir oyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo 'lib, bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko 'cha eshik lang ochiq, yong 'oqqa bog 'log 'liq sigir yo 'q.*

(O'.Hoshimov. "Urushning so'nggi qurbanoni")

### 7-amaliy ish.

1. Berilgan matndan murakkab qo'shma gaplarni aniqlang va qurilish chizmasini belgilang.

2. Murakkab qo'shma gaplar bo'yicha egallagan bilimlaringizni yodga oling.

— *Shoshmang, yana bir narsani aytib beray, buni cho pchak deysiz, lekin o'ngkay chin so'z. Boy yaxshi ovqatlarni – palov, norin, qazi-qartani yemas ekan. Palov me'damga mixdek qadaladi, qazi-qarta mijozimga to'g'ri kelmaydi, der ekan. Albatta, hammasi bahona. Har kuni yovg'on xo'rda, so'k oshi qildirar ekan. O'g'li – xo'jayinim – uylangandan keyin, ro'zg'orni yaxshilab, ovqatlarni mo'l-ko'l qila boshladidi. Lekin juda yashirin. Otasining pulidan o'g'irlab, xarajat qilaveribdi-da. O'zлari shiringina taom pishirib yeb, kechqurun boyga g'ozi yo'q, suyuq osh tayyorlab qo'yishar ekanlar.*

(Oybek. "Qutlug' qon")

### 8-amaliy ish.

1. Ergash gaplarning uyushib kelgan quyidagi turlari asosida bir necha ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiling.

2. Tuzgan misollaringiz asosida ergash gaplarning uyushib kelishi masalasi yuzasidan ilmiy xulosa yozing.

**1-variant.** Ega va kesim ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.

**2-variant.** Aniqlovchi va to'ldiruvchi ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.


**3-variant.** Payt va sabab ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.

**9-amaliy ish.** Berilgan murakkab qo'shma gaplarning turini aniqlab, qurilish chizmasini chizing va sintaktik tahlil qiling.

1. *Shuni ma'lum qilmoqchimanki, agar yerga o'z vaqtida ishlov berilsa, hosilning unumi ortadi va biz rejani bajarishga muvaffaq*

*bo'lamiz. 2. Bahor kelsa, kunlar isiydi; kunlar isib ketsa, maysalar nish ura boshlaydi; tabiat yam-yashil tusga kirib, dillar quvonchga to'ladi. 3. Shuni bilingki, muammolarimiz ko'p; agar birlashsak, uning yechimi tez hal bo'lishi mumkin. 4. Uning ko'rinishi bir ahvol edi, negaki ko'zlarini kargan, kaltakdan boshlari yorilgan, qo'li singan edi, ammo tili qurg'ur tiyilmas edi.*

**10-amaliy ish.** Murakkab qo'shma gaplarning quyida berilgan qurilish chizmalariga muvofiq keluvchi gaplar tuzing. Tuzgan misollaringiz asosida murakkab qo'shma gaplarning turlari masalasi yuzasidan ilmiy xulosa yozing.



**11-amaliy ish.** Quyidagi o'zbek maqollarini davom ettirib, murakkab qo'shma gaplarni hosil qiling. Ularning tuzilishiga ko'ra turini belgilang. Maqollarda qo'llangan tinish belgilarining ishlatilish sababini izohlang.

**1-variant.** 1. *Ustozingga tik qarasang, to'zasan...* 2. *O'roqda yo'q, mashoqda yo'q ...* 3. *Til bor, bol keltirar...* 4. *"Ha" dedim, tutildim ...* 5. *Har kimni bilay desang, so'zini o'rghan ...*

**2-variant.** 1. *O'qish bilmasang, uqib ol, qizim...* 2. *Qanoat qil, bo'lsa uyingda yorma ...* 3. *Qo'shning yomon bo'lsa, yomonlik kelar ...* 4. *Qayrag'och qalin bo'lsa, yomg'ir o'tmas ...* 5. *Yo'lda yoursang, tuya ishlat...*

**3-variant.** 1. *Do'sting bo'lsa, bog'ing chamadir ...* 2. *Kamtar bo'lsang, osh ko'p ...* 3. *Bog'ga boqsang bog' bo'ladi ...* 4. *Tovuqni yesang, bir yeysan...* 5. *Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang ...*



### 12-amaliy ish.

Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. Qaysi tilshunos olim murakkab qo'shma gaplar tadqiqi ustida izlanish olib borgan?
2. O'zbek tilshunosligida murakkab qo'shma gaplar qaysi jihatdan tasniflanadi?
3. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi?
4. Aralash turdag'i murakkab qo'shma gaplar sintaktik jihatdan qanday shakllanadi?
5. Qismlari tobelanish yo'li bilan birikkan murakkab qo'shma gaplar qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?
6. Bir necha bosh gapli qo'shma gaplar qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi?
7. Qismlari faqat tenglanish yo'li bilan birikkan murakkab qo'shma gaplar qanday shakllanadi?
8. Murakkab qo'shma gap qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida birikadi?

9. Tarkibiy qismlari ham bog'lanish, ham ergashish yo'li asosida birikkan murakkab qo'shma gaplarning qanday ko'rinishlari mavjud?

10. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida ergash gaplar va bosh gap qanday tartibda o'rinalashadi?


11. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplardan qanday farqli va umumiy belgilarga ega?



### UYGA VAZIFA

1. O'zbek xalq maqollaridan berilgan chizmalarga muvofiq keluvchi qo'shma gaplarni topib ko'chiring.

2. Tuzgan misollaringiz asosida bir necha bosh gapli va bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplarning sintaktik tuzilishi bo'yicha ilmiy xulosa yozing.



**"Uyushgan gaplar"** mavzusida ilmiy ma'lumot yozing.

1. An'anaviy sintaksisda belgilangan ergash gaplarning uyushib kelgan quyidagi ko'rinishlari asosida bir necha ergash gapli qo'shma gaplar tuzing:

a) o'Ichov-daraja va chog'ishtirish-o'xshatish ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar;

b) sabab, maqsad, payt ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar;

c) o'rinni, shartni, to'siqsiz ergash gaplar uyushib kelgan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.

## O'ZGA GAPLI QURILMALAR



**1-amaliy ish.** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergen qo‘sishimcha ma’lumotlarni 3-ustunga qayd eting.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo‘sishimcha ma’lumotlar
<i>Ko‘chirma gap</i>		
<i>Mualif gapi</i>		
<i>O‘zlashtirma gap</i>		

**2-amaliy ish.** Ko‘chirma gapli qurilmalarning quyidagi qurilish chizmalariga mos gaplar tuzing! Tuzgan gaplaringiz asosida “Ko‘chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining qo‘llanishi” mavzuda ilmiy ma’lumot yozing.

### 1-variant.

1. M: “K!”
2. M: “K?”
3. “K, – m, – K”
4. M: “K!” – m.

### 2-variant.

1. “K!” – m.
2. “K?” – m.
3. “K! – m, – K!”
4. M: “K?” – m.

### 3-variant.

1. “K!” – m.
2. “K, – m, – k”.
3. M: “K”, – m.
4. “K. – m. – K.”

**3-amaliy ish.** Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidan olingan quyidagi gaplarni ko‘chirma va muallif gaplariga ajrating. Ushbu gaplar tahlili asosida “Ko‘chirma gapli qurilmalarda ko‘chirma va muallif gapining o‘rinlashuvi” masalasini yoriting.

## **1-variant.**

1. – Zarur bo'lsa, so'rang, men topib beraman, xo'pmi? – Juda zarur bo'lsa, bu boshqa gap, - Shokir ota duo qilib, yana minnatdorchilagini bildirdi. 2. Yo'lchi yengil eshikchani ochib kirdi: – Assalom. Hormang, ota! 3. – Ayam mehnatkash, jafokash xotin, – e'tiroz tariqasida gapirdi Yo'lchi, – unday yengil, guvillagan ayol emas. 4. Yo'lchi kirishi bilan vaziyatni buzmasdan salmoqlanib dedi: – Kel, qo'zim, nima ishing bor? 5. Yo'lchi o'g'limning qoni qutlug', uni yuzga, ko'zga surish kerak... – chuqur xo'rsinib davom etdi chol, – kuyma, qizim.

## **2-variant.**

1. – Sizda qanday keki bo'lsin! – hayron bo'lib dedi Yo'lchi. 2. – Bo'ladi. Ko'zdan yo'qolgani yaxshi ... – dedi ellikboshi. – Olimjon aka, oling shu ishni. 3. – Boyvachcha, – jiddiy ravishda gapira boshladi ellikboshi, – bu tadbirdingiz ko'p yaxshi samaralar beradi... 4. Mirzakarimboy bog'ni aylanib, bir yerda to'xtadi va kulib: Ishga tobining bormi, jiyan? – dedi. – Ishga chanqovmiz-da, – deb javob berdi Yo'lchi. 5. – Qizim, jonim qizim, – yig'i aralash gapirdi chol, – san ko'p o'rtanma.

## **3-variant.**

1. – Nuri opa, zerikmadingizmi? – dedi tanchaga o'tni ag'darib Gulnor. 2. – Ota, – dedi Yolchi cholga borib, – rahmat sizga, lekin zaharini solgan ilonga yalinish yaramaydi! 3. Bir necha minut so'zlashgandan so'ng Yo'lchi so'radi: – Unsin, bu oila qalay? Ketasanmi, yo bu yerda qola turasanmi? 4. Olimxon aka, sizga hammamiz qoyilmiz, – dedi boyvachcha, – asli risoladagi ellikboshisiz. 5. Kimdir uni quchoqlab, peshanasini silab qichqirdi: – Yo'lchiboy! Og'ang o'lsin! Voy qadrdonim, jigaram.

**4-amaliy ish.** Quyidagi nutq fe'llari ishtirokida ko'chirma gapli qurilmalar tuzing. Tuzgan gaplaringiz asosida “Ko'chirma gapli qurilmalarning kesimi” mavzusida ilmiy ma'lumot yozing.

**1-variant.** *Qichqirmoq, shivirlamoq, so'zlamoq, chinqirmoq, iltimos qilmoq.*

**2-variant.** *To'ng'illamoq, bayon qilmoq, demoq, xabar qilmoq, aytmoq, demoq.*

**3-variant.** *Baqirmoq, gapirmoq, yolvormoq, aytmoq, javob bermoq, so'ramoq,*

**5-amaliy ish.** A.Qahhorning “Bemor” hikoyasidan olingen ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring. Ko‘chirma gapli qurilmalarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirganda yuzaga keladigan o‘zgarishlarga izoh bering. Ushbu matn tahlili asosida “Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirishda yuzaga keladigan shakliy o‘zgarishlar” masalasiga munosabat bildiring.

1. – *Devonayi Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsu-la'zamgachi?* –*Sotiboldi ketdi.* 2. *Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni!* –*dedi.* 3. *Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatganicha duo qildi:* –*Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...* 4. “*Chilyosin*” dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi: – *Xudo qizimning sahrlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi.* 5. *Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg'ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:* – *Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...*

**6-amaliy ish.** “*Donolar deydilarki...*” mavzusida ma'rifiy matn tuzing. Matnda o‘zlashtirma gaplardan foydalaning. Tuzgan matningiz asosida o‘zlashtirma gaplarning sintaktik tuzilishi haqida ma'lumot bering.

**7-amaliy ish.** X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan olingen ushbu matnni ko‘chirma gaplardagi tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring. Matndagi ko‘chirma gapli qurilmalarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.

### **1-variant.**

*Hoshim, deb chaqiradi oyim ba'zan.*

– *Labbay, oyijon!*

– *Tomdan o'tin tashlab bergin.*

– *Xo'p bo'ladi, oyijon, deyman-u, sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:*

*Oysha! – deb qichqiraman.*

– *Labbay, akajon!*

– *Tomdan o'tin tashlab bergin.*

– *Xo'p bo'ladi, akajon, – deydi Oysha.*

*Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqiniga musht kelib tushadi.*

*Ishqilib oyimning gapini hech yerda qoldirmayman.*

### **2-variant.**

– *Shunday qilib, Orif deb qichqiraman.*

– *Nima deysan, – deydi Orif uylaridan turib.*

– *Chiq, dars tayyorlaymiz.*

– *O'zing chiqa qol.*

*Orif meni chaqirayotganini oyim eshitsin deb, jo'rttaga qayta so'rayman:*

– *Nima deding?*

– *O'zing chiqa qol deyapman, nima, qulog'ing karmi?*

*Papkani ko'tarib, sekin "quyon" bo'lib qolaman.*

### **3-variant.**

*Mana bugun ham shunga o'xshash rejalar tuzib, Orifni chaqiraman deb endigina kekirdagimni cho'zayotgan edim, oyim Hoshim, deb chaqirib qoldi.*

– *Labbay, oyijon!*

– *Nega tovuqlarga don bermading?*

*Rost, oyim ertalab tovuqlarga don berib qo'ygin, deb tayinlab ketgan edi. Butunlay unutgan ekanman. Endi nima qildim-a...*

– *Nima dedingiz, oyijon?*

– *Nega tovuqlarga don bermading deyapman, nima, qulog'ing devorning ostida qolganmi?*

– *Ovqatini o'zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo 'rlik qilishadi, deb gapni chalg 'itmoqchi bo 'ldim.*

**8-amaliy ish.** 9-sinf uchun tuzilgan “Ona tili” darsligida (N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov. Ona tili. 9-sinf. –Toshkent: Tasvir, 2014) berilgan quyidagi mashqni bajaring.

**196-mashq.** Ko‘chirma va muallif gapini aniqlab, tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. *Odob o'rgatsalar quloq sol deydi Yusufiy Birov odob o'rgatsa, o'rganmagagan kishi hayvon kabidir.* 2. *Alisher Navoiy deganlar Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdan qaytma.* 3. *Navbat o'ziga kelganda ayvondan turib Maxdum baqirdi Ra'no akangning qo'liga suv quy* (Abdulla Qodiriy). 4. *Ha dedi Nafisa qat'iy qilib aytmoqchi emas edim, endi aytadigan bo'ldim* (Asqad Muxtor). 5. *Anvarjon ukam dedim unga Siz o'sishingiz kerak.* (Said Ahmad). 6. *Otingiz nima edi, singlim? dedi qo'liga ruchka olib, dastxat yozishga chog'lanar ekan O'lmas* (Said Ahmad). 7. *Kenjatoyingiz qani? deb so'radi. Yordam bersa bo'lmasmidi?* (O.Yoqubov)



**9-amaliy ish.** Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni savollarga javob berish orqali mustahkamlang.

1. O‘zbek tilshunosligida ko‘chirma gapli qurilmalar tadqiqini qaysi tilshunos olim amalga oshirgan?
2. Ko‘chirma gapli qurilmalar sintaktik jihatdan qanday shakllanadi?
3. Ko‘chirma gapli qurilmalar tarkibida ko‘chirma gap va muallif gapi qanday tartibda o‘rinlashadi?
4. O‘zlashtirma gaplar qanday hosil qilinadi?
5. So‘roq va biyruq shaklidagi ko‘chirma gapli qurilmalar o‘zlashtirma gapga qanday aylantiriladi?

6. O'ziniki bo'limgan o'zga gapli qurilmalar qanday xususiyatga ega?
7. Ko'chirma gapli qurilmalarni o'zlashtirma gapga aylantirishda munllif gap tarkibidagi gap bo'laklari qanday shakliy o'zgarishlarga uchraydi?
8. Undov gap, atov gap, ritorik so'roq gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish mumkinmi? Misollar keltiring.
9. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirishda ko'chirma gap fe'l-kesimining shaxs-son shakli qanday o'zgarishlarga uchraydi?
10. Tematik, chog'ishtirma va bilateral o'zga gapli qurilmalar qanday xususiyatga ega?
11. Ko'chirma gapli qurilmalarda qanday tinish belgilari qo'llanadi? Tinish belgilarining qo'llanish tartibini tushuntiring.
12. Qo'shma gap shaklidagi ko'chirma gapli qurilmalar o'zlashtirma gapga qanday aylantiriladi?



### UYGA VAZIFA

- ✓ Ko'chirma gapli qurilmalar tadqiqiga oid ilmiy manbalarni tahlil qiling va o'z munosabatingizni yozma bayon qiling.
- ✓ She'riy asarlardan 10 ta ko'chirma va o'zlashtirma gap tanlab ko'chiring va qurilish chizmalarini belgilang.
- ✓ Ko'chirma gapli qurilmalarning uslubiy xususiyatlari to'g'risida ilmiy ma'lumot yozing.
- ✓ A.Yassaviy, A.Navoiy, Arastu hikmatlaridan topib, ko'chirma gapli qurilma shaklida yozing.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
3. Абдураҳмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Уқитувчи, 1996. – 247 б.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Уқитувчи, 1995. – 230 б.
5. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 292 б.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 256 б.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Абдуллаева Д. Семантик - синтактик валентлик ва ўзга гапли курилмалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 22 б.
2. Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 23 б.
3. Абдусаматов Р. Ўзбек тилида гап бўлакларининг ноамалий мавқеи масаласи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 23 б.
4. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 21 б.
5. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрый асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний

хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 23 б.

6. Ақрамов Ш., Бошмонов М., Мамадиева М. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис) фанидан конспектив курс. 1- к. – ФарДУ, 2004.

7. Ақрамов. Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. ([WP<sub>m</sub>] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. - 21 б.

8. Аскарова М., Мухамедова Д., Дусанов Н. Синтаксис бўйича методик кўрсатмали мустақил ишлар. 4-к. – Тошкент, 2005.

9. Асадов. Т. Сўз туркumlари тизимида равиш: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

10. Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик–коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.

11. Бердиалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактикалоқ ва синтактика муносабатлар. – Тошкент, 1993.

12. Бердиалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактикалоқ ва синтактика муносабатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 112 б.

13. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шикланган сўз- гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 19 б.

14. Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

15. Ганиева Ш. Фразеологизмларни моделлаштириш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. №6. – Б. 111-113.

16. Давлатова Р. М.Юсуф шеъриятида «ўша» олмошининг прагматик таҳлили. // Илмий-назарий ва амалий-услубий анжуман маърузалари. – Навоий, 2014. – Б.14-16.

17. Давлатова Р. Пропозиция ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.
18. Ёров Б. Уюшиқ кесим: унинг зотий (субстансиал) табиати ва гапдаги мавқеи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 23 б.
19. Иноятов С. Ўзбек тилида предикатив муносабат: Филол. фан. номз. .... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.
20. Лутфуллаева Д. Гапни семантик-синтактик қолиплаштириш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2005. - 139 б.
21. Мамажонов А., Розиқова Г. Гапларнинг шаклий–мазмуний тузилишига кўра турлари. – Фарғона, 2004. – 120 б.
22. Маҳматқулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияланиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 50 б.
23. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 147 б.
24. Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. 10-sinf. – Toshkent, 2017. – 110 b.
25. Мирзакулов Т.У. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. .... дисс. – Тошкент. 1994.
26. Мирзакулов Ш.Ў. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси: Филол. фан. номз. .... дисс. автореф. – Самарқанд, 1995. – 21 б.
27. Миртоҷиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.
28. Миртоҷиев М. Гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – 200 б.
29. Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутки услубида гап бўлаклари тартиби: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2000. – 25 б.

30. Мұхаммаджонова С. Ҳозирги ўзбек адабий тилида уюшган гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1999. – 26 б.
31. Назарова Б. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омилилари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 21 б.
32. Нематов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент: Университет, 1999. – 55 б.
33. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.
34. Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988.
35. Ортиқова Н. Гап тузилишида аникловчининг ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2005. – 23 б.
36. Раупова Л. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WP<sub>m</sub>- WP<sub>m</sub>] курилишли гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. - 26 б.
37. Розиқова Г. Ўзбек тилида синтактик полисемия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 26 б.
38. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.
39. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг субстанциал (зотий) талқини. – Тошкент: Фан, 2007.
40. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994. – 357 б.
41. Сайфуллаева Р., ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. II (ўкув кўлланма). – Тошкент, 2005.

42. Тожиев О. Ўзбек тилида от предикатли гапларнинг мазмуний ва синтактик тузилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 30 б.
43. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992.
44. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
45. Турниёзов Н. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1990. – 59 б.
46. Усмонова X. Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позицион структураси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 35 б.
47. Хайруллаев X. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 25 б.
48. Шокирова X. Ўзбек тилида кесимлик категорияси: шахс актантни ва унинг воқеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.
49. Яхшибоев X. Ҳозирги ўзбек тилида содда гап синтактик деривацияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 22 б.
50. Курбонова М. Бош бўлаклар талқинига доир. – Тошкент: Университет, 1998. – 16 б.
51. Курбонова М. Ўзбек тилшунослигига формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.
52. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). – Тошкент: Университет, 2002. – 127 б.
53. Курбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Тошкент. 2004. – 142 б.
54. Ғуломов А. Морфологияга кириш. Аюб Ғуломовнинг илмий мероси (2-китоб). – Тошкент, 2006.

55. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 255 б.
56. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.
57. Ҳайназарова М. Сурок гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1999. – 25 б.
58. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

## MUNDARIJA

<b>SO‘ZBOSHI</b> .....	3
<b>MORFEMIKA</b> .....	5
So‘zning morfem tarkibi .....	5
Morfemalarning turlari .....	10
So‘zning morfem tarkibidagi o‘zgarishlar .....	15
<b>SO‘Z YASALISHI</b> .....	18
So‘z yasalish tarkibi .....	18
So‘z turkumlarida so‘z yasalishi .....	24
Ot yasalishi .....	24
Sifat yasalishi .....	26
Ravish yasalishi.....	28
Fe‘l yasalishi .....	29
<b>GRAMMATIKA</b> .....	333
Grammatik ma’no, grammatik shakl .....	333
Grammatik kategoriya.....	335
<b>MORFOLOGIYA</b> .....	37
Morfologik so‘z shakllari.....	37
So‘z turkumlari.....	37
<b>FE‘L SO‘Z TURKUMI</b> .....	41
Fe‘llarning ma’no turlari .....	43
Fe‘llarning tuzilishiga ko‘ra turlari .....	44

Fe'llarda grammatik kategoriya .....	46
To'liqsiz fe'llar.....	50
Fe'lning vazifadosh shakllari .....	51
Fe'lning morfologik tahlili.....	52
<b>OT SO'Z TURKUMI.....</b>	<b>56</b>
Otlarning ma'no turlari.....	58
Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	61
Otlarda egalik, kelishik, ko'plik shakllari .....	61
Otlarning kichraytirish, erkalash, hurmat shakllari.....	64
Otlarning morfologik tahlili .....	66
<b>SIFAT SO'Z TURKUMI.....</b>	<b>71</b>
Sifatning ma'no turlari .....	72
Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	74
Sifatlarda daraja shakli .....	74
Sifatlarning otlashuvi .....	76
Sifatlarning morfologik tahlili.....	76
<b>SON SO'Z TURKUMI .....</b>	<b>81</b>
Sonlarning ma'no turlari .....	82
Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	84
Hisob so'zları .....	85
Sonlarning morfologik tahlili.....	86
<b>OLMOSH SO'Z TURKUMI.....</b>	<b>88</b>
Olmoshlarning ma'no turlari .....	90

Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari .....	92
Olmoshlarning morfologik tahlili .....	92
<b>RAVISH SO‘Z TURKUMI .....</b>	<b>97</b>
Ravishlarning ma’no turlari .....	98
Ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlari .....	99
Ravishlarning daraja shakli .....	100
Ravishlarning morfologik tahlili .....	101
<b>YORDAMCHI SO‘ZLAR TURKUMI .....</b>	<b>105</b>
Ko‘makchi .....	105
Bog‘lovchi .....	110
Yuklama .....	116
<b>ALOHIDA SO‘ZLAR TURKUMI .....</b>	<b>122</b>
Modal so‘zlar.....	122
Taqlid so‘zlar.....	127
Undov so‘zlar.....	131
<b>SINTAKSIS.....</b>	<b>137</b>
Sintaktik aloqa vositalari va turlari .....	137
Tobe aloqa usullari: moslashuv, boshqaruv va bitishuv .....	141
<b>SO‘Z BIRIKMASI .....</b>	<b>145</b>
<b>GAP QURILISHI HAQIDAGI SINTAKTIK NAZARIYALAR.....</b>	<b>152</b>
<b>GAPLAR TASNIFI.....</b>	<b>157</b>
Gaplarning tuzilish jihatdan turlari .....	158
Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari .....	161

Gaplarning emotsionallikka ko‘ra turlari .....	163
Gaplarning tasdiq va inkor ifodalanishiga ko‘ra turlari.....	165
Eganing ishtirokiga ko‘ra gap turlari .....	166
<b>BO‘LAKLARGA AJRALMAYDIGAN GAPLAR .....</b>	<b>171</b>
<b>GAP BO‘LAKLARI.....</b>	<b>173</b>
<b>BOSH BO‘LAKLAR.</b> Kesim.....	177
Ega.....	180
<b>IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR .....</b>	<b>183</b>
Aniqlovchi .....	183
To‘ldiruvchi.....	186
Hol .....	189
<b>MURAKKABFLASHGAN SODDA GAPLAR .....</b>	<b>194</b>
Uyushiq bo‘laklar .....	198
Ajratilgan bo‘laklar .....	203
Undalma .....	208
Kirish qurilmalar .....	212
<b>TO‘LIQ VA TO‘LIQSIZ GAPLAR.....</b>	<b>217</b>
<b>QO‘SHMA GAP HAQIDAGI SINTAKTIK NAZARIYALAR.....</b>	<b>222</b>
<b>BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR.....</b>	<b>228</b>
<b>ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR.....</b>	<b>234</b>
Ergashgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar .....	234
Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar .....	236
<b>ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLARNING TURLARI .....</b>	<b>240</b>

Ega ergash gapli qo'shma gap.....	240
Kesim ergash gapli qo'shma gap .....	241
To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap .....	242
Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.....	243
Hol ergash gapli qo'shma gaplar.....	245
<b>BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR .....</b>	<b>251</b>
<b>MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR.....</b>	<b>255</b>
<b>O'ZGA GAPLI QURILMALAR.....</b>	<b>262</b>
Adabiyotlar ro'yxati.....	264

**D.LUTFULLAYEVA, R.DAVLATOVA,  
M.SAPARNIYAZOVA**

# **HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar**

*O‘quv qo‘llanma*

*Muharrir N. Artikova*


*Badiiy muharrir K. Boyxo‘jayev*

*Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug‘bekova*

Nashr lits. AI<sup>1</sup> 305. Bosishga ruxsat etildi 29.11.2018.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 16,1.  
Hisob-nashr tabog'i 16,8. Adadi 500.  
25-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60<sup>a</sup>.

“MEHRIDARYO” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 13.



ISBN 978-9943-13-748-6

9 789943 137486